A. VAHOBOV
B. SANAQULOVA

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

VAHOBOV ALISHER VASIQOVICH
SANAKULOVA BARNOGUL RIZAQULOVNA

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«Iqtisod-Moliya»
2013

UO'K: 334.722(075)
KBK: 65.9(5O')09
B 32

Taqrizchilar:

Iqtisod fanlari doktori, professor A.Jo'rayev
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent S.Xudoyqulov

Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. Darslik./ A.V.Vahabov., B.R.Sanakulova. -T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. 388 bet.

Ushbu darslik 5340800 - «Soliqlar va soliqqa tortish» (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) bakalavriat yo'nal ishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining nazariy va amaliy asoslari statistik ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Shuningdek, talabalarning mazkur fan bo'yicha bilimlarini yanada oshirish maqsadida fanga taalluqli hamda bugungi kunda dolzarb bo'lgan masalalar ham atroflicha yoritilgan.

UO'K: 334.722(075)
KBK: 65.9(5O')09

ISBN 978-9943-13-478-2
© «Iqtisod-Moliya», 2013
© A.V.Vahabov., B.R.Sanakulova, 2013

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni turli sohalarda tub islohotlarning amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi bugungi kunda ko'p jihatdan kadrlarning bilim va ko'nikmalariga bog'liqligi bois ta'lim tizimini isloh qilishning keyingi bosqichlarida kadrlar tayyorlash sifatiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, buning samarasi o'laroq ta'lim tizimining joriy davr talablari darajasida ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar yaratilmoqda.

Darslik ta'lim tizimini isloh qilishning keyingi bosqichlari talablaridan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortish mexanizmining nazariy va amaliy jihatlarini hamda bugungi kunda mazkur sohada shiddatli tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni o'zida mujassam etgan. Shuningdek, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini ham isloh qilishni, sohada yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Ma'lumki, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi ko'p jihatdan ularning nazariy hamda amaliy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi. Shu bois kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimining nazariy jihatlarini tadqiq qilish davr talabidir. Darslikda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish masalalari nazariy jihatdan atroflicha o'rganildi hamda amaliy misollar yordamida tahlil etildi. Har bir mavzu so'ngida talabaning olgan bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida «Norma Ekspert» mutaxassislarining eksklyuziv amaliy ishlanmalaridan olingan keyslar va ularning yechimlari keltirildi. Amaliy keyslarni talabalar e'tiboriga havola etish orqali talabalarni bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotida

AXBO ...RS MARKAZI

uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bilan tanishtirish imkoniyati yuzaga keldi.

Darslikda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining tarixiy bosqichlari, soliqqa tortish mexanizmining takomillashuv jarayoni hamda mazkur sohada bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolar ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Talabalarning fan bo'yicha fikrlashi va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida qiziqarli ma'lumotlar, sohaning yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarining fikr-mulohazalari ilmiy ishlaridan namunalar keltirilgan. Talaba har bir o'rganilayotgan mavzuni chuqur o'zlashtirishi va amaliyotda olgan bilimlarini qo'llay olishiga erishish maqsadida, bugungi kunda 10 dan ortiq turli sohalarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari hisobot ma'lumotlari tahlil qilinib, mavzular doirasida ilmiy asoslangan xulosalarga kelingan. Bundan tashqari talabalarning fan bo'yicha bilimlarini yanada kengaytirish maqsadida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etayotgan soliq yuki darajasi ham atroflicha tadqiq etilgan. Aynan kichik biznes subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasidan kelib chiqib, soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari yuzasidan amaliy takliflar talabalar muhokamasiga taqdim etilgan. Soliq yuki darajasini aniqlash yuzasidan 20 dan ortiq uslubiyotlar tahlili amalga oshirilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirishning xorijiy mamlakatlar tajribalari bayon etilgan. Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari tahlili keltirilgan bo'lib, bugungi kunda soliq menejmenti va soliqlarni rejalashtirish tadbirlaridan kichik korxonalar faoliyatiga tatbiq etish yuzasidan fikr mulohazalar keltirilgan. Har bir mavzu so'ngida takrorlash uchun savollar, amaliy masalalar hamda test topshiriqlari, mustaqil o'zlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxati tavsiya etilgan.

I bob. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Reja:

1.1. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining predmeti va oldiga qo'ygan asosiy vazifalari.

1.2. Fanni o'rganishning zaruriyati hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

1.3. Fanni tadqiq etish va uning asosiy manbalari.

Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining predmeti va oldiga qo'ygan asosiy vazifalari



«Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning nazariy jihatlarini, xususiyatlarini o'rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to'xtalishdan oldin «Soliq» kategoriyasiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, «Soliq» kategoriyasi - bu muhim iqtisodiy jarayon bo'lib, uning paydo bo'lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatini moddiy jihatlarini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli, ushbu kategoriyadan har bir davlat tomonidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi. Davlat asta-sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa, soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan

hollarda, uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda, soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Masalan, kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish texnologiya fanining predmeti bo'lib hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasi, kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish fanining predmeti bo'lib esa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortish jarayonida yuzaga keladigan soliq munosabatlari hisoblanadi. Demak, kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish fanining predmeti - bu soliq to'lovchilar bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining majburiy to'lovlar bo'yicha davlat budjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini tadqiq etishdan iborat. Ushbu keltirilgan ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, fan o'z predmetini o'rganishda turli usullarning o'zaro aloqasini nazariy jihatlarini o'rganar ekan. Jumladan, soliq to'lovchilar bo'lib maydonga chiqayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va davlat budjeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining nazariy jihatlari, qirralari chuqur tarzda o'rganiladi.

Fanning mohiyati shu o'rtadagi moliyaviy munosabatni, ya'ni kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish, soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda, tomonlar adolatlilik tamoyiliga amal qilishi zarur. Budjetga soliqlarni undirishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishdan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik va hokazolarga e'tibor berish nazarda tutiladi. Bu yerda tomonlarning o'zaro munosabati bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi.

Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lsa, ikkinchi tomon unga javoban o‘z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo‘llar bilan yashirishga harakat qiladi. Bunday hollarda, har qanday huquqiy hujjatlar amalda ishlamasligi mumkin. Soliq subyektlari o‘z daromadlarini yashirish holati yuz berib, nosog‘lom raqobat muhiti shakllana boshlaydi.

Demak, kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanni o‘rganishning zaruriyati hamda boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

«Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanini o‘qitishdan maqsad, talabalar ongida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, soliq to‘lovchi subyektlardan undirilayotgan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarning huquqiy asoslarini, ular orqali shakllantirilgan davlat budjeti daromadlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni hosil qilish hisoblanadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, fanning vazifalari belgilangan (1.1-rasm).

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishga doir bilimlarni o‘rganish boshqa fanlardan ham xabardor bo‘lishni talab etadi. Jumladan, «Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari», «Soliq nazariyasi», «Moliya», «Soliqlar tarixi», «Soliq menejmenti», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» kabi fanlar shular jumlasidandir. Misol uchun, fanning «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» bilan bog‘liqlik jihati shundan iboratki, agarda «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fani o‘z predmetida asosan jamiyat taraqqiyoti davrlarida ulardagi muammolarni echib berishga qaratilgan turli shaxslarning iqtisodiy fikrlari, g‘oyalari, turli nazariyalarini o‘rgansa, «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani ham o‘z predmetini o‘rganishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish jarayoniga tegishli bo‘lgan turli xil g‘oyalar va nazariyalarni o‘rganadi.



1.1-rasm.

Shuningdek, mazkur fan «Moliya» fani bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki moliya ham, soliq ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Ularning ikkalasi uchun yagona asos, bu pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish o'ziga xos bo'lgan davlat va mazkur subyektlar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarni, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy pul munosabatlarini o'rganadi.

Fanning «Soliqlar tarixi» fani bilan bog'liqlik jihati shundan iboratki, «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanida ham kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari to'laydigan soliqlarning rivojlanish bosqichlari, davrlari, har bir davrda amal qilgan soliqlar, ularning tarkibiy tuzilishi, dinamikasi kabilar o'rganiladi.

«Soliq menejmenti» fani bilan kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortishning bog'liqligi shundan iboratki, soliq menejmentida soliq ishini tashkil etish davlat nuqtayi-nazaridan yoki

davlat miqyosida va korxona miqyosida olinadigan bo'lsa, soliq yukini kamaytirish hamda soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirish mazkur fanning ajralmas qismini tashkil etadi.

Fan shuningdek, «Soliqlar va soliqqa tortish» fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish fani o'z predmetini o'rganar ekan, birinchi navbatda bugungi kundagi mamlakatimiz soliq tizimi bilan hamnafas bo'lishi lozim. Bunda amaldagi soliq mexanizmining nazariy masalalari ochib beriladi.

Fanni tadqiq etish va uning asosiy manbalari

«Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani «Davlat budjeti» fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda budjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa, budjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan «Chet mamlakatlar soliq tizimi», «Buxgalteriya hisobi», «Soliq huquqi» fanlari bilan ham chambarchas bog'liq. Har bir fanning shakllanishi fanning predmetini shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog'liqdir. Har qanday fanni o'rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'z predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun, fanni o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi. Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o'rganishning birdan-bir to'g'ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan, «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko'rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi. Bilish esa oddiydan murakkablikka tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa - bu induksiyadir. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu - deduksiyadir. Shu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy

abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

«Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil – bu o'rganilayotgan butun obyektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo'lsa, sintez esa o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb, qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo'l bilan o'rganiladi.

Fan o'z predmetini o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holat tahlilini amalga oshirishni ham talab etadi. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari to'laydigan soliqlarni nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtayi-nazaridan, ular bilan davlat budjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan, Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari to'laydigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'langan soliqlar va majburiy to'lovlar hajmi o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

Tayanch so'z va iboralar

Soliq, davlat, budjet, soliq to'lovchilar, moliyaviy munosabatlar, dialektik usul, tahlil va sintez usuli, ilmiy

abstraksiya usuli, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil, fanning predmeti, metodlari, obyekti va subyektlari.



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani nima uchun iqtisodiy fanlar tarkibidan o‘rin olgan?
2. Fanni o‘rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering?
3. Fanni o‘rganishdagi alohida usullar haqida tushuncha bering?
4. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish fani o‘z predmetini o‘rganishda qaysi fanlar bilan aloqada bo‘ladi?
5. «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanini o‘qitish nima uchun kerak?
6. «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fani nimani o‘rgatadi, uning qanday vazifalari bor?
7. «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining mazmunida nimalarni o‘rgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?



Mavzu doirasidagi qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 24.01.2003. №PF-3202-sonli farmoni.
2. Karimov I.A. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risidagi 24.03.2003.№PF-3226 sonli farmoni.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 24.01.2003. №PF-3202 sonli farmoni.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 245b.
5. Sey J.B. Traktat politicheskoy ekonomiki. M.: 1985, 55-b.

6. Alayev L.B., Atsamba A.A., Vigasin A.A., Vorobey N.V. i drugie. Vsemirnaya ictoriya ekonomicheskoy misli. V 6 t. M.:Misl,1987. T-1. 84-92 s.

7. Alayev L.B.,Atsamba A.A.,Vigasin A.A.,Vorobey N.V. i drugie. Vsemirnaya ictoriya ekonomicheskoy misli. V 6 t. M.:Misl,1987. T-1. 95-96 s.

8. Alayev L.B., Atsamba A.A., Vigasin A.A., Vorobey N.V. i drugie. Ekonomicheskie vzglyadi Aristotelya. Vsemirnaya ictoriya ekonomicheskoy misli. V 6 t. M.:Misl,1987. T-1.127-135 s.

9. Ahmedov B. Aminova A. Amir Temur o'gitlari..–T.:Navruz, T.: 1992. – 11.

10. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –Toshkent: Sharq, 2002. – 8b.

11. Keyns J. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – Moskva:Ekonomika, 1948. – S. 238-241.

12. Xizrich R., Piters M. Predprinimatelstvo ili kak zavesti sobstvennoe delo i dobitsya uspexa.–M.: Progress, Universitet. 1991. vip.1. – S. 20-25.

13. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress. 1985, 159-b.

14. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks. T-1, M.: 1992, 38-b.

15. Jan Lui Servach-Shreyber. Remeslo predprinimatelya. M.: Mej.ot 1994, 50-b.

16. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov (Kniga1-III).–M:.Nauka, 1992.391-392 s.

17. Marshall A.Printsipi politicheskoy ekonomii. T-2-x t. M.: Progress, 1983. S. 382-399. 1984. S.21-23.

18. Sutirin S., Brizgalin M. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uch. dlya vuzov. -3-izd. M.: Misl, 2007.– 123s.

II bob. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUTGAN O‘RNI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja:

2.1. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli.

2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari.

2.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli



O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, modernizatsiyalash va «Inqirozga qarshi choralar Dasturi» samaradorligini oshirish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. KBXT subyektlari kichik korxona, mikrofirma, fermer va dehqon xo‘jaliklari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, hunarmandlar sifatida hududlarda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, mintaqalardagi bandlik muammosini imkon qadar bartaraf etishga, raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. KBXT subyektlari bozor munosabatlari tizimida ishbilarmonlik va tashabbuskorlik bilan erkin kafolatlangan faoliyat olib borishga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga, uzluksiz iqtisodiy-ijtimoiy harakatlantiruvchi

kuch sifatida raqobat bozoriga ta'sir etishga, erkin narx-navo tizimini tartibga solishga xizmat qilmoqda. Hattoki qadimdan KBXT subyektlari faoliyatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan harakatlar Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, O'rta Osiyodagi mamlakatlarda iqtisodiy fikr va g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda salmoqli o'rin egallagan.

Jumladan, qadimgi «Avesto» (hayot yo'riqnomasi) kitobida yer yuzida adolat qaror topishi uchun, kishilarning irqi, tili, urf-odatlaridagi farqlaridan qat'iy - nazar, ularni farovon hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok, tadbirkor, tashabbuskor insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasi bilan sug'orilgan[9].

Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik faoliyati qadimgi Hindistonning «Artxashastra» asarida (m.a.IV-IIIasrlar) iqtisodiyotning asosi hisoblangan hamda dehqonchilik, chorvachilik, savdo va hunarmandchilik faoliyatlarining natijasi davlatning kuchi, deb e'tirof etilgan.[10]

Xitoy Konfutsiysi (m.o. 551-479 yy.)da ta'kidlanishicha, xususiy tadbirkorlik mehnati davlat va uning fuqarolari boyligini bir xilda ko'paytirishga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'limotda u xususiy mulkning xo'jalik yuritishdagi ustuvorligini ta'kidlaydi va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni farqini ko'rsatib, aqliy mehnat bilan ham «yuqori» daromad olish mumkinligini isbotlaydi. Bunda tadbirkorning noyob qobiliyati hisobga olinishi lozimligiga e'tibor qaratadi [11].

KBXT subyektlari faoliyati to'g'risidagi mumtoz g'oyalar, qadimgi Gretsiyada ham keng targ'ib etilgan. Aristotelning (m.a.384-322) «Ekonomika» tushunchasi bo'yicha, bu eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik va mayda savdo bilan band bo'lganlarning asosiy, sharafli faoliyati, deb e'tirof etilgan. Ularning maqsadi – tadbirkorlik bilan insonlarning eng muhim ehtiyojlarini qondirishga erishish mumkinligi va ularga davlat g'amxo'rlik qilishi kerakligi ta'kidlangan[12].

Buyuk sohibqiron Amir Temur (1336-1405 yy.) tadbirkor-

---

[9] Razzoqov A.Toshmatov Sh.,Ormonov N. Iqtisodiy talimotlar tarixi.–T.: Iqtisod-moliya, 2007.–. 13 b.

[10] Алаев Л.Б., Ацамба А.А., Вигасин А.А., Воробей Н.В. и другие. Всемирная история экономической мысли. В 6 т. М.:Мысль,1987. Т-1. 84-92 с.

[11] Алаев Л.Б.,Ацамба А.А.,Вигасин А.А.,Воробей Н.В. и другие. Всемирная история экономической мысли. В 6 т. М.:Мысль,1987. Т-1. 95-96 с.

[12] Алаев Л.Б.,Ацамба А.А.,Вигасин А.А.,Воробей Н.В. и другие. Экономические взгляди Аристотеля. Всемирная история экономической мысли. В 6 т. М.:Мысль,1987. Т-1.127-135 с.

likka katta e'tibor berib, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy hayot, boshqaruv va harbiy sohalardagi barcha g'alabalarini, eng avvalo, o'zining tadbirkorlik bilan ish yuritganligidan, tadbirkorlikni o'z tafakkuri va harakatining shiori qilib olganligidan, deb bilgan. Amir Temurning «Temur o'gitlari» nomli asarida ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir, deb ta'kidlaganlar[12].

Bizningcha, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rniga baho berishda «biznes» va «xususiy tadbirkorlik» tushunchalarining nazariy-iqtisodiy mohiyatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunida tadbirkorlik haqidagi ta'rif iqtisodiy kategoriya sifatida tadbirkorlikning ko'p qirraliligini, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifoda etishga qaratilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hozirgi paytda eng muhim masalalardan biriga aylangan hamda alohida kategoriya sifatida jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatib, fuqarolar hayotini, davlatning muayyan tarixiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiradi.

KBXT mohiyatini tadqiq qilgan iqtisodchi-olimlar mazkur tushunchaga o'z davrlarida turlicha ta'rif berganlar va mazkur ta'riflar yillar davomida takomillashib borgan. O'rta asrlarda qasrlar, jamoat binolari, sobor va cherkovlar quruvchilarini xususiy sektor vakillari hisoblashgan. XVIII asrda KBXTning harakat doirasi kengayib, iqtisodiy g'arb adabiyotlarida «xususiy tadbirkor» tushunchasi qo'llanila boshlandi. «Xususiy tadbirkorlik faoliyati» tushunchasi R.Kantilon, F.Kene, A. Smit, J.B. Sey, A. Tyurgo va boshqalar tomonidan tatbiq etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan manbalarga tayanadigan bo'lsak, «Tadbirkor» atamasi ingliz iqtisodchisi R.Kantilonga tegishli bo'lib, u quyidagilarni tushungan: «Tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo'lmagan dehqon, hunarmand, savdogar va boshqalardir. U o'zgalar molini muayyan narxda sotib olib, o'zining molini ham muayyan bo'lmagan yuqoriroq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli

[12] Ахмедов Б. Аминова А. Амир Темур ўгитлари.–Т.:Навро'з, Т.: 1992. – 11.

tovarlar bozorlarida talabga mos taklifni yuritish hisoblanadi»[13]. Shuningdek, R.Kantilon «Tijorat tabiati haqida ocherk» asarida yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq yangi korxonalar yoki yangi tijorat g'oyalarini yaratish (tatbiq etish)da riskni o'z zimmasiga oluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni xususiy tadbirkor tushunchasi bilan izohlagan.

Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832-yy.) birinchi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida «tadbirkorlik qobiliyati» (layoqati) va ishchi kuchi o'rtasidagi farqni ish haqi darajasida deb ko'rsatadi. Darhaqiqat, tadbirkor mehnati uchun oladigan ish haqi, yollanma ishchiga nisbatan yuqoriligi, ularning bajaradigan vazifalari, iqtidorligi, faolligi, qobiliyati, intizomi va boshqarish qobiliyatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. J.B.Seyning yana muhim nazariy kashfiyotlaridan biri, takror ishlab chiqarish nazariyasi «Sey qonuni», «bozor qonuni» yoki «sotish nazariyasi» bo'lib, «har bir odam bir vaqtning o'zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir»[14] deb ko'rsatgan. Qayd etish joizki, barcha nazariy qarashlarda u yoki bu jihatdan tadbirkorlik faoliyati zarurligi tan olingan. Chunonchi, J.B. Sey xususiy sektor – iqtisodiy resurslarning past unumdorligi va past daromadi bilan yuqori unumdorligi va yuqori daromadining o'zaro qorishmasi ekanligini ta'kidlaydi. J.B.Seyning xususiy tadbirkor to'g'risidagi bu tasavvuri talabga mos taklifni amalga oshirishga qaratilgan. Bu hol ingliz iqtisodchisi R.Kontilon tomonidan tavakkalchilik bilan bog'lanadi. Shuningdek, mazkur davrlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq yangi atamalar vujudga keldi. Misol uchun, kapitalga egalik qilish, foydali ishlab chiqarish, moliyaviy tavakkalchilik, tashabbuskorlik va boshqalar. Vaqt o'tishi bilan tadbirkorlik haqidagi tasavvurlar rivojlantirildi hamda faoliyati davomida foyda oshishiga e'tibor qaratildi. J.B.Sey «Siyosiy iqtisod traktati» nomli asarida xususiy tadbirkorlik rostgo'ylik, aniqlik, tashabbuskorlik, moddiy ta'minlanganlik va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi[15]. Ta'kidlash joizki, kichik biznesning rivojlanish tarixida tadbirkor tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, ilg'or fikrlovchi, aql sohibi, shafqatsiz raqobat kurashida muvaffaqi-

---

[13] Сутырин С., Брызгалин М. История экономических учений. Уч. для вузов. -3-изд. М.: Мысль, 2007.– 123с.
[14] Аникин А. Юность науки. -М.:Дело ЛТД, 1971.-С.308-310. Всемирная история экономической мысли. М. :1988.-С. 95-99.
[15] Сэй Ж.Б. Трактат политической экономики. М.: 1985, 55-6.

yatga erishuvchi inson sifatida tasavvur qilindi.

XX asr boshlarida esa G'arbda Y.Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi haqidagi mulohazalari muhokamalar mavzusi bo'lib, «tadbirkorlikning vazifasi – yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir»[16] deb hisoblandi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun mohiyatini «Ekonomiks» darsligining mualliflari K.R.Makkonell, L.S.Bryu xususiy sektorni maxsus insoniy resurs sifatida qabul qilib, ularning fikricha, kichik biznes – bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida yer resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo'yicha tashabbusni o'z zimmasiga olib, biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Mazkur soha yangilik yaratuvchi bo'lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi risk bilan ish tutadi[17]. Boshqa xorijiy olimlar esa, xususiy sektorni xususiy shaxslar, korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish, tovarlar xarid qilish yoki sotishdan manfaatdor shaxslar yoki tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik asosida xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirilishi sifatida tushunadilar[18].

A.Smit (1723-1790) va D. Rikardolar (1772-1823) bozor baholarini tartibga solish vazifasini bajaruvchi kichik xo'jalik yurituvchilarni investorlar, deb hisoblaganlar[19]. A.Smit mazkur toifaning alohida belgilari mavjudligini bilgan holda, ta'kidlaydiki, o'zlarining hayotlari davomida har xil reja va loyihalar bilan butunlay band bo'ladilar, o'zlarining ko'plab ixtirolari bilan boshqa ko'pchilik mahalliy dvoryanlar darajasidan farqlanadilar, deb ta'kidlaydi.

Neoklassik maktab vakili A.Marshall (1842-1924 yy) tomonidan iqtisodiy o'sish uchun tadbirkorlikning hal qiluvchi ijodiy ahamiyati tan olinib, A.Smitning ishlab chiqarish omilining uchta mumtoz toifasiga: er, haq, kapitaldan tashqari mehnat

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
5122

[16] Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс. 1985, 159-б.
[17] Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. Т-1, М.: 1992, 38-б.
[18] Жан Луи Сервач-Шрейбер. Ремесло предпринимателя. М.: Мех.бн 1994, 50-б.
[19] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов (Книга1-III).–М.:Наука, 1992.391-392 с.

to‘rtinchi, deb qaraydi. Mehnat bu - «ishonchli tadbirkorlik qobiliyatini va kapitalini talab qiluvchi yaxlit birlashgan tashkilotdir»[20]. Shu bilan birga A.Marshall tadbirkorlik qobiliyatini korxonalarning boshqarish shakli bilan bog‘lagan holda talqin etib, tadbirkorlik qobiliyatini kapital qo‘yilmalarning hajmiga, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalariga hamda korxonalarning katta - kichiklik jihatlariga bog‘liqlikda o‘rganadi.

Iqtisodchi A.Fon Xayek (1899-1992-yy.) birinchi bo‘lib, xususiy tadbirkorlikni insonning mustaqilligi bilan uzluksiz bog‘liqligini va aloqadorligini talqin qiladi. Insonga berilgan shaxsiy mustaqillik, uning harakati va iqtisodiy salohiyati bilan yuqori samarani ta’minlashini ta’kidlaydi. Tadbirkorlikning mohiyatini u yangi iqtisodiy imkoniyatlarini izlashda va tadqiq etishda ko‘radi[21]. A.F.Xayekning nazariyasi bir butunligi, ketmaketligi va kengligi bilan boshqa olimlar fikridan farq qilib, Xayek uchun «inson ozodligi, uning boshqa kishilarning irodasiga bo‘ysinishini mustasno etadi», ammo bu jamiyat fuqarolarining qonunlari doirasida bo‘lishi tarafdorligini ta’kidlaydi. A.F.Xayek xususiy tadbirkor doimo axborot va bilim jamg‘arishi zarurligini ko‘rsatib, «tadbirkorlarning axborot afzalliklaridan foydalanish jarayonining barcha jabhalarida bozor eng yaxshi koordinator bo‘lib, o‘zining tezkor harakatida eng samarali yuqori bilimlarni bozor holatidan olib, raqobatda o‘zini birinchiligini va katta daromadini ta’minlaydi»[23], deb ko‘rsatadi.

Iqtisodchi olimlardan R.Xizrich va M.Piterslar tadbirkorlikni jarayon sifatida qarab chiqadilar hamda tadbirkorning ijtimoiy qiyofasini belgilaydilar. «Tadbirkorlik – bu qiymatga ega bo‘lgan biror-bir yangilikni yaratish jarayoni; tadbirkor esa – bu inson bo‘lib, u buning uchun zarur vaqt, kuch sarflaydi, o‘z zimmasiga barcha moliyaviy, ruhiy va ijtimoiy risklarni oladi, buning evaziga haq olib, erishgan natijasidan qoniqish hosil qiladi». Tadbirkorlik iqtisodiyotda va jamiyatda o‘ziga xos ishga solish mexanizmi hamda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy rivojlanishning

---

[20] Маршалл А.Принципы политической экономии. Т-2-х т. М.: Прогресс, 1983. С. 382-399. 1984. С.21-23.
[21] Хайек Фон А. Дорога к рассвету . –Москва: Экономика, 1992. – 91с.
[23] Хайек Фон А. Дорога к рассвету . –Москва: Экономика, 1992. – 91с.

katalizatori (tezlashtiruvchi) sifatida, yalpi ishlab chiqarishning o'sishiga ko'maklashadi[24], deb ta'kidlaydilar. Kichik iqtisodiy subyektlar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish jarayonida, R.Xizrich marksistik ta'limotda tadbirkorlar kapital egasi, ya'ni yollanma ishchini ekspluatatsiya qiluvchi shaxs sifatida xarakterlanadi va qiymatni yollanma mehnat orqali, o'zi mehnat qilmasdan (foydani, foizni) oluvchi, o'zlashtiruvchi shaxs, sinf sifatida gavdalanadi degan paradoksga to'qnash keladi.

2.1-jadval

«Tadbirkorlik», «xususiy tadbirkorlik», «kichik biznes», «kichik korxona» tushunchalarining nazariy talqinlarini taqqoslama tasnifi[22]

Ilmiy maktablar	G'oyalari tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Merkantilizm	Tijoratchi-savdogar sifatida hamda faqat pul topadi, deb qaraladi.	Savdoda boylikni ko'paytirish e'tirof etiladi.	Boylikni faqat savdo sohasida yuz beradi hisoblash noto'g'ri talqin etiladi. Boylikning ortishida ishlab chiqarishning ta'sir doirasi inkor etiladi.
Fiziokratlar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida faqat tabiat resurslaridan foydalanladi.	Asosiy mahsulotni qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohalari ishlab chiqaradi deb,	Asosiy mahsulotni sanoat, qurilishdagi mehnat bilan inson tomonidan amalga oshirilishi yoritilmagan.
Klassik B.Sey	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosiy foydani yaratuvchi; yollanma mehnatdan foydalanmaydigan shaxs, deb e'tirof etadi	talqin etiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zi uchun va o'zgalar uchun ishlab chiqaradi va xizmat ko'rsatadi	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faqat o'z manfaati uchun deb tor doirada fikr yuritiladi.

[24] Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха.–М.: Прогресс, Университет. 1991. вып.1. – С. 20-25.

[22] Иқтисодий адабиётлардан фойдаланилган ҳолда тузилган.

Klassik iqtisodchi D.Rikardo	Kichik biznes va xususiy tadbirkor likni boylik yaratuvchi, birikti ruvchi shaxs-inson, deb ta'riflaydi.	Kichik biznes va xususiy tadbirkor lik barcha tarmoq va sohalarda yaratuvchi lik bilan shug'ul lanadi, deb e'tirof etadi.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilishi sababli foyda oladi, deb ta'riflanadi.
Markscha nazariya	Yollanma ishchi kuchini vujudga keltiruvchi zaxira va resurs, deb hisoblaydi.	Jamiyatda mayda tovar ishlab chiqaruvchi kuch sifatida talqin etiladi.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xususiy mulkni hosil qiluvchi toifa sifatida talqin etiladi.
Keynscha ta'lim neoklassik	Iqtisodiyotni hara katga keltiruvchi kuch, daromadlarni oshiruvchi omil.	Har bir xo'jalik subyekti erkin faoliyat turini tanlaydi, daromadga erkin egalik qiladi.	Daromadlarni soliqdan yashiradi, qonunlarni buzishga harakat qiladi.
Yapon ta'limoti	Yillik o'rtacha xodimlar soni, yillik aylanma kapital miqdori, eksport va import dagi ishtiroki muhim, deb hisoblaydi.	Milliy iqtisodiyot ning barcha tarmoq va sohalarida qonun doirasida erkin faoliyat yuritib, daromad topadi.	Iqtisodiyotni ayrim tar moqlarida (mashinasoz lik, metallurgiya, neft-kimyo) kichik tadbirkor lik subyektlari ishtirok eta olmaydi.
Amerika ta'limoti	Yillik o'rtacha xodimlar soni (100 tagacha), cheklangan kapital miqdoriga egalik qilishi e'tirof etiladi.	Makroiqtisodiyot ni barcha tarmoqlarida sof erkin faoliyat yuritadi, qonunlar ni, narkobiznes va inson huquqlarini buzilishini ta'qiqlaydi.	Iqtisodiyotni ayrim tar moqlarida (mashinasoz lik, metallurgiya, neft-kimyo) kichik tadbirkor lik subyektlari ishtirok eta olmaydi.

XX asr o'rtalarida ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946 yy.) tomonidan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, samarali talabni va investitsiyaga nisbatan moyillikni moliyaviy rag'batlantirish yo'li bilan har xil faoliyatdagi tadbirkorlikni rivojlantirish g'oyasi bilan iqtisodiy subyektlar faoliyatini faol-lashtiradi. Uning fikricha, KBXT subyektlari faoliyatini ishlab chiqarish, bank-kredit, moliya, savdo va xizmat ko'rsatish

tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkor sifatida amalga oshirish, buning uchun nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirish iqtisodiy o'sishga ta'sir etishini ta'kidlaydi[25].

KBXTning xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, iqtisodchi olimlar ularga xos bo'lgan quyidagi sifatlarni, ya'ni tashabbuskorlik, tavakkalchilik, ijodkorlik, ishga mas'uliyat bilan yondashish, o'z mehnati natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorliklarni ta'kidlab ko'rsatadilar. Jumladan, mahalliy iqtisodchi olimlardan biri, prof.A.O'lmasov: «Kichik biznes - kishilar mulkchilik subyektlarini moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga, daromad topishiga mo'ljallangan»[26] deb ta'kidlasa, prof.Yo.Abdullayev tadbirkorlikka «qonun hujjatlariga muvofiq, daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat» sifatida ta'rif beradi[27]. Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining nutqlarida «o'zini mulkdor, mulk xo'jayini, o'z mehnati va ishlab chiqargan mahsulotining xo'jayini, deb xis qilish, insonning yashirin kuch-g'ayratini yuzaga chiqaradi. Uning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini nomoyon etadi. Uni tashabbuskor va omilkor qiladi», deb ta'kidlab o'tganlar[28]. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Kichik biznesning asosiy qatlamini va o'zagini tashkil etuvchi - xususiy tadbirkorlik - mulkdan foydalanish natijasida doimiy tarzda foyda olishga, innovatsion g'oyalarni tatbiq etib, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mahsulotlar (xizmatlar, ishlar)ni realizatsiya qilishga hamda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mustaqil faoliyatdir. KBXT faoliyati yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z tavakkalchiligi asosida amalga oshiriladi va bu shaxslar qonunda belgilangan tartibda ushbu ish uchun ro'yxatga olinadi va foyda olish maqsadida mulkchilikning barcha

---

[25] Кейнс Ж. Общая теория занятости, процента и денег. – Москва: Экономика, 1948. – С. 238-241.

[26] Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.:Меҳнат, 1999. Б. 243.

[27] Абдуллаев Ё. ва бошқалар. Тадбиркор ён дафтари: кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. Т.:Ўзбекистон бухгалтер ва аудиторлар ассоциацияси. 1999. Б. 126.

[28] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чукурлаштириш йўлида. Тошкент: Ўзбекистон, 1995. - 182б.

shaklidan, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan tashabbuskorona foydalanishi bilan bog'langan. KBXT vakillari bu qonunchilik bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanadigan va foyda (daromad) olishdan iborat bo'lgan yo'nalishdir. Kichik biznes jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni muvofiqlashtirishga ko'maklashadigan tadbirkorlar qatlamining yuzaga kelishiga, mahalliy bozorni zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Aynan KBXTni har tomonlama rivojlantirish orqali bugungi kunda dolzarb bo'lgan muammoni - aholining (ayniqsa ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini xolisona hal qilishga imkon yaratadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida «tadbirkor» va «biznesmen» tushunchalariga birinchilardan bo'lib aniqlik kiritgan olim S.S.G'ulomovning fikricha, «xususiy tadbirkor to'la yoki qisman o'z moddiy mablag'iga yoki moliyaviy resurslariga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi. U tomonidan bunyod etilgan firma davlatimizdagi taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi[29], deb ko'rsatib, hududlardagi kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlarni «..faqat sanoat tarmog'iga tegishliligi bilan tavsiflanadigan shakl sifatida namoyon bo'ladi» degan fikrni bildirgan. Shuningdek, iqtisodchi olima D.Tojiboeva «Tadbirkorlik obyekti, maksimal darajada daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillari (kapital, er, mehnat)ning eng samarali nisbatini topib ishga tushirishdir» deb ta'rif beradi. «Tadbirkorlik subyektlari, - deb bu eng avvalo, jismoniy shaxslar (yakka hol, oilaviy) bo'lishlari mumkin. Bunda ular tadbirkorlikni o'z mehnatlari asosida va chetdan ishchi yollab yoki bir guruh shaxslar tomonidan (jamoa) o'zaro shartnoma va iqtisodiy manfaatdorlik asosida amalga oshirishlari mumkin»[30] deb ta'kidlab, tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lgan KBXT faoliyatining hududlardagi iqtisodiy, tashkiliy, moliyaviy, huquqiy tomonlariga nisbatan kamroq e'tibor qaratadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistoning hozirgi

---

[29] Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. –Тошкент: Шарқ, 2002. – 86.

[30] Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент:Ўқитувчи, 2002. -177 б.

sharoitida KBXT faoliyatini tashkil etish, moliyaviy, huquqiy - tashkiliy qo'llab-quvvatlash, ularga shart-sharoitlar yaratib berish kabi hududiy muammolarga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

2.2-jadval ma'lumotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalariga nisbatan nazariy qarashlar tavsifi keltirilgan.

Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (xizmat) ishlab chiqarish jarayonida er, suv, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi hamda tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa resurslarni bir joyda uygunlashtiruvchi tashabbuskor hisoblanadi.

2.2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalariga nisbatan nazariy qarashlar tavsifi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalariga nisbatan nazariy qarashlar yo'nalishlari	**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ta'rifidagi asosiy qarashlar**	**Nazariy yondashuv mualliflari**
Inson omili sifatidagi yondashuv	Insonning bilimi, malakasi, ko'nikmasi, mahoratining darajasi	Marshall P., Kontilon R.
	Insonning tashabbuskorligi, ishbilarmonligi, tadbirkorlik qobiliyati yig'indisi, yangilik yaratuvchanligi	J.B.Sey, D.Rikardo, Y.Shumpeter
	Insonning aqliy va jismoniy qobiliyatining yig'indisi	F.N.Xayek
	Insoning iqtidori, layoqati, kasbi, ixtisoslashganligi	J.Keyns
Resurslar sifatidagi yondashuv	Mehnat resurlari	J.Keyns
	Intellektual resurlari	P.Samuelson
	Innovatsion resurslar	R.Xizrich
	Ixtirochilik	R.Kouz
	Tashkilotchilik qobiliyati	J.Sey
	Ijodkorlik qobiliyati	J.Keyns
Ne'matlar	Barcha ne'matlarni yaratadi	R.Kontilon

Yaratish sifatidagi yondashuv	Uzoq muddatli ishlash qobiliyati bilan ne'matlar yaratadi	J.Keyns
	Ishlab chiqarishni tashkil etishi va innovatsiyalarni joriy eta olish darajasi	P.Marshall
	Xizmat ko'rsatish madaniyati	R.Xizrich
Zaxira sifatidagi yondashuv	Mehnat qilishdagi qobiliyati zaxirasi	K.Marks J.Keyns
	Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy boylik zaxirasi	J.Keyns
Qiymat yaratish sifatidagi yondashuv	«Ish haqi», «Daromad», «Qiymat hosil qilish», «Jamg'armani to'plash», «Investitsiya sarflash», «Dividend», «Foiz».	K.Marks,D.Rikardo, J.Sey, I.Shumpeter.

Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko'paytirish bo'yicha, asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadlarini aniqlab beradi. Tadbirkor yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir, deb baholaydilar[34].

Mazkur sohaning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, uning afzalliklari va ustuvorliklari quyidagilardan iboratdir:

– nisbatan kam mablag' sarflagan holda, mintaqalarda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi;

– moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini hududlarda samarali taqsimlanishiga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

– jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kafolatlovchi – tadbirkorlar qatlamini shakllantirib, daromadlarini nomutanosib taqsimlanishini ta'minlaydi hamda iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi ulushini ko'paytiradi;

– ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni qisqa muddatlarda jalb etib, mintaqalarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga zamin yaratadi;

[34] Шодмонов Ш., Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: Молия, 2002.-180 б.

– sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirib, iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi;

– kichik biznes korxonalari yirik korxonalarga nisbatan bozor talablariga qisqa muddat ichida tez moslasha oladi;

– ular faoliyatini rivojlantirish orqali mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga erishiladi;

– jamiyat uchun boshqa sohalarga nisbatan tezroq yangi tovarlar va xizmatlarni yetkazib beradi hamda iste'molchilarning talabini kengroq o'rganib, o'z faoliyatini shu talabga moslashtira oladi;

– iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirish orqali budjetga soliq tushumlari hajmini ortirishga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti tizimi ham, boshqa iqtisodiy tizimlar singari cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanib, turli tanlov usullarini keng qo'llash orqali bog'liq quyidagi asosiy masalalarni KBXT tomonidan hal qilishni taqozo etadi:

–mavjud resurslardan imkon darajada foydalanib, jami qancha miqdorda, qanday shaklda iqtisodiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish lozimligini;

– moddiy resurslarning cheklanganligi sababli, xo'jalik yuritish shakllarini, samarali tanlov usullarini tanlashni va shu tariqa amalga oshirish zaruriyatini obyektiv ravishda yuzaga chiqadi;noz-ne'matlar qanday ishlab chiqarish shaklida (kichik, o'rta, yirik), qanday texnologiya, texnika vositalarida va qanday resurslar (tabiiy, mehnat kabi) yordamida ishlab chiqarilishi;

– jamiyat tasarrufidagi barcha boyliklarga har xil mulkchilik shakllari va ko'pukladlilik sharoitida, ishlab chiqarish resursi sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatidan foydalanish uchun qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy shart-sharoit yaratish lozimligi;

– hududlarda yaratiladigan (yalpi hududiy daromadni) noz-ne'matlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida faol qatnashgan ishtirokchilar o'rtasida, ishlab chiqarilishi hamda o'rnatilgan tartibda taqsimlanish darajasi;

– yaratilgan jami hududiy mahsulotda tashabbuskor, ishbilarmon va tadbirkor kichik xo'jalik yurituvchi subyektlarning hissasini qanday aniqlash lozimligi kabi masalalardir.

Alohida ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan va

tahlil qilingan barcha adabiyotlarda, tadqiqotlarda xususiy tadbirkorlik faoliyatiga, biznes, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyati yo'nalishlariga nisbatan ilmiy-nazariy izohlar bayon etilgan bo'lsa-da, ularning hech birida tabiiy resurslar cheklangan, axolisi zich joylashgan, sanoat ishlab ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lmagan hududlarda KBXT subyektlari faoliyatining shakllanishi, ular o'rtasidagi raqobat muhitining o'ziga xos xususiyatlari, ularni boshqarish usullari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi, faoliyatlari davomida amalga oshirishlari lozim bo'lgan marketing tadqiqotlari yo'nalishlari, samaradorligini oshirish istiqbollari, tashkiliy huquqiy asoslarini shakllantirishda hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zaruriyati, shuningdek, zarar ko'rishi va bankrotlikni yuzaga kelish sabablari o'zaro mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan bog'liqlikda tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, KBXT subyektlariga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq. KBXT subyektlari - mavjud qonunlar doirasida, o'zi va jamiyat manfaati uchun, aqliy va jismoniy qobiliyatga, xususiy mol-mulki va shaxsiy jamg'armasiga ega bo'lgan, bozorlar uchun turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi, tahlika ostida nostandart g'oyalar, ixtirolar yaratuvchi, innovatsion fikrlaydigan, adolatli, halollik bilan barcha xavf-xatarlarni engib o'tuvchi, foyda ko'rishni mo'ljallovchi, jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmagan tashabbuskor, ishbilarmon shaxslar hisoblanadi.

2.1-rasmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tarkibiy tuzilmasi keltirilgan. Ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakllari quyidagi ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin: yakka mehnat faoliyati, mikrofirma, kichik korxona, kasanachilik, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik.



2.1-rasm. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tarkibiy tuzilmasi**

2.2-rasmda esa O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq korxonalarning tavsiflanishi keltirilgan. Jumladan, kichik biznes korxonalari ham yuqorida keltirilgan tartibda tavsiflanishi mumkin. Misol uchun, kichik biznes korxonalari mulkchilik shakliga ko‘ra: xususiy mulkka asoslangan, bir necha shaxs mulkiga asoslangan, davlat mulkiga asoslangan, aralash mulkka asoslangan shakllarda tashkil topishi mumkin. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida milliy iqtisodiyotimizning barcha sohalarida KBXT subyektlarining roli kengaymoqda.



2.2-rasm. **O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq korxonalarning tavsiflanishi**

2.4-jadval ma’lumotlarida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsata-yotgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot

tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi holati tavsifi keltirilgan. Jumladan, 2000–2010-yillarda ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ulushi 75,0% ni, xizmat ko'rsatishda esa 25,0% ni tashkil etmoqda. Shuningdek, moddiy ishlab chiqarish sohalarida ish bilan band bo'lganlarning 64,6% ni tashkil qildi. Bugungi kunda kichik korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida yildan-yilga takomillashib borayotgan me'yoriy - huquqiy asos yaratilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2.3-rasm ma'lumotlarida YaIMning oxirgi o'n yil davomida keskin o'sganligi hamda mazkur yillarda KBXT subyektlarining ham YaIMdagi ulushi qariyib 2 barobarga o'sganligi keltirilgan. Shuningdek, kichik biznesda band bo'lganlarning umumiy iqtisodiyotda band bo'lgan aholiga nisbatan ulushi 2005-yilda 69,3%ni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 74,8% teng bo'lgan. Bu yillar davomida milliy iqtisodiyotimizda aynan kichik korxonalarni tashkil etish evaziga bandlik muammosi hal etildi. Bundan tashqari mazkur subyektlarning eksportdagi ulushi oxirgi besh yil ichida qariyib 3 barobar ortishiga erishildi.



2.3-rasm. **KBXTning YaIMdagi ulushi va YaIMning o'zgarish dinamikasi (foizlarda)**

2.3-jadval ma'lumotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini belgilovchi ko'rsatkichlar tavsifi keltirilgan. Jumladan, 2005-yilda YaIMdagi kichik biznesning ulushi 38,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 54,0 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab

chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning yillar davomida o‘sganligi hisobiga erishilayotganligi jahon sahnasida o‘z o‘rnini mustahkamlayotgan O‘zbekiston uchun quvonarli holatdir.

2.3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilovchi ko‘rsatkichlar tavsifi[1]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil
YalMdagi kichik biznesning ulushi	%	38,2	42,1	45,7	48,2	50,0	52,5	54,0	54,6	55,8
Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi	%	18,6	21,5	23,5	27,4	29,5	32,7	33,7	33,9	34,6
Faoliyat ko‘r-satayotgan kichik korxona va mikrofirmalar	ming	268,6	346,1	391,9	135,6	152,2	201,7	246,4*	271,1	297,6
Kichik biznes korxonalarining jami korxonalarga nisbatan ulushi	%	90,1	92,8	93,7	94,8	96,2	98,1	98,5	98,7	98,7
Kichik biznesda band bo‘lganlar-ning umumiy iqtisodiyotda band bo‘lgan aholiga nisbatan ulushi	%	69,3	70,4	72,1	73,1	74,2	74,3	74,8	75,7	76,0
Tashqi savdo aylanishidagi ulushi, jamiga	%	20,7	21,3	22,3	21,6	27,0	22,9	26,5	25,7	28,8
Jahon tovar aylanishidagi ulushi	%	45,7	48,2	48,0	47,2	48,2	51,0	54,5	45,3	46,3
Importdagi ulushi	%	33,7	34,5	33,3	35,7	42,5	36,6	37,4	37,6	40,6
Eksportdagi ulushi	%	6,0	10,7	14,8	12,3	14,6	13,6	18,8	15,7	18,0

**2008-2013-yillardagi ko‘rsatkichlarda fermer xo‘jaliklari soni hisobga olinmagan.*

Shuningdek, oxirgi 8 yil davomida respublika bo‘yicha jami korxonalar sonidagi kichik korxona va mikrofirmalar salmog‘i ham o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lib, bu holat kichik biznesning mamlakatning mahsulot eksportidagi ulushi, jami tovar va tashqi savdo aylanishlaridagi ulushlarida ham kuzatildi.

Respublikamiz bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham kichik biznes ulushi yuqori bo‘lib, oxirgi yillarda qariyib 70 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Shu nuqtayi-nazardan olib

[1] Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлигининг www.mf.uz сайтидан фойдаланган ҳолда тайёрланди.

qaraganda bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmini samarali yo'lga qo'yish va takomillashtirib borishni taqozo etadi. Jumladan, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bu KBXTning sanoatdagi ulushini yuqori bo'lishiga hamda tez sur'atlarda o'sishiga erishish lozim (2009-yilda 16,9%ni, 2011-yilda esa 21,0%ni tashkil etgan).



2.4-rasm. **Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi, (%)**

Amalga oshirilgan qurilish ishlarining 69,0% kichik biznes subyektlari hisobiga to'g'ri keldi (2011-yilda bu ko'rsatkich –

70,4 % teng bo‘lgan).O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi №PQ-1464 qaroriga muvofiq, mamlakatimizda 2011–2015-yillarda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida KBXT subyektlari uchun hududlarda har tomonlama qulay biznes muhitini yaratish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha qulay sharoit yaratish, imtiyoz va preferentsiyalar berish; ular faoliyati davomida investitsiya siyosatini amalga oshirish hisobiga iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning tarkibini diversifikatsiya qilish; tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta’minlash; iqtisodiyot tarmoqlaridagi KBXT subyektlari faoliyatini modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash ishlarini davom ettirish, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan qo‘yilmalar hajmini, avvalo to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga, oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda xizmat ko‘rsatish va servisni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlarni davom ettirish va natijada uning YaIMdagi ulushini yanada oshirish vazifalari belgilandi hamda bugungi kunda mazkur vazifalar amalda o‘z ijrosini topmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy - huquqiy asoslarini tadqiq etgan holda mazkur subyektlar faoliyatiga baho berish va ular faoliyati davomida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Ta’kidlash joizki, 1991-yil 15-fevralda O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonuni va 1995-yil 21-dekabrdagi «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinib, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturi 1999-

yilda qabul qilindi. Davlat dasturining bosh maqsadi mamlakatimiz axolisining barcha qatlamlarida bozor sharoitiga mos ko'nikmalarni shakllantirish, ularda tadbirkorlik, xususiy biznes bilan faol shug'ullanishlariga qiziqish uyg'otishdan iborat edi.

Bugungi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik maqomi faqatgina unda band bo'lganlar soniga qarab belgilanib, 2003-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PF-1987-sonli farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi PF-3305-sonli farmoniga binoan amaldagi qonun hujjatlariga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi. Bu farmonga asosan subyektni mikrofirma yoki kichik korxona sirasiga kiritish imkonini beradigan yuridik shaxs xodimlarining miqdoriy sonini belgilash; xalq xo'jaligi sohasining ayrim tarmoqlari (sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, savdo va h.k.) bo'yicha eng yuqori sonining miqdoriy ko'rsatkichlarini ajratish; yuridik shaxsni kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga kiritish maqsadida hisobga quyiladigan shaxslar tarkibini belgilash masalalari tartibga solindi. 2004-yil 1-yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kiradigan bo'ldi. Ya'ni: yakka tartibdagi tadbirkorlar; ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar. Quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlari soni: yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishidan; mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida 50 kishidan; fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar. Bunda o'rtacha yillik

xodimlari sonini aniqlashda sho'ba korxonalari filiallari va vakolatxonalarida ishlovchi xodimlar soni ham inobatga olinadi. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida turli shakllarda: kooperativ, yakka mehnat faoliyati, shaxsiy va xususiy tadbirkorlik, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari kabi shakllaridan tashqari, keyinchalik hududlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, hunarmandchilik, kosibchilik, zargarlik, temirchilik, sog'liqni saqlash, turizm, servis kabi sohalarning rivojlanishi kuzatildi. Mustaqillik yillarida tadbirkorlik faoliyatini ilk huquqiy negizini yaratish maqsadida 1991-yil 15-fevralda «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonun, «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish», «Kichik va o'rta korxonalar, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»[48] hamda boshqa qator qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi 1990-yildan KBXTlar faoliyatini yildan yilga yaxshilanishiga, ular sonini ko'payishiga, faoliyat jabhalarining kengaytirilishiga zamin yaratdi.

Bu davrlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mulkchilik», «Korxonalar», «Kooperatsiya», «Tadbirkorlik», «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari», «Monopolistik faoliyatni cheklash», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish» to'g'risidagi qator qonun va farmonlar qabul qilindiki[49], ularda aholining ongida bozor munosabatlarini shakllantirsh ruhiyatini, xususiy mulkchilikka ega bo'lish tuyg'usini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida «O'zbekistonda tadbirkorlar uyushmasini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlarini tashkil qilish», «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'armani tashkil qilish to'g'risida»gi qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni

---

[48] Ўзбекистон Республикаси конунлар, карорлар, фармонлар тўпламлари. Т.:Ўзбекистон. 1999, 2004, 2007 йй.

[49] Ўзбекистон Республикаси конун ва фармонлари. – Т.:Ўзбекистон, 1992. –Б. 28-29, 159-163.

rivojlantirish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi farmoni ular faoliyatini shakllantirishga xizmat qilib, faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishga erishildi.

2.4-jadval

Mikrofirma va kichik korxona maqomini aniqlash mezonlari to‘g‘risidagi MA’LUMOT

T/r	Ko‘rsatkichlar	Ishchilar soni	
		Mikrofirmalar uchun	Kichik korxonalar uchun
1	Asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash. Mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati, hisoblash texnikalari va ularga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish. Metall konstruksiyalar ishlab chiqarish.	20 kishigacha	100 kishigacha
2	Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i energetika, ximiya sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish tarmog‘idagilar.	20 kishigacha	50 kishigacha
3	Qishloq xo‘jaligi	20 kishigacha	50 kishigacha
4	Fan va ilmiy xizmat	10 kishigacha	25 kishigacha
5	Chakana savdo	5 kishigacha	25 kishigacha
7	Ulgurji savdo	5 kishigacha	25 kishigacha
8	Xizmat ko‘rsatish tarmog‘i	20 kishigacha	50 kishigacha
9	Transport	10 kishigacha	25 kishigacha

1990–1995-yillar davrida, hududlarda iqtisodiy islohotlarning barcha yo‘nalishlarida samarali institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilib, bu o‘zgarishlarning asosi mulkka, ishlab chiqarish vositalariga, erga, ko‘chmas mulkka, tarmoqlarni boshqarishda davlat monopoliyasini bartaraf etish, mol-mulkdan samarali foydalanishga hamda milliy boylikning o‘sish sur’atlarini barqaror ta’minlashga erishildi. Amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonida esa O‘zbekistonning o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlari, shakllangan qonunchilik va me’yoriy asoslarga alohida e’tibor qaratildi. Erishilgan tajribalar aholining kam ta’minlangan qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikni rivojlantirish tadbirlari bilan uyg‘unlashtirildi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta xo'jalik yurituvchi subyektlarni, individual mehnat faoliyati bilan band bo'lgan jismoniy shaxslarni hisobga olish, barchasining manfaatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini samarali tashkil qilish maqsadida tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning respublika va hududiy palatalari faol faoliyat olib bordilar. 1991–1995yillarda jismoniy shaxslarning o'z sarmoyasi hisobidan 85 mingdan ortiq xususiy va kichik, o'rta xo'jalik korxonalari tashkil topdi. Ularga umumiy qiymati 3641,7 mlrd so'mlik bo'lgan 8537 ta foydalanilmayotgan xonalar (kvartira va uylar) ijaraga berildi[52], keyinchalik esa balans bahosida o'zlariga sotilishi yo'lga qo'yildi. Umumiy maydoni 104,5 ming m^3 bo'lgan 282 ta obyektlari kimoshdi savdolariga qo'yildi hamda ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash uchun 1460 ta mayda, ulgurji bozor va tuzilmalar, shundan 1256 ta tijorat markazlari tashkil etildi. Xomashyo, tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha 1128 ta yarmarka va savdolar tashkil etildi. Bundan tashqari xo'jalik yurituvchi tadbirkorlar tomonidan 512 ta qurilishi tugallanmagan obyektlar sotib olindi[53].

Bu davrda jahon tajribasida kam uchragan, O'zbekistondagi barcha shakldagi kichik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashning maxsus mexanizmi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur mexanizmga asosan xususiylashtirishdan tushgan barcha mablag'lar milliy iqtisodiyotning nodavlat sektorini, shakllantirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun sarflandi. Bu tizimga asosan, xususiylashtirishdan tushgan mablag'ni 50 % Respublika «Biznes-fond»iga yo'naltirildi, fond esa o'z navbatida fuqarolarning o'z mablag'lariga asoslangan kichik va o'rta biznesga, xo'jalik yurituvchi kichik subyekt shaklidagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun kreditlarga sarfladi. Mablag'larning 20 foizi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimentini ko'paytirishga hamda investitsiyalarni yo'naltirishga muhtojlik sezayotgan xususiylashtirilgan

---

[52]Ўзбекистон статистик тўплами.–Т.: 2005.–Б.216. Ўзбекистон мустақиллик йилларида.–Т.:Ўзбекистон: 1996.–Б.38.

[53]Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси архив материаллари.Ўзбекистон мустақиллик йилларида –Т.:1996. –Б. 37-38.

kichik va o‘rta korxonalariga berildi. Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘ning qolgan 20% ijtimoiy sohani rivojlantirishga, bozor infratuzilmasini shakllantirishga hamda 10% mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturini hududlarda amalga oshirish jarayonida sarflandi[54]. Shuningdek, 1991-1995-yillar davomida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 106770 tani tashkil etib, egallab turgan obyektlar soni 53902 taga etdi. Faqat 1994–1995-yillarda «Biznes-fond» tomonidan ularga ajratilgan kreditlar respublika hududlari bo‘yicha 18360887,7 ming so‘mni tashkil etib, 12324 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar 15945589,2 ming so‘mni tashkil qildi.

1996–2000-yillarda Oliy Majlisning «Tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish», «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar kafolatlari», «Yer kodeksi», «Soliq kodeksi», «O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armalarni tashkil qilish», «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish» to‘g‘risidagi, KBXTlar faoliyatini hududlarda yanada takomillashtirishga oid huquqiy kafolatlangan baza yaratildi va quyidagi yutuqlarga erishildi: davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan mulkni, obyektlarni sotib olishda yuridik, jismoniy va xorijiy shaxslarning mablag‘lari bo‘yicha dekloratsiyalash talab etilmadi hamda tanlov asosida, xususiy mulkni sotib olish imkoniyati yuzaga keldi; respublika bo‘yicha valuta bozorini tashkil etish va takomillashtirish hamda mavjud muomaladagi valuta resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida jismoniy shaxslarga chet el valutasida hisob raqamlari ochish hamda ulardan foydalanish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi; O‘zbekistonning barcha fuqarolariga tovarlarni chetdan sotib olish va ichki bozorni to‘yintirishni ta’minlaydigan xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, mayda ulgurji oilaviy asosda tashkil etilgan mik-

---

54Каримов И.А. Хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш фонди (Бизнес-фонди)_ни ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон товар ишлаб чикарувчилар ва тадбиркорлар Палатасини ташкил қилиш тўғрисидаги фармонлари; Ўзбекистон мустакиллик йилларида.– Т.: Ўзбекистон,1996.–Б. 37-38.

rofirmalarni tashkil etish uchun ularga milliy hamda xorijiy valutada kredit berish mexanizmi joriy etildi; respublika va chet el fuqarolari tomonidan, O'zbekistonda naqd xorijiy valutalarini olib kelish hamda olib chiqishdagi cheklovlar bekor qilindi.

O'zbekiston hududida, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan qo'shma korxonalar ustav fondida xorijiy sarmoya ulushi 50% dan ortiq bo'lsa, xorijiy valutadagi tushumdan soliq solishdan hamda shu korxonalarning O'zbekiston Markaziy bankida ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga majburiy soliqdan ozod qilindi. Kichik biznesning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida «Dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi hamda qishloq joylarida ular faoliyatini kengaytirishga imkoniyat yaratildi. Ularning huquq va majburiyatlari, yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish yo'nalishlari belgilandi va ular faoliyatini rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqildi.

Tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiluvchi va muvofiqlashtirib turuvchi markaz «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palata»si tashkil etilishi tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoniga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur palata – bu tarmoqlardagi yirik xo'jalik yurituvchi birlashmalar tarkibiga kirmaydigan kichik, o'rta, xususiy tadbirkorlik subyektlarini a'zolik shartnomasi birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritdi[58].

Mazkur palataning hududlardagi boshqarmalari tuzilib, tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarga chiqishda ham amaliy yordam berildi. Prezident I.A.Karimov tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi barcha omillar, ular faoliyatiga asossiz ravishda aralashayotgan, nazorat qilayotgan, turli bahonalar bilan to'sqinlikni vujudga keltirayotgan hokimiyat idoralari, mahalliy tashkilotlarning noqonuniy xatti-harakatlarini bartaraf etish maqsadida, 2003-yil 11-dekabrdagi «Xususiy korxona to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi va hududlardagi ishlab chiqarish yo'nalishlari kengaytirilib, faoliyat turlari ko'paytirildi,

[58]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 12 мартдаги Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 24 апрелдаги Қонунлари.

hududlarda faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish infratuzulmasi faoliyatlariga katta e’tibor qaratildi.[66]

Mazkur yilda hududlardagi kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida qator muammoli vaziyatlar kuzatildi. Jumladan: bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilarning huquq va manfaatlarini himoyalash; ular tomonidan jamiyat, davlat manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish; kichik biznes subyektlari faoliyatini rag‘batlantirish hamda resurslarni adolatli taqsimotini amalga oshirishga erishish; ularning axborot resurslari bilan muntazam ta’minlashdir.

2005-yildan boshlab kichik korxonalarni soliqqa tortish tizimida to‘plangan tajribalarga tayangan holda, tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Mazkur subyektlar faoliyatini aynan soliqlar orqali rag‘batlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni bilan esa 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va Maktab ta’limi jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi. 2006-yildan boshlab esa umumiy tartibda soliq to‘lovchi korxonalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda QQS to‘lash imkoniyati berildi.

2005-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi PK-100-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqlar, ajratmalar hamda

---

[66]Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлар тўғрисидаги 24.01.2003. №ПФ-3202 сонли Фармони.

boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishlari o'rniga, har chorakda taqdim etishlari belgilandi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan hisobotlar soni qisqartirildi, soliq to'lovchilarni soliq idoralariga tashrif buyurishlari, moliyaviy hisobotlarga ortiqcha vaqt va mablag' sarflashlarini oldi olindi. Tadbirkorlik subyektlaridan hisobotlarni elektron aloqa vositalari orqali qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli farmoni qabul qilinishi orqali tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilishi belgilandi. Agar ular tomonidan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish davomida jinoyat alomatlari aniqlansa tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shu jumladan, soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari mavjud holatlar yuzasidan Bosh prokuratura huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga taqdim etishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3860-sonli farmoniga asosan, soddalashtirilgan tartibda faoliyat yurituvchi mikrofirma va kichik korxonalarga besh yil davomida yagona soliq to'lovini to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliq bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirishga doir soliq imtiyozi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15 mayda «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (28.04.2010-y.PF-4215-sonli farmoni bilan o'zgartirish kiritilgan) qarori qabul qilindi. Shuningdek, jahonda moliyaviy- iqtisodiy inqiroz davom etayotgan paytda, o'z vaqtida shakllangan shart-sharoitni to'g'ri tahlil etgan holda, mamlakatimizda 2009-2012-yillarga

mo'ljallab «Inqirozga qarshi choralar» dasturining qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan asosiy strategik tadbir bo'ldi. Shuningdek, dasturda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotda real sektor korxonalarini qo'llab - quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida mahsulot tannarxini pasaytirish, eksportyor korxonalarga soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va bu orqali ular faoliyatini rag'batlantirish kabi vazifalar qo'yildi.

Mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlardan biri, bu soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab - quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir. Jumladan, 2009-yili yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar berilgan bo'lsa, uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlari, korxonalarning kapitallashuv va investitsiya kiritishga yo'naltiriladigan dividendlari 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etildi.

Dasturni amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berish hisobidan 500 milliard so'mdan ortiq mablag' xo'jalik subyektlari tasarrufida qoldirilib, bu mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'larini to'ldirishga, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashga, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirishga yo'naltirildi. Dastur doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilib, 2009-yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka

tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,3 barobar kamaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 325-sonli qaroriga muvofiq, 2006-yil 1-apreldan boshlab moliya, bank va maishiy hamda boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar uch yilga daromad (foyda) solig'i, yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etildilar. Buning natijasi o'laroq, 2007-yilda faqatgina Toshkent shahrida mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi 456 ta mikrofirma va kichik korxonalar 3 mlrd.so'mga yaqin imtiyozga ega bo'ldilar. 2008-yilning birinchi yarim yilligida esa 386 ta mikrofirma va kichik korxonalar 523,8 mln. so'mga teng miqdordagi yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etildilar. Albatta, mazkur mablag'lar korxonalarga o'z faoliyatini rivojlantirishga hamda yangi texnologiyalarni jalb etgan holda, modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048 sonli qaroriga muvofiq eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni yanada rag'batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan, respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko'maklashish maqsadida, shuningdek, Respublika ikkinchi sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi yakunlarini hisobga olgan holda mazkur qarorga kiritilgan korxonalar 2011-yil 1-yanvargacha:

–chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari);

–mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan

mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

–mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilindi.

2011-yil esa «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yili deb e'lon qilinib, Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur dastur doirasida quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratildi:

– mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada tartibga solish yuzasidan qonunlar va qonun osti hujjatlarini tanqidiy baholab, tubdan qayta ko'rib chiqish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4296-sonli farmoniga asosan yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab dastlabki uch yil mobaynida rejali soliq tekshirishlaridan o'tkazilmaydi (aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek, budjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq tekshirishlar bundan mustasno).

2011-yilning 1-aprelidan 2014-yilning 1-apreligacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq

sohasida tekshirish taqiqlandi (yuridik shaxslarni tugatish paytida qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar doirasida, shuningdek, budjet hamda markazlashtirilgan mablag‘lar hamda resurslardan foydalanish bilan bog‘liq rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasno). Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq sohasida tekshirish muddatlarining qonun hujjatlarida ularni o‘tkazish ko‘zda tutilgan maksimal muddatdan, ya’ni 30 kalendar kunidan ortiq muddatga uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilandi. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashiga:

– tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini kameral nazorat qilishni keng yo‘lga qo‘yish va dastlabki kameral nazorat natijalari bo‘yicha soliq qonunchiligi buzilishi aniqlangan hollarda tekshirishlarni tashkil qilish tartibi joriy etildi;

– soliq qonunchiligi buzilishlarining tizimli sabablarini aniqlash, keyinchalik ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish uchun tekshirishlardan keyingi tahlil mexanizmi tatbiq qilindi;

– tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tekshirishlarni o‘tkazishda soddalashtirilgan nazorat dasturi (savolnomasini) ishlab chiqish va majburiy qo‘llashni tatbiq etish vazifalari topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-maydagi «Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1529-sonli qaroriga asosan: 2011-yil 1-iyundan boshlab plastmassa, lak-buyoq, maishiy-kimyo, poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish kabi 44 ta faoliyat turi bo‘yicha kichik korxonalarda o‘rtacha yillik xodimlar sonining amaldagi 21 tadan 50 tagacha chegaraviy miqdori 21 tadan 100 tagacha ko‘paytirildi;

– 2011-yil 1-iyundan quyidagicha tartib belgilandi: yangi tashkil qilinayotgan mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar ustav fondi (ustav kapitali)ning eng kam hajmi davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining qirq baravaridan kam bo‘lmasligi; tadbirkorlik subyektlarini

davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning arizasiga ko'ra namunaviy ta'sis hujjatlari asosida amalga oshirilishi mumkinligi; tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bo'yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir;

– tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda notarial tarzda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilindi, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno.

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2011-yil 24-avgustdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4296-sonli farmoniga asosan Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda Aloqa va axborotlashtirish agentligiga barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini 2014-yilning oxirigacha soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklatildi. Natijada, soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish imkoni yuzaga kelib:

– soliqlarni bankka bormagan holda elektron kanallar orqali to'lash imkoniyati yaratildi;

– soliqlarni to'lash muddatlari, soliqqa oid majburiyatlarni bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgarlik choralaridan elektron shaklda xabardor bo'lish;

– to'langan soliqlar, majburiy to'lovlar, moliyaviy jarimalar va penyalar, ortiqcha to'lov summalari hamda soliq qarzi haqidagi ma'lumotni olish imkoniyati yaratildi.

2012-yilning 1-yanvaridan boshlab sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini 6 foizli stavka o'rniga 5 foizli stavkada amalga oshirildi. 2011-yilning 1-oktyabridan boshlab soliqlar, bojxona bojlari va yig'imlari, shuningdek, boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun

uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga, ya'ni 0,05 foizdan 0,033 foizgacha kamaytirilishi belgilandi. 2012-yilning 1-oktyabridan boshlab yuridik shaxslarda o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalarni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to'lash huquqi joriy etildi. Hozir ham amalda olti oy mobaynida bo'lib to'lash mexanizmi bor, lekin unga ko'ra, qo'shimcha hisoblangan miqdor joriy aktivlar summasining jami 20 foizidan ortiq bo'lgan holatlardagina qo'llanilar edi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2011-yil 24-avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 4354-sonli farmoni bilan tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi printsipiga amal qilinishi, ya'ni, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etilishi belgilab quyildi. Buning mazmuni shundan iboratki, tadbirkorlik subyektlari barcha darajadagi, ya'ni xoh u davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari yoki tijorat banklari bo'lsin, ular bilan o'zaro munosabatlar jarayonida qaysi bir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyat yoki noaniqliklar paydo bo'lsa, mazkur ziddiyat yoki noaniqliklar bevosita tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida»gi PQ-1672-sonli qarori bilan, 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalarga mansub bo'lgan ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, poligrafiya tashkilotlari, teleradioeshittirish kompaniyalari uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga; chop etilgan mahsulotlarni sotishdan, muharrirlik xizmatlari, poligrafiya va nashriyot xizmatlarini ko'rsatishdan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi «Ijod» Jamg'armasiga nashriyot

va matbaa tashkilotlari to'laydigan majburiy ajratmalar miqdori ikki foizdan bir foizga; gazeta, jurnallar va kitob mahsulotlarini chakana sotishga ixtisoslashgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi o'rta hisobda 2 barobarga pasaytirildi. 2012-yil 1-yanvardan boshlab ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyot va bosmaxonalarni kichik korxonalar toifasiga kiritish chog'ida ular xodimlarining o'rtacha yillik cheklangan sonini 50 nafardan 100 nafargacha oshirish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 19-iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4455-sonli farmoniga asosan, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarning faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari, Markaziy banki tomonidan manfaatdor idoralar va tuzilmalar bilan birgalikda Jahon banki hamda uning bo'linmasi bo'lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan qabul qilingan «Biznesni yuritish» hisobotini shakllantirish metodikasiga muvofiq, ishbilarmonlik muhiti holatini omillar asosida tahlil qilish hamda mamlakat reytingini belgilab beradigan baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tatbiq etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Quyidagalar bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishning g'oyat muhim vazifalari etib belgilandi: tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, byurokratik g'ovlarni tugatib borish, ro'yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini, hisob-kitob va hisobot tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini mukammallashtirish evaziga mamlakatda ishbilarmonlik

muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish uchun yanada qulayroq shart-sharoitlarni yaratish, xususiy mulkchilikning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hissasini oshirish; biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholashning jahon amaliyotida umum qabul qilingan xalqaro mezonlarini keng joriy etish hamda yetakchi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy va reyting tashqilotlarining yuqori baho ko'rsatkichlariga erishish; ichki bozorda raqobatni yanada chuqurlashtirish, mulkchilik va faoliyatni tashkil qilish shakllaridan kat'i-nazar, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni yuritishda teng sharoitlar yaratish, bozor tamoyillari asosida moddiy-xomashyo va kredit resurslaridan foydalanishga, davlat xaridlarida hamda mahsulotlarni sotish va pudrat ishlarini amalga oshirish borasidagi tanlov savdolarida ishtirok etishga keng imkoniyatlar yaratib berish; statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini takdim etishda, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashda, ro'yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda, yer maydonlarini ajratish va muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bevosita muloqotni, korruptsiyani istisno etuvchi elektron tizimga, shu jumladan, Internet tarmog'iga keng miqyosda o'tishni ta'minlash belgilandi.

2012-yil 1-avgustdan boshlab, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo'naltirilgan aniq me'yor va chora-tadbirlar joriy qilindi. 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida quyidagi tartib-taomillarni o'z xohishlariga ko'ra elektron shaklda amalga oshirish huquqiga ega bo'ladilar: bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimi, shu jumladan, «Internet-banking» tizimi orqali soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash; O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Markaziy banki, tijorat banklari; yuklarni bojxonada rasmiylashtirishda tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarlarni deklaratsiya qilish - O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi; «bir oyna» tamoyili bo'yicha yuridik shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan egalik huquqlarini ro'yxatga olish - O'zbekiston Respublikasi

«Yergeodezkadastr» davlat qo‘mitasi; tadbirkorlik subyektlarining da’vo arizalari va iltimosnomalarini xo‘jalik sudlariga berish - O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi amalga oshirishi belgilandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi O‘RQ-327-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga asosan oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin. Oilaviy korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi. Oilaviy korxona ishtirokchilari korxona mol-mulki yetarli bo‘lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak. Oilaviy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va «oilaviy korxona» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning

qisqartirilgan nomini va «oilaviy korxona» degan so‘zlarni yoki «OK» abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak. Oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Davlat organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek, qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ta’qiqlangan boshqa shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin emas.

Bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o‘zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo‘lishi mumkin emas. Davlat oilaviy korxonaning huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Davlat organlari oilaviy korxonani rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashishi shart. Davlat organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda: foydalanilmayotgan yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar ularda tovarlar ishlab chiqarishni (ishlar bajarishni, xizmatlar ko‘rsatishni) tashkil etish uchun oilaviy korxonaga ijaraga berilishini; ishlab chiqarish maydonlari qurish uchun oilaviy korxonaga yer ajratilishini; oilaviy korxona ishlab chiqarish obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini; oilaviy korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun maxsus joylar berilishini ta’minlaydi. Oilaviy korxona bitimlar tuzishda erkin bo‘lib, faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan, uning tomonidan texnologiyalarni, ishlab chiqariladigan mahsulotning assortimentini tanlashda, mahsulot narxini hamda uni realizatsiya qilish yo‘nalishlarini belgilashda davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oilaviy korxona qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda yagona soliq to‘lovini to‘lovchi bo‘lib, foydasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o‘tadi hamda unga soliq solinmaydi. Oilaviy korxona mehnat haqi fondidan ijtimoiy fondlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to‘lovlar to‘laydi. Oilaviy

korxona o‘zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi. Bunday buyumlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Oilaviy korxonaga kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi. Oilaviy korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko‘pi bilan to‘rt yilda bir marta amalga oshiriladi. Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshiruvlardan o‘tkazilmaydi, bundan budjet mablag‘laridan va markazlashtirilgan mablag‘lardan hamda resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq tekshirishlar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 2-maydagi qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, banklar bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi printsipi amal qilib, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etildi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» printsipi bo‘yicha va qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirildi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yoki unga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablarni belgilashga haqli emasligi belgilandi. Ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shi-

koyat qilinishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qarori, shuningdek, mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof, deb topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga ro'yxatdan o'tkazishni rad etganlik yoki ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzganlik tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplaydi va ma'naviy zarar uchun kompensatsiya to'laydi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari hisob va hisobotni qonun hujjatlariga muvofiq yuritadi. Hisobot tadbirkorlik subyektining xohishiga ko'ra qog'ozda va (yoki) elektron shaklda tayyorlanishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlarining elektron shaklda taqdim etilgan hisoboti tadbirkorlik subyektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Davlat tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron shaklda hisob yuritilishini dasturiy ta'minotni imtiyozli shartlarda yoki bepul tarqatish orqali rag'batlantiradi.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshiruvlardan o'tkazish muddatlari o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozimligi belgilandi. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organning qaroriga ko'ra uzaytirilishi mumkin, bunda ushbu qoida kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin emas. Nazorat qiluvchi organ rejali tekshiruv o'tkazishning boshlanishi haqida tekshiruvni o'tkazish boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin tadbirkorlik subyektini tekshiruvdan o'tkazish muddatlari va predmetini ko'rsatgan holda, yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tekshiruv o'tkazish uchun asosga ega bo'lmagan shaxslarning tekshiruv o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha ularning talablarini bajarmaslik hamda tekshiruv predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik huquqiga ega. Tekshirishlar natijalari dalolatnoma (ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtirilib, tekshirish tugagan kuni uning bir nusxasi tekshirilayotgan tadbirkorlik faoliyati subyektida qoldiriladi. Tadbirkorlik faoliyati subyektiga yetkazilgan zararning o'rni, shu jumladan, boy berilgan foyda bu zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'la hajmda qoplanishi kerak. Davlat organlarining, fuqarolar

o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan, davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat qabul qilinishi natijasida tadbirkorlik faoliyati subyektiga yetkazilgan zararlarning o‘rni davlat tomonidan yohud fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan sudning qarori asosida qoplanishi kerak. Davlat organlarining, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari aybi bilan yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash sud qarori bilan mazkur mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkinligi belgilab qo‘yildi. Albatta bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar KBXT subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida KBXT taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki katta mablag‘ talab etmaydigan va resurslarning o‘sish tezligini kafolatlovchi KBXT, iqtisodiyotdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni tez va ortiqcha sarf-xarajatsiz bartaraf etishga, mahalliy bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan sharoitda ham iste’mol mollari bilan to‘ldirishga qodir bo‘lib, KBXTning taraqqiy etishi ko‘p ustuvorliklarga ega. Jumladan, jamiyat farovonligining bosh kafolati bo‘lgan - o‘rta sinf mulkdorlar qatlamini shakllanishida, turli ijtimoiy guruhlar daromadlari nomutanosibligini silliqlab turuvchi iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi ulushini o‘stirishda, nisbatan kam mablag‘ sarflab, yangi ish o‘rinlarini yaratishda, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda hamda asosiysi mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sishida bu soha muhim va asosiy manbadir. Darhaqiqat, Prezident I.A.Karimov KBXTni rivojlantirish orqali erishayotgan yutuqlarimizga to‘xtalib: «□biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfni shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishmoqdamiz[33] degan fikr- mulohazalarini bildirganlar. Bugungi kunda kichik korxonalar faoliyatini

[33] Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш –тараққиётимизнинг муҳим омилидир//Маърифат,-Тошкент:2010.-56.

rag'batlantirish maqsadida yildan yilga takomillashib borayotgan me'yoriy - huquqiy asos yaratilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2.6-jadval ma'lumotlarida keltirilgan ko'rsatkichlarning yillar davomida o'sganligiga guvoh bo'lamiz. KBXTning YaIMdagi ulushi 2001-yilda 33,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 52,5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi KBXT tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning yillar davomida o'sganligi hisobiga erishilayotganligi jahon sahnasida o'z o'rnini mustahkamlayotgan O'zbekiston uchun quvonarli holatdir. Shuningdek, oxirgi 8 yil davomida respublika bo'yicha jami korxonalar sonidagi kichik korxona va mikrofirmalar salmog'i ham o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu holat kichik biznesning mamlakatning mahsulot eksportidagi ulushi, jami tovar va tashqi savdo aylanishlaridagi ulushlarida ham kuzatildi. Respublikamiz bo'yicha yangi ish o'rinlarini yaratishda ham kichik biznes ulushi yuqori bo'lib, oxirgi yillarda qariyib 70 foizdan ko'prog'ini tashkil etmoqda.

Shu nuqtayi - nazardan olib qaraganda bugungi kunda KBXT faoliyatini rivojlantirish, qo'llab - quvvatlash mexanizmini samarali yo'lga qo'yish va takomillashtirib borishni taqozo etadi. KBXT faoliyatini rivojlantirish hamda ular faoliyatini qo'llab - quvvatlash mexanizmini samarali yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekistonda mazkur subyektlar faoliyatini rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish va har bir bosqichda erishilgan ijobiy natijalar va kuzatilgan kamchiliklarga atroflicha to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodchi olimlar O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish bosqichlarini uchga bo'lib tadqiq etgan. Ya'ni:

1.»Chorizm davri» (1865–1917-yillarni qamrab olgan);

2.»Sobiq Sovetlar davri» (1917–1991-yillarni qamrab olgan);

3.»Mustaqillik davri» (1991–2003-yillarni qamrab olgan)

Mazkur bosqichlar tarixiy - iqtisodiy jihatdan O'zbekistonda KBXTning dastlabki shakllanishi, o'zbek xalqining an'anasi va turmush tarzining muhim qirralarini ochib bergan ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanib, mamlakatimiz hududlarining o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratilmagan. O'zbekistonda mustaqillik yillarida shakllangan huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, mintaqalarimizning o'ziga xos xususi-

yatlari, moddiy va nomoddiy resurslarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi, rivojlangan mahalliy madaniyatlarning o'ziga xosligi, erishilgan ulkan boy amaliy tajribalar KBXT faoliyatini rivojlanish bosqichini asosiy beshta bosqichga bo'lishni taqozo etadi.

2.5-jadval

O'zbekistonda ro'yxatga olingan kichik, o'rta biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari va unda band bo'lganlar sonining 1990-2010-yillar davomidagi o'sish dinamikasi[37]

Yillar	Jami ro'yxatga olingan KBXT soni (ming ta)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (foizda)	KBXTda band bo'lganlar soni (ming kishi)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (foizda)
1990	8,8	141,1	268,5	137,8
1991	9,8	111,4	269,2	103,8
1992	52,8	177,0	3728,4	112,2
1993	74,4	140,9	4661,2	125,0
1994	98,5	132,3	5462,9	117,2
1995	142,0	144,1	6577,4	120,4
1996	171,0	120,4	7004,9	106,5
1997	146,7	85,8	3873,7	55,3
1998	165,6	112,9	3548,3	91,8
1999	159,7	102,6	4152,5	117,0
2000	183,0	114,5	4316,5	108,0
2001	201,9	110,3	4687,7	108,0
2002	239,5	118,6	4965,6	105,0
2003	263,8	110,2	5436,7	114,0
2004	277,4	105,1	6038,3	104,1
2005	308,7	111,3	6679,0	110,7
2006	384,1	124,4	7258,6	108,7
2007	422,3	109,9	7762,8	106,9
2008	435,9	103,2	8024,1	103,4
2009	452,9	104,1	8402,3	104,7
2010	454,1	100,1	8639,3	102,8

[37]Мазкур йиллардаги Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг йиллик ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.

O‘zbekiston hududida KBXTni bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida turli shakllarda: kooperativ, yakka mehnat faoliyati, shaxsiy va xususiy tadbirkorlik, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari kabi shakllaridan tashqari, keyinchalik hududlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, hunarmandchilik, kosibchilik, zargarlik, temirchilik, sog‘liqni saqlash, turizm, servis kabi sohalarning rivojlanishida kuzatildi.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik faoliyatini ilk huquqiy negizini yaratish maqsadida 1991-yil 15-fevralda «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonun, «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish», «Kichik va o‘rta korxonalar, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»[36] hamda boshqa qator qonun, qaror, farmonlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi 1990-yildan KBXT faoliyatini yildan yilga yaxshilanishiga, ular sonini ko‘payishiga, faoliyat jabhalarining kengaytirilishiga zamin yaratdi (2.5-jadval).

Yuqorida keltirilgan fikr - mulohazalarimizga tayangan holda KBXT faoliyati rivojlanishini quyidagi beshta bosqichga bo‘lib, tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

I-bosqich (1990–1995-yillar).

Mazkur bosqichda erishilgan ilk natija 1990-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan barcha hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, shaxsiy tomorqa uchastkalarini kengaytirish uchun 2,5 million oila birinchi marta yer uchastkalariga (550 ming g.) ega bo‘ldilar. Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mulkchilik», «Korxonalar», «Kooperatsiya», «Tadbirkorlik», «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari», «Monopolistik faoliyatni cheklash», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish» to‘g‘risidagi qator qonun va farmonlar qabul qilindiki, ularda aholining ongida bozor munosabatlarini shakllantirsh ruhiyatini, xususiy mulkchilikka ega bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida «O‘zbekistonda tadbirkorlar uyushmasini va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini tashkil qilish», «Kichik

[36] Ўзбекистон Республикаси Қонунлар, Қарорлар,Фармонлар тўпламлари. Т.:Ўзбекистон. 1999,2004,2007йй.

va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armani tashkil qilish to‘g‘risida» gi qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni KBXT faoliyatini shakllantirishga xizmat qilib, ular faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishga erishildi. Mazkur dastlabki bosqichda amalga oshirilgan barcha chora-tadbirlarning asosiy maqsad va vazifalari, erishilgan natijalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- Oliy Majlis qonunlarida, hukumat qarorlarida, Prezident farmonlarida va davlatning boshqa mutasaddi tashkilotlari tomonidan chiqarilgan hujjatlarida ta’qiqlanmagan faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyati yuzaga keldi;
- KBXT faoliyatining mustaqilligi, erkinligi, ularni himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash mexanizmining dastlabki bosqichlariga asos solindi hamda ular faoliyati davlat tomonidan kafolatlanishi belgilandi;
- xususiy mulkchilikni qonun bilan kafolatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus moddasi bilan kafolatlandi;
- fuqarolarning xususiy korxonalari, mulklari himoyasi va dahlsizligi kafolatlandi;
- shaxsiy mablag‘larini saqlash, hisob - kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun banklarda hisob raqamlarini ochish yo‘lga qo‘yildi;
- moliyaviy xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish natijasida topilgan o‘z daromadlaridan soliqlar va majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng qolgan qismi o‘z xohishiga ko‘ra sarflanishi mumkinligi belgilandi;
- davlat tomonidan tartibga solish, qo‘llab - quvvatlash va ijtimoiy sug‘urtalash tizimi yo‘lga qo‘yildi;
- KBXT o‘z faoliyati natijalariga o‘zlari mas’ulligi belgilandi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hududlarda faoliyat yurituvchi KBXT doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni izlashi, qonunlar doirasida moddiy va nomoddiy resurslardan samarali

foydalanish imkoniyatlari vujudga keldi. Xulosa qilib aytilganda, birinchi bosqichda qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi hamda hududlarda muayyan tajriba to'plandi.

I-bosqich (1996–2000-yillar)

Mazkur yillarda hududlarda faoliyat yurituvchi KBXT faoliyatlari rivojlanishiga erishish borasida yanada keng imkoniyatlar yaratilib, ularning huquq va majburiyatlari, ularga nisbatan belgilangan imtiyozlar tarkibi yanada kengaytirildi. Jumladan, Oliy Majlisning «Tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish», «Yer Kodeksi», «Soliq Kodeksi», «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'armalarni tashkil etish», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari», «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish», kabi qonunchilik asoslari hamda kichik tadbirkorlik faoliyati maqomini belgilovchi mezon qabul kilindi, KBXT faoliyatini hududlarda yanada takomillashtirishga oid huquqiy kafolatlangan baza yaratildi va quyidagi yutuqlarga erishildi:

– davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan mulkni, obyektlarni sotib olishda yuridik, jismoniy va xorijiy shaxslarning mablag'lari bo'yicha dekloratsiyalash talab etilmadi hamda tanlov asosida, xususiy mulkni sotib olish imkoniyati yuzaga keldi;

– Respublika bo'yicha valuta bozorini tashkil etish va takomillashtirish hamda mavjud muomaladagi valuta resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida jismoniy shaxslarga chet el valutasida hisob raqamlari ochish hamda ulardan foydalanish mexanizmi yo'lga qo'yildi;

– O'zbekistonning barcha fuqarolariga tovarlarni chetdan sotib olish va ichki bozorni to'yintirishni ta'minlaydigan xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, mayda ulgurji oilaviy asosda tashkil etilgan mikrofirmalarni tashkil etish uchun ularga milliy hamda xorijiy valutada kredit berish mexanizmi joriy etildi;

–Respublika va chet el fuqarolari tomonidan, O'zbekistonda naqd xorijiy valutalarini olib kelish hamda olib chiqishdagi cheklovlar bekor qilindi;

– O‘zbekiston hududida, xalq iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan qo‘shma korxonalar ustav fondida xorijiy sarmoya ulushi 50% dan ortiq bo‘lsa, xorijiy valutadagi tushumdan soliq solishdan hamda shu korxonalarning O‘zbekiston Markaziy bankida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga majburiy soliqdan ozod qilindi.

KBXTning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida «Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi, «Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi hamda qishloq joylarida KBXT faoliyatini kengaytirishga imkoniyat yaratildi. Ularning huquq va majburiyatlari, yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish yo‘nalishlari belgilandi va ular faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Shuningdek, mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi qator vazifalar belgilab olindi:

– KBXT faoliyati bilan shug‘ullanadigan fuqarolar xo‘jalik faoliyatida erkin ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularning faolligini oshirish;

– Hududlarda mulkdorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini jadallashtirish;

– KBXTga yollanma ishchi kuchidan shartnoma asosida foydalanish munosabatlarining me’yoriy mezonlarini belgilash.

Ushbu bosqichda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiluvchi va muvofiqlashtirib turuvchi markaz «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palata»si tashkil etilishi tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur palata – bu tarmoqlardagi yirik xo‘jalik yurituvchi birlashmalar tarkibiga kirmaydigan kichik, o‘rta, xususiy tadbirkorlik subyektlarini a’zolik shartnomasi asosida birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritdi[45]. Mazkur palataning hududlardagi boshqarmalari tuzilib, tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarga chiqishda ham amaliy yordam berdilar. Shuningdek, vakolatli mahalliy davlat organlari tomonidan KBXT faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, ilmiy-tadqiqot markazlari, axborot maslahatlari, innovatsion fondlar tashkil etildi. Mazkur subyektlar KBXTga bozorlarga

[45] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 12 мартдаги Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 24 апрелдаги Қонунлари.

kirishi uchun har qanday to'siqlarga barham berishi, ularga huquqiy-tashkiliy, iqtisodiy masalalarda ko'maklashishi hamda hududlarning muhim ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarini echishda amaliy ko'mak berishlari lozimligi belgilandi.

Bu bosqichdagi qonunchilik asoslarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishning ikki usuli belgilab qo'yildi: 1-usuli korxona (firma) sifatida-yuridik shaxslar; 2-usuli individual jismoniy shaxslar sifatida. KBXT faoliyatining shunday tashkiliy-huquqiy shakli vujudga keldiki, unda mol-mulk egasi bitta shaxs yoki oila, uning boshlig'i, o'zining faoliyatidan topgan barcha daromadiga egalik qiladi va faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan xavf-xatar, tavakkalchilik uchun yakka o'zi yoki oilasi javob beradi. Ularning tadbirkorlik shakllari: hunarmandchilik, pulli xizmat, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, fermer va dehqon xo'jaligi, maslahat beruvchi biznes, maishiy xizmat, tibbiyot va ta'lim kabi sohalarda, hunarmandchilik, kosibchilik tarmoqlarida, kasanachilik shakllarida ko'proq rivojlandi.

Ikkinchi bosqich oxirida O'zbekiston hududlarida, aholining asosiy qismini tadbirkorlikka qiziqishi ortdi hamda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 1995-yildagi 142,0 tadan 2000-yilda 183,0 taga ko'paydi (112,1%ga ko'paydi). Shundan nodavlat sektordagi barcha ro'yxatdan o'tgan xo'jalik subyektlarining umumiy sonida kichik va o'rta xo'jalik yurituvchilarning ulushi 1996-yildagi 61,6 % dan, 2000-yilda 1996-yilga nisbatan 80,6 %ga ko'paydi[46]. Jumladan, o'rta korxonalar 8,9 mingtaga, kichik korxonalar 23,2 mingtaga, mikrofirmalar 127,6 mingtaga ko'paydi[47]. Qonunchilikka tub o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali, islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Mazkur bosqichning o'z yutuqlari bilan birga, qator kamchiliklari ham kuzatildi. Jumladan:

–KBXT ixtiyoridagi moliyaviy miqdorning katta emasligi, bu esa ularga yirik miqdorda kapitallarni investitsiyaga jalb qilish imkoniyatini cheklab, hududlar faoliyatini kengaytirishda qiyinchiliklarni vujudga keltirdi;

---

[46] Ўзбекистон Республикаси статистик тўплами. Т.: Ўзбекистон, 2005. 212 б.
[47] Ўзбекистон Республикаси статистик тўплами.Т.: 2005. 212б.

2.6-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida band aholining mulkchilik shakllari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)[48]

Ko‘rsatkichlar	1997 yil	1998 yil	1999 yil	2000 yil	2000-yilda 1997-yilga nisbatan %da
Iqtisodiyotda jami band bo‘lganlar	100	100	100	100	100
Shu jumladan: Davlat korxonalari	27,2	25,8	25,1	24,0	88,2
Nodavlat korxonalar	72,8	74,2	74,9	75,9	104,3
Shu jumladan:Qo‘shma korxonalarda	0,8	0,9	0,9	0,9	112,5
Fuqarolar xususiy mulkidagi korxonalarda	35,1	39,6	44,5	47,8	136,2
Fermer xo‘jaliklarida	2,2	2,0	2,8	3,1	140,9
Dehqon xo‘jaliklarida	14,9	14,9	12.9	13,1	87,9
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	18,0	20,0	25,2	28,2	156,7
Boshqa turdagi korxona va tashkilot	36,9	33,7	29,5	27,2	73,7

–KBXTning xo‘jalik faoliyatida tez-tez uchrab turadigan turli xavf-xatar va tavakkalchilik darajasining yuqoriligi saqlanib qolindi;

– KBXT mol-mulkining boshqa shaxsga (masalan, oilaning boshqa a’zolariga) berish mexanizmidagi noaniqliklar, huquqiy me’yorlarning mukammal emasligi;

– mulk egasining vafoti, mehnatga noloyiq bo‘lib qolishi yoki ishdan chetlanishi (javobgarligi, jinoyati tufayli) jarayonlarida yuzaga keladigan holatlarni tartibga solishning qonunchilik asosining takomillashuvga muxtojligidir. Bu bosqichda KBXTlarda ishlovchilar soni 1995-yilga nisbatan pasaydi. Buning sababi 1996-yilning kuzidan boshlab importni davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida vositachilik faoliyatidan olayotgan daromadlari darajasi qisqardi, davlat ko‘proq e’tiborni ishlab chiqarishga va alohida tarmoqlarni rivojlantirishga qaratdi. Bunday o‘zgarishlar natijasida qator salbiy holatlar kelib chiqdi. Mazkur sohada band bo‘lganlar sonining qisqarishi ishsizlik muammosini chuqurlashuviga olib keldi. Shu davrda fermer sifatida ro‘yxatga olinganlarning

[48] Мазкур йиллардаги ЎзР давлат статистика қўмитасининг йиллик ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.

ko‘pchiligi faqat vositachilar bilan bitimlarni yengillashtirish va soliq to‘lashdan qochish uchun tashkil qilingan edi.

II-bosqich (2001–2003-yy).

Bu bosqichda Prezident I.A.Karimov tomonidan KBXT faoliyatini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi barcha omillar, ular faoliyatiga asossiz ravishda aralashayotgan, nazorat qilayotgan, turli bahonalar bilan to‘sqinlikni vujudga keltirayotgan hokimiyat idoralari, mahalliy tashkilotlarning noqonuniy xatti-harakatlarini bartaraf etish maqsadida 2003-yil 11-dekabrdagi «Xususiy korxona to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur yillarda hududlardagi KBXTning ishlab chiqarish yo‘nalishlari kengaytirilib, faoliyat turlari ko‘paytirildi, hududlarda faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish infratuzulmasi faoliyatlariga katta e’tibor qaratildi.[49] Shuningdek, KBXT faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qator huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi[50]. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini ishlab chiqarish sohasi rivojlanishiga katta e’tibor berildi. Hududlarda KBXT faoliyatini barcha yo‘nalishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kirtildi. KBXTning vositachilik faoliyatidan oladigan daromadlari darajasini sezilarli darajada qisqartirish, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantirish, ular faoliyatini kreditlash jarayonini soddalashtirish, soliq imtiyozlarini berish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, bu bosqichning xususiyatli tomoni shundaki, KBXTlarni yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2003-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi» PF-1987-sonli farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi PF-3305-sonli farmoniga binoan amaldagi qonun hujjatlariga ba’zi o‘zgartirishlar kiritildi. Bu farmonga asosan subyektni mikrofirma yoki kichik korxona sirasiga kiritish imkonini beradigan yuridik shaxs xodimlarining miqdoriy sonini

[49]Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги 24.01.2003. №ПФ-3202 сонли фармони.

[50]Каримов И.А. Қишлоқ хўжалигида ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим йўналишлари тўғрисидаги 24.03.2003. №ПФ-3226 сонли фармони.

belgilash; xalq xo'jaligi sohasining ayrim tarmoqlari (sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, savdo va h.k.) bo'yicha eng yuqori sonining miqdoriy ko'rsatkichlarini ajratish; yuridik shaxsni kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga kiritish maqsadida hisobga qo'yiladigan shaxslar tarkibini belgilash masalalari tartibga solindi.

2.7-jadval ma'lumotlarida 2000–2003-yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida KBXT sonining o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Bu davrda yirik korxonalarning soni 2003-yilda 93,7% ga kamayib, o'rta korxonalar soni esa qisqardi.

2.7-jadval

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi korxonalar faoliyat turlarining rivojlanish dinamikasi[52]

Korxona turlari	2000	2001	2002	2003	2003-y.da 2000-y.ga nisbatan %da
					2000
Jami (mingta) shu jumladan:	178,3	203,3	223,1	260,5	146,1
Yirik korxonalar	18,6	20,3	21,2	21,0	112,9
O'rta korxonalar	8,9	7,3	7,5	7,6	85,0
Kichik korxonalar	23,2	24,6	24,8	27,7	119,9
Mikrofirmalar	127,6	151,1	169,6	204,2	160,0

2003-yilda 2000-yilga nisbatan 119,4% ga va mikrofirmalar soni 160,0% ga ko'paygan. Tahlil qilinayotgan davrda, faoliyat ko'rsatgan KBXTning davlatga qarashli tashkilotlaridan tashqari, barcha mulkchilik shakllaridagi korxonalar barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldilar. Shu davrda davlat mulkchiligidagi korxonalar 112,9%ga, nodavlat korxonalar 149,9 foizga ko'paydi[51].

Mazkur yillarda hududlardagi KBXTning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida qator muammoli vaziyatlar kuzatildi. Jumladan: bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoyalash; KBXT tomonidan jamiyat, davlat manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish; KBXT faoliyatini rag'batlantirish hamda resurslarni

[52] Ўзбекистон статистик тўплами. Т.: 2005, 112 б. Ўзбекистоннинг йиллик статистик тўплами. 2008 й. 201-бет.

[51] http (www2ifc.org) centralasia (sme)ruzuzveyhtm).

adolatli taqsimotini amalga oshirishga erishish; KBXTning axborot resurslari bilan muntazam ta'minlanishdir.Shuningdek, hududlarda KBXT faoliyatini rag'batlantirish maqsadida «bir joyda, uch kunda» tezisi ostida mahalliy hokimiyat organlarida ro'yxatga olish mexanizmi joriy etildi[53]. Tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalanadigan turlari ro'yxati qayta ko'rib chiqildi[54], ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish va iste'molga berish tamoyili asosida sertifikatlash tizimi joriy etildi[55]. Mazkur bosqichda o'z faoliyatini amalga oshirgan KBXTning asoslanmagan xarajatlari va tavakkalchiliklarini kamaytirish, ular faoliyatini, ayniqsa, hududlardagi ishlab chiqarish sohasidagi faoliyatini kengaytirishga, qo'shimcha investitsiyalarni yo'naltirishga, foyda miqdorini oshirishga katta e'tibor qaratildi.

V-bosqich (2004–2008-yy)

Bu bosqichning asosiy xususiyati, barcha hududlarda KBXTga, hukumatning e'tibori yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sohalarida samarali faoliyat yuritayotganlarga iqtisodiy, huquqiy-tashkiliy, ijtimoiy, ma'naviy kompleks shart-sharoitlar yaratildi. Respublika va mahalliy hukumatlar bilan tadbirkorlar o'rtasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga kelishida, jahon mamlakatlari va xalqaro moliya institutlari tajribasida donorlarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro yordami, iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlashga ko'maklashuvi ham oshib bordi.

2005-yildan boshlab kichik biznesni soliqqa tortish tizimida to'plangan tajribalarga tayangan holda, tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Mazkur subyektlar faoliyatini aynan soliqlar orqali rag'batlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirma-

---

[53]Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш учун рўйхатдан ўтказиш тартиблари тизмини такомиллаштириш тўғрисида», 20.08.2003. № 357-сон қарори

[54]Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг "Амалга ошириш учун лицензиялар талаб килинадиган фаолият турларининг рўйхати тўғрисида" 2001-йил 12-майда қўшимча киритилди.

[55] Ўз.Р.В.М.нинг "Маҳсулотларни сертификатлаштириш тартибини соддалаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" 2004-йил 6-июлдаги №-318-сонли қарори.

lar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni bilan esa 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi. 2006-yildan boshlab esa umumiy tartibda soliq to'lovchi korxonalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda QQS to'lash imkoniyati berildi.

2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi PQ-100-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishlari o'rniga, har chorakda taqdim etishlari belgilandi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan hisobotlar soni qisqartirildi, soliq to'lovchilarni soliq idoralariga tashrif buyurishlari, moliyaviy hisobotlarga ortiqcha vaqt va mablag' sarflashini oldi olindi. Tadbirkorlik subyektlaridan hisobotlarni elektron aloqa vositalari orqali qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli farmoni qabul qilinishi orqali tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish faqat Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilishi belgilandi. Agar ular tomonidan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish davomida jinoyat alomatlari aniqlansa tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shu jumladan, soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari mavjud holatlar yuzasidan Bosh prokuratura huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga taqdim etishlari belgilandi.

Tadbirkorlik subyektlarini tekshirish vakolatiga ega bo'lgan

nazorat organlarining sonini qisqartirilishi, ular moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir etishini oldi olindi.

2.8-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarini tarmoqlar bo'yicha aniqlash mezonlari

Mikrofirmalar	O'rtacha yillik ishchilar soni PF-1987	Farmon chiqqandan keyin PF-4232
-Ishlab chiqarish tarmoqlarida	20 kishidan	+4 kishi
-Hizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda	10 kishidan	+2 kishi
-Ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida	5 kishidan	+1 kishi
Kichik korxonalar		
-Asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati	100 kishidan	+20 kishi
-Engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish, Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi masulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari	50 kishidan	+10 kishi
-Fan, ilmiy hizmat ko'rsatish, transport, aloqa, hizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar	25 kishidan	+5

2010-yil 28-iyuldagi PF-4232 sonli «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan respublika kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzilganda, band xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan normativdan ko'pi bilan 20 foiz oshirilgan hollarda,

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar ularda saqlanib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 325-sonli qaroriga muvofiq, 2006-yil 1-apreldan boshlab moliya, bank va maishiy hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslar uch yilga daromad (foyda) solig‘i, yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etildilar. Buning natijasida, 2007-yilda faqatgina Toshkent shahrida mazkur faoliyat bilan shug‘ullanuvchi 456 ta mikrofirma va kichik korxonalar 3 mlrd so‘mga yaqin imtiyozga ega bo‘ldilar. 2008-yilning birinchi yarim yilligida esa 386 ta mikrofirma va kichik korxonalar 523,8 mln. so‘mga teng miqdordagi yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etildilar. Albatta, mazkur mablag‘lar korxonalarga o‘z faoliyatini rivojlantirishga hamda yangi texnologiyalarni jalb etgan holda, modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

2.9-jadval

2004–2008-yillarda faoliyat yuritgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati tavsifi[56]

Ko‘rsatkichlar	2004-yil	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2008-yil 2004-yilga nisbatan (foizda)
Jami ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni	315,9	347,4	423,3	468,8	483,7	153,1
KBXT sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar soni (ming ta)	277,4	308,7	384,1	422,3	435,6	157,0
Faoliyat ko‘rsatayotgan KBXT soni (ming ta)	237,5	260,6	346,1	392,0	398,6	167,8
Ro‘yxatdan o‘tgan KBXTga nisbat faoliyat ko‘rsat KBXT soni %	86,0	84,4	90,1	101,7	92,8	107,9
Jami KBXTda faoli-	6038,3	6266,8	6499,6	7762,	8024,	132,9

[56] Мазкур йиллардаги ЎзР давлат статистика қўмитасининг йиллик хисобот маълумотлари асосида тузилди.

yat ko‘rsata-yotganlarda band bo‘lganlar (ming ki-shi)				8	1	
Kichik korxona, mikro firmalarda band bo‘lganlar soni (ming.k)	1219,1	1266,8	1765,0	2055, 6	2164, 3	177,5
KBXTning YaIM dagi ulushi, foizda	35,6	38,2	42,1	45,5	48,2	135,4

2.9-jadval ma’lumotlarida 2004–2008-yillarda faoliyat yuritgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati tavsifi keltirilgan. 2004-yilda ro‘yxatdan o‘tganlarning 14,0% yil oxirigacha faoliyat ko‘rsatmagan bo‘lsa, 2008-yilda bu ko‘rsatkich 7,2% ni tashkil etdi. KBXT faoliyatini amalga oshirayotganlarda band bo‘lganlarning umumiy soni 2004-yilga nisbatan 6038,3 ming kishidan, 2008-yilda 8024,1 mingdan ziyod kishiga, ya’ni 132,9 %ga, shulardan kichik korxona va mikrofirmalar hisobidan 1219,1 ming kishidan 2164,3 ming kishiga yoki 177,5 %ga ortdi. Barcha KBXTning YaIMdagi ulushi 2004-yilda 35,6 %ni, 2008-yilda esa 48,2 % ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 135,4 %ga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3860-sonli farmoniga asosan, soddalashtirilgan tartibda faoliyat yurituvchi mikrofirma va kichik korxonalarga besh yil davomida yagona soliq to‘lovini to‘lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliq bazasining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamaytirishga doir soliq imtiyozi berildi.

V bosqich (2009-yildan hozirgi kunga qadar

Bu bosqichni xususiyatli tomoni shundaki, KBXTni yanada jadal faoliyat yuritishi, ularni tashkil etishdagi jarayonlarni takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezitdentining 2009-yil 15-mayda «Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi (28.04.2010y. PF-4215-sonli farmoni bilan o‘zgartirish kiritilgan) qarori qabul qilindi. Shuningdek, jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan paytda, o‘z vaqtida shakllangan shart-sharoitni to‘g‘ri tahlil etgan holda, mamlakatimizda 2009–2012-yillarga mo‘ljallab «Inqirozga qarshi choralar» dasturining qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan asosiy strategik tadbir bo‘ldi. Shuningdek, dasturda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotda real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari sifatida mahsulot tannarxini pasaytirish, eksportyor korxonalarga soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish, qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va bu orqali ular faoliyatini rag‘batlantirish kabi vazifalar qo‘yildi. Mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlardan biri, bu soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shimcha choralar ko‘rilganidir. Jumladan, 2009-yili yengil va oziq - ovqat sanoatining iste’mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlar berilgan bo‘lsa, uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlari, korxonalarning kapitallashuv va investitsiya kiritishga yo‘naltiriladigan dividendlari 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etildi. Dasturni amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berish hisobidan 500 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ xo‘jalik subyektlari tasarrufida qoldirilib, bu mablag‘lar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag‘larini to‘ldirishga, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashga, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirildi. Dastur doirasida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048 sonli qaroriga muvofiq eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni yanada rag'batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan, respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko'maklashish maqsadida, shuningdek, Respublika ikkinchi sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi yakunlarini hisobga olgan holda mazkur qarorga kiritilgan korxonalar 2011-yil 1-yanvargacha:

– chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari);

– mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

– mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilindi.

2011-yil esa № PQ1474-sonli qaroriga asosan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yili deb e'lon qilinib, Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur dastur doirasida quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratildi: Mamlakat mintaqalarida KBXT faoliyatini yanada rivojlantirish; KBXT faoliyatini yanada tartibga solish yuzasidan qonunlar va qonun osti hujjatlarini tanqidiy baholab, tubdan qayta ko'rib chiqish; KBXT faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, xomashyo resurlari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish; KBXTning eksport salohiyatini

rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish.

2.10-jadval

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi holati tavsifi[58]

Sohalar va tarmoqlar	2000-yil		2010-yil		2010-yilda 2000-yilga nisbatan (marta)
	hajmi (ming ta)	foizda	hajmi (ming ta)	foizda	
Sanoatda	21,9	12,0	29,9	11,9	1,3
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida	41,4	23,2	54,4	21,6	1,3
Qurilishda	14,1	0,7	18,4	7,3	1,3
Transport va aloqada	2,6	0,14	8,5	3,4	3,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	63,8	35,8	63,0	25,0	0,9
Moddiy-texnika ta’minoti, tayyorlov, axborot-hisoblash xizmati, uy-joy kommunal xo‘jaligi	6,7	1,37	14,6	5,8	2,2
noishlab chiqarish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishda	1,9	0,01	3,4	1,3	1,8
Sog‘liqni soqlashda	4,8	2,6	9,9	3,9	2,1
Maorif, madaniyat, san’at, fan va ilmiy xizmat ko‘rsatishda	5,5	7,0	21,1	8,4	3,8
Moliya, kredit, sug‘urta, boshqaruv organlari va boshqalarida	17,6	9,26	28,6	11,4	1,6
Jami	**178,3**	**100**	**472,8**	**100**	**2,6**

2011-yil 24-avgustda KBXTsubyektlarining tijorat banklari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlarni, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish,

[58] *Мазкур йилларлаги ЎзР давлат статистика қўмитасининг йиллик ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.*

mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilashga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish maqsadida «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Shu o'rinda KBXTni kreditlash jarayoniga xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari yildan-yilga ko'proq jalb etilmoqda. Jumladan, 2010-yilning o'zida 146 mln.AQSh $ni tashkil etdi. Respublikada «2011–2015-yillarda bank moliya sohasini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari Dasturi»ga asosan KBXTlarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining imtiyozli kreditlar liniyalari va grantlaridan 2011-yilda 75 mln.dollar, 2012-yilda 90 mln.dollar, 2013-yilda 115 mln.dollar, 2014-yilda 130 mln.dollar, 2015-yilda 155 mln.dollar jalb etish ko'zda tutilgan bo'lib, shunga muvofiq samaradorlikka erishish uchun «Mikrokreditbank» KBXTni mikrokreditlashni kengaytirish bo'yicha har bir yil uchun maxsus rivojlantirish dasturini ishlab chiqishi va amalga oshirishi ko'zda tutilgan.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida iqtisodiyotning barcha sohalarida o'sishga erishildi. 2.10-jadval ma'lumotlarida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan KBXT subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi holati tavsifi keltirilgan. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 2000–2010-yillarda ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ulushi 75,0%ni, xizmat ko'rsatishda esa 25,0% ni tashkil etmoqda. Shuningdek, moddiy ishlab chiqarish sohalarida ish bilan band bo'lganlarning soni 64,6% ni tashkil qildBundan tashqari tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga davlat organlari tomonidan noqonuniy aralashish holatlarini o'z vaqtida aniqlash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy saytida «Tadbirkor murojaati» maxsus sahifasi ochildi. 2011-yilda mazkur sahifa orqali tadbirkorlardan 124 ta murojaat kelib tushgan. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan 716 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishlarda, shu jumladan,

618 ta rejali hamda 98 ta rejadan tashqari tekshirishlarda Savdo-sanoat palatasi vakillarining ishtiroki ta'minlandi.

Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari tomonidan har haftaning juma kunlari «Tadbirkorlik kuni» tadbirlari o'tkazib kelinishi belgilandi. 2011-yil davomida mazkur tadbirlarda 106,8 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari ishtirok etishdi hamda ulardan 26,3 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushdi. Shundan 24,9 ming murojaat tadbir doirasida tadbirkorlik subyektlari foydasiga hal qilingan bo'lsa, 1344 ta murojaat qo'shimcha ravishda o'rganib chiqish uchun vakolatli organlarga taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-sonli «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan (2.5-rasm) yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarida davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab dastlabki ikki yil mobaynida rejali tekshirishlar o'tkazilmasligi belgilangandi. Natijada, davlat ro'yxatidan o'tganiga 3 yil to'lmaganligi sababli 171 ta, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi bo'lmaganligi hamda ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlayotganligi tufayli 633 ta kichik tadbirkorlik subyektlari 2011-yil uchun rejali tekshirishlardan chiqarildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi O'RQ-343-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining 4 ta qonun hujjatlariga, ya'ni «Bankrotlik to'g'risida», «Boj tarifi to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunlarga hamda Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Soliq va budjet siyosatining 2013-yilgi mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek, soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan Soliq kodeksining 50 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Masalan, Soliq kodeksining 50-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek, avval hisoblangan va

undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha penya va jarimalar hisoblashni to‘xtatib turilishini nazarda tutadi.



2.5-rasm.

Shuningdek, 2012-yil 18 iyuldagi PF-4455-sonli farmon bilan korxona bankrot deb topilganda tugatishga doir ish yuritish davrida mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, shuningdek, avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha penya va jarimalarni hisoblash to‘xtatib turilishi belgilangan bo‘lib, kodeksga kiritilayotgan o‘zgartirish mazkur me’yorni amal qilishini mustahkamlaydi. 2013-yil 1-yanvardan boshlab qo‘shimcha foyda solig‘idan tashqari, barcha soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha oyma-oy soliq hisobotini taqdim etish bekor qilindi.

Bundan tashqari Soliq kodeksining 91-moddasi, ya’ni, davlat soliq xizmati organi rejali soliq tekshiruvi o‘tkazishning boshlanishi haqida tekshiruvni o‘tkazish boshlanishidan kamida 30 kalendar kun oldin tadbirkorlik subyektini tekshiruvdan o‘tkazish muddatlari va predmetini ko‘rsatgan holda, yozma shaklda xabardor qilishi shartligi; tadbirkorlik subyekti tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliya va soliq

hisobotini, shuningdek, tadbirkorlik subyektining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida o‘tkaziladigan kameral nazorat natijalari bo‘yicha qoidabuzarliklar aniqlangan hollardagina davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqishi mumkinligi to‘g‘risidagi qo‘shimchalar bilan to‘ldirildi.

2.11-jadval

2013-yil 1-yanvardan boshlab birlashtirilgan soliq hisoboti shakllari tavsifi

T/r	2013-yil 1-yanvardan boshlab birlashtirilgan soliq hisoboti shakllari	Birlashtirish natijasida yuzaga kelgan soliq hisoboti shakllari
1. Foydadan to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha		
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitobi.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisob-kitobi.
1.2	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisob- kitobi	
1.3	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash uchun ma’lumotnoma.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash uchun ma’lumotnoma.
1.4	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash uchun ma’lumotnoma.	
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha		
2.1	Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya	Jismoniy shaxsning jami daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya
2.2	Jismoniy shaxsning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadi bo‘yicha yakuniy deklaratsiya	

3. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha		
3.1	Yagona ijtimoiy to'lov hisob-kitobi.	Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob – kitobi.
3.2	Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob - kitobi.	
4. Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha		
4.1	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob – kitobi.	Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar hisob – kitobi.
4.2	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob – kitobi.	
4.3	Budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob - kitobi.	

Soliq kodeksining 176- va 179-moddalariga kiritilgan o'zgartishga asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin oilaviy korxona ishtirokchisi ixtiyorida qoladigan foyda summasi jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga kiritilishi va jismoniy shaxslarning daromadi sifatida soliqqa tortilmasligi, 351-moddasiga kiritilgan o'zgartish bilan oilaviy korxonalar soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz, yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanashi belgilab qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda kichik korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida yildan - yilga takomillashib borayotgan me'yoriy - huquqiy asos yaratilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar

Kichik biznes, kichik korxona, yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, mezon, ishchilar soni,

aylanma mablag'lar, YaIM, iqtisodiy o'sish, mikrofirma, bandlik muammosi.



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1.Kichik biznes va tadbirkorlik maqomini berish mezonlari qanday?

2. Qanday korxonalar kichik korxona maqomiga kiradi?

3. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik maqomini aniqlash mezoni sifatida qaysi ko'rsatkichdan foydalaniladi?

4. Bugungi kunda kichik biznesning mamlakat YaIMdagi ulushi qanchaga teng?

5. Mamlakat eksport va import operatsiyalarida kichik biznesning ulushi qancha?

6. Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar ulushi umumiy band bo'lganlar ulushining necha foizini tashkil etadi?

7. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanish bosqichlarini necha davrga ajratish mumkin. Javobingizni izohlang.

8. So'ngi yillarda KBXT subyektlari faoliyatini takomillashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash yuzasidan qanday chora – tadbirlar amalga oshirilmoda?



Mavzu doirasidagi qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi 24.01.2003. №PF-3202-sonli farmoni.

2. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risidagi 24.03.2003. №PF-3226 sonli farmoni.

3. Karimov I.A.Mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish–taraqqiyotimizning muhim omilidir//Ma'rifat,-Toshkent:2010.-5b.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 24.01.2003. №PF-3202 sonli farmoni.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 245b.

6. O‘zbekiston statistik to‘plami. T.: 2005, 112 b. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami. 2008 y. 201-bet.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari tizmini takomillashtirish to‘g‘risida», 20.08.2003. № 357-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1048 sonli qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi O‘RQ-327-sonli Qonuni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 19-iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4455-sonli farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to‘g‘risida»gi PQ-1672-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 4354-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4296-sonli farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF- 4296-sonli farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. T.:O‘zbekiston, 2005. 212 b.

16. O‘zbekiston mustaqillik yillarida T.: O‘zbekiston. 1996. 37-38b. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami .-T.: O‘zbekiston, 2005. - B.217. O‘zbekiston statistik to‘plami.-T.: 2005. -B. 216.

17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi arxiv materiallari.O‘zbekiston mustaqillik yillarida -T.:1996. -B. 37-38.

18. Anikin A. Yunost nauki. -M.:Delo LTD, 1971.-S.308-310. Vsemirnaya istoriya ekonomicheskoy misli. M. :1988.-S. 95-99.

19. Sey J.B. Traktat politicheskoy ekonomiki. M.: 1985, 55-b.

20. Alayev L.B., Atsamba A.A., Vigasin A.A., Vorobey N.V. i drugie. Vsemirnaya ictoriya ekonomicheskoy misli. V 6 t. M.:Misl,1987. T-1. 84-92 s.

21. Alayev L.B.,Atsamba A.A.,Vigasin A.A.,Vorobey N.V. i drugie. Vsemirnaya ictoriya ekonomicheskoy misli. V 6 t. M.:Misl,1987. T-1. 95-96 s.

22. Ahmedov B. AminovA. Amir Temur o‘gitlari..-T.:Navro‘z, T.: 1992. - 11.

23. Shodmonov Sh., Jo‘rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Moliya, 2002.-180b.

24. Keyns J. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – Moskva: Ekonomika, 1948. – S. 238-241.

25. Xayek Fon A. Doroga k rassvetu . –Moskva: Ekonomika, 1992. – 91s.

26. Xizrich R., Piters M. Predprinimatelstvo ili kak zavesti sobstvennoe delo i dobitsya uspexa.–M.: Progress, Universitet. 1991. vip.1. – S. 20-25.

27. Shumpeter Y.Teoriya ekonomicheskogo razvitiya.M.:Progress.1985,159-b.

28. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks. T-1, M.: 1992, 38-b.

29. Jan Lui Servach-Shreyber. Remeslo predprinimatelya. M.: Mej.ot 1994, 50-b.

III bob. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TOMONIDAN DAVLAT BUDJETIGA TO‘LANADIGAN UMUMDAVLAT SOLIQLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Reja:

3.1. Umumdavlat soliqlarining tarkibiy tuzilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

3.2. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari.

3.3. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari.

3.4. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari.

3.5. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning o‘ziga xos jihatlari yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar.

3.6. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, maxsus to‘lovlar va ularning o‘ziga xos jihatlari.

Umumdavlat soliqlarining tarkibiy tuzilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari



O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida kichik biznes subyektlari tomonidan Davlat budjetiga to‘lanadigan umumdavlat soliqlari va ularning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etishdan oldin soliqlarning obyekti, iqtisodiy mohiyati, budjetga tushishi, ularni to‘lovchilari bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Soliqlarni guruhlash orqali ularni xususiyatlari, mohiyati va ahamiyati ochib beriladi. Soliqlar obyektiga ko‘ra

daromaddan, oborotdan va mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga bo'linadi (3.1-rasm).



3.1-rasm.

Soliqlar, deganda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 2-bob, 12-moddasida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar, deganda davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy

to‘lovlarni joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqlidir. Konstitutsiyamizning 51-moddasiga binoan esa har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart. O‘zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksining 23-moddasida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog‘liqligiga ko‘ra to‘g‘ri va egri soliqlarga bo‘linishiga doir zamonaviy yondashuvga muvofiq, to‘g‘ri soliqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarning bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi (3.2-rasm). Soliqlar budjetga tushishiga ko‘ra umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlar hamda mahalliy soliqlar va majburiy to‘lovlarga ajratiladi. Soliqlarni bunday tartibda guruhlash davlat hokimiyati organlarining markaziy va mahalliyga bo‘linishi hamda davlat budjetining respublika va mahalliy budjetlarga ajratilishi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, respublika budjetiga tushishi belgilangan soliqlar va majburiy to‘lovlarni umumdavlat, mahaliy budjetlarga tushishi belgilangan soliqlar va majburiy to‘lovlarni esa mahalliyga ajratish mezoni belgilangan. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi.

Soliq qonunchiligida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tizimi ifodalangan bo‘lib, ular soliq tizimining asosini tashkil etadi. Amalda bo‘lgan soliqlarga nisbatan baho berishda, odatda soliq yukiga e’tibor qaratiladi. Soliq yukining og‘ir bo‘lishi ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantirishni cheklab qo‘yadi. Shuning uchun har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, soliq siyosatini belgilaydi va soliq yukini me’yorida bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga ko‘ra Davlat

hokimiyati va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining barcha darajalardagi mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, mahalliy budjetlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagi umumdavlat soliqlari bo'yicha tushumlar to'liq hajmda mahalliy budjetlar daromadlariga o'tkazilishi belgilandi: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq; yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar)dan olinadigan qat'iy belgilangan soliq; respublikada ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i.



3.2-rasm. **Soliqlarni budjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi tavsifi**

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2010–2012-yilgi Davlat budjeti parametrlari

Asosiy budjet ko‘rsatkichlari	2010-yil	2011-yil	2012-yil	Budjet darmadlarida salmogi %da
Davlat budjeti daromadlari	13 116,4	16 178,5	20 614,1	100
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	3 420,6	4 238,7	5 196,4	25,2
Bilvosita soliqlar	6 973,8	8 656,8	11 187,8	54,3
Resurs soliqlari	1 974,1	2 308,9	2 746,4	13,3
Boshqa daromadlar	589,1	974,0	1 233,5	6,0
Budjet xarajatlari	13 732,5	16 991,1	21 571,7	Budjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz

3.1-jadval ma’lumotlarida O‘zbekiston Respublikasining 2010–2012-yilgi Davlat budjeti parametrlari aks ettirilgan. E’tibor beradigan bo‘lsak, Davlat budjeti daromadlari hajmida bevosita soliqlar ulushi 2012-yilda 25,2 foizga, bilvosita soliqlar ulushi esa 54,3 foizga teng bo‘lgan. 3.2-jadval ma’lumotlarida Davlat budjeti daromadlarining soliq turlari bo‘yicha dinamikasi keltirilgan.

3.2-jadval

Davlat budjeti daromadlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		2012-yil	
	YaIMga nisbatan %da	jamiga nisbatan %da	YaIMga nisbatan %da	jamiga nisbatan %da	YaIMga nisbatan %da	jamiga nisbatan %da
Davlat budjeti daromadlari, jami	22,0	100,0	21,9	100,0	21,4	100,0
Bevosita soliqlar	5,7	26,1	5,8	26,4	5,4	25,2
Yuridik shaxslardan olina digan foyda solig‘i	1,0	4,7	1,1	5,1	1,0	4,4

Savdo va umumiy ovqatla nish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	0,6	2,9	0,7	3,3	0,7	3,4
Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	0,6	2,7	0,6	2,8	0,6	2,6
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2,6	11,7	2,5	11,2	2,5	11,5
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi	0,3	1,2	0,3	1,3	0,2	1,1
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ni rivojlantirish solig'i	0,6	2,8	0,6	2,6	0,5	2,2
Bilvosita soliqlar	11,1	50,4	10,6	48,2	11,6	54,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	6,3	28,7	6,1	27,9	7,0	32,9
Aksiz solig'i	3,6	16,3	3,3	14,9	3,2	15,1
Bojxona bojlari	0,7	3,2	0,7	3,0	0,8	3,6
Jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	0,5	2,3	0,5	2,4	0,6	2,7
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	3,4	15,4	3,4	15,4	2,8	13,3
Mol-mulk solig'i	0,7	3,2	0,7	3,3	0,7	3,1
Yer solig'i	0,5	2,4	0,6	2,6	0,5	2,2
Yer qa'ridan foydalangan lik uchun soliq	2,1	9,4	2,0	9,1	1,6	7,7
Suv resurslaridan foyda langanlik uchun soliq	0,1	0,4	0,1	0,4	0,1	0,4
Qo'shimcha foyda solig'i	0,4	1,8	0,5	2,1	0,3	1,2
Boshqa daromadlar	1,4	6,3	1,7	7,9	1,3	6,0

Jumladan, 2012-yilda Davlat budjeti daromadlari hajmining jamisiga nisbatan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 4,4 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda 4,7 foizga teng bo'lgan.

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar 2011-yilda YaIMga nisbatan 0,6 foizni tashkil etgan.

3.3-jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar mahalliy budjetlari va Toshkent shahri uchun 2012-yilda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdori keltirilgan.

3.3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar mahalliy budjetlari va Toshkent shahri uchun 2012-yilda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar

Hududlar	Yuridik shaxslar foyda solig'i	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining YaSTdan ajratmalar	Mikrofirma va kichik korxonalarning YaSTdan ajratmalar	Jismoniy shaxslar daromad solig'i
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	100	100	100
Andijon	100	100	100	100
Buxoro	53	100	100	50
Jizzax	100	100	100	100
Qashqadaryo	65	100	100	100
Navoiy	61	100	100	61
Namangan	100	100	100	100
Samarqand	100	100	100	100
Surxondaryo	100	100	100	100
Sirdaryo	100	100	100	100
Toshkent	62	100	100	50
Farg'ona	96	100	100	100
Xorazm	100	100	100	100
Tashkent shahri	5	5	5	5

Jumladan, umumdavlat soliqlaridan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha tushumning 100 foizi, Andijon, Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo, Namangan Samarqand, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining mahalliy budjetlariga yo'naltirilgan.

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan foyda solig'i va uning o'ziga xos jihatlari

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991-yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budjetga yo'naltirar edi. Qolgan foyda miqdori esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992-yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar «Daromad» solig'ini to'lashga o'tdilar. 1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, gastrol-kontsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngil ochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).

2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi.

Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan, yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanmaydi. Ular

soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritadilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lovchilari hisoblanishmaydi. Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilar rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar. Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi hamda rezident va norezidentlarning chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayidan soliq solinadigan daromadlari hisoblanadi. Soliq solinadigan baza esa jami daromad bilan chegirib tashlanadagan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'larni kiritish mumkin. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibiga: tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar; boshqa daromadlar kiradi.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan, shu jumladan, yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan

daromadlari hisoblanadi. Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovar (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi. Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi. Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ish (xizmat)lar bo'yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ish(xizmat)larning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Boshqa daromadlarga tovar(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan:

- asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar. Bunga da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar hamda sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar kiradi.
- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar;

- xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar;
- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarima va penyalar;
- valuta hisobvaraqlari bo‘yicha kursdagi ijobiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- royalti;
- tovar(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Solik kodeksiga ko‘ra quyidagilar yuridik shaxs daromadi sifatida qaralmaydi:

– ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar;

– sotilayotgan tovar(ish, xizmat)lar uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo‘nak) tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

– budjetdan berilgan subsidiyalar;

– agar mablag‘larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o‘tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo‘lsa, tekin olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

– olingan grantlar;

– sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar;

– investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk;

– va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan daromadlar.

Jami daromaddan chegirmalar

Soliq to‘lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar xaqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha davrda chegiriladi. SKga ko‘ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo‘linadi. Chegirib tashlanadigan xarajatlarga moddiy xarajatlar, mehnatga haq to‘lash xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari hamda SKining 145-

moddasida nazarda tutilgan boshqa xarajatlar kiradi. Soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, ya'ni chegirilmaydigan xarajatlarga SKning 147-moddasida nazarda tutilgan xarajatlar kiradi.

Soliq stavkalari

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 1998-yilda 36 foizni tashkil etgani holda, 2001-yilda 26 foizga pasaytirilgan edi. 2002-yilda esa 24 foiz, 2003-yilda 20 foiz, 2004-yilda 18 foiz, 2005-yilda 15 foiz, 2006-yilda 12 foiz va 2009-yilda 9 foiz qilib belgilangan (3.3-rasm).



3.3-rasm. **1995-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrda yuridik shaxslar foyda solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi**

3.4-jadval ma'lumotlarida 2013-yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan. Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbayida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi: dividendlar va foizlardan – 10 foiz; sug'urta mukofotlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash – 10 foiz; O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan Xalqaro aloqa uchun

telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi) – 6 foiz; royalti, ijara daromadlari, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar – 20 foiz. Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar to'lov manbayida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi. Soliqqa tortish maqsadida dividend, deb aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi. Foizlarga esa depozit qo'yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar kiradi. Manbayida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega bo'ladi.

3.4-jadval

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliqning 2013-yil uchun STAVKALARI[2]

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
	Yuridik shaxslar (2-3 bandlardagidan tashqari)	10
1	Tijorat banklari	15
2	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
3	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 12-oktyabrdagi PF-1871 soni farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan mustasno): sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi
4	1-bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo'llab haq to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

Imtiyozlar. Soliq kodeksining 158-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 29 декабрдаги ПК-1024-сонли қарори.

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasnodir. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Soliq kodeksining 159-moddasiga ko'ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta’lim muassasalari qurilishiga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o‘rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga.

Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan e’tiboran, texnologik jihozlar bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e’tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to‘lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg‘armalarining mulkida bo‘lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg‘armalarining ustavida belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan ajratmalari summasiga.

Shuningdek, tijorat banklarning soliq solinadigan foydasi

jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni ushbu omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi. Yuqorida keltirilganlardan tashqari soliq to'lovchilar ko'rilgan zararlarni keyingi besh yil davomida taqsimlab o'tkazish orqali soliq solinadigan foydani kamaytirishlari mumkin. Taqsimlab o'tkazilayotgan zararning jami miqdori soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak. Bunda soliq qonunchiligida belgilangan chegirilishi lozim bo'lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar sifatida e'tirof etiladi.

Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni budjetga to'lash muddatlari

Yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda solig'i bo'yicha soliq hisobini ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq idoralariga yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etadilar. Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi. Yuridik shaxslar foyda solig'ini foyda solig'i bo'yicha hisoblarni topshirish uchun belgilangan muddatlardan kechiktirmay to'lashlari lozim.

Yilning hisobot choragida taxmin qilinayotngan soliq solinadigan foydasi eng kam ish xaqining 200 barobaridan ko'proq miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha joriy avans(bo'nak) to'lovlarni har oyning 15-kunida yilning choragi bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydaga nisbatan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

Yuridik shaxslar joriy avans to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun yilning joriy choragi birinchi oyining 10-kunigacha soliq ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq organiga yilning tegishli choragida taxmin qilinayotgan foyda hamda belgilangan foyda solig'i stavkasi asosida ma'lumotnoma taqdim etadilar. Joriy to'lovlar belgilangan muddatlargacha budjetga to'lanmasa

ularga nisbatan soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan 0,05 foiz miqdorida penya qo'llaniladi. Shuningdek, taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydaga nisbatan hisoblangan foyda solig'i summasi topshirilgan hisobot bo'yicha haqiqiy foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilganda, quyi soliq idoralari joriy to'lovlarni foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblaydilar. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish xaqining 200 barobaridan kam bo'lgan yuridik shaxslar chorakda bir marta foyda solig'i to'laydilar, joriy avans to'lovlarini amalga oshirmaydilar. Foyda solig'i hisobotlari o'sib borish tartibida bo'lganligidan oldingi choraklarda to'langan soliqlar hisobga olib boriladi. Ortiqcha to'langan soliq summasi kelgusi to'lovlarga o'tkaziladi yoki soliq to'lovchiga boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi bo'lmasa undan yozma ariza olgan kundan boshlab 30 ish kuni ichida korxonaga qaytariladi. Foydadan soliqni hisoblash va budjetga o'tkazish javobgarligi foydalaridan soliq to'lashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan.

Mavzuga doir amaliy Keys va uning talqini

Keys nomi: Foyda solig'i: hisob-kitob muammolari.

Keys matni: rezidenti bo'lgan kichik korxonaning ustav fondida xorijiy yuridik shaxsning ulushi bor. Jamiyatning sof foydasini uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi qarorni bajarishda (dividendlarni to'lashda) Prezidentning 29.12.2008-yildagi PQ-1024-sonli qarori 5-bandida kapitallashtirish va investitsiyalarga yo'naltiriladigan mablag'lar qismida yuridik shaxslarning dividendlariga soliq solishga doir imtiyoz belgilangan. Biroq dividend tarzida olingan va to'lov manbayida soliq solinmagan mablag'lardan foydalanishning hisob-kitobi va to'lov manbayida foyda solig'i solinmagan dividendlar bo'yicha foyda solig'i hisob-kitobi (dividend tarzidagi daromadlarni soliq solishdan ozod etish to'g'risidagi nizomga 1 va 2-ilovalar, ro'yxat raqami-1901) shakllarida ularni norezident yuridik shaxs tomonidan to'ldirish va taqdim etish imkoniyati nazarda tutilmagan. Ular yuridik shaxs STIRini ko'rsatish va bunday hisob-kitoblarni u ro'yxatga

olingan joydagi soliq organiga taqdim etishni talab qiladi. Biroq bugungi kun amaliyotida yuridik shaxs - ustav fondi ishtirokchisi STIRga ega emas, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazilmagan va soliq organlarida hisobga turmagan, chunki u boshqa davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan, doimiy muassasa emas va bunday alomatlarga ega emas. SKning 20-moddasi beshinchi qismining 4-bandiga ko'ra «doimiy muassasa» tushunchasi O'zR norezidentining O'zR rezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning ustav fondidagi ulushlariga, shuningdek, O'zR hududidagi boshqa mol-mulkka egalik qilishini o'z ichiga olmaydi.

Blits savollar

Dividendlarga soliq solish bo'yicha imtiyozning amal qilishi xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston rezidenti bo'lgan yuridik shaxsning ustav fondida ishtirok etadigan yuridik shaxsga tatbiq etiladimi?

1. Ushbu masala qanday me'yoriy-huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?

2. Agar imtiyoz xorijiy davlatda ham, O'zbekistonda ham ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslarga tatbiq etilsa, rezident yuridik shaxsning ustav fondida ishtirok etishdan dividend oladigan xorijiy yuridik shaxs hisob-kitoblarning qanday shakllaridan foydalanishi kerak?

KEYS tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 29.12.2008-yildagi PQ-1024-sonli qarori 5-bandida yuridik shaxslarning kapitallashtirishga, investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo'naltirilgan mablag'lari tarzidagi daromadlarining 5 yil muddatga soliq solishdan ozod etilishi nazarda tutilgan. Uning mazmunidan imtiyoz yuridik shaxslarga ham tatbiq etilishi kelib chiqadi va bunda yuridik shaxslar qaysi davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilganligiga bog'liq holda imtiyoz belgilanishi aniqlashtirilmagan. SKning 16-moddasiga ko'ra yuridik shaxs deb, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan tashkilot; chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti; O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkiloti e'tirof etiladi. Bundan tashqari, SKning 19-moddasiga binoan

O‘zbekiston rezidenti deb, O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs; rezidentlar uchun belgilangan mezonlarga javob bermaydigan shaxs, ya’ni O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan yuridik shaxs norezident, deb e’tirof etiladi.

«Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonun (30.04.1998-yildagi 609-I-son, bundan keyin - Qonun) 3, 4 va 5-moddalarining mazmunidan kelib chiqib, xorijiy davlatning qonun hujjatlariga muvofiq barpo etilgan va yuridik shaxs - O‘zbekiston Respublikasi rezidentining ustav fondida ishtirok etadigan xorijiy tashkilot O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni amalga oshiradigan xorijiy investor, deb e’tirof etilishi mumkin deb tasdiqlash mumkin. Qonunning 5 - «Chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari» moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilishicha, chet ellik investorlar O‘zbekiston hududida investitsiyalarni: O‘zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining va boshqa korxonalarning ustav fondlarida ulush qo‘shib qatnashishlari; mamlakatimizda investitsiyalarni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin. Shu munosabat bilan ta’kidlash lozimki, qonunning 9-moddasi uchinchi qismiga muvofiq chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim O‘zbekiston yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar uchun tegishli rejimga qaraganda noqulayroq bo‘lishi mumkin emas. «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonunning 22-moddasiga binoan mazkur Qonunning qoidalari bilan O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari yoki xalqaro shartnomalari o‘rtasida biron-bir nomuvofiqlik bo‘lgan holda, chet ellik investorlar uchun birmuncha qulay bo‘lgan qoidalar ustuvor kuchga ega bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan imtiyoz mamlakatimizda yoki xorijiy davlatning qonun hujjatlariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston rezidentlari yoki norezidentlari sifatidagi yuridik shaxslarga tatbiq etiladi deb fikr yuritish mumkin. Bugungi kunda xorijiy davlatda ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslarga tatbiq etilmasligi ko‘rsatilgan me’yoriy-huquqiy hujjat mavjud

emas.

1. Amaldagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi jamiyat (rezident)ning ustav fondida ishtirok etayotgan xorijiy tashkilotlar uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar - xuddi shu ustav fondining boshqa ishtirokchilari uchun bo'lganidan noqulayroq huquqiy rejim nazarda tutilishi mumkin emas. Ushbu qoida Prezidentning PQ-1024-sonli qarori bilan belgilangan yuridik shaxslarning dividendlari tarzidagi daromadlarga soliq solish bo'yicha imtiyozga ham tatbiq etiladi.

2. Bayon etilganlar asosida: dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solish bo'yicha imtiyozning amal qilishi xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxsning ustav fondida ishtirokchi hisoblangan yuridik shaxsga tatbiq etiladi deb hisoblash mumkin. Bunday xorijiy ishtirokchi dividendlarni kapitallashtirish, investitsiyalar va ilgari olingan kreditlar uchun hisob-kitoblarga yo'naltirishga ham haqlidir, bu dividend tarzidagi daromadlarni soliq solishdan ozod etish to'g'risidagi nizom mazmuni bilan ham istisno etilmaydi. Dividend tarzidagi daromadlarni soliq solishdan ozod etish to'g'risida nizomning (MV, IV va DSQning AV tomonidan 10.02.2009-yilda 1901-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) 1-bandiga muvofiq: investitsiyalar yuridik shaxslar tomonidan modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, rekonstruksiya qilish va qurilishga yo'naltiriladigan, shuningdek, boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitaliga (fondiga) qo'yilma sifatida yo'naltiriladigan mablag'lar; kapitallashuv yuridik shaxslar tomonidan o'z ustav fondini (ustav kapitalini) oshirishga mablag'larni yo'naltirish; kredit kredit tashkilotlari tomonidan yuridik shaxslarga muddatlilik va qaytarish shartlari asosida kredit tashkilotiga asosiy qarz summasi va ssudadan foydalanganlik uchun foizlar to'lash sharti bilan beriladigan pul shaklidagi ssudadir.

3. Bugungi kun amaliyotida me'yoriy-huquqiy hujjatlar orasidan ko'rib chiqilayotgan imtiyozning xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxsga tatbiq etilmasligi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hujjat mavjud emas.

4. Xorijiy yuridik shaxs hisob-kitoblarning qanday shakllaridan foydalanishi kerakligi masalasiga va amaldagi shakllarda ularning xorijiy yuridik shaxs tomonidan to'ldirilishi imkoniyati nazarda tutilmaganligi daliliga kelsak, rasmiy tushuntirish so'rab soliq organlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Buni amaldagi qonun hujjatlarining talablari buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uning ayrim qoidalari, shu jumladan, soliq solish va imtiyozni qo'llash tartibiga taalluqli qoidalar to'g'ri tushunilganligini tasdiqlash yoki buni rad etish maqsadida ham qilish lozim.

5. Mazkur materialda bayon etilgan fikr masalani qo'shimcha tarzda o'rganish va keyin muhokama qilish imkoniyatini istisno etmaydi. Har qanday holda ham me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qo'llashdan avval, alohida holatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, yuqori malakali auditorlar va yuristlarga tegishli maslahat olish uchun murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

KEYS. Hisobotda yo'l qo'yilgan xato : tuzatishga shoshiling!

Budjetga 2009-yilning to'rtinchi choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobida kichik korxona xatoga yo'l qo'ydi - chegirilmaydigan xarajatlarni chegiriladigan xarajatlarga kiritib, shu tarzda DSIga pasaytirilgan summali soliq hisob-kitobini taqdim etdi.

Blits savol. Ushbu xatoni tuzatish uchun kichik korxona foyda solig'ini qanday stavka bo'yicha qo'shimcha hisoblab yozishi kerak: 2010-yilda amal qilayotgan stavka bo'yichami yoki 2009-yil stavkasi bo'yichami? Ushbu tuzatish korxonaning buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?

KEYS tahlili. Soliq oqibatlariga olib keladigan xatolarga yo'l qo'yganda soliq solish bobida SKning 46 va 120-moddalariga, buxgalteriya hisobi bobida 21-son BHMS va boshqa BHMSlarga asoslanish lozim.

SKning 46-moddasida belgilanishicha, davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti taqdim etilgan davrga taalluqli xatolarni o'zi mustaqil ravishda aniqlagan soliq to'lovchi soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati ichida o'sha davr yuzasidan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqiga ega. Mazkur norma davlat soliq xizmati organlari tomonidan moliya-

xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) doirasida tekshirish o'tkazilgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etiladigan hollarda qo'llanilmaydi. Aniqlashtirilgan foyda solig'i hisobotida ilgari taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlar, aniqlashtirilgan ma'lumotlar va ulardagi tafovutlar ko'rsatilishi kerak. Mazkur vaziyatda foyda solig'i kam to'langanligi sababli uni to'lash majburiyatiga penya hisoblangan holda tafovut qo'shiladi. Bundan tashqari, kichik korxona obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha ham qayta hisob-kitobni topshirishingiz lozim. Foyda solig'ini xato sodir etilgan paytda amal qilgan stavka bo'yicha qo'shimcha hisoblab to'lash kerak. Xato 2009-yilda sodir etilganligi bois foyda solig'i 10foizlik stavka bo'yicha to'lanadi (Prezidentning 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga 7-ilova). Soliqlar bilan birga to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05% miqdorida penya hisoblab yozilishi kerak. Bunda boshqa soliqlar va majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalariga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblab yozilmaydi. Uning miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshmasligi kerak (SKning 120-moddasi, Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga penya hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom). Aytaylik, 2009-yil uchinchi choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobida kichik korxona xatoga yo'l qo'yib, xodimlarga Mustaqillik kuniga to'langan 9 000 ming so'm miqdoridagi mukofotni chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiritdi. Xato 2010-yil aprelida aniqlandi. Bayram sanalari munosabati bilan xodimlarga to'langan mukofotlarning summalari SK 147-moddasining 21-bandiga ko'ra chegirilmaydigan xarajatlarga kiradi. Binobarin, ular chegiriladigan xarajatlar tarkibiga noto'g'ri kiritilgan. Ushbu xatoni tuzatish uchun budjetga 900 ming so'm (9 000 000 x 10%) foyda solig'i o'tkazish lozim. Foyda solig'i kam to'langanligi natijasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i amalda 72 ming so'm (900 000 x 8%) ortiqcha to'langan.

Bundan tashqari, soliqlar bo'yicha to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun, 2009-yilning 26-oktyabridan boshlab to'lash ku-

niga qadar, 0,05% miqdorida penya to'lanishi kerak. Chunonchi, agar soliq 2010-yil 25-aprelda to'lansa, penya to'lash kunini hisoblagan holda 182 kunga hisoblab yoziladi. Boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summalarga teng qarz summasiga penya hisoblab yozilmasligi sababli, mazkur vaziyatda penya farqqa, ya'ni 828 ming so'mga (900 000 - 72 000) hisoblab yoziladi. 2009-yilda xatoga yo'l qo'yilganligini hisobga olib, foyda solig'i shuningdek, 2009-yil 26-oktyabrdan 2010-yil 1-yanvarga qadar davr uchun hisoblab yozilgan penya summasi taqsimlanmagan foyda hisobiga qo'shimcha hisoblab yoziladi, 2010-yil 1-yanvardan boshlab soliq to'lash paytiga qadar bo'lgan davr uchun qo'shimcha hisoblab yozilgan penya esa joriy yilda korxonaning boshqa xarajatlariga kiritiladi. Soliq solinadigan foydani belgilash chog'ida penya summasi SK147-moddasining 25-bandiga asosan chegirilmaydi.

Mazkur vaziyatda foyda solig'i bo'yicha to'lovni kechiktirganlik uchun to'lanadigan penya summasi 75 348 so'mni (828 000 x 182 x 0,05%), shu jumladan, 2009-yil uchun 27 738 so'mni (67 kun), 2010-yil uchun 47 610 so'mni (115 kun) tashkil qiladi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos jihatlari

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)– har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir.

Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta

bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. QQSni davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

QQSni amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo QQS M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10-yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada QQS haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi. Hozirgi vaqtda QQS Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat budjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir.

Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

O'zbekiston soliq tizimida QQS 1992-yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbayi sifatida QQS hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapti.

Ushbu soliq budjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanadi. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha QQSning Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi o'sish tendentsiyasiga ega, ushbu ko'rsatkich 2002-yildagi 24,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilga 28,0 foizni tashkil etgan, ya'ni 4,0 punktga oshgan. 2012-yilda esa 32,9 foizga teng bo'lgan (3.5-jadval).

3.5-jadval

Davlat budjeti daromadlarida QQS ulushining o'zgarish dinamikasi

№	Soliq turlarining nomi	2010-yil	2011-yil	2012-yil
	Budjetga tushumlar, jami maqsadli jamg'armalardan tashqari	100,0	100,0	100,0
1.	Bevosita soliqlar	26,1	26,2	25,2
2.	Bilvosita soliqlar	53,2	53,5	54,3
2.1	**Qo'shilgan qiymat solig'i**	**30,4**	**32,3**	**32,9**
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15,1	14,3	13,3
4.	Qo'shimcha foyda solig'i	0,2	0,9	1,2
5.	Boshqa daromadlar	5,5	5,1	6,0

Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq stavkalari

QQSning to'lovchilari bo'lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Amaldagi SKning 198-moddasiga ko'ra QQSning **obyekti** bo'lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag'i kelib tushishi davridan qat'iy nazar korxona QQS bo'yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (QQS ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

O'zbekiston Respublikasida QQS stavkasi 1992-yilda - 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda - 17 foizni, 1997-yilda - 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada QQSning 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. 2000-yildan hozirgi kungacha SKga ko'ra respublikamizda 20 foizli va «0» foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda. Umuman olganda «0» stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga QQS qo'llanilmaydi, ya'ni «nol» ga teng degani. «0» darajali stavka bo'yicha quyidagilarga soliq solinadi: tovarlarning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan ishlarning (ko'rsatiladigan xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi eksportiga, shu jumladan, mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlariga yetkazib berilishiga, agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa (ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, «0» stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDHdan tashqariga eksport «0» stavkada soliqqa tortiladi);

- chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish va xizmat)larga;

- suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya va gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarga;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarini tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan, yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli «0» stavka qo'llanilganda QQS tovarlarning

tannarxiga olib borilmasdan, hisobga kiritiladi. Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan QQS summasidan «0» stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan QQSning summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Misol. «Barakat» kichik korxonasi 10 dona sanotoriyada davolanish yo'llanmalarini sotib oldi hamda ishchi xodimlariga tarqatdi. Har bir yo'llanmaning qiymati 500 ming so'm. Ammo korxona xodimlarning ish haqidan ushlab qolish sharti bilan yo'llanmalarni 270 ming so'mdan o'z xodimlariga sotdi.

YECHIMI. Korxona o'z xodimlariga yo'llanmalarni sotib olish tannarxidan past narxda sotganligi sababli, mazkur holatda soliqqa tortish bazasi yuzaga kelmaydi. Aytaylik korxona mazkur yo'llanmalarni 600 ming so'mdan o'z xodimlariga realizatsiya qilganda, u holda QQS summasi 16,7 ming so'mga ((600-500)*20/120) teng bo'lar edi.

Soliq imtiyozlari. QQSdan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular SKda to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular: soliqdan ozod etiladigan tovar(ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti (208-modda); soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda); soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda); soliqdan ozod etiladigan import (211-modda).

QQSdan quyidagi tovar(ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;
- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab

chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarni ta’mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar;

- davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

- pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

- aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari;

- budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi asosdir;

- shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo‘nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temir yo‘l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo‘nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari;

- oliy, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ta’lim berishning haq evaziga o‘qitishga doir qismi bo‘yicha xizmatlar;

- vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

- chet el havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati;

- sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari;

- gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

- geologiya va topografiya ishlari;

- O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning

tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

- O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar (ish, xizmat)lar, bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta’minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovar (ish, xizmat)lar;

- uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar;

- aholini elektr energiyasi bilan ta’minlash;

- davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

- o‘zi etishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oborotlar.

Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari QQS dan ozod etilgan: to‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar, inkasso bo‘yicha operatsiyalar; milliy valuta va chet el valutasi bilan bog‘liq operatsiyalar; qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar; akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish; pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar; chet el valutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish; kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash

va saqlash); forfeyting va faktoring operatsiyalari; lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish); jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti va boshqa oborotlar.

QQSdan ozod etilgan sug'urta xizmatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, QQSdan ozod qilinadi:

a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

v) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

g) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

d) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

e) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

z) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar

uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, QQSdan ozod qilinadi: sug'urta to'lovi (sug'urta tovoni); preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar; sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar; sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda QQSdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) davlatlar, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shuningdek, dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xomashyo;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va

ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa.

Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun QQS to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari

QQS bo'yicha hisob-kitoblarni korxona ortib boruvchi yakun bilan ro'yxatdan o'tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida QQSni to'lovchilari hisoblangan mikrofirma va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda belgilangan shaklda taqdim etadi. Soliq to'lovchilar QQSning hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reyestrini ham taqdim etadilar. Hisobvaraq-fakturalar reyestrining shakli DSQ tomonidan belgilanadi.

Korxonalar QQSni soliq hisobini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydi. Agar korxona hisoblangan soliq summasini

budjetga o‘z vaqtida o‘tkazib bermasa, bunday holatda DSIlari mas’ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq summasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo‘llanilishiga olib keladi. Bunda korxona rahbariyatiga nisbatan ma’muriy chora qo‘llanilmaydi.

1998-yil 1-yanvardan O‘zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan, soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda QQSdan ozod bo‘lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko‘rsatganda hisobvaraq fakturani to‘ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq kichik korxonalar soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida yagona soliq to‘lovini amalga oshirish bilan birga QQSni to‘lashga o‘tishlari mumkin. Bunda yagona soliq to‘lovini to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to‘lovini (YaST) to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishnomasiga asosan ixtiyoriy asosda QQS to‘lashi mumkin»[3]. Agar kichik korxona YaSTni to‘lash bilan birga QQS ham budjetga hisoblab to‘layotgan bo‘lsa, u holatda YaST summasining budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summasiga, lekin YaST summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorga kamaytirilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin, nega kichik korxonalar ixtiyoriy ravishda yana bitta ortiqcha soliq, QQSni to‘lashga o‘tishni tanlashlari mumkin?

Mazkur holat QQSni to‘lash zanjiri mexanizmini chalkashtirishlariga zamin yaratmaydimi? Shuningdek, soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash imkoniyatining berilishi, soliq nazariyasiga zid tushuncha hisoblanadi. Chunki soliq kategoriyasi o‘z mazmun - mohiyatiga binoan majburiylik kategoriyasi hisoblanadi. Bu holat esa soliqlarning majburiylik

[3] Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси: Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Т.: "Адолат", 2010 й. – 211 б.

tamoyiliga amaliyotda amal qilinmasligini ta'minlaydi. Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkin. Soddalashtirilgan tartibda soliq to'lovchi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar o'z ishlab chiqarish faoliyatiga zarur bo'lgan xomashyolarni QQS bilan birgalikda sotib oladilar va ushbu soliq miqdorini ishlab chiqarish tannarxi yoki davr xarajatlariga qo'shadilar, bu esa mahsulot narxining o'z-o'zidan oshishiga olib keladi.

3.6-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarning korxonalar iqtisodiy faoliyatiga va tovar qiymatiga ta'sirining tahlili[4]

(shartli birliklarda)

Ko'rsatkichlar	**A korxona (ishlab chiqaruvchi)**	**Ishlab chiqaruvchidan moddiy resursni sotib oluvchi korxona**		**Moddiy resursni sotib oluvchi pudratchi**	
		B korxona (ozod etilgan yoki alohida tartibda soliq joriy qilingan)	**V korxona (umumiy tartibda QQS to'laydi)**	**B korxonadan sotib olsa**	**V korxonadan sotib olsa**
Sotilgan tovar qiymati	4400	12980	12100	34155	33275
Sotilgan tovar uchun QQS	880	0	2420	6831	6655
Sotib olingan resurs qiymati	1600	4400	4400	12980	12100
Sotib olingan resurs uchun QQS	320	880	880	0	2420
Tovar ishlab chiqarish uchun ketgan boshqa xarajatlar	2400	6600	6600	18150	18150
Foyda me'yori (jami QQSsiz xarajatdan 25%)	400	1100	1100	3025	3025
Budjetga to'lanadigan QQS	560	0	1540	6831	4235
Tovarning QQS bilan birga umumiy qiymati	5280	12980	14520	40986	39930

[4] Ш.А.Тошматов. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли. – Т., "Fan va texnologiya" – 2008, 129 б.

Agar korxona bajarilgan ishlar narxini oshira olmasa, mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatlarini qisqartirishi lozim (aksariyat hollarda xodimlarning ish haqi kamaytiriladi, bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati pasayishiga olib kelishi mumkin). Bu o'rinda birinchi holatda QQS iste'molga, ikkinchisida esa ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. QQSni to'lash rejimini qo'llamaslikning ikkinchi ta'sir jihati ham mavjud. Agarda umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi kichik korxonalar ishlab chiqargan tovar (bajarilgan ish va xizmat)lari uchun QQS to'lashga o'tmagan kichik korxonadan moddiy resurslar sotib olsa, ushbu moddiy resurslar bo'yicha QQS summasini yuqorida ta'kidlanganidek, hisobga o'tkaza olmaydilar va ular budjetga to'lanadigan QQS summasini to'liq oborotdan, ya'ni jami realizatsiya qilingan mahsulotlar qiymatidan kelib chiqib to'lashlari lozim. Bu holda soliq solish bazasi - realizatsiya hajmi katta miqdorni tashkil etadi. Bundan tashqari, QQS to'lamaydigan kichik korxonalarning soliq yuki keyingi bosqichda QQS to'lovchi hisoblangan korxona zimmasiga tushadi. Shu sababli, QQS to'lovchi bo'lgan korxonalar QQS to'lamaydigan kichik korxonalardan moddiy resurslar sotib olishdan o'zlarini tiyib turishadi. Bu hol narx bir xil bo'lgan sharoitda bozordagi tengsiz raqobatni yuzaga keltiradi. Mazkur muammoni mamlakatimiz olimlaridan Sh.A.Toshmatovning monografiyasida chuqur tadqiqini ko'rishimiz mumkin, muammoni izohlash uchun tadqiqot ishida quyidagi shartli misol keltirilgan.

Mazkur misolda birinchi moddiy resurslarni alohida soliqqa tortish tartibida ishlovchi korxonadan sotib oluvchi pudratchi uchun foyda miqdori bir xil bo'lgan sharoitda bajarilgan ishlar hajmi qiymati 40986 shartli birlikni tashkil etgan hamda to'liq tovar aylanishi 34155 shartli birlikdan QQS to'lashga majbur, chunki QQSdan chegirma yo'q, ikkinchi moddiy resurslarni QQS to'lovchi korxonadan sotib oluvchi pudratchi foyda miqdori kamaymagan sharoitda bajarilgan ishlar hajmi qiymati 39930 shartli birlikka teng bo'lgan, shu bilan birga sotib olingan moddiy resurslar uchun to'langan QQSni hisobga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday ekan, QQS bo'yicha qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari xilma-xil bo'lsada, ushbu imtiyozlarni amaliyotda qo'llash mexanizmini samarali, deb

bo'lmaydi. Imtiyozlar soliq hisobining to'g'ri yuritilishiga va hisobotlarning to'g'ri tuzilishiga zid bo'lmasligi hamda qiyinchiliklar tug'dirmasligi kerak. Ishlanmalar natijalariga ko'ra, soliq imtiyozlaridan foydalanish tartiblarining mukammal emasligi sababli, ushbu soliq imtiyozlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar uchun ko'p noqulayliklar va chalkashliklar tug'dirmoqdaki, taqdim qilingan ba'zi soliq imtiyozi aslida soliq yukining oshishini vujudga keltirmoqda.[5] Agar yuqorida keltirilgan muammoli holat kichik korxonalarda yuzaga kelsa, ularning YaST bilan birga QQS to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tishi muammoni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shunga qaramasdan hozirgi kunda 83092 ta yagona soliq to'lovini to'lovchi korxonalardan bor yo'g'i 490 tasi YaST bilan birga, QQSni to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan, ya'ni YaST to'lovchilarning 0,6 foizigina ushbu tartibni qo'llaganlar xolos. Demak ko'pchilik kichik korxonalar ushbu tartibda YaSTni va QQSni to'lashga o'tishni xohlashmayaptilar. Buning asosiy sababi esa YaST va QQSni to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan kichik korxonalar uchun YaST summasini kamaytirishda eng yuqori miqdor sifatida jami hisoblangan YaSTning 50 foizi miqdorining belgilanganligidadir.

Ushbu holatni quyidagi 3.7-jadval ma'lumotlarida ko'rish mumkin. «O'zelektromontaj ITSB» kichik korxonasi 2007-yildan boshlab soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibiga o'tgan hamda YaST bilan birga QQSni ham ixtiyoriy ravishda belgilangan tartibda to'lagan. 2007-yilda korxonaning budjetga to'lashi lozim bo'lgan QQS summasi 70494,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsada, faqatgina 14432,2 ming so'mi hisobga olingan, chunki mazkur yilda YaSTning 50 foizi 14432,2 ming so'mga teng bo'lgan, 2008-yilda QQS hajmi 90267,3 ming

[5] Ш.А.Тошматов. Корхоналарни ривожлантиришда соликлар роли. – Т., "Fan va texnologiya" – 2008, 129 б.

3.7-jadval

«O‘zelektromontaj ITSB « kichik korxonasida ixtiyoriy ravishda to‘lagan QQS va yagona soliq to‘lovini hisobga olish tartibi tahlili[6]

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2007-yil			2008-yil			2009-yil		
	Jami	faoliyat turlari bo‘yicha		Jami	faoliyat turlari bo‘yicha		Jami	faoliyat turlari bo‘yicha	
		Asos. faol. turi – 1	2		Asos. faol tur – 1	2		Asos. faol. turi – 1	2
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	264763,9	260984,8	3779,2	319902,1	313041,4	6860,8	340912,5	335279,4	5633,1
Faoliyat turlari bo‘yicha tushumning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan jami tushumdagi salmog‘i, %da	100	98.6	1.4	100	97.9	2.1	100	98.3	1.7
Boshqa daromadlar	23881,3	23881,3	-	48087,7	48087,7	-	400222,0	394588,9	-
Soliqqa tortiladigan yalpi tushum	288645,3	284866,1	3779,2	367989,8	361129,1	-	400222,0	394588,9	5633,1
Soliqqa solinadigan baza – jami	288645,3	284866,1	3779,2	367989,8	361129,1	6860,7	400222,0	394588,9	5633,1
Yagona soliq to‘lovini belgilangan stavkasi	x	10%	10%	x	8%	8%	x	8%	8%
Yagona soliq to‘lovi summasi – jami	28864,5	28486,6	377,9	29439,2	28890,3	548,9	32017,8	31567,1	450,6
Budjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi	**70494,7**	x	x	**90267,3**	x	x	**94141,9**	x	x
Yagona soliq to‘lovi summasini kamaytiradigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi	**14432,3**	x	x	**14719,6**	x	x	**16008,9**	x	x
Hisob-kitob bo‘yicha hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasi	14432,3	x	x	14719,6	x	x	16008,9	x	x
O‘zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladigan yagona soliq to‘lovi summasi	721613,25	x	x	735979,65	x	x	800444,05	x	x

** 2005-2006-yillarda «O‘zelektromontaj ITSB « kichik korxonasi umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritgan.*

[6] «O‘zelektromontaj ITSB » кичик корхонасининг мазкур йиллардаги молиявий хисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

so‘mni tashkil etgan bo‘lsada, 14719,6 ming so‘mi, 2009-yilda QQS hajmi 94141,9 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsada, 16008,9 ming so‘mi QQS sifatida YaST summasidan chegirishga ruxsat berilgan. Albatta mazkur holat tahlil etilayotgan yillarda kichik korxonaning to‘lovga layoqatlilik qobiliyatini pasayishiga sabab bo‘lgan.

Keltirilgan tahliliy ma’lumotlardan kelib chiqib, ixtiyoriy ravishda YaST va QQSni to‘lashga o‘tgan kichik korxonalarda YaST summasini QQS summasiga to‘liq kamaytirilishi zarur degan xulosaga kelindi. Mazkur amaliyotni qo‘llash kontragentlar o‘rtasida QQSni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga hamda bugungi kun amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olishga, kichik korxonalarni raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilgan bo‘lar edi. Shuningdek, narxlarni shakllantirishdagi raqobat muhiti yaxshilanib, korxonalarni soliqlar vositasida rag‘batlantirishni kuchaytirish yuzasidan yana bir muhim qadam qo‘yilgan bo‘lar edi.

Mavzuga doir amaliy Keys va uning talqini

Keys nomi: Idish gardishidagi masala

Keys matni: Spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi kichik korxona (umum-belgilangan soliqqa tortish tartibida soliq to‘lovchi) QQS to‘lovchisi bo‘lib ham hisoblanadigan (hisobvaraq-fakturada QQS summasi ko‘rsatilgan) tovar ishlab chiqaruvchi zavoddan ishlatilgan shisha idishni sotish huquqi bo‘lgan (hisobvaraq-fakturada QQS summasi ko‘rsatilmaydi) korxonalardan xarid qilingan shisha idishda mahsulotni realizatsiya qiladi.

Blits savolllar: 1. Garov qiymatiga ega bo‘lgan shisha idishga nimalarni kiritish kerak?

2. Ishlatilgan idish garov qiymatiga ega bo‘lgan shisha idish hisoblanadimi yoki qaytariladigan idish bo‘ladimi? Agar uning qiymati yuklab jo‘natilgan mahsulotning qiymatiga kiritilsa, u QQSga tortiladimi?

3. Agar quyidagicha bo‘lsa, mahsulot yuklab jo‘natilgan paytda hisobvaraq-fakturada QQS solinadigan idish oborotini qanday aks ettirish kerak:

Nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Qiymati	QQS stavkasi	QQS summasi	QQS bilan jami
Tayyorlovchi za vod (yangi idish)	dona	100	133,3	13 333	20%	2 667	16 000
Xususiy tadbir kor (ishlatilgan idish)	dona	100	160	16 000	QQSsiz	QQSsiz	-

Mahsulot idishga solib jo'natilgan, idishning qiymati mahsulotning qiymatiga kiritilgan. Korxonadan mahsulot xarid qiladigan ixtisoslashgan bazalar uni keyinchalik savdo tarmog'iga realizatsiya qilayotganda tovarning qiymatiga kiritilgan shisha idishga ustama belgilamaydilar.

KEYS TALQINI. Garov qiymatiga ega bo'lgan idishlarga qaytariladigan va ular uchun yetkazib beruvchi xaridordan garov pulini undirishi mumkin bo'lgan mahsulot (tovar) bilan birga yetkazib beriladigan ko'p oborotli idishlar (shu jumladan, shisha idishlar ham) kiradi. Bunda idishning mustaqil ravishda tayyorlanganligi yoki chetdan xarid qilinganligi, yangi yoki ishlatilganligining ahamiyati yo'q. Xaridordan bo'sh idish soz holatda olinganidan so'ng garov puli yetkazib beruvchiga qaytariladi. Idish uchun garov summalarini undirish shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda amalga oshiriladi. Idishning qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan idishlarga kiritilishi undan qanday foydalanilishiga bog'liq. Agar xarid qilingan ko'p oborotli idish tuzilgan shartnomalarning shartlariga ko'ra qaytarilishi kerak bo'lsa va unga nisbatan garov narxlari belgilansa, u garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan idish hisoblanadi. Agar shartnomaning shartlarida xaridor tomonidan ko'p oborotli idishni qaytarish nazarda tutilmagan bo'lsa, uni yuklab jo'natish yetkazib beruvchining hisobida xuddi tovarlarni realizatsiya qilish singari aks ettiriladi. Bunday idishlarga garov narxlari belgilanmaydi, uning qiymati esa odatda tovarning qiymatiga kiritiladi. Bunday holda sotuvchi-korxonada ham tovarlar, ham idishlarni realizatsiya qilish bo'yicha oborotlardan QQS to'lash majburiyati vujudga keladi. Agar idish tayyor mahsulot bilan birga realizatsiya qilinsa va uning qiymati mahsulotning qiymatiga kiritilsa, u hisobvaraq-fakturada alohida aks ettirilmaydi.

KEYS-TAHLIL. Vino-aroq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxona o'zi ishlab chiqargan, hajmi 10 dal bo'lgan spirtli ichimliklar turkumini (hajmida etil spirti 40%ga qadar bo'lgan) realizatsiya qildi. Turkumning qiymati 1 000 ming so'mni tashkil qildi. Mahsulot chetdan xarid qilingan idishda realizatsiya qilindi. Ular tayyorlovchi zavoddan xarid qilingan, summasi 16 000 so'm bo'lgan (shu jumladan, 2 667 so'm QQS) 100 dona yangi idish va xususiy tadbirkordan xarid qilingan, summasi 16 000 so'm bo'lgan 100 dona ishlatilgan idishdan iborat. Idish mahsulot bilan birgalikda realizatsiya qilindi. Shu bois spirtli ichimliklar turkumini realizatsiya qilish narxi (QQS va aksizni hisobga olmaganda) idishni hisobga olgan holda 1 029 333 so'mni (1 000 000 + 13 333 + 16 000) tashkil qiladi, bunda:

1 000 000 so'm - spirtli ichimliklar turkumining qiymati;

13 333 so'm - hisobga qabul qilinadigan QQS chegirilgan holda tayyorlovchi zavoddan xarid qilingan yangi idishning qiymati (16 000 - 16 000 x 20/120 = 2 667);

16 000 so'm - xususiy tadbirkordan xarid qilingan idishning qiymati.

Alkogolli mahsulotga aksiz solig'ining stavkasi (hajmda etil spirtining miqdori 40%ga qadar) tayyor mahsulot 1 dali uchun 15 538 so'mni tashkil qiladi (Prezidentning 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli qaroriga 12-1-ilova). Aksiz solig'i stavkasi mazkur vaziyatda 155 380 so'mni (15 538 x 10), QQS summasi 236942,6 so'mni [(1 029 333 + 155 380) x 20%)] tashkil qiladi. Yetkazib berish qiymati QQS va aksizni hisobga olganda 1 421 655,6 so'mni (1 029 333+ 155 380 + 236 942,6) tashkil qiladi. Mahsulotni realizatsiya qilish hisobvaraq-fakturada quyidagicha aks ettiriladi:

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		QQSni hisobga olgan holda etkazib berish qiymati
					stavka	summa	stavka	summa	
Spirtli ichimliklar	dal	10	102933,3	1 029 333	15 538	155380	20%	236942,6	1 421655,6
Jami				1 029 333		155380		236942,6	1 421655,6
Jami *to'lashga*	Bir million to'rt yuz yigirma bir ming *olti yuz ellik besh so'm oltmish tiyin*								

Keys nomi: Mahsulotni eksport qilish jarayonida QQS muammolari

Keys matni: Umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida soliq to'lovchi kichik korxona oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi, ularni ichki bozorda sotadi. Shuningdek, korxona mahsulotini yaqin xorijga ham eksport qilish rejasini ham ishlab chiqmoqda. Mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyoning bir qismini Qozog'istondan olib kelmoqchi.

Blits savol. Kichik korxona ichki bozorga ham, eksportga ham mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanilgan ushbu xomashyo bo'yicha QQSni qanday qilib hisobga kiritishi lozim?

KEYS TALQINI. Import qilingan xomashyo bo'yicha QQS Soliq kodeksining (bundan keyin - SK) 39-bobiga muvofiq hisobga kiritiladi. Uni amalga oshirish uchun SK 218-moddasining quyidagi talablariga rioya etish kerak: xomashyodan soliq solinadigan oborot, shu jumladan, nol darajali stavka bo'yicha oborot maqsadlarida foydalaniladi; QQS budjetga to'lanadi. Agar import qilingan tovarlarga soliq to'lashdan ozod qilish tarzida maqsadli imtiyoz berilgan bo'lsa, QQS ham hisobga qabul qilinadi; import qilingan xomashyo va materiallardan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan eksport mahsulotini ishlab chiqarishda foydalanilganida eksport mahsulotiga chet ellik xaridor haq to'laganligini tasdiqlaydigan bank ko'chirmasi mavjud. Mamlakat ichida sotiladigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo import qilinganida QQS amalda budjetga to'langan hisobot davrida hisobga kiritiladi. Eksport mahsuloti (nol darajali stavka bo'yicha QQS solinadigan) ishlab chiqarish uchun import xomashyosidan foydalanilganida olib kirish chog'ida to'langan QQS valuta tushumi korxonaning hisob-kitob raqamiga kelib tushgan davrda mahsulot realizatsiyasidan kelib tushgan ulushida hisobga qabul qilinadi.

KEYS TAHLIL. QQS to'lovchi kichik korxona mamlakat ichida va eksportga realizatsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqardi hamda uni ishlab chiqarish uchun xomashyo keltirilib, uni bojxonada rasmiylashtirishda 12 500 ming so'm QQS to'lagan deb hisoblasak. Xomashyo olib kirilganida korxonada uning xarajatini eksportga va ichki bozorda realizatsiya qilinadi-

gan mahsulot bo'yicha alohida hisob-kitob qilish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Hisobot davrida realizatsiya hajmi quyidagilarni tashkil qildi: ichki bozorga - 48 100 ming so'm, shu jumladan, 8 016,7 ming so'm QQS; eksportga - 35 200 ming so'm (QQSning nol darajali stavkasi). Bunda kontraktning umumiy summasidan 40% valuta tushumi kelib tushgan.

Xarid qilingan import xomashyosidan quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan: ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot - 18 000 ming so'mga, QQS - 3 600 ming so'm; eksport qilinadigan - 15 100 ming so'm, QQS - 3 020 ming so'm.

Hisobot davrida quyidagi tarzda hisobga qabul qilinadi: ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan import xomashyo bo'yicha QQS summasi - 3 600 ming so'm; eksport qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan, olib kirilgan xomashyo bo'yicha QQS summasi (kelib tushgan valuta tushumidan ulushda) - 1 208 ming so'm (3 020 x 40%).

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan aksiz solig'i va uning o'ziga xos jihatlari

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992-yilda QQS bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning QQSdan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksizosti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Aksiz solig'i QQSga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga undirish shakli hisoblanadi.

Aksiz solig'i Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi, jumladan, davlat budjetining soliqli daromadlari tarkibida 2002-yilda 22,8 foizni, 2003-yilda 29,7 foizni, 2004-yilda 27,0 foizni, 2005-yilda 17,5 foizni, 2006-yilda 15,6 foizni tashkil etgani holda 2007-yilgi davlat budjeti daromadlarida uning ulushi 12,6 foizni tashkil etgan. 2010-yilda esa 16,7 foizni, 2012-yilda 15,1 foizga teng bo'lgan (3.8-jadval).

3.8-jadval

Aksiz solig'ining budjet daromadlaridagi salmog'i

№	Soliq turlarining nomi	2010-yil	2011-yil	2012-yil
	Budjetga tushumlar, jami maqsadli jamg'armalardan tashqari	100,0	100,0	100,0
1.	Bevosita soliqlar	26,1	26,2	25,2
2.	Bilvosita soliqlar	53,2	53,5	54,3
2.1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	30,4	32,3	32,9
2.2	**Aksiz solig'i**	**16,7**	**15,3**	**15,1**
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15,1	14,3	13,3
4.	Qo'shimcha foyda solig'i	0,2	0,9	1,2
5.	Boshqa daromadlar	5,5	5,1	6,0

Aksiz solig'ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi va YaIMga nisbatan ulushining pasayish tendentsiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13 noyabrdagi 390-son «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan respublikamizda ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobillar, billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarning 2003-yil 1-yanvardan 2007-yil 31-dekabrga qadar o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda aksiz solig'ining ulushi davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i va YaIMga nisbatan ulushi 2003-2007-yillarda kamayib borgan. Aksiz solig'i to'liq respublika budjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki oxirgi iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

Aksiz solig'i to'lovchilar. Soliq obyekti va bazasi

Aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'iy nazar, aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat

aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida korxonalar tushuniladi.

SKning 230-moddasiga ko'ra quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yohud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek, ulush qo'shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagi aksizosti tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab

chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariyalar yuz berganda yordam ko‘rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg‘araz texnik ko‘mak sifatida, shuningdek, xayriya maqsadlari uchun aksiz to‘lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish bazasi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: aksiz solig‘ining qat’iy stavkalari belgilangan tamaki mahsulotlari, o‘simlik (paxta) yog‘i, etil spirti, pivo, kon’yak, aroq va boshqa alkogolli aroq mahsulotlari, filtrli va filtrsiz sigaretalar, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg‘isi va aviakerosin) bo‘yicha - sotilgan mahsulotning natural ko‘rinishidagi hajmi; aksiz solig‘i to‘lanadigan boshqa mahsulotlar (zargarlik buyumlari, kumushdan qilingan oshxona buyumlari, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, «O‘zDEUAvto» aksionerlik jamiyati avtomobillari) bo‘yicha QQS va aksiz solig‘i hisobga olmagan holda, shartnomaviy narxlar bo‘yicha yuklab jo‘natilgan tovarning qiymatiga foiz hisobida.

Aksiz solig‘i stavkalari. Aksiz solig‘i stavkalari va aksizosti

tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

2013-yilda aksizosti tovarlarga belgilangan soliq stavkalarining ayrimlari quyidagilardan iborat:

3.9-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i STAVKALARI[7]

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	aksiz solig'ini hisobga olgan holda sotish narx larida tovarlar qiyma tiga nisbatan foizlarda	bir o'lchov birligiga so'mlarda
1	2	3
1. Etil spirti (1 dal. uchun)		3031
2. Vino (1 l. tayyor mahsulot uchun)[1]		5230*
3. Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal. tayyor mahsulot uchun) [1]		26160*
4. Pivo (1 dal. tayyor mahsulot uchun):[1]		2975
5. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun): [1]		
- oziq-ovqat yog'i (salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog'dan tashqari);		796050**
- texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		437899
6. Sigaretalar (1000 dona uchun): [1]		
- filtrli		13424
- filtrsiz, papiroslar		6479
7. Zargarlik buyumlari	25	
8. «O'zDEUAvto» AJ ishlab chiqargan	29	

[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 29 декабрдаги ПҚ-1024-сонли қарори.

avtomobillari[2]		
9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar[2]		
11. Neft mahsulotlari:		
- benzin AI-80	321 430 so'm tonnasiga	
- benzin AI-91, AI-92, AI-93	353 430 so'm tonnasiga	
- benzin AI-95	408 890 so'm tonnasiga	
- dizel yoqilg'isi	273 400 so'm tonnasiga	
- aviakerosin	50 580 so'm tonnasiga	

Qat'iy miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gazga hamda qimmatbaho metallarga aksiz solig'ini to'lovchilar va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Absolyut summada aksiz solig'i qo'llaniladigan tovarlar uchun aksiz solig'i quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A_n = V * A$$

Bu yerda V=natura ko'rinishidagi tovar hajmi; A= aksiz solig'i stavkasi.

Advalar ya'ni bojxona qiymatiga nisbatan foizda aksiz solig'i quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A_n = S * A / 100$$

Bu yerda S=tovarning bojxona qiymati; A= aksiz solig'i stavkasi.

Misollar. 1. «Oq ayiq» kichik korxonasi aksizosti mahsuloti bo'lgan quvvati 40%, hajmi 0,5 l bo'lgan 2 000 dona shisha aroqni realizatsiya qildi. Hisob-kitoblarda 1 dall=10 litrga, aksiz

solig'i 1 dall=15 538 so'mga teng. Realizatsiya hajmi 100 dalga (0,5*2 000/10) teng. Realizatsiya qilingan mahsulot uchun aksiz solig'i – 1 553,8 ming so'mga (100*15 538) tengdir.

2. Diler orqali «MATIZ BEST» avtomashinasi chakana narxda ya'ni 14 000 ming so'mga realizatsiya qilindi. Shu jumladan, dilerning komission mukofoti 328 ming so'mga teng. Aksiz solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasi 13672 ming so'mga (14 000-328), aksiz solig'i summasi esa – 3 073,55 ming so'mga (13672*29/129) tengdir.

3. «Oltin sher» kichik korxonasi aksiz va QQSsiz 120 000 ming so'mga teng bo'lgan oltindan ishlangan zargarlik buyumlarini realizatsiya qildi. Aksiz solig'i 25%ga teng. Aksiz solig'i mazkur holatda 30 000 ming so'mga (120 000*25%), QQS- 30 000 ming so'm ((120 000+30 000)*20%) ga teng bo'ladi.

4. «Yulduz» kichik korxonasi o'z xodimiga kumushdan yasalgan oshxona anjomlarini soliqlarni hisobga olgan holda 100 ming so'mga realizatsiya qildi. Anjomlarning tannarxi 150 ming so'mga teng. Aksiz solig'i 16,5 ming so'mga (150*11%), QQS-33,3 ming so'mga (166,5*20)ga teng. Soliqlarni hisobga olgan holda oshxona anjomi qiymati -199,8 ming so'mga (150+16,5+33,3) teng. Tovarning realizatsiya qilish va qiymati o'rtasidagi farq – 99,8 ming so'm (199,8-100,0) korxonaning tovarni pasaytirilgan narxda sotganligi sababli ko'rilgan zarari hisoblanadi.

5. «Barxayot» kichik korxonasi aksiz solig'i 11 %ga teng bo'lgan «A» turkumli aksizosti mahsulotini 87 000 so'mdan 30 donasini xaridorga realizitsiya qildi. QQSni hisobga olgan holda mahsulotni yetkazib berish qiymati 3 476 520 so'mga teng bo'ldi. Yuklash muddatida korxona tomonidan tovarning butun partiyasi uchun (30 dona) schyot-faktura rasmiylashtirilib berildi. 2 kundan so'ng xaridor 2 dona tovarni korxonaga qaytardi. Mazkur holatda korxona qaytarilgan tovarni inobatga olib schyot-fakturaga korrektirovkani amalga oshirishi lozim: QQSsiz soliqqa tortiladigan baza = 174 000 so'm (2*87 000)ga; aksiz solig'i – 19 140 so'm (174 000*11%)ga; QQS – 38 628 so'm ((174 000+19 140)*20%)ga; xaridorga korxona tomonidan qaytariladigan summa – 231 768 so'mga teng.

Tovar nomi	hajmi	narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		QQS bilan yetkazib berish qiymati
				stavka	summasi	stavka	summasi	
«A»	-2	87 000	-174 000	11 %	-19 140	20%	-38 628	-231 768
Jami qaytarish sum-masi	Ikki yuz o'ttiz bir ming etti yuz oltmish sakkiz so'm							

Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar. Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi: aksizlanadigan tovarlarni eksportga yetkazib berish, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar ro'yxati mustasno; salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'ini yetkazib berish va boshqalar. Bundan tashqari import qilingan aksizosti tovarlari uchun O'zR Prezidentining 30.03.2009-yildagi № PP-1083 sonli, 27.04.2009-yildagi № PP-1106 sonli, 18.03.2009-yildagi № PP-1074 sonli, 29.01.2009-yildagi № PP-1051sonli, 28.01.2009-yildagi № PP-1050 sonli qarorlariga asosan qator imtiyozlar berilgan. Misol uchun, 01.01.2014-yilga qadar «Qishloq qurilish invest» injinering kompaniyasi; 2013-yilga qadar «Maktab ta'limini rivojlantirish» loyihasi doirasida import qilingan tovarlar shular jumlasidandir.

. To'lovchilar tomonidan sotishning haqiqiy hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi: joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun; joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun; keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.



3.4-rasm. **Aksiz solig'i hisob-kitob turlari tavsifi**

Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitob ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi:

– korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) - hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan har oyda, belgilangan shaklda, unga soliq solinmaydigan aylanmalar summalari rasshifrovkasi ilova qilingan holda;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - birinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo'yicha, o'n kunliklarga taqsimlagan holda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo'yicha esa belgilangan shaklda, yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to'g'ri keladigan aksiz solig'ini to'lash muddatlari, tegishlicha, hisob-

kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.

Kichik biznes sub-yektlari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning o'ziga xos jihatlari

O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, 1998-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir. O'zbekistonda asosiy, davlat budjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ta'minlab beradigan soliq to'lovchilar bo'lib, asosan GRESlar hisoblanadi. Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni «Suvoqava» tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yohud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to'laydilar. Bino (xona)ni ijaraga olgan va o'zlari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar. Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv

hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi. 3.10-jadvalda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning budjet daromadlaridagi salmog'i keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, mazkur soliqning budjet daromadlaridagi ulushi so'ngi uch yil davomida o'zgarishsiz qolgan hamda 0,4 foizga teng bo'lgan.

3.10-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning budjet daromadlaridagi salmog'i

№	**Soliq turlarining nomi**	**2010 yil**	**2011 yil**	**2012 yil**
	Budjetga tushumlar, jami maqsadli jamg'armalardan tashqari	100,0	100,0	100,0
1.	Bevosita soliqlar	26,1	26,2	25,2
2.	Bilvosita soliqlar	53,2	53,5	54,3
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15,1	14,3	13,3
3.3	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	**0,4**	**0,4**	**0,4**
4.	Qo'shimcha foyda solig'i	0,2	0,9	1,2
5.	Boshqa daromadlar	5,5	5,1	6,0

Soliq solish obyekti, bazasi va soliq stavkalari Yerusti va yerosti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanadi. Yerusti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi. Yerosti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'i kiradi. Foydalanilgan suv resurslarining hajmi soliq solish bazasi hisoblanadi. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv

iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Yuridik shaxslar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

2013-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi 3.11-jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

3.11-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari[8]

Ko'rsatkichlar	1 kub. metr uchun stavka (so'm)	
	Yer usti suv resurslari manbalari	Yerosti suv resurslari manbalari
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	43,0	54,6
Elektrostantsiyalar	12,4	18,5
Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	23,6	30,5
Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	2,3	2,6

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги ПҚ-1887 сонли карори

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalanadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Misol. 2011-yilning I choragida kichik korxona, suv o'lchagich asboblarning ma'lumotlariga ko'ra, vodoprovod tarmog'idan 350 kub metr suv ishlatgan. Tegishlicha, yerusti manbalaridan 258,95 kub metr (350 x 81,7%), yerosti manbalaridan 64,05 kub metr (350 x 18,3%) suv ishlatilgan. 2011-yilda soliqning quyidagi stavkalari belgilangan: yerosti manbalaridan 1 kub metr suv uchun 37,9 so'm; yerusti manbalaridan 1 kub metr suv uchun 29,8 so'm. Shu tariqa, chorak uchun soliq summasi 10144,21so'mni (64,05 x 37,9 + 258,95 x 29,8) tashkil qiladi.

Soliq bo'yicha imtiyozlar. Soliq kodeksiga ko'ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar ozod etiladi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yerosti mineral suvlari hajmiga; dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga; atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yerosti suvlari hajmiga; shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yerosti suvlari hajmiga; gidroelektr stantsiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga; qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmlariga kamaytiriladi.

Bundan tashqari ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran, ixtiyoriy

ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

Misol. Kichik korxona o‘z xohishiga ko‘ra ixtiyoriy tugatilish haqidagi arizani 1-avgust kuni taqdim etdi. Ammo 8 oydan so‘ng kichik korxona o‘z faoliyatini yana qaytadan jonlantirdi va davom ettirdi. Sakkiz oy davomida korxona tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lanmadi. Suv o‘lchagich asboblarning ma’lumotlariga ko‘ra, vodoprovod tarmog‘idan 1200 kub. metr suv ishlatilgan. Agar kichik korxona yerusti manbalaridan foydalangan bo‘lsa, u holda budjetga suv resurslaridan foydalanganligi uchun 29 760 so‘m (24,8*1200) miqdoridagi soliqni hamda 3 615, 84 so‘m (29 760*243*0,05) miqdordagi penyani to‘lashi lozim.

Shuningdek, O‘zR Prezidentining 16.12.2008-yildagi №PP-1020 sonli, 22.12.2009-yildagi № PP-1245 sonli, 19.06.2009-yildagi №PP-1134 sonli qarorlari bilan qator imtiyozlar berilgan. Jumladan, 01.01.2014-yilga qadar «Qishloq qurilish invest» injinering kompaniyasi, 2015-yilga qadar OOO «MV Central Azia» , 2014-yilga qadar OOO «JV MAN Auto - Uzbekistan» kabi korxonalar mazkur soliqni to‘lashdan maqsadli ozod etilganlar.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi va to‘lash muddatlari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar tomonidan, dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo‘jalik bo‘yicha o‘tgan yilda 1 ga sug‘oriladigan yerga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish joyidagi DSIga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda belgilangan shakl bo‘yicha taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) – har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan – yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

4) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq budjetga quyidagi muddatlarda to‘lanadi: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar tomonidan - hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi; yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

Kichik biznes sub-yektlari tomonidan to'lanadigan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, maxsus to'lovlar va ularning o'ziga xos jihatlari

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yerosti boyliklari davlat tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xomashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xomashyo salohiyati 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda. Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yerosti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23-sentyabrdagi «Yerosti boyliklari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq 1995-yildan boshlab yerosti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yerosti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq joriy etildi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad — umumdavlat mulki hisoblangan yerosti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. SKga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi. Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yerosti boyliklarining 50 dan ortiq turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, budjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yerosti boyliklariga mutloq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda.

3.12-jadval

Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliqning budjet daromadlaridagi ulushi tahlili (foizda)

№	Soliq turlarining nomi	2010-yil	2011-yil	2012-yil
	Budjetga tushumlar, jami maqsadli jamg'armalardan tashqari	100,0	100,0	100,0
1.	Bevosita soliqlar	26,1	26,2	25,2
2.	Bilvosita soliqlar	53,2	53,5	54,3
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15,1	14,3	13,3
3.3	**Yer ka'ridan foydalanganlik uchun soliq**	**9,6**	**8,7**	**7,7**
4.	Qo'shimcha foyda solig'i	0,2	0,9	1,2
5.	Boshqa daromadlar	5,5	5,1	6,0

3.12-jadvalda yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliqning budjet daromadlaridagi ulushi keltirilgan. 2010-yilda 9,6 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda 7,7 foizgacha pasaygan.

Soliq to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti va bazasi

Yer qa'ridan foydalanuvchilar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanishadi. Yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'ridan foydalanganliklari uchun quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

1) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) qo'shimcha foyda solig'i. Ushbu soliq ayrim foydali qazilmalar yoki ayrim mahsulot turlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida o'rnatilgan stavkadan kelib chiqib, realizatsiyadan olingan sof tushum bilan belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq - qo'shimcha foydadan undiriladi.

3) bonus. Bonus deganda, yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov tushuniladi. Ushbu bonuslarning ikki turi mavjud: imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi. Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining

tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish va kavlab olish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy tarzda belgilanadigan majburiy to'lov hisoblanadi. Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan, dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lov hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida yerosti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda - iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar hisoblanadi. Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xomashyo bo'lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalarga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqni davlat budjetiga ta'minlab beruvchi eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlar, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxona shuningdek, Angren ko'mir qazib oluvchi korxona va boshqa shu kabi yerosti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi. Rudani qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxona soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Quyidagilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish obyektlari hisoblanadi:

a) foydali qazilmalarni qazib olish hajmi (shu jumladan, yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati bo'yicha, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda. Gaz qazib chiqaruvchi korxonalar uchun

soliqqa tortish obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan sotish bahosi bo'yicha, QQS va aksiz solig'i chegirilgan holda, birlamchi tayyorgarlikdan o'tgan qatlamdan qazib olingan tabiiy (tozalanmagan) gaz hajmi hisoblanadi.

b) texnogen hosilalar hajmi (mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari) ajratib olingan asosiy foydali qazilmaning qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy sotilish qiymati bo'yicha, bunda QQS va aksiz solig'i chegiriladi.

v) to'plangan chaqnoq tosh xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarining hisob qiymati.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq solinadigan baza kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati hisoblanadi. Agar tayyor mahsulot boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan bo'lsa bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan, ajratib olingan tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. O'zbekistonda qazib olinadigan xomashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Hozirgi vaqtda jami 50 dan ortiq turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o'rnatilgan. 2013-yil 1-yanvardan boshlab yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagicha belgilangan.

3.13-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Soliqqa tortish obyektining nomi	**Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda**
Energiya tashuvchilar:	
Tabiiy gaz	30,0
Yerostidan qazib olingan gaz	2,6

Nobarqaror gaz kondentsati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Kontsentrantlangan qo'rg'oshin	4,0
Metal rux	4,0
Volfram kontsentrati	10,4
Asl metallar:	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xomashyosi:	
Tosh (ovqatga ishlatiladigan) tuz	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natrit sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarda)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xomashyosi:	
Plavik shpatli kontsentrat	21,2
Tabiiy grafit	7,8
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvarts – dala shtapli xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	1,8
Betonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	3,9
Talkomagnizit	3,9
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	3,9
Asbest	3,9
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	2,3

Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi

Yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarni soliq organlariga yil boshidan o'sib boruvchi yakun bo'yicha belgilangan shaklda soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda taqdim etadilar. Yer qa'ridan

foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartibda to'laydilar:

a) mikrofirma va kichik korxonalar – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;

b) mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan boshqa soliq to'lovchi yuridik shaxslar – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Tayanch so'z va iboralar

Umumdavlat soliqlari va yig'imlari, davlat budjeti, mahalliy budjet, bevosita va bilvosita soliqlar, kichik biznes, kichik korxona, yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, foyda solig'i, aksiz, QQS, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obyekti va subyektlari, soliq imtiyozlari, soliq ta'tili, soliq krediti, soliqlarni to'lash muddatlari, soliq agentlari, soliq hisobot shakllari, moliyaviy yil, soliq davri.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Umumdavlat soliqlarining tarkibiy tuzilishi qanday?
2. Umumdavlat soliqlari qaysi budjetga to'lanadi?
3. O'zbekiston respublikasi budjet tizimi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
4. Soliq ta'tili nima? Uning tub mohiyatini tushuntirib bering?
5. Soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibini tushuntirib bering?
6. Soliq agentlari kimlar, ularning vazifalari nimalardan iborat?
7. Aksiz va QQS soliqlarini to'lash muddatlari haqida gapirib bering?
8. Qo'shilgan qiymat deganda nimani tushunasiz?



Mavzu doirasidagi qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. -T.:O‘zbekiston, 2011.-48 b.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 24.01.2003. №PF-3202-sonli farmoni.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 245b.

4. O‘zbekiston statistik to‘plami. T.: 2005, 112 b. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami. 2008 y. 201-bet.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari tizmini takomillashtirish to‘g‘risida», 20.08.2003. № 357-sonli qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ-1887-sonli qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: «Adolat», 2010-y. – 211 b.

8. O‘zbekiston mustaqillik yillarida T.: O‘zbekiston. 1996. 37-38b. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami .–T.: O‘zbekiston, 2005. – B.217. O‘zbekiston statistik to‘plami.–T.: 2005.–B.216.

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi arxiv materiallari.O‘zbekiston mustaqillik yillarida –T.:1996. –B. 37-38.

10. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, - 448 b.

11. Kuzmin G.V. Zemelniy nalog: Osobennosti ischisleniya i uplati - M: Vershina , 2006., 203 s.

12. Morozova L.L. Nalog na pribil organizatsiy: Analiz tipichnix nalogovix oshibok. –M.: Aktiv, 2006, - 241 s.

13. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojeniyu. Uchebnoe posobie. M.V.Vladika, V.F.Tarasova, T.V.Saprikina; pod obshch. Red. V.F.Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006, – 360 s.

14. Sh.A.Toshmatov. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. – T., «Fan va texnologiya» – 2008, 129 b.

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining www.mf.uz

IV bob. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TOMONIDAN TO‘LANADIGAN MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG‘IMLAR

Reja:

4.1. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi

4.2. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mol-mulk solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari

4.3. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari

4.4. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mahalliy yig‘imlar va ularning o‘ziga xos jihatlari

Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi



Respublikamizda asosan soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat budjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotini moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlaydi va bu O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimida umumrespublika budjeti yetakchi bo‘g‘indir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O‘zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvini ta’minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo‘jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag‘ bilan ta’minlashga ishlatiladi. Umumdavlat budjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi.

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimin-

ing muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan to'g'ri mahalliy xo'jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'ladi, bu esa o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy budjetlardan uy-joy kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Respublikamizda soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadi:

4.1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar budjetlari tavsifi

Hududlar	Daromadlari	Xarajatlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	485014,8	939840,2
Andijon viloyati	635705,0	1178798,2
Buxoro viloyati	804003,2	804003,2
Jizzax viloyati	294886,3	608909,5
Qashqadaryo viloyati	1245654,2	1245654,2
Navoiy viloyati	526199,9	526199,9
Namangan viloyati	536423,1	1087581.8
Samarqand viloyati	729092.6	1500597,5
Surxondaryo viloyati	514861,4	1071092,0
Sirdaryo viloyati	268682,4	421179,4
Toshkent viloyati	1190387,4	1190387,4
Farg'ona viloyati	1520697,1	1520697,1
Xorazm viloyati	417226,1	781321,1
Tashkent shahri	1308596,5	1308596,5

O‘zbekiston Respublikasi SKning 7-moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig‘imlarga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i; yer solig‘i; obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i; jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im va boshqalar.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Ta’kidlab o‘tish lozimki, umumdavlat soliq tushumlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mol-mulk solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari

Korxonalarni soliqqa tortish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri - korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi hisoblanadi. Mol-mulk solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida» gi qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budjetlarga tushadi va u mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o‘zining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi

mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iboratdir. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqli daromadlarida mol – mulk solig'i ulushi 2010-yilda 2,7 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda 3,1 foizga teng bo'lgan (4.2-jadval).

4.2-jadval

Mol-mulk solig'ining budjet tushumlaridagi ulushi tahlili

№	Soliq turlarining nomi	2010-y	2011 y	2012 y
	Budjetga tushumlar, jami maqsadli jamg'armalardan tashqari	100,0	100,0	100,0
1.	Bevosita soliqlar	26,1	26,2	25,2
2.	Bilvosita soliqlar	53,2	53,5	54,3
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15,1	14,3	13,3
3.1	**Mol-mulk solig'i (jami)**	**2,7**	**3,0**	**3,1**
4.	Qo'shimcha foyda solig'i	0,2	0,9	1,2
5.	Boshqa daromadlar	5,5	5,1	6,0

Mol-mulk solig'i to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti va mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi

Soliq qonunchiligiga asosan mol-mulk solig'ining to'lovchilari bo'lib, soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob bera oladigan hamda mustaqil

balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tushuniladi. Soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan ayrim toifadagi korxonalarga, jumladan, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, YaSTni to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda notijorat tashkilotlar uchun ularning asosiy faoliyati bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lash tatbiq etilmaydi. Agar soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining obyekti bo'lib, asosiy vositalar (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar), nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari hamda belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymati hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi bo'lib esa: asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing)shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar); nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati; belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati; me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatiga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$\textit{Мол - мулкнинг ўртача йиллик қолдиқ қиймати} = \frac{(31\textit{январ} + 28(29)\textit{феврал} + ... + 30\textit{ноябр} + 31\textit{декабр})}{12}$$

Mol-mulk solig'i hisoblanish tartibini quyidagi korxona misolida ko'rib chiqamiz:

4.3-jadval

Yuridik shaxs mol-mulki o'rtacha yillik qoldiq qiymatining 1 chorak uchun hisob-kitobi

Balans moddalari nomi	Balans moddalari bo'yicha summa-		
	31-yanvar holatiga	28 fevral holatiga	31 mart holatiga
Asosiy vositalar	935	950	950
Nomoddiy aktivlar	-	-	-
Asosiy vositalarning eskirishi	115	90	100
Soliq solinadigan mol- mulkning qoldiq qiymati	820	860	850

Hisobot yilining I-choragi uchun soliq solinadigan mol-mulkning o'rtacha qiymatini quyidagicha aniqlaymiz:

Солиқни ҳисоблаб чиқариш учун мол-мулкнинг ўртача қолдиқ қиймати $= \frac{(820 + 860 + 850)}{12} = 210{,}8$

Mol-mulk solig'i stavkalari, soliqdan imtiyozlar

Ushbu soliq solinadigan mol-mulkdan 3,5 foiz stavkada I-chorak uchun 7,38 ming so'm (210,8*3,5 %) mol-mulk solig'i hisoblanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi 3,5 foiz miqdorida belgilangan (4.2.-jadval). Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga berilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valutaga xomashyo tovarlari – paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondentsati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi. Soliq stavkasi mol-mulkning qayta baholash natijasidagi qoldiq narxiga qo'llaniladi. Qayta baholash maqsadida korxonalarning asosiy vositalari deganda quyidagilar tushuniladi: o'zining asosiy vositalari; o'rnatiladigan uskunalar; tugallanmagan qurilish obyektlari; uzoq muddatga ijaraga

olinadigan, shu jumladan, uzoq muddatli lizing bo‘yicha olingan asosiy vositalar.

4.2-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i STAVKALARI[9]

To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
Yuridik shaxslar	3,5
O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 12-oktyabrdagi PF-1871 sonli farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari ro‘yxatidagilar bundan mustasno):	
sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

Izoh: *Me’yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i ikki baravar miqdorda to‘lanadi.*

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulkdan tashqari);

b) xalq ta’limi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkka;

v) uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligining mol-mulkiga;

g) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» uyushmasining mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga;

d) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, ro‘yxatdan o‘tgan paytidan e’tiboran ikki yil mobaynida.

[9] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги ПҚ-1887-сон қарори.

Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek, korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular ana shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsalar, qo'llanilmaydi;

Mol-mulk solig'i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi: soliq to'lovchining balansida bo'lgan uy-joy kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining; tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong'inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan obyektlarning; mahsulot o'tkazgichlar, aloqa yo'llari (shu jumladan, avtomobil yo'llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek, ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarning; aloqa yo'ldoshlarining; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra to'xtatib qo'yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining; shahar yo'lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari); yo'l xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yo'llarni ta'mirlash va saqlash ishlarida band bo'lgan transport vositalarining; soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning; lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasining amal qilish muddatiga; xorijiy kredit hisobiga xarid qilingan asbob-uskunalarga, ushbu kreditni so'ndirish muddatiga, lekin u besh yildan ortiq bo'lmasligi kerak.

Soliq hisobini taqdim etish va hisoblangan soliq summasini budjetga to'lash muddatlari

Yil davomida mol-mulk solig'i to'lovchi korxonalar har oyda joriy avans to'lovlarni to'laydilar. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tmagan, umumbelgilangan tartibda mol-mulk solig'i to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar joriy avans to'lovlarini to'lamaydilar. Joriy avans to'lovlari

miqdori mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan mol-mulk solig'i yillik miqdorining o'n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun korxonalar DSIga ma'lumotnomani joriy yilning 20-yanvarigacha taqdim etishlari lozim. Budjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Birinchi chorak, yarim yil, 9 oy tugaganda to'lovchilar mustaqil ravishda mol-mulk solig'ini o'sib boruvchi yakun bilan, hisobot davrida mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, hisoblab chiqadilar va hisobot davridan keyingi oyning 25-sanasidan, yil yakunlari bo'yicha yillik moliya hisobotlarini taqdim etish muddatidan kechiktirmay obyekt joylashgan joydagi davlat soliq organlariga belgilangan shaklda taqdim etadilar. To'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i hisobotlarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay budjetga o'tkaziladi.

Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk solig'i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida eksport qilinadigan mahsulot (ish, xizmat)larga doir ma'lumotnomani taqdim etadilar.

KEYS. 1997-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan «FAR VAB» qo'shma korxonasi umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi subyekt hisoblanadi. 2010-yilda QK qiymati 1 007 120 000 so'm bo'lgan yangi texnologik uskunani sotib oldi va o'z faoliyatida foydalana boshladi. Soliq davrida hisoblangan amortizatsiya summasi 136 493 978 so'mni, soliq solinadigan foyda esa 1 955 875 000 so'mni tashkil qildi.

Blits savol. «FAR VAB» qo'shma kichik korxonasi SKning 159-moddasiga asosan foyda solig'i va SKning 269-moddasi bo'yicha mol-mulk solig'iga doir imtiyozni qo'llashga haqlimi? Imtiyozlar qanday summaga nisbatan qo'llaniladi? Javobni misollarda tushuntiring.

KEYS talqini. Tovar(ish, xizmat)lar ishlab chiqaruvchi korxona yangi texnologik uskunani xarid qilayotganda SKning (bundan keyin - SK) 159 va 269-moddalari bilan belgilangan, foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlardan foydalanishga

haqlidir. Ushbu imtiyozlarni qo'llash tartibi ularni qo'llash tartibi to'g'risida nizom (bundan keyin - 1688-sonli nizom) bilan belgilangan. Foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza uskunadan foydalana boshlangan paytdan boshlab 5 yil mobaynida kamaytiriladi. Texnologik uskuna 2010-yilda xarid qilingan va foydalana boshlanganligi uchun korxona ko'rsatilgan imtiyozlarni 2010-yildan boshlab qo'llashga haqlidir.

KEYS xulosasi. 1. SK 159-moddasining 3-bandiga muvofiq soliq solinadigan foyda yangi texnologik jihoz (uskuna) xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani to'liq chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytiriladi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, hisoblangan amortizatsiyani inobatga olgan holda kamaytirish summasi 2010-yilda 870 626 022 so'mni (1 007 120 000 - 136 493 978) tashkil qiladi. U soliq solinadigan foydaning 30 foizidan - ya'ni 586 762 500 so'mdan (1 955 875 000 x 30%) oshadi. Binobarin, 2010-yilgi soliq solinadigan foyda faqat 586 762 500 so'mga kamayadi. Foyda solig'i bo'yicha hisobotda (2010-yilda amal qilgan shakllar bo'yicha) ushbu summa Foyda solig'i hisob-kitobiga 7-ilova «Hisobot (soliq) davri uchun soliq solinadigan foydani kamaytiradigan, investitsiyaga (modernizatsiyalash, o'z ishlab chiqarishini texnik va texnologik qayta jihozlashga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatini qoplashga) yo'naltiriladigan mablag'lar summasi hisob-kitobi»ning 060-satrida ko'rsatiladi. So'ngra mazkur ko'rsatkich hisob-kitobga 5-ilova «Soliq solinadigan foydani kamaytirish»ning 040 va 010-satrlariga ko'chiriladi. 2010-yil uchun foyda solig'i hisob-kitobining o'zida imtiyoz (kamaytirish) summasi 100-satr bo'yicha summada hisobga olinadi.

283 863 522 so'm (870 626 022 - 586 762 500) miqdoridagi qolgan summa (qoplanmagan, yangi texnologik uskunani xarid qilishga yo'naltirilgan mablag'lar qoldig'i) keyingi 4 yilgi soliq solinadigan foydani kamaytiradi. Chunonchi, agar 2011-yilda hisob-kitobli soliq solinadigan foyda 2 125 860 000 so'mni, hisoblangan amortizatsiya summasi 169 847 240 so'mni tashkil

etsa, 2011-yilda asosiy vositalarga investitsiyalar xarajatlari bo'lmagan holda kichik korxona soliq solinadigan foydani 2010-yilda qoplanmagan mablag'larning butun summasiga, ya'ni 283 863 522 so'mga (ushbu summa 2011-yilgi soliq solinadigan foydaning 30%idan oshmaydi) kamaytirishga haqlidir.

2. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza foydalanishga topshirish paytidan boshlab 5 yil mobaynida foydalanishga topshirilgan uskunaning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi (SK 269-moddasi birinchi qismining 16-bandi; 1688-sonli nizomning 15-bandi). Kamaytiriladigan summa mol-mulk solig'i hisob-kitobiga 4-ilova «Soliq solinmaydigan mol-mulk ro'yxati»ning 02016-satrida aks ettiriladi. Hisob-kitobning o'zida imtiyoz summasi 020-satr ma'lumotlari tarkibida aks ettiriladi. Agar imtiyozlar qo'llanilgan yangi texnologik uskuna xarid qilingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi. Ushbu holda imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun foyda va mol-mulk soliqlarini to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan yer solig'i va uning o'ziga xos jihatlari

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbayi hisoblanadi. Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va erdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad erdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda erni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida jami yer fondi 2004-yilda 44410,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 57,8 foizi qishloq

xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ixtiyoridagi yer maydonlariga to'g'ri kelgan. 2005-yilda esa 57,9 foizi, 2006-yilda 58,2 foizini, 2007-yilda 59,5 foizini tashkil qilgan. Yer fondi hajmida qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o'sishi fermer xo'jaliklari sonining yildan-yilga ko'payib borayotganligi va o'rmon xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o'tkazilishi hamda zaxira yerlarning o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

4.3.-jadval ma'lumotlarida yer solig'ining budjet daromadlaridagi salmog'i keltirilgan. Jumladan, 2010-yilda yer solig'i 2,3 foizni tashkid etgan bo'lsa, 2012-yilda 2,2 foizga teng bo'lgan.

4.3.-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2005-2011-yillarda budjet daromadlarini shakllantirishda yer solig'ining o'rni

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Budjet daromad larining umu miy summasi, mlrd. %da	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Yer solig'ining budjet daromad lariga nisbatan salmog'i, %da	3,4	3,5	3,4	3,5	2,9	2,3	2,5	2,2

Agarda soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq ho'jalik korxonalari, tadbirkorlik faoliyatining qat'iy soliq to'lanishi belgilangan yuridik shaxslar, audio va video kassetalar, lazer disklarini ishlab chiqish, yozish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar) hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda

foydalaniladigan yerlari uchun yer solig'ini to'lovchilari hisoblanishadi.

Yer solig'i obyekti, bazasi va soliq stavkalari

SKga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyekti hisoblanadi. SKning 280-moddasiga ko'ra quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

a) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

v) kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar) va zaxira yerlar.

Mavjud yer uchastkalaridan qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari quyidagicha guruhlanadi:

1. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

2. Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

3. Sug‘orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

4. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari.

6. Shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig‘i stavkalari.

7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

Yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ–1887-sonli qarorining 19-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi. 2012-yilda amal qilgan soliq stavkalari 1,15 baravarga indeksatsiya qilindi. Bunda yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkasi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasi va 19-ilovadagi 1-jadvali bo‘yicha yer uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-bonitet)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsiyentidan kelib chiqib aniqlanadi. 7 va 8-jadvallarda keltirilgan stavkalarga yer uchastkalari joylashgan joyidan kelib chiqib quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi: Toshkent shahri atrofida 20 km radiusda – 1,30, Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km radiusda – 1,20, tuman markazlari atrofida 10 km radiusda – 1,15, boshqa shaharlar atrofida 5 km radiusda – 1,10.

Yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa shaharlar va tuman markazlarining avtomobil yo‘llari bo‘yicha ma’muriy chegaralaridan boshlab belgilanadi. Agar yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan bo‘lsa, shaharning yuqoriroq funksional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsiyent qo‘llaniladi.

Misol. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi

hisoblanmagan qishloq xo'jaligi korxonasi Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida 17 gektar sug'orma yerga ega, shu jumladan, III darajali - 10 gektar va 7 gektar baholanmagan erga ega. Unda jamoat imoratlari va hovlilari band etgan 6 gektar yer ham bor. Yer solig'ini hisoblang.

YECHIMI. PQ-1449-sonli qarorning 19-ilovasi 1-jadvaliga ko'ra, Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida joylashgan sug'orma jamoat qishloq xo'jaligi yerlari (I darajali yerlar) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkasi 2011-yilda 1 gektar uchun 10 345,1 so'mni tashkil qildi. Unga tuzatish koeffitsiyentlari belgilangan: III darajali yerlar uchun (bonitetning 21-30 ballari)- 2,25; baholanmagan yerlar uchun - 4,67.

Qiziriq tumanida sug'orma yerlarning 1 gektari uchun yer solig'i stavkasi 2011-yilda quyidagilarni tashkil qildi: III darajali yerlar uchun (bonitetning 21-30 ballari) - 23276,48 so'm (10345,1x2,25); baholanmagan yerlar uchun - 48 311,62 so'm (10 345,1x 4,67).

Ulardan undiriladigan yer solig'ining umumiy summasi 570946,14 so'mni (23276,48x10+48311,62x7) tashkil qiladi. Bundan tashqari, korxona jamoat imoratlari va hovlilari band etgan 6 gektar yerga ega. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkasi 1 gektar uchun 178 616,9 so'mga teng (PQ-1449-sonli qarorga 19-ilovaning 4-jadvali). Jamoat imoratlari va hovlilari band etgan yerlar uchun yer solig'i summasi 1 071701,4 so'mni (178616,9 x 6) tashkil qiladi. Shu tariqa, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar uchun budjetga to'lanadigan yer solig'i summasi 1642647,54 so'mga (570946,14 + 1 071 701,4) teng.

Misol. Yer uchastkasi Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida joylashgan bo'lsa, 2011-yil uchun korxonaning yer solig'i summasini hisoblang. IV darajali sug'orma yerlarning umumiy maydoni 8 gektarni tashkil qiladi.

YECHIMI. Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida joylashgan sug'orma jamoat qishloq xo'jaligi yerlari (I darajali yerlar) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkasi 2011-yilda 1 gektar uchun 5677,7

so‘mni tashkil qiladi (PQ-1449-sonli qarorga 19-ilovaning 1-jadvali). Unga doir tuzatish koeffitsiyenti IV darajali yerlar uchun (bonitetning 31-40 ballari) 3,29 miqdorida belgilangan. Shu tariqa, 2011-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy tumani bo‘yicha sug‘orma jamoat qishloq xo‘jaligi yerlarining 1 gektari uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘ining stavkasi IV darajali yerlar uchun 18679,63 so‘mni (5 677,7x3,29) tashkil qiladi. Mazkur holda bir yil uchun hisoblangan yer solig‘i summasi 149437,04so‘mni (18679,63x8) tashkil qiladi.

Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar. Soliq kodeksining 282-moddasiga ko‘ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

a) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Ularga borish yo‘llari, ariqlar, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar kiradi;

b) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar (davlat qo‘riqxonalari, milliy va dendrologiya bog‘lari, botanika bog‘lari, zakazniklar, ov qilishga mo‘ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda maxsus maqsadlar uchun berilgan, ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

v) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, xotira bog‘lari, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);

g) suv fondi yerlari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek, suv havzalari sohilidagi suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);

d) elektr uzatish liniyalari, podstantsiyalar, umumdavlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar.

e) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgi-

langan tartibda ularning indekslari va tartib raqamlarini ko‘rsatgan holda tegishli ro‘yxatlarga kiritilgan avtomobil yo‘llari taalluqlidir;

j) temir yo‘llarning umumiy tarmog‘i va ularning inshootlari egallagan yerlar;

z) umumiy foydalanishdagi shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari (shu jumladan, metropoliten bekatlari egallagan yerlar) va ularning inshootlari egallagan yerlar. Mazkur imtiyoz tramvay yo‘llari va trolleybus liniyalari, metropoliten liniyalari, tramvay va trolleybus bekatlari, shu jumladan, dispetcherlik punktlari, metropoliten bekatlari va shahar elektr transporti yo‘llaridagi boshqa inshootlar egallagan yerlarga tatbiq etiladi. Ma’muriy va boshqa yordamchi binolar, depolar (depo hududida joylashgan elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari egallagan yerlardan tashqari), qurilish va ta’mirlash obyektlari egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to‘lanadi;

i) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog‘lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o‘quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

k) magistral suv quvurlari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek, suv ta’minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar egallagan yerlar. Suv ta’minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar tarkibiga aholi punktlarida suv quvuri va kanalizatsiya tarmog‘idagi nasos stantsiyalari, kuzatish quduqlari va dyukerlar, suv minoralari va shu singari inshootlar kiradi;

l) magistral gaz va neft quvurlari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

m) magistral issiqlik trassalari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Issiqlik trassalarining inshootlariga nasos stantsiyalari, issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlar, issiq suv ta’minotining tsirkulyatsiya nasoslari kiradi;

n) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan, ularni erda boshqarish yo'laklari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektryoritish uskunalari joylashgan yerlar;

o) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar - qurilishning me'yoriy muddati davriga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan obyektlar egallagan yerlar;

p) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

r) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlar seleksiyasini amalga oshirish hamda mavzu doirasi tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar va ko'chatlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod etiladi;

s) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar - loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

t) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, plyajlar va hokazolar);

u) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

f) qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaligi korxonalari hamda tashkilotlarining o'rmonlar va ihotazorlar, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari, shuningdek, sport inshootlari egallagan yerlari;

x) qishloq xo'jalik korxonalarining yangi o'tqazilgan bog' va uzumzorlari - ular meva qilish davriga kirishigacha, qishloq

xo'jalik ekinlari ekish uchun qator oralaridan foydalanilishidan qat'iy nazar;

ch) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar egallagan yerlar.

Quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar: madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'iy nazar, ular zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ajratilgan yer uchastkalari uchun; dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga; nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» uyushmasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari

yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili 1-yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va soliq bo'yicha hisob-kitoblar yer uchastkasi joylashgan hududdagi davlat soliq organiga joriy yilning 15 fevraligacha qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lmagan hamda qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun belgilangan shakllar bo'yicha taqdim etiladi. Bo'shatib olinayotgan mablag'lardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish sharti bilan imtiyozlar olgan yuridik shaxslar soliq to'lovchilar uchun belgilangan shakl bo'yicha va muddatlarda yer solig'i hisob-kitobini taqdim etadilar.

Hisobot yili davomida yer mulklari tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar davlat soliq organlariga yer solig'i to'lanadigan hisobot yilining 1 noyabriga qadar yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etadilar. Agar alohida bino bir necha yuridik shaxsning balansida bo'lsa, yer solig'ini har bir yuridik shaxs alohida, egallagan ishlab chiqarish xonalariga mutanosib ravishda to'laydi. Ko'p qavatli turarjoylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar yer solig'ini turarjoy egallagan umumiy maydondan va mazkur yuridik shaxs

tomonidan foydalaniladigan ishlab chiqarish xonalarining hissasidan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar. Yuridik shaxslar (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliqni har chorakda, chorak ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlar bilan to'laydilar (15 fevral, 15 may, 15 avgust, 15 noyabr).

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ini hisobot yilining 1-iyuliga qadar – yillik soliq summasining 20 foizini, hisobot yilining 1-sentyabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizini va hisobot yilining 1-dekabriga qadar – hisoblangan soliqning qolgan (50 foizi) summasini to'lashni amalga oshiradi. Yer solig'i, soliq to'lovchining joylashgan yeridan qat'iy nazar, hududida yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to'lanadi.

Yuqorida keltirilgan Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida joylashgan korxona yer solig'ini quyidagi muddatlarda to'lashi lozim:

1-iyulgacha - 328 529,51 so'm (1 642 647,54 x 20%);

1-sentyabrgacha - 492 794,26 so'm (1 642 647,54 x 30%);

1-dekabrgacha - 821 323,77 so'm (1 642 647,54 - 328 529,51 - 492 794,26) yoki (1 642 647,54 x 50%), ya'ni soliqning qolgan summasini to'laydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida joylashgan korxona esa 1-iyulgacha - 29 887,41 so'm (149 437,04 x 20%); 1-sentyabrgacha - 44 831,11 so'm (149 437,04 x 30%); 1-dekabrgacha - 74 718,52 so'm (149 437,04 - 29 887,41 - 44831,11) yoki (149 437,04 x 50%), ya'ni soliqning qolgan summasini to'lashi lozim.

Misol. Korxona Toshkentning to'rtinchi zonasida 0,4 gektar hajmida foydalanadigan yer uchastkasiga ega, unda yer solig'ining stavkasi 1 gektar uchun 16 884 306 so'mni tashkil qiladi. Hisobot yili uchun 6 753 722,4 so'm (0,4x16884306) miqdorida yer solig'i hisob-kitobini u yer uchastkasi joylashgan erdagi soliq organiga joriy soliq davrining 15-fevraligacha taqdim etdi. SKning 286-moddasiga muvofiq yuridik shaxslar yer solig'ini har chorakda teng ulushlar bilan chorak ikkinchi oyining 15-kunigacha to'laydilar. Shunga asosan korxona har chorakda 1 688 430,6 so'm (6753722,4/4) yer solig'i to'lagan.

25-noyabrda unda 0,15 gektar hajmida yangi yer uchastkasi paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan korxona bir oy mobaynida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishi kerak. Unga ko'ra IV chorak uchun soliq summasi: 1 688 430,6 + ((0,15 x 16 884 306) / 12 x 1)= 1 899 484,3 so'mni tashkil qiladi.

To'rtinchi chorak uchun yer solig'ini to'lash muddati 15 noyabrga qadar qilib belgilanganligi sababli, ushbu sanagacha yangi uchastkadan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan korxona 1688430,6 so'm yer solig'i to'ladi. Qayta hisob-kitobdan so'ng unda to'rtinchi chorak uchun soliqni o'z vaqtida to'lamaslik muammosi yuzaga keldi. Boqimonda summasi 211053,83 so'mni (1 899 484,43 - 1 688 430,6) tashkil qildi. Soliq to'lovchi unda yer uchastkasiga mulk huquqi paydo bo'lishi bilanoq, ya'ni 25-noyabrda soliqni to'laligicha to'ladi deb faraz qilaylik. Shu tariqa, unda 15-noyabrdan 25-noyabrgacha bo'lgan davr uchun to'lovni kechiktirganligi bois penya yuzaga keladi.

KEYS. Korxona (XXTUT bo'yicha kodi 51130-»Umumiy foydalanishdagi quvur transporti») Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida joylashgan. Yordamchi xo'jaligida qoramol boqadi.

Blits savollar. 1. Ferma (molxona) maydonidan yer solig'ini hisoblab chiqarayotganda yer solig'i stavkalarining qanday jadvalidan foydalanishi kerak? Imtiyozlar mavjudmi?

2.Bog'dorchilik xo'jaligi maydonidan yer solig'ini hisoblab chiqarayotganda yer solig'i stavkalarining qanday jadvalidan foydalanish lozim? Imtiyozlar bormi?

KEYS tahlili. Mazkur holatda yer solig'i stavkalarini qo'llash va imtiyozlarning mavjudligi masalasi avvalo yer uchastkalari korxonaga qanday maqsadlarda - qishloq xo'jaligini yuritish yoki qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berilganligiga bog'liqdir. Yer uchastkasining vazifasi tuman yoki viloyat hokimining qarori va kadastr hujjatlarida ko'rsatiladi. Agar yer uchastkasi qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berilgan bo'lsa, ferma (molxona) va bog'lar egallagan butun maydondan yer solig'i qishloq joyda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Ular PQ-1887-sonli qarorga 7,8-ilovadagi jadvallarda keltirilgan. Jizzax viloyati uchun ular 1 gektar uchun aholi punktlaridagi sug'orma yerlarning soliq solish summasi -

3 206 980 so'm, aholi punktlaridan tashqaridagi sug'orma yerlardan - 3 032 766 so'm; lalmikor-yaylov erdan - 1 gektar uchun 665 160 so'mni tashkil qiladi.

Agar yer uchastkasi qishloq xo'jaligini yuritish (yordamchi xo'jalik) uchun berilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalari qo'llanadi. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun bazaviy stavka I darajali 1 gektar yer uchun 9 206,4 so'mni tashkil qiladi (PQ-1887-sonli qarorga 19-ilovaning 1-jadvali). Mazkur holda stavka bazaviy stavka va yer uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsiyentidan kelib chiqib aniqlanadi.

Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari PQ-1887-sonli qarorga 19-ilovaning 2-jadvalida keltirilgan. Jizzax viloyati uchun ular quyidagini tashkil qiladi (1 gektar uchun): tekislik zonasi - 1198 so'm; adir zonasi - 1261,2 so'm; tog'oldi va tog' zonasi – 2 041,1 so'm.

Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar bo'yicha yer solig'i stavkalari balandlik mintaqalari bo'yicha tabaqalashtirilgan. Jizzax viloyatida ular quyidagini tashkil qiladi (1 gektar uchun): cho'l zonasi - 248,8 so'm; adir zonasi - 316,0 so'm; tog' zonasi - 443,8 so'm (PQ-1887-sonli qarorga 19-ilovaning 3-jadvali).

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar (suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo'llar, jamoat imoratlari va hovlilari va hokazolar) uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari PQ-1887-sonli qarorga 19-ilovaning 4-jadvalida ko'rsatilgan.

Imtiyozlarga kelganda, yer solig'i solishdan ozod qilinadigan yer uchastkalarining ro'yxati SK 282-moddasining ikkinchi qismida keltirilgan. Ular orasida ferma (molxona) egallaydigan yerlar ko'rsatilmagan, binobarin, ularga yer solig'i solinadi. Biroq quyidagi yer uchastkalari bo'yicha imtiyozlar mavjud: qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar (SK 282-moddasi ikkinchi qismining 23-bandi). Ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida beriladi; melioratsiya ishlari

amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar (SK 282-moddasi ikkinchi qismining 24-bandi). Ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga beriladi; yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar (SK 282-moddasi ikkinchi qismining 25-bandi). Uch yil muddatga beriladi. Kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi.

KEYS xulosasi. Yer uchastkasi korxonaga ayni yordamchi xo'jalik (qishloq xo'jaligi) yuritish uchun berilgan taqdirdagina ushbu imtiyozlardan foydalana oladi.

KEYS. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida» qarori (2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-son, bundan keyin - PQ-1449-sonli qaror) bilan sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha yer solig'ining stavkalarini belgilash tartibi o'zgartirildi. Ilgari ular har bir mintaqa bo'yicha aniq miqdorlarda ko'rsatilar edi, PQ-1449-sonli qaror bilan esa koeffitsiyentlar belgilandi. Yer solig'i solinishi SKning 49-bobi bilan tartibga solinadi. Uni to'lovchilar va hisoblab chiqarish tartibi 2011-yilda o'zgarmadi. SKga muvofiq mulk, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'i to'lovchilaridir. U soliq solinadigan bazadan (SKning 281-moddasi) va belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblanadi. 2011-yil 1-yanvardan boshlab to'lovchilar sug'orma jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkasini I darajali yer uchun bazaviy stavkadan va unga qo'llaniladigan, yer uchastkasining sifat xususiyatini (bonitet ballini) hisobga oladigan tuzatish koeffitsiyentidan kelib chiqib, mustaqil tarzda belgilaydilar (PQ-1449-sonli qarorga 19-ilova).

«Oydin Xayot» kichik korxonasi Toshkent viloyatining Qibray tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerga ega, biroq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mezonlariga javob bermaydi. Sug'orma yerlarning umumiy maydoni 10

gektarni tashkil qiladi, shu jumladan, V darajali – 4 gektar; VI darajali - 6 gektar.

Blits savol. 2011-yil uchun yer solig'i summasini qanday hisoblash kerak?

KEYS tahlili. Yuridik shaxslardan 2011-yil uchun belgilangan, Toshkent viloyatining Qibray tumanida joylashgan sug'orma jamoat qishloq xo'jaligi yerlari (I darajali yerlar) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 8 697,1 so'mni tashkil qiladi (PQ-1449-sonli qarorga 19-ilovaning 1-jadvali). Ushbu soliqning bazaviy stavkalariga quyidagi tuzatish koeffitsiyentlari belgilangan: V darajali yerlar uchun (bonitetning 41-50 ballari) - 4,67; VI darajali yerlar uchun (bonitetning 51-60 ballari) - 6,78. Shu tariqa, 2011-yil uchun kichik korxona yerlarning 1 gektariga yer solig'i stavkalari quyidagini tashkil qiladi: V darajali yerlar bo'yicha (bonitetning 41-50 ballari) - 40 615,46 so'm (8 697,1x4,67); VI darajali yerlar bo'yicha (bonitetning 51-60 ballari) - 58 966,34 so'm (8 697,1x 6,78).

2011-yil uchun hisoblangan yer solig'ining umumiy summasi 516 259,88 so'mni (40 615,46 x 4 + 58 966,34 x 6) tashkil qiladi.

KEYS YECHIMI. 2011-yilda yer uchastkalari uchun budjetga yer solig'i quyidagicha to'lanadi: Toshkent viloyatining Qibray tumanida:

1-iyulgacha - 103 251,98 so'm (516 259,88 x 20%); 1 sentyabrgacha - 154 877,96 so'm (516 259,88 x 30%);

1-dekabrgacha - 258 129,94 so'm (516 259,88 - 103 251,98 - 154 877,96) yoki (516 259,87 x 50%), ya'ni soliqning qolgan summasi to'lanadi.

Shuni yodda tutish lozimki, SKning 81-moddasiga ko'ra, hisobga qo'yilmagan joy bo'yicha unda yer solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelgan soliq to'lovchi tegishli yer uchastkasiga (yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquq bilan birga tegishli ko'chmas mulk obyektiga) bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida soliq solish obyektlarini ular joylashgan erda hisobga qo'yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat etishi shart. Soliq organi soliq to'lovchining ilgari ber-

ilgan identifikatsiya raqamiga muvofiq murojaat etilgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay uni obyektlar bo'yicha hisobga qo'yadi.

SKning 113-moddasida nazarda tutilishicha, soliq organida obyektlar bo'yicha hisobga turishdan bo'yin tovlash quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi: agar belgilangan muddatdan ko'pi bilan 30 kun o'tgan bo'lsa - EKIHning 50 baravari; 30 kundan ko'p o'tsa - EKIHning 100 baravari miqdorida.

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan mahalliy yig'imlar va ularning o'ziga xos jihatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ–1887-sonli qarorining 21-ilovasiga muvofiq, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab mahalliy soliqlar va yig'imlarning chegaralangan miqdorlari quyidagicha belgilandi: Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i sof foydaning 8 foizi miqdorida saqlanib qolindi. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq benzin va dizel yoqilg'isining 1 litri uchun 200 so'mdan 240 so'mga oshirildi, suyultirilgan va siqilgan gaz bo'yicha esa 2012-yilgi darajada saqlanib qolindi. Yuridik va jismoniy shaxslarga avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz narxi transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni hisobga olgan holda belgilanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblanadilar. Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Soliq solish obyekti, bazasi, soliq stavkalari va imtiyozlar

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanidan keyin ular tasarrufida qolgan foyda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi. Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani foyda solig'i to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyektining 8 foizi miqdorida belgilangan. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi. Qonunchilikka ko'ra ushbu imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarga qo'llanilmaydi.

Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va budjetga to'lash tartiblari

Soliq kodeksining 300-moddasiga ko'ra balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar budjetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi: agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi; agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, budjetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi. Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda

summasidan hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi. Quyidagilar joriy to'lovlarni to'lamaydi:

- hisobot davrida coliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar;
- ilgarigi hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;
- yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchi korxonalarda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish bazasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S_{inf} = S_f + X_h + S_{fs} + D + S_{nf}$$

Bu erda: S_f = foyda solig'i to'langandan so'ng korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdori; X_h = ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash uchun sarflangan haqiqatdagi xarajatlar hajmi; S_{fs}=ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash

uchun sarflangan haqiqatdagi xarajatlar hajmini inobatga olgan holda hisoblangan foyda solig'i summasi (X_h*foyda solig'i stavkasi); D = olingan dividendlar; S_{nf}=normadan ortiq ko'rilgan sof foyda summasi.

Misol. Hisobot davri ko'rsatkichlariga ko'ra korxonada quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi: yalpi tushum – 10800 ming.so'm(QQSsiz); realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi – 3900 ming so'm; soliqqa tortish bazasidan chegiriladigan boshqa xarajatlar – 700 ming so'm; hisoblangan foyda solig'i – 558 ming so'm; shuningdek, korxona bolalar bog'chasiga ega bo'lib, bog'chani saqlab turish xarajatlari – 1300 ming so'mga teng bo'lgan.

YECHIMI. Korrektirovka qilingan sof foyda miqdori 6825 ming so'mni (5642+1300-117), shundan 5642 ming so'm (10800-3900-700-558) - korxona sof foydasi hisoblanadi. 1300 ming so'm - bog'chani saqlab turish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar, 117 ming so'm - ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash uchun sarflangan haqiqatdagi xarajatlar hajmini inobatga olgan holda hisoblangan foyda solig'i summasi (1300*9%).

Demak korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi – 546 ming so'mga (6825*8%) teng.

Misol. Olti oylik natijaga ko'ra korxonada quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi: foyda solig'i to'lagandan so'ng qolgan foyda hajmi – 3980 ming so'm; dividendlar ko'rinishida olingan daromad – 720 ming so'm; birinchi kvartalda to'langan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – 225 ming so'm. Mazkur korxona ijtimoiy infratuzilma obyektlariga ega emas.

YECHIMI. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i bazasi 3260 ming so'mga (3980-720) teng. Olti oylik yakun bo'yicha korxona to'lashi lozim bo'lgan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 260,8 ming so'mga (3260*8%) tengdir. Ikkinchi kvartal uchun budjetga to'lanishi lozim bo'lgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi 35,8 ming so'mga (260,8-225) teng.



Tayanch so'z va iboralar

Mahalliy soliqlar va yig'imlar, mahalliy budjet, kichik biznes, kichik korxona, yakka tartibdagi

tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, mol mulk solig'i, yer solig'i, yig'imlar, soliq obyekti va subyektlari, soliq imtiyozlari, soliq ta'tili, soliq krediti, soliqlarni to'lash muddatlari, soliq agentlari, soliq hisobot shakllari, moliyaviy yil, soliq davri



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Mahalliy soliqlarning tarkibiy tuzilishi qanday?
2. Mahalliy soliqlar qaysi budjetga to'lanadi?
3. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
4. Yer solig'i obyektini ayting? Uning tub mohiyatini tushuntirib bering?
5. Soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar guruhini ayting?
6. Mahalliy yig'imlar, ularning joriy etilish sabablari?
7. Mol-mulk solig'i bazasini shakllanishini tushuntirib bering?
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bazasi qanday shakllanadi?



Mavzu doirasidagi qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.
2. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. -T.:O'zbekiston, 2011. 48 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha

reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua.-Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. -377 b.

4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi 24.01.2003. №PF-3202-sonli farmoni.

5. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risidagi 24.03.2003. №PF-3226 sonli farmoni.

6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi 24.01.2003. №PF-3202 sonli farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ-1887-sonli qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: «Adolat», 2010-y. – 211 b.

9. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, - 448 b.

10. Kuzmin G.V. Zemelniy nalog: Osobennosti ischisleniya i uplati - M: Vershina , 2006, 203 s.

11. Morozova L.L. Nalog na pribil organizatsiy: Analiz tipichnix nalogovix oshibok. –M.: Aktiv, 2006, - 241 s.

12. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojeniyu. Uchebnoe posobie. M.V.Vladika, V.F.Tarasova, T.V.Saprikina; pod obshch. Red. V.F.Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006, – 360 s.

13. Sh.A.Toshmatov. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. – T., «Fan va texnologiya» – 2008, 129 b.

14. http (www2ifc.org) centralasia (sme)ruzuzveyhtm).

V bob. SODDALASHTIRILGAN SOLIQQA TORTISH TIZIMI VA UNI QO‘LLASH TARTIBI

Reja:

5.1. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritish tartibi va ularni amal qilish shartlari

5.2. Yagona soliq to‘lovi obyekti, subyektlari va soliq stavkalari

5.3. Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlar guruhi va ulardan foydalanish yo‘nalishlari

5.4. Yagona soliq to‘lovini hisoblash, hisobotlar topshirish va budjetga to‘lash tartiblari

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritish tartibi va ularni amal qilish shartlari



Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun unga nisbatan qo‘llanilayotgan amaldagi soliqqa tortish tartibi uning faoliyatini hamda kelajak istiqbolini belgilab berishi mumkin. Shu bois, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga soliq to‘lovlari ta’sirining qay darajada bo‘lishi davlatning olib borayotgan soliq siyosatiga bevosita chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarga nisbatan amalda qo‘llanilayotgan soliqqa tortish tartibi ham ular faoliyatiga bevosita ta’sir etib, kelgusi moliya yiliga nisbatan tegishli qarorlarni qabul qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, aynan davlatning olib borayotgan soliq siyosati instrumentlari orqali faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarning umumiy iqtisodiy faollik darajasini oshirishga erishish mumkin. Chunki kichik korxonaning iqtisodiy faolligini belgilovchi omillarga (korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari hajmi, ishlab chiqarish salohiyati, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish hajmi va tezligi, investitsion salohiyati, korxona

xodimlari malakasi va soni) korxona to'laydigan soliqlar va yig'imlarning ta'siri muhimdir. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi omillarga davlat bevosita soliqqa tortish mexanizmi dastaklari orqali ta'sir etib, mazkur ko'rsatkichlarni oshirishga erishishi mumkin. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarning iqtisodiy faollik darajasini oshirish orqali esa kelgusida budjetning asosiy daromadi bo'lgan soliq tushumlarini oshirishga erishiladi.

Kichik korxonalarni soliqqa tortish tizimida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlarga nazar soladigan bo'lsak, mazkur islohotlarni quyidagi uch bosqichga bo'lishimiz hamda har bir bosqichda erishilgan tendentsiyalarni tahlil qilishimiz mumkin.

Birinchi bosqich (1991-1997-yillar). Kichik korxonalar faoliyatini huquqiy kafolatlash maqsadida 1995-yil 21-dekabrrda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi mazkur subyektlar faoliyatini kelgusida rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ta'kidlash joizki, kichik korxonalar 1997-yilga qadar boshqa korxonalar singari umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida qabul qilingan yo'riqnomalarga asosan soliqqa tortilib kelingan. Mazkur korxonalarning davlat budjetidagi ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lmagan.

Kichik korxonalarga nisbatan soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibida yagona soliqni to'lash mexanizmi ilk marotaba 1996-yil 31-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «1997-yilgi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari va O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti prognozi to'g'risida»gi 469 - sonli qarori bilan joriy etildi.

Ikkinchi bosqich (1998-2004-yillar) Kichik korxonalarni soliqqa tortishning ikkinchi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PF-1987-sonli farmonini qabul qilinishi

muhim qadamlardan hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinganidan so'ng, unga mos ravishda 1998-yil 15-apreldagi 159-sonli Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, kichik korxonalarga soliqqa tortishning ikkita tartibidan birini tanlash huquqi berildi. Ya'ni, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi va soliqqa tortishning umumbelgilangan tartiblaridir. Mazkur qarorga binoan soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini tanlagan kichik korxonalar umumdavlat va mahalliy soliqlar o'rniga budjetga yagona soliqni to'lashi, ammo, quyidagi soliq va to'lovlardan ozod etilmasligi belgilandi: aksiz solig'i; boj to'lovlari; davlat boji; budjetdan tashqari majburiy to'lovlari (pensiya fondi, bandlik va boshqa fondlar); mahalliy auksion va lotoreyalar o'tkazish huquqini olish litsenziya yig'imi; avtotransport turarjoyi uchun yig'im; tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan registratsiya yig'imi; savdo qilish huquqini olish uchun yig'im; maxsus tovarlarni sotish huquqini olish uchun litsenziya yig'imi; tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi a'zolari uchun a'zolik badali.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 30-maydagi «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatiga yagona soliqning 10 foizini o'tkazish tartibi to'g'risida»gi 240-sonli qaroriga muvofiq esa, kichik korxonalar yagona soliq summasining 10 foizini fond hisob raqamiga o'tkazishi, bunda ular ikkita to'lov topshiriqnomasini (soliq summasining 90 foizini budjetga, 10 foizini fond hisob raqamiga) rasmiylashtirishi, «Kamolot» bilan o'zaro qo'llab-quvvatlash shartnomasiga ega bo'lishlari lozimligi belgilandi.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida kichik korxonalar to'laydigan yagona soliq summasining 1998-2002-yillardagi Davlat budjeti daromadlaridagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur yillarda yagona soliq tushumi ulushi ustun darajada kamayish tendentsiyalariga ega (1999-yildan tashqari). Jumladan, yagona soliq tushumining jami soliq tushumlaridagi ulushi 1998-yilda 1,9 foizni, 1999-yilda 3,9 foizni, 2000-yilda 3,5 foizni, 2001-yilda 2,4 foizni va 2002-yilda 2,2 foizni tashkil

etgan[10].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-sonli qaroriga muvofiq iste’mol tovarlari ishlab chiqarishdan olingan tushumdan yagona soliqni amaldagi stavkadan 25 foizga kamaytirilgan stavkada to‘lash hamda ishlab chiqarish korxonalarining iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmlarini ko‘paytirish hisobiga olgan daromadlari yagona soliqdan ozod etilish tartibi belgilandi. Mazkur imtiyozlarni joriy etilishi 2003-2005-yillarda kichik korxonalar tomonidan yuqori sifatli, raqobatbardosh iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi sezilarli ravishda ortdi hamda ishlab chiqarish mahsulotlarining assortimentini kengaytirishga erishildi.

2003-yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» PF-1987-sonli farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi PF-3305-sonli farmoniga binoan esa kichik biznes maqomini belgilash mezonlariga yuqorida keltirilgan tarzda o‘zgartirishlar amalga oshirildi.

2004-yil 1-yanvardan boshlab qazilma boyliklar qazib oluvchi kichik korxonalar soddalashtirilgan tizimga faqatgina qazilma boyliklarini qazib olishga solinadigan soliqni to‘lash sharti bilangina o‘tishlari, shuningdek, agar korxona asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarini ijaraga berishdan daromad ko‘radigan bo‘lsa, (lizingdan tashqari) umumbelgilangan tarzda mol-mulk solig‘ini to‘lashi, yagona soliqning obyekti bo‘lib, xarid qiluvchi, ta’minot-sotish, brokerlik korxonalar uchun - yalpi daromad, xalq xo‘jaligining qolgan tarmoq korxonalari uchun - yalpi tushum hisoblanishi belgilandi.

2003-yildan Soliq Kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiq, soliq solish obyektiga belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati qo‘shimcha ravishda kiritildi.

Kichik qishloq xo‘jalik korxonalariga o‘z ixtiyori bo‘yicha yagona yer solig‘i yoki kichik korxonalar uchun sotish hajmiga qarab yagona soliq bilan hisob - kitob qilish imkoniyatlari

[10] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг мазкур йиллардаги ҳисобот маълумотлари асосида ҳисобланган.

berildi.

Uchinchi bosqich (2005-yildan hozirgi kunga qadar) 2005-yildan boshlab kichik korxonalarni soliqqa tortish tizimida to‘plangan tajribalarga tayangan holda, tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Mazkur subyektlar faoliyatini aynan soliqlar orqali rag‘batlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni bilan esa 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va Maktab ta’limi jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi. 2006-yildan boshlab esa umumiy tartibda soliq to‘lovchi korxonalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda QQS to‘lash imkoniyati berildi. Korxona QQSni to‘lashga o‘tishi uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan korxona esa, o‘z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirishnoma taqdim etishi lozimligi belgilandi.

5.1-jadval ma’lumotlarida kichik biznes subyektlari tomonidan to‘langan yagona soliq to‘lovi dinamikasi keltirilgan. 01.01.2007-yil holatiga kichik biznes subyektlari tomonidan to‘langan yagona soliq to‘lovi 139,4 mln.so‘mni, 01.01.2011-yil holatiga esa 477,0 mln.so‘mni tashkil etgan.

Yagona soliq to‘lovini joriy etilishi orqali xo‘jalik yurituvchi subyekt chorakda soliq organiga bir marta kelishi hamda bitta hisobotni taqdim etishi belgilandi. Shuningdek, ular zimmasidagi soliq yukini sezilarli ravishda kamaytirishga erishildi.

5.1-jadval

Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘langan yagona soliq to‘lovi dinamikasi tahlili[11](foizlarda)

Viloyatlar	01.01.2007 -yil holatiga	01.01.2008-yil holatiga	01.01.2009-yil holatiga	01.01.2010-yil holatiga	01.01.2011-yil holatiga
Andijon	3,6	4,5	5,0	5,2	4,8
Buxoro	5,1	5,9	5,2	5,0	4,9
Jizzax	3,0	2,2	2,5	2,3	2,2
Qashqadaryo	7,0	6,0	6,1	5,4	4,9
Navoiy	3,7	3,3	3,2	2,6	2,5
Namangan	3,2	3,5	3,6	3,5	4,0
Samarqand	5,7	5,5	5,0	4,9	5,1
Surxondaryo	3,1	3,1	2,8	2,8	2,5
Sirdaryo	1,5	1,7	1,6	1,6	1,7
Toshkent shahri	40,0	39,0	39,0	42,6	43,5
Toshkent	12,6	11,8	12,2	10,6	10,9
Farg‘ona	5,4	6,4	7,1	7,2	7,3
Xorazm	3,6	3,9	4,1	4,1	3,7
Qaraqalpog‘iston Respublikasi	2,4	3,3	2,6	2,2	2,1
Jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Jami (mln.so‘mda)	**139, 4**	**202,9**	**285,0**	**382,4**	**477,0**

Mazkur farmonga muvofiq, 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, aksiz solig‘i olinadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovini hisoblashda soliqqa tortiladigan baza aksiz solig‘i summasiga kamaytiriladigan bo‘ldi. Mazkur tartib ikkiyoqlama soliqqa tortish holatini bartaraf etishga xizmat qildi. Shuningdek, yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga yagona soliq to‘lovini to‘lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani imtiyozli davr tugaganidan keyin, teng ulushlarda 12 oy davomida to‘lash huquqi berildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar mazkur imtiyozni qo‘llash davrida, bo‘shagan pul mablag‘lari hisobiga ustav jamg‘armalarini mustahkamlashga, aylanma mablag‘larini ko‘paytirishga hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo‘naltirishlari uchun qo‘lay sharoit yaratildi. 2005-yil 15-iyundagi

[11] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг ҳисобот маълумотлари асосида тузилган.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi PK-100-sonli qarori qabul qilindi.



5.1-rasm. **Respublika iqtisodiyotida mulkchilik shakllari bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lovchi kichik korxonalar tavsifi**[12]

Mazkur qarorga muvofiq, 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishlari o‘rniga, har chorakda taqdim etishlari belgilandi. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan hisobotlar soni qisqartirildi, soliq to‘lovchilarni soliq idoralariga tashrif buyurishlari, moliyaviy hisobotlarga ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflashini oldi olindi. Tadbirkorlik subyektlaridan hisobotlarni elektron aloqa vositalari orqali qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

[12] Меъёрий –ҳуқуқий қонунчилик асосида тузилди.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-sonli farmonini qabul qilinishi orqali tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish faqat Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilishi belgilandi. Agar ular tomonidan tadbirorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish davomida jinoyat alomatlari aniqlansa tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shu jumladan, soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari mavjud holatlar yuzasidan Bosh prokuratura huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga taqdim etishlari belgilandi. Tadbirkorlik subyektlarini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan nazorat organlarining sonini qisqartirilishi, ular moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir etishini oldi olindi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari uchun amal qiladigan soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘i va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qatiy belgilangan soliqlarni to‘lashni nazarda tutdi (5.1-rasm). Soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida esa kichik korxonalar Soliq Kodeksida belgilangan tartibda umumdavlat va mahalliy soliqlarni to‘lovchi bo‘lib hisoblanishi belgilandi (5.2-rasm). Qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarining tajriba eksperimental xo‘jaliklari va ta’lim muassasalarining o‘quv tajriba xo‘jaliklari yagona yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib hisoblandilar. Ammo o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari hamda yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yagona yer solig‘i to‘lovchilar bo‘lib hisoblanmaydilar.

Agar korxona qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan birga boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirsa, u holda korxona mazkur faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi lozim. Yer uchastkalari ijaraga berilganida yagona yer solig‘ini ijaraga beruvchi to‘laydi. Yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga yagona yer solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.



5.2-rasm. **Kichik korxonalarni soliqqa tortish tartiblarida to'laydigan soliqlari va to'lovlari tasnifi**

Yagona yer solig'i summasi soliq solinadigan bazaga qarab, yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblanadi. Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda, soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar. Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda, faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki qat'iy belgilangan soliqlarni to'lashlari shart.[13]

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmi yillar davomida takomillashtirilib kelinmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijalari Davlat budjeti daromadlarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, kichik korxonalar tomonidan to'langan soliqlar dinamikasiga nazar soladigan bo'lsak, 5.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat budjetida yagona soliq to'lovi yillar davomida o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona soliq to'lovi 2004-yili 58821,9 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 145022,1 mln.so'mni tashkil etgan. Ammo savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona soliq to'lovi soliqlar ichidagi salmog'i yillar davomida kamayish va o'sish tendentsiyalarini kuzatishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab, 2007-yilning 1-yanvaridan boshlab savdo va umumiy ovqatlanish korxonlari uchun yalpi daromaddan emas, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-532 sonli qaroriga asosan yalpi tushumdan yagona soliq to'lovini joriy etilishidir.

Soddalashtirilgan tizimda faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi (YaST) 2008-yilda 145628,1 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 346321,2 mln.so'mni tashkil etgan.

---

[13] Ўзбекистон Республикасининг Солик кодекси: Расмий нашр –Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги.– Т.: "Адолат", 2008 й. – 692 б.

5.2-jadval

Kichik korxonalar tomonidan to'langan soliqlar dinamikasi tahlili[14]

Ko'rsatkichlar	Yillar																			
	2004			2005			2006			2007			2008			2009			2010		
	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da	Hajmi Mln. so'm	Dav. Byud. Salmog'. %da	Bev. Solq. Tar. Ulushi%da
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona soliq to'lovi	58821,9	2,8	10,6	66639,2	2,0	7,7	72961,1	1,8	6,9	110800,0	2,2	9,0	145022,1	2,0	8,0	222415,1	2,1	8,0	297034,7	2,3	8,6
Soddalashtirilgan tizimda qo'llanilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun YaST	71278,4	3,2	12,0	80486,3	2,4	9,3	95542,7	2,4	9,1	103888,9	2,0	8,5	145628,1	2,0	8,1	256002,2	2,.5	9,.2	346321,2	2,6	10,1
Yuridik va jismoniy shaxslar daromadlariga qatiy belgilangan soliq	35293,2	1,4	5,1	42406,7	1,3	4,9	55045,0	1,4	5,2	54200,0	1,1	4,4	81690,9	1,1	4,5	108600,0	1,0	4,0	139145.7	1,1	4,6

[14] Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлигининг www.mf.uz сайтидан фойдаланган холда тайёрланди.

Shuningdek, bevosita soliqlar ichida soddalashtirilgan tizimda qo'llanilayotgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun YaST salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, mazkur soliq stavkalari yillar davomida pasaytirilishi bilan bir qatorda, soliqqa tortish tartibi va soliq bazasini aniqlash mexanizmlari ham takomillashtirilmoqda. Shuningdek, kichik biznes subyektlari tomonidan to'langan birgina YaSTni tahlil etadigan bo'lsak, 2008-yilda jami soliq tushumlaridagi YaST hajmi 2004-yilga nisbatan 74349,7 mln. so'mga ko'paygan. Bunga asosiy sabab 2004-yilda soliq stavkasi 13 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda soliq stavkasi 8 foiz miqdorida belgilanishidir. Soliq stavkasini pasaytirish evaziga YaSTni to'lovchi kichik korxonalarda erishilgan soliq tejami orqali, ixtiyorida qolgan mablag'ni o'z oborot mablag'larini moliyalashtirishga sarflab, reinvestitsiya qilish imkoniyati yuzaga kelgan. Natijada esa mazkur soliq bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengayishiga hamda davlat budjetida YaST bo'yicha tushumni ko'payishiga erishilgan. Kichik korxonalarga nisbatan soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida yagona soliq to'lovini to'lash shartlarining qulayligi oxirgi yillarda mazkur Albatta buning asosiy sabablaridan biri mazkur soliq stavkasining hukumatimiz tomonidan yillar davomida pasaytirilishidir.

Kichik korxonalarni soliqqa tortish tizimlarida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, bugungi kunda kamchiliklar ham uchrab turibdi. Soliqqa tortishning ikkala tartibida ham kichik korxonalar yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar. Mehnatga haq to'lash fondi soliq solinadigan bazani tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq, 2013-yil uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foiz darajasida belgilandi. Bunda Pensiya jamg'armasiga - 24,8 foiz, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasiga - 0,1 foiz, kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga - 0,1 foiz miqdorida taqsimlanadi[15].

Yagona soliq to'lovi obyekti, subyektlari va soliq stavkalari

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida, bugungi kunda ularga nisbatan ikkita, ya'ni umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblari amal

[15] Приложение № 25 к Постановлению Президента РУз от 22.12.2009 г. № ПП-1245.

qilmoqda. Misol uchun, Toshkent shahrida 2008-yilning birinchi yarim yilligida umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar soni 2231 tani tashkil etib, bu jami ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlarining 8,5 foizigina tashkil etdi[16]. Ya'ni, qolgan 24 ming 111 ta kichik korxona yagona soliq to'lovini amalga oshirmoqda. Bu ko'rsatkich mazkur subyektlar uchun soddalashtirilgan tartibda faoliyat yuritish qulay ekanligidan dalolat bermoqda. Jumladan, Toshkent shahrida 2006-yil 1-yanvar holatiga kichik biznes subyektlari soni 22 174 tani tashkil etgan bo'lsa, 2007-yil 1-yanvar holatiga 14,5 foizga, 2008-yil 1-yanvar holatiga esa ular sonining 14,8 foizga o'sishi kuzatilgan. Shuningdek, mazkur subyektlar faoliyatida muhim ko'rsatkichlardan bo'lgan soliq yuki, 2007-yilgacha bo'lgan oldingi 7 yil davomida 40 foizdan 27 foizgacha kamaytirildi. Jumladan, 2008-yilda kichik biznes subyektlari uchun soliq stavkalari pasaytirildi va ular faoliyatini soliqqa tortish tartiblarini yanada soddalashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur yilda ulgurji savdo korxonalari uchun yagona soliq to'lovining amaldagi differentsial stavkasi o'rniga 5 foizli stavka joriy etildi. Aholi soni 100 000 kishi va undan ko'p bo'lgan shaharlarda esa chakana savdo korxonalariga nisbatan 4 foizli stavka, boshqa faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi mikrofirma va kichik korxonlarga nisbatan esa 8 foizli stavka joriy etildi. Shuningdek, 2005-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi 100-sonli qaroriga muvofiq, kichik biznes korxonalari uchun soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish tizimi sezilarli darajada soddalashtirildi. Misol uchun, 2005-yilgacha kichik korxonalar davlat soliq idoralariga har chorakda o'n marotaba tashrif buyurib, 14 ta hisobot turlarini topshirishga majbur bo'lgan bo'lsalar, mazkur qarorni amalda joriy etilishi natijasida bir chorakda bir marta tashrif buyurib, atigi 6 ta hisobot shaklini topshirishlari belgilandi. Savdo va umumiy ovqatlanish

[16] "Кичиклар" салохиятига кенг йўл соддалаштирилган соликлар хакида//СБХ.-№46(746). 2008 йил 14 ноябрь.

korxonalarining soliq inspeksiyasiga kelishlari sakkiz marotabadan bir martaga, yagona yer solig'i to'lovchilarni esa olti marotaba kelishlari bir martagacha kamaytirildi hamda taqdim etiladigan hujjatlar soni 13 tadan 5 taga qisqartirildi. Shuningdek, soddalashtirilgan tartibda soliq to'lovchi kichik korxonalarda to'lov manbayida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qolindi: to'lov manbayida undiriladigan foyda solig'i; O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmat) bo'yicha QQS; aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i; yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; bojxona to'lovlari; yagona ijtimoiy to'lov; davlat bojlari; tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im; avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlarni.

YaSTning soliq solish obyekti yalpi tushum hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovar (ish, xizmat)larni QQSni chegirgan holda (QQS to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan tushum, deganda quyidagilar tushuniladi: qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishlicha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun -

tovar oboroti; mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi; vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi; tayyorlov tashkilotlari uchun - realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad; lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum; tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek, tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun - tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baho(tarif)lari davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baho(tarif)lardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) budjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovoni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yohud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

12) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi. Soliq solinadigan baza quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yohud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbayida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

7) to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan daromadlar.

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar uchun - transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga.

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi: yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi; yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi: tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda; bitim shartlari o'zgarganda; baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda; bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovar(ish, xizmat)lar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi. Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

2013-yil uchun iqtisodiyotning barcha tarmoq korxonalari mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining amaldagi 6 foizli stavkasi saqlangani holda, sanoat korxonalari va ommaviy axborot vositalari korxonalari uchun 1 foizga kamaytirilib, 5 foiz qilib belgilandi. O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun amalda belgilangan soliq stavkasi: sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgachani tashkil etganda - 30%ga pasaytiriladi; sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ortiq foizni tashkil etganda - 50%ga pasaytiriladi. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarni sotish uchun turg'un savdo shaxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60 foizdan ortig'ini tashkil etadigan) korxonalar uchun amaldagi 30 foizli stavka saqlanib qolindi. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar (bojxona brokerlari) uchun amaldagi yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foiz saqlanib qolindi.

Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar uchun 5 foizli stavka saqlanib qolindi.

Lombard xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 30 foiz etib belgilandi. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun, ko'rsatilgan xizmatlarini plastik kartalar qo'llanilgan holda to'langan hajmi bo'yicha belgilangan stavka 10 foizga pasaytirilishi saqlanib qolindi.

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan turli aholi punktlarida joylashgan bir necha savdo nuqtalariga ega bo'lsa, unda ular har bir savdo nuqtasi bo'yicha

tovar oborotining alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashlari lozim.

5.3-jadval

2013-yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun YaSTning STAVKALARI

To‘lovchilar	soliq stavkalari, foizda
Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
ulardan:	
umumiy ta’lim maktablari, maktab-internatlar, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
Chakana savdo korxonalari (4-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari), ularning joylashgan joyi:	
aholi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	4
boshqa aholi punktlarida	2
borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
Ulgurji savdo korxonalari (4-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari)	5
Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, joylashgan joyi:	
aholi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	3
boshqa aholi punktlarida	2
borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
1, 2 va 4-bandlarda ko‘rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), sotilgan tovarlari (ko‘rsatilgan xizmatlari)ni plastik kartalar qo‘llanilgan holda to‘langan hajmi bo‘yicha	belgilangan stavka 10%ga pasaytiriladi

SKning 351-moddasiga binoan, faoliyat ko‘rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar YaSTni to‘lashga o‘tishlari uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran

o‘n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini YaSTni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etishi lozimligi bayon etilgan. Mikrofirmalar va kichik korxonalar YaSTni to‘lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechganda esa hisobot davri tugaganidan so‘ng, o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirishnomasi asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar va to‘lovlarni to‘lashga o‘tishi lozimligi belgilangan. Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan YaSTni to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay, taqdim etiladigan yozma bildirishnomasi asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tishlari lozim. Shuningdek, YaSTni to‘lovchilar YaSTni huquqidan mahrum bo‘lgan o‘tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar asosida, YaST to‘lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshirishlari lozim. YaST bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazish uchun YaSTni to‘lovchilar yil yakunlari bo‘yicha YaST hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay, soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etishlari belgilangan: belgilangan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo‘yicha hisob-kitoblarni; O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani, bunda umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan YaST summasidan oshib ketgan taqdirda, oshgan summa budjetga to‘lanishi lozim[17]. Ammo hisoblangan YaST summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketsa, budjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi. YaST bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazish tovar (ish, xizmat)larni sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi. Agar belgilangan hisob-kitoblar va

[17] Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси: Расмий нашр –Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги.– Т.: “Адолат”, 2008 й. – 692 б.

ma'lumotnoma yil yakunlari bo'yicha YaST hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi. Yil yakunlari bo'yicha YaST hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan tartibning amal qilishi oqibatida, amaliyotda kichik korxonalarni o'z faoliyatini yanada kengaytirishga, bugungi kunda iqtisodiyotda asosiy muammolardan bo'lgan yangi ish o'rinlarini yaratishga, yirik korxonalarga aylanishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirib, aksincha ular faoliyatini rag'batlantirmaslikka xizmat qilmoqda. Chunki o'tgan davr uchun umumbelgilangan soliqlar va yig'imlar bo'yicha qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibining majburiy belgilanishi hamda mazkur tartibga amal qilmaslik moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi uchun asos bo'lishi, soliqqa tortish tamoyillariga zid hisoblanadi. Jumladan, SKning 57-moddasida ortiqcha to'langan soliqlar summalari qaytarilishi lozimligi ta'kidlangan. YaSTni amalga oshirgan davri uchun umumbelgilangan soliqlar va to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilish amaliyotining belgilanishi, kichik korxonananing o'tgan mazkur hisobot davrida umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida amalga oshirgan hisob-kitobi asos bo'ladi hamda SKning 57-moddasiga binoan ortiqcha to'langan yagona soliq to'lovini qaytarib olinishi qonuniy to'g'ri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va berilgan soliq imtiyozlariga qaramasdan, tahlillar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortishda qator muammolar uchramoqda.

Masalan, 5.4-jadval ma'lumotlarida «Shams-savdo» kichik korxonasining 2003-2007-yillardagi moliyaviy natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumotlari keltirilgan. 5.3-jadval ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, yillar davomida foyda solig'i stavkasining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan bo'lsada, mantiqiy jihatdan olib qaraganda, korxona sof foydasi ko'payishi kuzatilishi lozim edi. Ammo korxona moliyaviy hisobotlariga nazar soladigan bo'lsak, buning aksi kuzatilgan, ya'ni korxonaning sof foydasi keskin ravishda kamaygan.

5.4-jadval

«Shams-savdo» kichik korxonasining moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisoboti tahlili[18](ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	**2003 yil**	**2004 yil**	**2005 yil**	**2006 yil**	**2007 yil**
Mahsulot sotishdan tushum	297 752,4	477 220,3	724 521,6	756 749,5	815 895,4
Ishlab chiqarish xarajatlari	249 740,6	398 396,9	611 488,1	633 623,0	695 069,3
Davr xarajatlari	40 613,8	63 321,8	92 106,0	115 279,9	115 257,6
Olingan dividendlar	24,5	122,4	131,0	166,3	141,8
Valuta kursi farqlari	-4 277,5	-8 719,2	-5 587,2	-5 527,4	-4 244,4
Olingan va to‘langan foizlar	-959,8	-1 589,8	-11 124,0	-17 496,7	-18 871,9
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromad va xarajatlar	2 597,0	1 255,7	6 247,4	25 750,1	27 521,3
Soliq to‘languncha moliyaviy natija	4 782,2	6 570,7	10 594,8	10 738,8	10 115,3
Foyda (daromad) solig‘i	4 495,0	5 826,2	8 713,4	10 448,6	9 896,4
Boshqa soliq va to‘lovlar	0,0	0,0	745,9	88,6	121,7
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	23,0	59,8	90,7	85,9	80,9
Sof foyda	**264,2**	**684,7**	**1 044,7**	**193,0**	**89,3**

Korxonada amalga oshirilgan ichki moliyaviy nazorat natijasida esa korxona sof foydasining kamayishiga amaliyotimizda foyda solig‘i bazasini aniqlashning o‘ziga xosligi sabab bo‘lganligi aniqlangan. Ya’ni, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, foyda solig‘i bazasini aniqlashda soliq bazasiga qayta qo‘shiladigan xarajatlardan korxonada belgilangan limitlardan ortiqcha ishlatilgan suv uchun to‘lovlar ko‘rinishidagi, xodimlarga qo‘shimcha tarzda berilgan ta’tillar uchun to‘langan haqlar ko‘rinishidagi, boshqaruv xodimlarining me’yordan ortiqcha xizmat safarlari xarajatlari, soliqqa doir qonunbuzarliklarni sodir etganlik uchun to‘langan va

[18] «Шамс-савдо» кичик корхонасининг мазкур йиллардаги молиявий натижалари тўғрисидаги ҳисобот маълумотлари асосида тузилган.

hisoblangan jarima va penyalar ko'rinishidagi xarajatlarning oshganligi (aksariyat hollarda soliq majburiyatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshira olmasligining asosiy sabablari korxonalarga bevosita bog'liq bo'lmagan holda yuzaga kelmoqda) sabab bo'lgan.

Bugungi kun amaliyotida kichik korxonalarni soliqqa tortish qonunchiligi faoliyatini rivojlantirib, kengaytirishga ya'ni yirik korxonalarni tashkil etishga bo'lgan xohishini rag'batlantirmayapti. Buni esa bugungi kunda deyarli barcha korxonalar kichik korxona maqomini saqlagan holda, soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashni lozim topayotganlarida ko'rishimiz mumkin. Korxonalarda amalga oshirilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlari natijasida bu korxonalar umumbelgilangan soliqqa tortish tizimida soddalashtirilgan tizimga nisbatan kamroq soliq summasini to'lashlari mumkinligi aniqlangan bo'lsa-da, ular soddalashtirilgan tizimni tanlashlariga majbur bo'lmoqdalar. Chunki soliq qonunchiligida nisbatan qisqa muddatlarda amalga oshirilib kelinayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar hamda yangiliklarni tez o'zlashtira ololmayotganligi, umumbelgilangan soliqqa tortish tizimida soliqlar sonining ko'pligi, ularni mazkur soliqlar hisobini amalga oshirishlari jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yish ehtimolligini yuqoriligi, shuningdek, soliq hisobotini tayyorlashda soddalashtirilgan tizimga nisbatan 3,5 baravar ko'p vaqt sarflashlari talab etilmoqda. Soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimiga o'tmaslik sabablaridan yana biri esa bu QQS va uni to'lash bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitob jarayonlarining murakkabligidir. Bugungi kunda QQSni to'lash tizimiga o'tgan korxonalar bir yilda o'rtacha QQS summasi aks ettirilgan 500 dan ortiq schyot-fakturalarni tayyorlashlariga to'g'ri kelmoqda. QQSni hisoblash bilan bog'liq xarajatlardan quyidagi holatlar, soliq ma'murchiligi xarajatlarini yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Jumaladan, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq schyot - fakturalar bosh buxgalter va korxona rahbari tomonidan imzolanishi va tasdiqlanishi lozimligi, mazkur hujjat qatiy nazorat ostiga olinganligi sababli, bu hujjatni qayta va qayta tekshirishga majbur bo'lmoqdalar. Bundan tashqari korxona

kelib tushgan va chiqqan schyot - fakturalar reestirini olib borishi lozimdir.

2009-yildan esa schyot - fakturlarda aksiz solig'i to'g'risidagi ma'lumotlar ham aks ettirilishi lozimligi qatiy belgilandi. 5.5-jadval ma'lumotlarida «O'zelektromontaj ITSB» kichik korxonasining umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblarida to'lagan soliqlari tahlili keltirilgan. Korxona 2005-2006-yillarda umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritgan bo'lsa, 2007-yildan boshlab soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini tanlagan. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritishi bilan bir qatorda, korxona QQSni ham ixtiyoriy ravishda to'lagan. Shuningdek, korxona 2007-yilda mol-mulkini ijaraga berganligi uchun mazkur yilda mol-mulk solig'ini ham to'lagan. Korxonaning 2005-yilda budjetga to'lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalarining sof tushumdagi ulushi 41,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, soddalashtirilgan tartibda faoliyat yuritganda esa bu ko'rsatkich 2008 va 2009-yillarda 60,0 foizni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, korxona soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritgan bo'lsada, budjetga hisoblagan soliqlari va to'lovlari summasining hajmi oshib bormoqda.

5.5-jadval

«O'zelektromontaj ITSB» kichik korxonasining umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblarida to'lagan soliqlari tahlili[19] (ming so'mda)

Budjetga to'langan soliqlar va yig'imlar	**2005 yil**	**2006 yil**	**2007 yil**	**2008 yil**	**2009 yil**
Mahsulot(ish,xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan sof tushum	193368,0	264486,0	321935,0	313041,4	335279,4
Foyda (daromad) solig'i Shu jumladan:	31212,0	39507,0	-	-	-
Yuridik shaxslardan	3216,0	4105,0	-	-	-
Jismoniy shaxslardan	27996,0	35402,0	32567,0	37526,0	34533,0
Yagona soliq to'lovi	-	-	14432,0	14720,0	16009,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	40367,0	54061,0	70494,0	90267,0	94142,0
Ekologiya solig'i	1856,0	-	-	-	-
Suv resurslaridan	14,0	19,0	-	-	-

[19] «O'zelektromontaj ITSB» кичик корхонасининг мазкур йиллардаги молиявий хисобот маълумотлари асосида тузилган.

foydalanganlik uchun soliq					
Mol-mulk solig'i	542,0	473,0	189,0	-	-
Yer solig'i	6199,0	9299,0	-	-	-
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	87,0	383,0			
Yagona ijtimoiy to'lov	-	-	40235,0	45317,0	56303,0
Budjetga to'langan jami soliqlar va majburiy ajratmalar	**80277,0**	**103742,0**	**157917,0**	**187830,0**	**200987,0**
Budjetga to'langan jami soliqlar va majburiy ajratmalarning sof tushumdagi ulushi (%da)	**41,5**	**40,0**	**49,0**	**60,0**	**60,0**

Korxonaning soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini tanlashiga asosiy sabab esa mazkur tartibda soliqlar sonining kamligi hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini aniqlashning nisbatan soddaligidir. Korxona soliqqa tortishning qaysi tartibida faoliyat yuritishni tanlashdan oldin jahon amaliyotida bugungi kunda keng miqyosda qo'llanilib kelinayotgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirgan holda bir to'xtamga kelsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda soliqqa tortishning ikkala tartibida korxona erishishi mumkin bo'lgan moliyaviy natijalarning variantlari tahlili amalga oshirilib, korxonaning keyingi faoliyat yo'nalishlari aniq belgilab olinishi mumkin. Shuningdek, soliqqa tortish tartibini tanlashda korxona o'z faoliyati davomida yaratilgan tannarxda sotib olingan moddiy va nomoddiy resurslarning ulushiga, o'z faoliyati davomida foydalaniladigan mehnat sig'imiga, korxona balansida bo'lgan asosiy vositalarning qiymatiga, u yoki bu soliqqa tortish tartibida foydalanishi mumkin bo'lgan imtiyozlar guruhiga, ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan xarajatlarning hajmiga alohida e'tibor bergan holda, amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Chunki korxonada yaratiladigan tannarxda moddiy va nomoddiy resurslar ko'rinishidagi sotib olinadigan xomashyo ulushi yuqori bo'lsa, mazkur kichik korxona soliqqa tortishning umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritishi foydali, aksincha, tannarxda mazkur resurslarning ulushi kamroq, mehnat sig'imi va balansidagi mol-

mulk qiymati, korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan xarajatlari hajmi nisbatan katta hajmda bo'ladigan bo'lsa, soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini tanlashi lozim.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar guruhi va ulardan foydalanish yo'nalishlari

Bugungi kunda korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliqqa tortish tizimi ham huquqiy, ham iqtisodiy jihatdan tubdan isloh etilib kelinmoqda. Davlat aynan soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek, korxonalarning investitsion faolligini oshirishga ko'proq e'tibor qaratib kelmoqda. Bu esa albatta bugungi kunga kelib o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Jumladan, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshishi kuzatilib, hukumatimiz tomonidan «Inqirozga qarshi choralar dasturi»ning qabul qilinishi natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning o'sishiga erishilmoqda. Mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlardan biri bu soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir. Jumladan, 2009-yili yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar berilgan bo'lsa, uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlari, korxonalarning kapitallashuv va investitsiya kiritishga yo'naltiriladigan dividendlari 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etildi. Mazkur dasturni amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berish hisobidan 500 milliard so'mdan ortiq mablag' xo'jalik subyektlari tasarrufida qoldirilib, bu mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'larini to'ldirishga, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashga, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirishga

yo‘naltirildi. Dastur doirasida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilib, 2009-yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o‘rtacha 1,3 barobar kamaytirildi. Albatta, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yurituvchi har qanday iqtisodiy subyekt uchun ularga nisbatan amalda qo‘llanilayotgan soliqqa tortish tizimi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezident I.Karimov ta’kidlaganlaridek «...kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan printsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim».

Bundan tashqari YaSTni to‘lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar mustasnodir. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi. Go‘sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar bo‘shagan mablag‘larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo‘naltirish sharti bilan yagona soliq to‘lovi stavkasini 50 foizga qisqartirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 325-sonli qaroriga muvofiq, 2006-

yil 1 apreldan boshlab moliya, bank va maishiy hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslar uch yilga daromad (foyda) solig‘i, yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etildilar. Buning natijasi o‘laroq, 2007-yilda faqatgina Toshkent shahrida mazkur faoliyat bilan shug‘ullanuvchi 456 ta mikrofirma va kichik korxonalar 3 mlrd.so‘mga yaqin imtiyozga ega bo‘ldilar. 2008-yilning birinchi yarim yilligida esa 386 ta mikrofirma va kichik korxonalar 523,8 mln.so‘mga teng miqdordagi yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etildilar. Albatta, mazkur mablag‘lar korxonalarga o‘z faoliyatini rivojlantirishga hamda yangi texnologiyalarni jalb etgan holda modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14 martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3860-sonli farmoniga asosan, soddalashtirilgan tartibda faoliyat yurituvchi mikrofirma va kichik korxonalarga besh yil davomida yagona soliq to‘lovini to‘lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliq bazasining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamaytirishga doir soliq imtiyozi berildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1048 sonli qaroriga muvofiq, eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni yanada rag‘batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan, respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko‘maklashish maqsadida, Respublika ikkinchi sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi yakunlarini hisobga olgan holda mazkur qarorga kiritilgan korxonalar 2011-yil 1-yanvargacha:

– chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab

chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari);

–mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

–mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mol-mulk solig'i to'lashdan ozod qilindi.

5.6-jadval

«ALFA-DENT» kichik korxonasida soliq solinadigan yalpi tushumning kamaytirilish holati tahlili[20](ming so'mda)

Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan xarajatlar va daromadlar tarkibi	2007-yil	2008-yil	2009-yil
Soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish – jami	180431,0	1053311,7	802570,2
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish – jami	-	-	-
Normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish – jami	-	1023887,9	802570,2
shu jumladan:			
mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushum (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarorining 2-bandi)	157254,3	1023887,9	802570,2
Soliq solinadigan yalpi tushumning yangi texnologik jihozlar olishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamayishi	23176,8	29423,8	-

Shuningdek, mazkur qarorga kiritilgan korxonalar uchun yuqorida keltirilgan imtiyozlar loyihalar belgilangan tartibda

[20] "ALFA-DENT" кичик корхонасининг мазкур йиллардаги ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.

ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha Maxsus komissiya qarorlariga binoan 2012-yilning 1-yanvarigacha berildi. Korxonalarda imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, sifatni boshqarish tizimini joriy etishga, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo va materiallar sotib olishga, Mahalliylashtirish dasturini amalga oshirishga jalb qilingan korxonalarning muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga yo'naltirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27 yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048 sonli qarorining 2-sonli ilovasining VII-Engil sanoat bo'limida biz tomonimizdan faoliyati tahlil qilingan «ALFA-DENT» kichik korxonasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur korxona Mahalliylashtirish dasturiga muvofiq texnik matolarni (poliamid filtrli, poliefir filtrli, polipropilen filtrli, arselon filtrli) matolarni ishlab chiqarishi belgilangan.

5.7-jadval ma'lumotlarida «ALFA-DENT» kichik korxonasida soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirilish holati tahlili keltirilgan. Jumladan, soliq solinadigan yalpi tushum 2007-yilda 157254,3 ming so'mga, ya'ni mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan tushum miqdoriga kamaytirilgan. Mazkur summa 2008-yilda 1023887,9 ming so'mni, 2009-yilda 802570,2 ming so'mni tashkil etgan. Shuningdek, korxonaning soliq solinadigan yalpi tushumi 2007-yilda yangi texnologik jihozlarni sotib olishga sarflagan 23176,8 ming so'mga, 2008-yilda esa 29423,8 ming so'mga yalpi tushum hajmi kamaytirilgan.

5.7-jadval

«ALFA-DENT» kichik korxonasiga berilgan maqsadli imtiyozlar tahlili[21](ming so‘mda)

Soliqlar va to‘lovlar	2008-yil		2009-yil	
	Soliqlar va to‘lovlar hajmi	Imtiyozlar asosnomasi va davri	Soliqlar va to‘lovlar hajmi	Imtiyozlar asosnomasi va davri
Yagona soliq to‘lovi	8465,7	28.05.2008-yil O‘zR PQ-879 2008-2010-yillar	56179,9	27.01.2009-yil O‘zR PQ-1048 2009-2010-yillar
Bojxona to‘lovlari	6383,7			
Xomashyo importida QQS			69360,5	
Jami	14849,4		125540,4	
shu jumladan:				
faoliyatini kengaytirish va lokalizatsiya mahsulotini ishlab chiqarish uchun xomashyo sotib olishga sarflangan hajmi	14849,4		125540,4	

5.8-jadval ma’lumotlarida «ALFA-DENT» kichik korxonasiga berilgan maqsadli imtiyozlar tahlili keltirilgan. Jumladan, kichik korxona 2008-yilda jami 14849,4 ming so‘mlik imtiyozga ega bo‘lib, shundan 8465,7 ming so‘mi yagona soliq to‘lovi, 6383,7 ming so‘mi bojxona to‘lovlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2008-2010-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to‘g‘risida»gi 2008-yil 28 maydagi PQ-879-sonli qaroriga muvofiq korxona mazkur turdagi imtiyozlarga ega bo‘lgan. 2009-yilda esa korxona jami 125540,4 ming so‘mlik imtiyozga ega bo‘lib, shundan 69360,5 ming so‘mi xomashyoni import qilishda shakllangan QQS hisoblanadi. Soliq Kodeksining 356-moddasiga binoan yagona soliq to‘lovining soliqqa tortish bazasi yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan

[21] “ALFA-DENT” кичик корхонасининг мазкур йиллардаги ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.

bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga kamaytirish ko‘rinishidagi soliq imtiyozi belgilangan bo‘lib, soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshirilishi lozim. Mazkur turdagi soliq imtiyozidan biz tahlil qilayotgan «ALFA-DENT» kichik korxonasi ham foydalangan.

5.8-jadval

«ALFA-DENT» kichik korxonasida yangi texnologik jihozlar olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar tahlili[22]

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkich nomi	**2007-yil**	**2008-yil**
Yangi texnologik jihozlarni xarid qilishga yo‘naltirilgan, qoplanmagan mablag‘lar saldosi – jami	78722,0	27473,8
shu jumladan:		
2007-yil uchun	23176,8	27473,8
2008-yil uchun	19460,6	
2009-yil uchun	15744,8	
2010-yil uchun	12028,2	
2011-yil uchun	8312,0	
Yangi texnologik jihozlarni xarid qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar (foydalanishga topshirish sanasidan boshlab) - jami: shu jumladan:	23176803	1950000
o‘z mablag‘lari hisobidan	23176803	1950000
soliqqa solish bazasi	834432153	662437045
soliq solish bazasining foizi	208608038	165609261
soliq solish bazasining kamayishi	23176803	29423776
qoplanmagan mablag‘lar qoldig‘i	55545207	

5.8-jadvalda «ALFA-DENT» kichik korxonasida yangi texnologik jihozlar sotib olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar tahlili keltirilgan bo‘lib, yangi texnologik jihozlarni xarid qilishga yo‘naltirilgan o‘z mablag‘lari 2007-yilda 23176,8 ming so‘mni tashkil etib, mazkur summaga soliq solish bazasi kamaytirilgan. Bu ko‘rsatkich 2009-yilda 29423,8 ming so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, kichik korxonalar o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish,

[22] “ALFA-DENT” кичик корхонасининг мазкур йиллардаги хисобот маълумотлари асосида тузилди.

xizmat)larning erkin almashtiriladigan valutadagi eksport ulushidan kelib chiqib, imtiyozli stavkalarni qo'llash tarzidagi soliq imtiyozlari belgilangan.

5.9-jadval

«ALFA-DENT» kichik korxonasining eksport ulushidan kelib chiqib yagona soliq to'lovi stavkasining tuzatilishi holati tahlili [23]

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2007-yil	2008-yil	2009-yil
Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilishdan tushgan sof tushum	1000726,8	1703015,5	1259752,3
O'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilingan tovar (ish, xizmat)lar eksporti, shu jumladan:	498159,3	413276,8	195516,9
o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilingan tovar (ish, xizmat)lar eksporti	498159,3	413276,8	195516,9
Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilishdan sof tushumga nisbatan o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilingan tovar (ish, xizmat)lar eksportining salmog'i, %da	50%	24.3%	15.52%
Yagona soliq to'lovining belgilangan stavkasi	10%	8%	7%
Yagona soliq to'lovining tuzatilgan stavkasi	5%	5.6%	4.9%

Jumladan, kichik korxonada eksport hajmi realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lsa - belgilangan stavka 30 foizga, realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lsa - belgilangan stavka 50 foizga kamaytiriladi. Realizatsiyaning umumiy hajmi, deganda barcha faoliyat turlaridan olingan tushum summasi tushuniladi. Bunda eksportning ulushi ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi. Eksport ulushini hisoblab chiqarishda eksport hajmiga o'zi ishlab chiqargan xomashyo tovarlarini - paxta tolasi, ip kalava, paxta linti, neft, gaz kondensati, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, elektr energiyasi,

[23] "ALFA-DENT" кичик корхонасининг мазкур йиллардаги ҳисобот маълумотлари асосида тузилди.

qimmatbaho, rangli va qora metallar, rangli va qora metallar parchalari va chiqindilarini realizatsiya qilishdan; savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyatdan; brokerlik xizmatlaridan; tayyorlov va ta'minot-sotish faoliyatidan; lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil qilish faoliyatidan olingan tushum kiritilmaydi.

5.9-jadvalda «ALFA-DENT» kichik korxonasining eksport ulushidan kelib chiqib YaST stavkasining tuzatilishi holati tahlili keltirilgan bo'lib, korxonada tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilishdan sof tushumga nisbatan o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilingan tovar (ish, xizmat)lar eksportining salmog'i 2007-yilda 50 foizga, 2008-yilda 24,3 foizga, 2009-yilda esa 15,52 foizga teng bo'lgan. Shundan kelib chiqib, korxona 2007-yilda 5 foizli, 2008-yilda 5,6 foizli, 2009-yilda esa 4,9 foizli yagona soliq to'lovining tuzatilgan stavkalari bo'yicha soliqlarni to'lagan. Kichik korxonalar plastik kartochkalar qo'llanib to'langan, ko'rsatilgan xizmatlari hajmi bo'yicha yagona soliq to'lovining o'rnatilgan stavkasi 10 foizga pasaytiriladi. 2.10-jadvalda 2009-yilda «ALFA-DENT» kichik korxonasining tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlaridan olingan tushumi salmog'i tahlili keltirilgan. Jumladan, asosiy, ya'ni ishlab chiqarish faoliyat turi bo'yicha tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum 1259752,3 so'mni tashkil etib, sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum salmog'i 0,1 foizga teng bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shunday imtiyozlar guruhi amaliyotga joriy qilindiki, haqiqatda bu turdagi imtiyozlar aniq korxonalar faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13 noyabr 2002-yildagi 390-sonli qarori bilan yuqori sifatli, raqobatbardosh iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularning assortimentini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini to'ldirish maqsadida 2003-yil 1-yanvardan 2007-yil 31-dekabrgacha korxonalar iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlaridan daromad (foyda) solig'ini amaldagi stavkadan 20 foizga kamaytirilgan stavkada, bolalar uchun tovarlar ishlab

chiqaruvchi korxonalar, bolalar uchun tovarlar ishlab chiqarishdan olingan daromadlaridan daromad (foyda) solig'ini 7 foizli stavka bo'yicha, mikrofirmalar va kichik korxonalar iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olingan tushumdan yagona soliq to'lovini amaldagi stavkadan 25 foizga kamaytirilgan stavka bo'yicha to'lashlari, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining iste'mol tovarlari ishlab chiqarish fizik hajmlarini ko'paytirish hisobiga olingan daromadlari (foydasi) daromad (foyda) solig'i va YaSTni to'lashdan ozod qilindi.

5.10-jadval

2009-yilda «ALFA-DENT» kichik korxonasining tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlaridan olingan tushumi salmog'i tahlili[24](ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Jami	shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisining faoliyat turlari bo'yicha		
		asosiy faoliyat turi – 1	2	3
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum shu jumladan:	1402605,8	1259752,3	142750,5	103,0
plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum		1229,0		103,0
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum salmog'i, %da		0.1		100

Nooziq-ovqat iste'mol tovarlari (tamaki mahsulotlari va zargarlik buyumlari, kirsovun va atir sovun, shuningdek, benzindan tashqari) ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'shagan

[24] "ALFA-DENT" кичик корхонасининг мазкур йиллардаги хисобот маълумотлари асосида тузилди.

mablag'lari ishlab chiqarishni ko'paytirishga, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlarining assortimentini kengaytirishga va raqobatbardoshligini oshirishga maqsadli yo'naltirilgan taqdirda budjetga aksiz solig'i to'lashdan ozod qilindilar hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga amortizatsiya ajratmalarining yillik hisobidan chiqarish miqdorlarini asosiy vositalar xizmatining foydali muddatidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilash huquqi berildi. Korxonalarning o'zi ishlab chiqargan iste'mol tovarlari reklamasiga xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisoblab chiqishda soliqqa tortiladigan bazadan to'liq hajmda chiqarish tartibi belgilandi.Darhaqiqat, qator korxonalarda mazkur turdagi imtiyozlar berilgan davrda imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan mablag'lar korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirib, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlarining assortimentini kengaytirishga va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi. Bizningcha, bu turdagi imtiyozlarni berish amaliyotini davom ettirish lozim. Chunki aynan shu turdagi imtiyozlar soliqlarni haqiqatda rag'batlantirish funksiyasini amalda ishlashini ta'minlagan bo'lar edi.

Yagona soliq to'lovini hisoblash, hisobotlar topshirish va budjetga to'lash tartiblari

YaST bo'yicha kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir: mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun - yil choragi; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun - bir oy. Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

QQS to'lovchilar uchun YaST summasi budjetga to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasiga, lekin YaST summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi. QQSni ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar YaST summasini QQS hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

YaSTning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Yagona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



5.3-rasm. **Yagona soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllari**

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi. To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi

faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladiBundan tashqari so'ngi yillarda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini qo'llashda qator o'zgarishlar, ya'ni me'yorlar joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1024-sonli qaroriga ko'ra yagona soliq to'lovi to'lovchilari uchun me'yoriy miqdorlar belgilandi. Qarorga muvofiq, 2009-yilning 1-yanvaridan boshlab, avval xususiylashtirilgan korxonalar sotilgan tovar (ish, xizmat)lar hajmi so'ngi ikki chorakda obyektiv sabablarsiz, o'rtatilgan tartibda joriy etilgan mol-mulk va yer solig'ining mo'ljaldagi o'n karra miqdoridan kamroq summani tashkil etgan YaST to'lovchilar soliq organi bildirishnomasiga asosan umumbelgilangan soliq solish tizimiga o'tishini belgilovchi tartib o'rnatildi. Bu holatda obyektiv sabablarga taraflarning istagi va xarakterlariga bog'liq bo'lmagan, ular tomonidan qabul qilingan majburiyatlar bajarila olmaydigan tabiat hodisalari, ijtimoiy iqtisodiy vaziyatlar, O'zbekiston Respublikasi hukumatining tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni va realizatsiya qilishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarori, yuridik shaxsni tugatish yoki bankrot deb topish to'g'risidagi qarorlarning qabul qilinishi holatlari asos bo'ladi.

2010-yil 1-iyuldan chakana savdo korxonalari, xizmatlar ko'rsatish sohasidagi mikrofirma va kichik korxonalar SKga muvofiq YaSTni to'laydilar, biroq u xuddi shunday faoliyat turini amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmasligi kerak. To'lash tartibi YaSTning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan YaSTni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom (MV va DSQning AV tomonidan 2010-yil 18 avgustda 2134-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan, bundan keyin - 2134-sonli nizom) bilan belgilangan.

Bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi: chakana savdo korxonalariga; xizmatlar ko'rsatish sohasidagi mikrofirma va kichik korxonalarga tatbiq etiladi. Agar hisobot

davri yakunlari bo'yicha chakana savdo yoki xizmatlar ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblansa, ko'rsatilgan korxonalar bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lovchilari hisoblanadilar. Tegishlicha, bazani hisobga olgan holda YaSTning bo'lg'usi to'lovchilari guruhiga chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish bilan ham shug'ullanadigan hamda hisobot davrida realizatsiyaning umumiy hajmida ular bo'yicha tushumning ulushi ustunlik qiladigan ko'p yo'nalishli korxonalar - YaST to'lovchilari ham kirishi mumkin.

Misol. Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan kichik korxona quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmatlar; nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qiladi. Korxona olgan tushum 80 400 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan: umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatishdan - 28 140 ming so'm; nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdodan - 52 260 ming so'm.

Umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatishdan tushumning ulushi korxona realizatsiyasi umumiy hajmining 35%ini (28 140 / 80 400 x 100%) tashkil qiladi. Nooziq-ovqat tovarlari chakana savdosidan tushumning ulushi - 65% (52 260 / 80 400 x 100%). Shu tariqa, mazkur korxona uchun asosiy faoliyat turi bo'lib nooziq-ovqat tovarlarining chakana savdosi hisoblanadi. Mazkur faoliyat turini yakka tartibdagi tadbirkor amalga oshirishi mumkin, ayni u bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkasi belgilangan. Binobarin, mazkur korxona bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lashi kerak.

Misol. Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan kichik korxona quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmatlar; nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo.

Korxona olgan tushum 65 200 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan: umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatishdan - 52 160 ming so'm; nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdodan - 13 040 ming so'm.

Umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatishdan tushumning ulushi korxona realizatsiyasi umumiy hajmining 80%ini (52 160 / 65 200 x 100%) tashkil qiladi. Nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdodan tushumning ulushi - 20% (13

040 / 65 200 x 100%).

Korxona uchun umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatish asosiy faoliyat turi ekanligini, uni Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat yuridik shaxs shaklida tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning ayrim turlari ro'yxatiga (VMning 2002-yil 5 noyabrdagi 380-sonli qaroriga ilova) ko'ra faqat yuridik shaxslar amalga oshirishlari mumkinligini hisobga olib, mazkur korxonaga bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi tatbiq etilmaydi.

YaST to'lovchisi amalga oshiradigan faoliyat bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilanmagan hollarda 2134-sonli nizom qo'llanmaydi. Masalan, kichik korxona Toshkent shahrida bo'sh xonalarni ijaraga beradi va oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qiladi. Hisobot davrida ijaraga berishdan tushumning ulushi realizatsiyaning umumiy hajmida ustuvor hisoblanadi. Jismoniy shaxslar (shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar) mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadlaridan budjetga jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashlarini (soliqning qat'iy belgilangan stavkalari mavjud emas) hisobga olib, korxona YaSTning bazaviy miqdorini hisoblamaydi, balki SK 353-moddasining qoidalariga amal qilib YaST to'laydi. Soliq solishning turli obyektlari va (yoki) YaST stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari amalga oshirilganda ularda alohida-alohida hisob yuritiladi va soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha YaST to'lanadi. Ya'ni ijaraga doir xizmatlar bo'yicha 7foizlik stavka, chakana savdo bo'yicha - 4foizlik stavkada YaST to'lanadi.

Faoliyatni xizmatlar ko'rsatish sohasiga kiritish paytida soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining faoliyat turlari xizmatlarning umumdavlat klassifikatoriga (bundan keyin - FTXUK, Klassifikator) («O'zstandart» agentligining 2006-yil 12 maydagi 05-15-sonli qarori bilan tasdiqlangan) amal qilish tavsiya qilingan. Ko'rsatilgan Klassifikator avvalo statistik hisob va tahlil maqsadlari uchun mo'ljallangan va faqat shu bois u O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan, balki «O'zstandart» agentligi to-

monidan tasdiqlangan, deb taxmin qilish mumkin. Ma'lumki, Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarini huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi nizom (VMning 1997-yil 9 oktyabrdagi 469-sonli qarori bilan tasdiqlangan) bilan belgilanishicha, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi; idoralararo tusdagi hamda korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan me'yoriy hujjatlar huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Klassifikatordan har bir hisobot davrida soliq to'lovchilarning huquqiy maqomini aniqlash uchun foydalanish taklif qilinadi va shu bois, uni huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazishga yo'llash kerak. Ehtimol, u xizmatlarni tasniflashda statistika organlari va korxonalarga soliq solishni tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, 2134-sonli nizom qanchalik turlicha yondashuvlarni qo'llayotganligini aniqlagan bo'lar edi.

Huquqni qo'llash amaliyotida ko'pincha, faoliyat turlarini xizmatlar ko'rsatish sohasi yoki ishlab chiqarishga kiritish bobida nazorat qiluvchi organlar va soliq to'lovchilarning fikrlari bir-biridan farqlanadi. Buni soliq to'lovchi amalga oshiradigan faoliyatni YaST stavkasini qo'llash uchun ishlab chiqarish faoliyati yoki xizmatlar ko'rsatish sohasiga kiruvchi faoliyat, deb e'tirof etish bobida o'tkazilgan ko'pdan-ko'p sud jarayonlari tasdiqlaydi (masalan, 2009-yilda sanoat korxonalari uchun YaST stavkasi 7%ni, xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun esa 8%ni tashkil qildi). Klassifikator xizmatlar ko'rsatish sohasiga nafaqat xizmatlarning hammaga ma'lum turlarini, balki masalan, ofislar va savdo korxonalari uchun mebel ishlab chiqarish, fuqarolik va sanoat qurilishi sohasi, xomashyoni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar va boshqa xizmatlarni ham kiritadi. Ayni vaqtda soliq solish maqsadida xomashyo, materiallar va boshqalarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan korxonalarga ushbu xizmatlarni ishlab chiqarishga kiritish tavsiya qilingan.

Bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi xizmatlar ko'rsatish sohasidagi quyidagi mikrofirma va kichik korxonalariga tatbiq etilmaydi:

– yagona soliq to'lovini to'lamaydiganlarga. Mikrofirma va kichik korxonalar, bundan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari mustasno, soliq solish tizimini - soddalashtirilgan yoki umumbelgilangan (YaST yoki foyda solig'i, QQS va boshqalar) tizimni tanlashga haqlidirlar. Agar xizmatlar ko'rsatish sohasidagi kichik korxona budjetga umumbelgilangan soliqlarni to'lasa, unga bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi tatbiq etilmaydi. Yoki, masalan, ko'p yo'nalishli korxona ishlab chiqarish, shuningdek, chakana savdo bilan shug'ullanadi, umumbelgilangan soliqlarni to'laydi. Hisobot davri yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi - chakana savdo. Korxona chakana savdo bo'yicha ham umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi ekanligini hisobga olib, hisobot davrida chakana savdo bo'yicha tushum ustuvor bo'lganligiga qaramay, unga bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi tatbiq etilmaydi;

– faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq faqat yuridik shaxs shaklida tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga. Yuridik shaxslargina shug'ullana oladigan faoliyat turlari Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat yuridik shaxs shaklida tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning ayrim turlari ro'yxatida (VMning 2002-yil 5 noyabrdagi 380-sonli qaroriga ilova) belgilangan: qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarni yohud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni sotib olish va sotish; muhr va shtamplar tayyorlash; mehmonxonalar, otellar va kempinglar tashkil etish; yuridik shaxslarga kapital qurilish, qurilish-montaj ishlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish; loyiha, loyiha-konstruktorlik faoliyati hamda loyihalar va smetalarni ekspertizadan o'tkazish; neft mahsulotlarining barcha turlarini sotish; ulgurji savdo; umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar ko'rsatish (uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish o'rinlari tashkil etmasdan donali taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmatlar bundan mustasno); texnologiya jarayonlari va ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlariga, raqamli dastur bilan boshqariladigan pretsizion va dastgoh asbob-uskunalarining radioelektron apparatlariga

texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash; teleko'rsatuvlarni tarqatish (translyatsiya qilish) - kabel tarmog'i bo'yicha teleradiodasturlarni qayta translyatsiya qilish tarmoqlariga xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan foydalanish va telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatish; birjalarda brokerlik faoliyati; avtomobil transportida tijorat asosida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'lovchilar tashish faoliyati; tamaki xomashyosini fermentlash va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish; o'simlik yog'i ishlab chiqarish va sotish; alkogolli mahsulotlarni sotish; baholash faoliyati; go'shtli yarimtayyor mahsulotlarni sanoat yo'li bilan qayta ishlash va ishlab chiqarish, shuningdek, kolbasa mahsulotlari, go'sht va baliq konservalarini sanoat yo'li bilan ishlab chiqarish; xom sutni sanoat yo'li bilan qayta ishlash va sut mahsulotlari (pasterizatsiya qilingan sut, slivka, qaymoq, tvorog, qatiq mahsulotlari), shu jumladan, pishloq, brinza, mol yog'i, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ma'qullangan barcha turlari), quruq sut, muzqaymoq va quyiltirilgan sut ishlab chiqarish; quyidagilar: margarin va mayonez mahsulotlari; konfet va shokolad (milliy shirinliklardan tashqari); tuxum kukuni; mineral suvlar, sharbatlar va salqin ichimliklarning boshqa turlari (shisha idishda, plastik, aseptik va noaseptik o'ramlarda); shaxsiy gigiena buyumlari; qurilish materiallari (qo'lda va qo'l asboblari hamda kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalangan holda tayyorlanadigan materiallardan tashqari); mebellar (badiiy xalq hunarmandchiligi va amaliy-dekorativ san'at buyumlaridan tashqari) ishlab chiqarish; polietilen xomashyosini sanoat yo'li bilan qayta ishlash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish; kino- va videomahsulotlarni ishlab chiqarish, ko'paytirish, dublyaj qilish, sotish va ularning prokati; yangi import avtomobillarni chakana savdoda sotish.

Masalan, ko'rsatilgan Ro'yxatga umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish o'rinlari tashkil etmasdan donali taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmatlar bundan mustasno) kiritilgan. Ya'ni yakka tartibdagi tadbirkorlar umumiy ovqatlanish sohasida xiz-

matlar ko'rsatishga haqli emaslar. Shu sababli umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalarga bazaviy miqdorni hisobga olib YaST to'lash tartibi tatbiq etilmaydi. Alkogolli mahsulotlarning chakana savdosi faqat yuridik shaxslar tomonidan va faqat nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan ixtisoslashgan do'konlar, alohida savdo zallari (seksiyalari) orqali amalga oshirilishi mumkin. Tegishlicha, agar korxona faqat alkogolli mahsulotlar savdosi bo'yicha xizmatlar ko'rsatsa, unga ham bazaviy miqdorni hisobga olgan holda YaST to'lash to'g'risidagi qoida tatbiq etilmaydi. Biroq agar do'kon savdo zalida alkogolli mahsulotlarni sotish bo'yicha alohida kassa apparati o'rnatilgan seksiyaga ega bo'lsa, alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishdan tushum tovar oborotining umumiy hajmiga kiritiladi va baza tovar guruhlari bo'yicha emas, balki umuman faoliyat - chakana savdo bo'yicha hisob-kitob qilinadi;

– faqat yuridik shaxslarga litsenziya beriladigan litsenziyalanadigan faoliyat turi bilan shug'ullanadiganlarga. Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi: «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi qonun (2000-yil 25 maydagi 71-II-son); Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati (Oliy Majlisning 2001-yil 12 maydagi 222-II-sonli qaroriga 1-ilova); faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalovchi organlar ro'yxati (VMning 2002-yil 28 iyundagi 236-sonli qaroriga 1-ilova); Prezidentning «Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida» qarori (2005-yil 21 sentyabrdagi PQ-186-son); shuningdek, faoliyatning muayyan turlarini litsenziyalash bo'yicha ayrim hujjatlar.

Misol. Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan kichik korxona 4 t va 9 t yuk ko'tara oladigan avtomobillarda yuklar tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Iyul-sentyabr davri uchun tushum: 4 t yuk ko'tara oladigan avtomobillarda yuk tashishdan - 16 200 ming so'm; 9 t yuk ko'tara oladigan avtomobillarda yuk tashishdan - 31 920 ming so'mni tashkil etdi. 3 t dan 8 t gacha yuk ko'tara oladigan avtomobillarda yuk tashiydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq

stavkasi EKIHning 9 baravariga, 8 t dan ortiq bo'lsa - EKIHning 13 baravariga teng.

Mazkur misol bo'yicha o'rtacha stavka: (16 200 x 9 + 31 920 x 13) / (16 200 + 31 920) = EKIHning 11,7 baravarini tashkil etadi. Binobarin, YaSTning bazaviy miqdorini aniqlash uchun EKIHning 11,7 baravari miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi qo'llanishi kerak.

Yuridik shaxs hisoblanmagan bir nechta hududiy jihatdan alohida bo'linmalarga, chakana savdoda esa - bir nechta turg'un savdo shoxobchasiga ega bo'lgan korxonalar YaSTning bazaviy miqdorini har bir alohida bo'linma (turg'un savdo shoxobchasi) bo'yicha aniqlaydilar. Alohida joylashgan, alohida devor, tom, eshik va boshqalarga ega bo'lgan bo'linmalar (shoxobchalar) ana shundaylar deb e'tirof etiladi. Agar masalan, ikki seksiyali do'konda har bir seksiya uchun alohida - ikkita eshik mavjud bo'lsa, ular ikki hududiy jihatdan alohida bo'linma sifatida qaralmaydi. U bitta do'kon, bir tom ostidagi bitta savdo shoxobchasidir. Hududiy jihatdan alohida bo'linma (savdo shoxobchasi) bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hududiy alohida bo'linma joylashgan joy bo'yicha joriy etilgan qat'iy belgilangan soliq stavkalari qo'llanishi kerak.

Misol. Nooziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qiladigan, Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan yirik chakana savdo korxonasi mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmaydigan 2 savdo shoxobchasiga ega. Bir savdo shoxobchasi Toshkent shahrida (YaST stavkasi - 4%), ikkinchisi Toshkent viloyatidagi axolisining soni 100 ming kishidan kam bo'lgan shaharda joylashgan, u yerda belgilangan YaST stavkasi 2%ga teng (bunda YaSTning ushbu stavkasi soliqning imtiyozli stavkasi hisoblanmaydi).

Toshkent shahrida nooziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qiladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi, tegishlicha, Toshkent shahridagi shoxobcha bo'yicha YaSTning bazaviy miqdori ham oyiga EKIHning 10 baravari yoki 452,15 ming so'mni (10 x 45 215), viloyat shahrida esa - EKIHning 6,5 baravari yoki 293,898 ming so'mni (6,5 x 45 215) tashkil qiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki, soliq to'lovchilarning mazkur toifasi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi DSIga soliq hisobotlari taqdim etiladigan muddatlarda

2134-sonli nizomning 2-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha Hududiy jihatdan alohida bo'lgan bo'linma (turg'un savdo shoxobchasi) to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etadilar. Agar avval taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgaradigan bo'lsa, korxona o'zgarish yuz bergan oydan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay soliq organini yozma ravishda xabardor etishi kerak.

YaST bazaviy miqdorining summasi hisobot davri uchun qat'iy belgilangan soliq summalarini qo'shish orqali o'sib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi. YaST bazaviy miqdorining o'sib boruvchi yakuni yil davomida YaSTning bazaviy miqdorini hisobga olgan holda YaSTni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilarda o'tgan hisobot davri uchun YaST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan YaST summasiga teng miqdorda qabul qilinadi.

Misol. Kichik korxona (Toshkent shahrida joylashgan) sartaroshlik xizmatlarini ko'rsatadi va uning uchun YaSTning bazaviy miqdori bir oyda EKIHning 6,5 baravarini tashkil qiladi. 2010-yilning birinchi yarmida belgilangan stavka bo'yicha hisoblangan YaST summasi 1 120 000 so'mni tashkil qildi. 9 oy yakunlari bo'yicha YaSTning bazaviy miqdori 2010-yilning birinchi yarmi uchun to'langan yagona soliq to'lovi va 2010-yilning III choragi bo'yicha YaSTning bazaviy miqdori yig'indisi sifatida aniqlanadi va 1 952,715 ming so'mni (1 120 000 + 6,5 x 37 680 + 6,5 x 45 215 x 2) tashkil qiladi.

YaSTning hisob-kitob summasi – Skga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasidir. U umuman korxona bo'yicha aniqlanadi va YaSTning bazaviy miqdori bilan taqqoslanadi. YaSTning hisob-kitob summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$HS_{yast} = S_{yat} \times S,$$

bunda: HSyast - YaSTning hisob-kitob summasi; SYaT - YaST bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo'llanilmagan soliq solinadigan yalpi tushum (YaST hisob-kitobining «040»-satri ma'lumotlari asosida); S - YaSTning o'rnatilgan stavkasi.

YaSTning hisob-kitob summasi butun korxona bo'yicha 2134-sonli nizomning 1-ilovasida keltirilgan shakldagi YaSTning bazaviy miqdorini hisobga olgan holda YaSTning ma'lumotnoma-hisob-kitobi (bundan keyin - Ma'lumotnoma-

hisob-kitob) asosida aniqlanadi. YaSTning hisob-kitob summasi YaSTning bazaviy miqdori summasidan kam bo'lgan hollarda YaST qo'shimcha hisoblanadi. Bunda YaST bazaviy miqdori summasining YaST hisob-kitob summasidan ortgan qismi YaST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan YaST summasiga qo'shimcha hisoblanadi.

Chakana savdo korxonalariga (asosiy faoliyat turi bo'yicha) xodimlar soni, mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi hamda ushbu eng kam me'yorlarni hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash tartibi (soliqlarni qo'shimcha hisoblash) tatbiq etiladi. Asosiy xodimlar sonining eng kam me'yori:

– savdo maydonining hajmidan;

– savdo shoxobchasi (do'kon)ning joylashgan joyidan;

– korxonada belgilangan ish vaqti rejimidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining AV tomonidan 28.12.2010-yilda 2173-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan buyrug'i bilan tasdiqlangan «Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom»ning II bo'limi).

Ommaviy oferta bo'yicha yoki tovarlarning chakana oldi-sotdi shartnomasini amalga oshirish orqali tovarlar sotiladigan, shuningdek, xaridorlarga qo'shimcha xizmat ko'rsatish xizmatlari joylashgan peshtaxtalar, stellajlar va savdo zalida o'rnatilgan boshqa jihozlar band etgan maydon savdo maydoni hisoblanadi. Do'konning savdo maydoniga quyidagilar kiritilmaydi: tovarlarni qabul qilish va saqlash ularni sotishga tayyorlash uchun xonalar, yordamchi, ma'muriy, maishiy va texnik xonalar. Ijaraga berilgan maydonlar ham hisobga olinmaydi.

Xodimlar sonining eng kam me'yorini hisoblash uchun asos sifatida 2173-sonli nizomga 1-ilovadagi summar ish rejimi bir haftada 72 soat bo'lgan chakana savdo korxonalari uchun keltirilgan ma'lumotlar qabul qilinadi. Korxonaning ish vaqti rejimi haftasiga 72 soatdan ortib ketsa, asosiy xodimlar sonining eng kam me'yoriga ko'paytirish koeffitsiyenti, agarda 72 soatdan kam bo'lsa - kamaytirish koeffitsiyenti (kamaytirish koeffitsiyenti 0,8 dan kam bo'lmasligi kerak) qo'llaniladi. Bunda koeffit-

siyentning (ko‘paytirish yoki kamaytirish koeffitsiyentining) miqdori korxonada amaldagi ish vaqtini me’yoriy ish vaqtiga (72 soat) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Xodimlar sonining eng kam me’yorlarini aniqlashda hosil bo‘lgan kasr sonlar yaxlitlash qoidalariga ko‘ra butun songa yaxlitlanadi (2173-sonli nizomning 2-1-bandi). Bir nechta turg‘un savdo shoxobchalariga ega bo‘lgan korxonalar xodimlar sonining eng kam me’yorini har bir turg‘un savdo shoxobchasi bo‘yicha alohida-alohida hisoblaydilar.

Xodimlar sonining eng kam me’yorlaridan mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me’yori hisob-kitobida foydalaniladi, u chakana savdo korxonalarida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$MHTF_{min}$ (chorak uchun) = KXS x Tk x EKIH x 3,

Bu yerda KXS - korxonadagi xodimlar soni. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan tartibda hisoblangan asosiy xodimlar sonining eng kam me’yori, ma’muriy, texnik xodimlar va boshqa faoliyat turlarida band bo‘lgan xodimlar (amaldagi sonidan kelib chiqib) hisobga olinadi;

Tk - hisoblangan tarif koeffitsiyenti, u 2173-sonli nizomga 5-ilovada belgilangan ishlarning o‘rtacha razryadidan kelib chiqib mehnatga haq to‘lash bo‘yicha Yagona tarif setkasi asosida aniqlanadi (chakana savdoda ishlarning o‘rtacha razryadi - 3, binobarin, tarif koeffitsiyenti - 2,998);

EKIH - eng kam ish haqi miqdori. MHTFning hisoblab chiqarilgan eng kam me’yori xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me’yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga (DSQ va MVning AV tomonidan 23.02.2011-yilda 2200-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) muvofiq amalga oshiriladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, YaIT va sug‘urta badallarini qo‘shimcha hisoblash maqsadida amaldagi MHTF bilan taqqoslanadi. Agar MHTFning eng kam me’yori amaldagi MHTFdan oshib ketsa, oshib ketgan summaga soliqlar va majburiy to‘lovlar to‘lovlarning jami stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan qo‘shimcha hisoblab yoziladi. 2012-yil uchun u 39,5%ga teng (9%

JShDSning eng kam stavkasi + 25% YaIT + 5,5% sug'urta badallari).

Misol. Angrenda joylashgan qurilish do'konining savdo maydoni 155 kv.metrni tashkil qiladi. Ish vaqti rejimi - haftasiga 54 soat. Ma'muriy xodimlar - 2 nafar (direktor va buxgalter), texnik xodimlar - 1 nafar (farrosh). Hisobot choragi (yanvar-mart) uchun amaldagi mehnatga haq to'lash fondi - 5 320 ming so'm.

Shaharda joylashgan, savdo zali maydoni 155 kv.metr bo'lgan do'kon asosiy xodimlarining eng kam soni - 9 kishi (2173-sonli nizomga 1-ilova).

Do'kon ish vaqtining rejimi (haftasiga 54 soat) me'yordagidan (72 soat) kam. Shu bois xodimlarning belgilangan eng kam soniga pasaytiruvchi koeffitsiyent 0,75 (54 / 72) qo'llaniladi. Biroq ushbu koeffitsiyent 0,8 dan kam bo'lishi mumkin emasligi sababli, asosiy xodimlar sonining eng kam me'yori 0,8 koeffitsiyenti bo'yicha hisoblanadi va 7 kishini (9 x 0,8) tashkil qiladi. Do'kon bo'yicha MHTFning eng kam me'yorini hisoblab chiqarish uchun xodimlarning umumiy soni 10 kishi (7 + 2 + 1)ni tashkil qiladi. Chorak uchun MHTFning eng kam me'yori ($MHTF_{min}$) - 5 659 024,8 so'm (10 x 2,998 x 62 920 x 3). Amaldagi MHTF eng kam miqdordan kam bo'lganligi bois JShDS, YaIT va sug'urta badallarini qo'shimcha hisoblab yozish uchun baza aniqlanadi - 339 024,8 so'm (5 659 024,8 - 5 320 000). Chorak uchun qo'shimcha hisoblab yozish summasi 133 914,8 so'mni (339 024,8 x 39,5%) tashkil qiladi.

Ayrim me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muayyan muddatga YaSTni to'lashdan ozod qilinadigan yuridik shaxslar belgilangan: 1.01.2012-yilgacha - quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17 apreldagi PQ-325-sonli qaroriga 4-ilovaga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17 apreldagi PQ-325-sonli qarori 7-bandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi PQ-640-sonli qarori 6-bandi, Prezidentning 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga 31-ilovaning 5-bandi):

1. Moliyaviy, bank xizmatlari: lizing bo‘yicha xizmatlar; sug‘urta bo‘yicha xizmatlar; auditorlik xizmatlari; buxgalteriya hisobini yuritish xizmatlari; mikrokreditlash xizmatlari.

2. Maishiy xizmatlar: poyabzalni va charm buyumlarni ta’mirlash sohasidagi xizmatlar; soatlarni tuzatish xizmatlari; maishiy elektron va elektr asboblarni (televizorlar, audio-videoapparatura, kompyuter, printer texnikasi, sovutkichlar, konditsionerlar va boshqalar) ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar.

3. Boshqa xizmatlar: veterinariya xizmatlari; ta’lim sohasidagi xizmatlar, shu jumladan, kompyuterda ishlashga o‘rgatish; bolalar sport muassasalari va seksiyalari xizmatlari; bolalar, nogironlar, keksa fuqarolarga qarash bo‘yicha ijtimoiy xizmatlar.

Mazkur imtiyoz quyidagilarga tatbiq etiladi: 21.05.2007-yildan boshlab - sanatoriylar, axborot-resurs markazlari, bolalar sog‘lomlashtirish muassasalari, axborot-kutubxona markazlari, shuningdek, sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari xizmatlariga (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.05.2007-yildagi PQ-640-sonli qarori 6-bandi); 1.01.2010-yildan boshlab - soliq maslahatchilari ko‘rsatadigan xizmatlarga (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2009-yildagi PQ-1245-sonli qarori 8-bandi): mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari bo‘yicha maslahat berish; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari bo‘yicha hujjatlar tuzishda mijozga (ishonch bildiruvchiga) yordam ko‘rsatish; sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari bo‘yicha mijoz (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning topshirig‘iga binoan vakillik qilish; buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish, tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa masalalari bo‘yicha konsalting.

– davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga - yangi tashkil etilayotgan agrosanoat firmalari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.01.2006-yildagi PF-3709-sonli farmoni 5-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Preziden-

tining 11.01.2006-yildagi PQ-255-sonli qarori 11-bandi). Soliq solishdan bo'shaydigan mablag'lar maqsadli tartibda meva-sabzavot mahsulotini qayta ishlash, bog' va uzumzorlarni barpo etish va kengaytirish bo'yicha ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

– 1.01.2007-yildan 31.12.2010-yilgacha - xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ixtisoslashtirilgan boshqaruvchilari - xizmat ko'rsatish tashkilotlari uy-joy fondiga xizmat qilish va ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatganda (Prezidentning 25.07.2006-yildagi PQ-425-sonli qarori 6-bandi).

– 1.01.2008-yildan 3 yil muddatga - nodavlat bolalar maktabgacha tarbiya muassasalariga asosiy (soha) faoliyat turi bo'yicha (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2007-yildagi PQ-744-sonli qarori 10-bandi). Imtiyoz bo'shaydigan mablag'lardan moddiy-texnik bazani mustahkamlash, asbob-uskunalar va anjomlar, didaktik materiallar, bolalar o'yinchoqlari va adabiyotlar sotib olish uchun maqsadli foydalanish sharti bilan beriladi.

– tijorat banklari ta'sis etadigan boshqaruvchi kompaniyalarga, ular davlat ro'yxatiga olinganidan keyin dastlabki ikki yil mobaynida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.11.2008-yildagi F-4010-sonli farmoyishi 2-bandi);

– 1.10.2007-yildan boshlab 5 yil muddatga - aholiga pulli tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan tibbiyot muassasalariga (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2007-yildagi PF-3923-sonli farmoni 7-bandi). Imtiyoz bo'shaydigan mablag'larni tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga maqsadli yo'naltirish sharti bilan beriladi.

1.09.2009-yildan boshlab 3 yil muddatga - lizing bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslarga, lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar bo'yicha (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009-yildagi PQ-1166-sonli qarori 8-bandi). Masalan, kichik korxona maishiy elektron va elektr asboblarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini ko'rsatadi. Prezidentning 2006-yil 17 apreldagi PQ-325-son, 2007-yil 21-maydagi PQ-640-son va 2008-yil 29-dekabrdagi

PQ-1024-sonli qarorlariga ko‘ra ko‘rsatilgan xizmatlar 2012-yil 1-yanvargacha YaSTni to‘lashdan ozod qilingan. Shu bois mazkur kichik korxonaga YaST bo‘yicha bazaviy miqdorni hisob-kitob qilish tartibi tatbiq etilmaydi.

Misol. Chakana savdo qiluvchi kichik korxona Angrenda nooziq-ovqat tovarlarini sotadi. I chorak uchun yalpi tushum 30 000 ming so‘mni, shu jumladan, plastik kartochkalar qo‘llagan holda 19 ming so‘mni tashkil qildi.

I chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi 1 200 ming so‘mni (30 000 x 4%), YaSTning eng kam miqdori esa 1 226,94 ming so‘mni (62 920 x 6,5 x 3, bu yerda 62 920 so‘m - belgilangan EKIH, 6,5 - qat’iy belgilangan soliq stavkasi, 3 - chorakdagi oylar soni) tashkil qiladi. YaSTning hisob-kitob summasi eng kam ish haqi miqdoridan kam. Tegishlicha, YaSTni qo‘shimcha hisoblab yozish summasi aniqlanadi - 26,94 ming so‘m (1 226,94 - 1 200). Uni plastik kartochkalarni qo‘llagan holda tovarlar realizatsiyasidan tushumdan olinadigan soliq stavkasini 10 %ga kamaytirish tarzidagi imtiyozni (PQ-1675-sonli qarorga 9-2-ilova) hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan YaSTga qo‘shish kerak.

Plastik kartochkalarni qo‘llagan holda olingan tushumga (19 000 ming so‘m) pasaytirilgan stavka bo‘yicha soliq solinadi - 3,6 % (4 - 4 x 10%), 11 000 ming so‘m tushumga esa 4 foizlik stavka bo‘yicha YaST solinadi. Shu tariqa, imtiyozni hisobga olgan holda YaST 1 124 ming so‘mni (19 000 x 3,6% + 11 000 x 4%) tashkil qiladi. Qo‘shimcha hisoblashni inobatga olgan holda I chorak uchun 1 150,94 ming so‘m (1 124 + 26,94) YaST to‘lanadi.

Hisob-kitob qilingan YaST eng kam miqdordan oshib ketgan taqdirda qo‘shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi, budjetga YaST hisob-kitobi bo‘yicha, ya’ni imtiyozni inobatga olgan holda hisoblab chiqarilgan summa to‘lanadi.

Shuningdek, avval xususiylashtirilgan korxonalari umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazish tartibini qo‘llash holatlarini amaliy misollar yordamida ko‘rib chiqamiz. Ta’kidlash joizki, tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish hajmi Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning «Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum» 010 - satri

asosida aniqlanadi. Bunda boshqa daromadlar inobatga olinmaydi. Mol-mulk va yer solig'i summasining normativ belgilangan miqdori hisob - kitob ma'lumotlaridan kelib chiqib quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

N=(H1+H2)*10 (5.1)

Bu erda: N – mol-mulk va yer solig'i summasining normativ belgilangan miqdori; H1- chorak hisobida mol-mulk solig'i; H2- chorak hisobida yer solig'i.

Misol. Avval xususiylashtirilgan korxona YaST to'lovchisi joriy yilning birinchi kvartalida tovarlar realizatsiya qilishdan 4 350 000 so'm oldi, mol-mulk va yer solig'ining summasi chorak hisobida mos ravishda 120 000 so'm va 254 000 so'mni tashkil etgan deb hisoblaymiz. Mol-mulk solig'i o'tgan soliq davri uchun buxgalteriya balansi asosida aniqlanadi va chorak uchun hisoblab chiqariladi. Yer solig'i vakolatli organning yer uchastkalarini ajratib berish to'g'risidagi ma'lumotlari asosida aniqlanadi va chorak hisobida hisoblab chiqariladi.

Joriy yil (chorak) uchun mol-mulk solig'i va yer solig'i summalarining belgilangan normativ miqdorini aniqlaymiz:

(120 000+254 000)*10=3 740 000 so'm (5.2)

Ushbu korxonada realizatsiya qilishdan tushum summasi mol-mulk solig'i va yer solig'ining normativ belgilangan summasidan yuqori ekanligini inobatga olib, davlat soliq xizmati organining balanslarni va soliq hisobotini qabul qilish bo'limi xodimi quyidagi yozuvlarni kiritadi:

5.11-jadval

Soliq davri uchun umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazishni belgilovchi ko'rsatkichlar bo'yicha MA'LUMOTNOMA

Ko'rsatkichlar	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
1. Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish hajmi	4 350 000			
2.Mol-mulk solig'i va yer solig'i summalarining belgilangan normativ miqdori	3 740 000			
Izoh	**Mos keladi**			

Yarim yil uchun tovarlar realizatsiya qilishdan tushum 7 100 000 so'mni tashkil etdi. Ketma-ket keladigan ikki

chorakni aniqlash kerakligini inobatga olib, ikkinchi chorak uchun tushum summasini alohida hisoblasak, 2 750 000 so‘mni (7 100 000-4 350 000) tashkil etdi. Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i summasining normativ belgilangan miqdori yil davomida o‘zgarmaydi va chorak uchun 3 740 000 so‘mni tashkil etadi.

5.12-jadval

Soliq davri uchun umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazishni belgilovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha MA’LUMOTNOMA

Ko‘rsatkichlar	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
1.Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish hajmi	4 350 000	2 750 000		
2.Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i summalarining belgilangan normativ miqdori	3 740 000	3 740 000		
Izoh	**Mos keladi**	**Mos kelmaydi**		

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mazkur korxona ikkinchi chorakda vaqtinchalik nizom shartlariga mos kelmaydi, chunki mol-mulk solig‘i va yer solig‘i normativ belgilangan miqdorining summasi ikkinchi kvartalda tovarlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasidan yuqori.

Uchinchi chorakda tovarlar realizatsiya qilish hajmi 4 850 000 so‘mni tashkil etdi. Bu holatda chorakda tovarlar realizatsiya qilish hajmi mol-mulk va yer solig‘i summasining belgilangan miqdoridan yuqori bo‘lganligi sababli, korxona YaSTni to‘lash huquqini saqlab qoladi. Ta’kidlash joizki, mazkur me’yor 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1675 - sonli qaroriga ko‘ra bekor qilindi.

2010-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26 apreldagi «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada

takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi 1326-sonli qaroriga ko‘ra YaST to‘lovchi chakana savdo korxonalari, mikrofirmalar va xizmat ko‘rsatish sohasining kichik korxonalari tomonidan to‘lanadigan YaSTning miqdori xuddi shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo‘lmasligi lozimligi belgilandi. Shuningdek, «YaSTning kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan YaSTni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom qabul qilindi va Adliya vazirligidan 2010-yilning 18 avgustdagi № 2134 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Mazkur me’yor quyidagi xizmat ko‘rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi: YaST to‘lovchisi bo‘lmaganlarga; qonunchilikka muvofiq faqat yuridik shaxs shaklida tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga; faqat yuridik shaxslarga litsenziya beriladigan litsenziyalanadigan faoliyat turi bilan shug‘ullanadiganlarga; YaSTni to‘lashdan to‘liq ozod bo‘lish imtiyoziga ega bo‘lganlarga; YaST eng kam miqdori soliq to‘lovchining asosiy faoliyat turidan kelib chiqib aniqlangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan qatiy belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi.

YaSTning hisob- kitob summasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$HS_{yast} = CYaT*S \quad (5.3)$$

Bunda: HS_{yast}- YaSTning hisob- kitob summasi; CYaT- YaST bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo‘llanilmagan hisobot oyi (choragi) uchun soliq solinadigan yalpi tushum; S- YaSTning o‘rnatilgan stavkasi.

Mazkur holatni amaliy misollar yordamida ko‘rib chiqamiz. Korxonada hisobot davrida YaSTning qo‘shimcha hisoblangan summasi 112,4 ming so‘mni tashkil etadi, chunki belgilangan stavka bo‘yicha asosiy faoliyat sifatida nooziq ovqat tovarlarini realizatsiyasidan olingan 28037,5 ming so‘mlik yalpi tushumdan 4 foizli stavkada va vositachilik xizmatidan olgan daromadidan 33 foizli stavkada hisoblangan YaST 1775,2 ming so‘mga teng bo‘lgan, asosiy faoliyati bo‘yicha nooziq ovqat tovarlari sotish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik uchun

belgilangan qat'iy soliq miqdori har bir oy uchun EKIH o'n barobari belgilangan, hisobot davri (chorak) uchun 1887,6 ming so'mni (62920*10*3) tashkil etadi bu esa belgilangan stavka bo'yicha hisoblangan YaSTdan 112,4 ming so'mga ko'pdir. Ya'ni mazkur kichik korxona hisobot davri uchun jami 1887,6 ming so'm YaSTning me'yoriy miqdorini to'lashi kerak.

5.13-jadval

YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTning MA'LUMOTNOMA HISOB- KITOBI

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, faoliyat turlari bo'yicha				
			Ass.faol. turi-1	2	3	4	5
Hisobot oyi uchun (choragi) soliq solinadigan yalpi tushum	010	30018.4	28037.5	1980.9			
YaSTning belgilangan stavkasi	020	X	4%	33%			
Hisobot oyi uchun (choragi) YaSTning hisob- kitob summasi (010 satrX020 satr/100)	030	1775.2	1121.5	653.7			
Qat'iy belgilangan soliqning belgilangan stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorda)	040	X	10*62.920	X	X	X	X
Hisobot oyi uchun (choragi) YaSTning eng kam miqdori	050	1887.6	X	X	X	X	X
Hisobot oyi uchun (choragi) uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi (050 satr – 030 satr)	060	112.4	X	X	X	X	X
Oldingi hisobot davri uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi (oldingi ma'lumotnoma hisob- kitobining 080 satri)	070	-	X	X	X	X	X
Hisobot davri uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi (060 satr+070 satr)	080	112.4	X	X	X	X	X

2011-yilning 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1449-sonli qaroriga ko'ra YaST to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar to'laydigan YaSTning eng kam miqdori ular egallab turgan maydondan hisoblab chiqarilgan yer solig'i summasining 3

baravari miqdoridan kam bo'lmasligi bo'yicha me'yor belgilab qo'yildi.

YaSTning eng kam miqdori kiritilishini hisobga olgan holda YaSTning to'lanishi lozim bo'lgan summasini aniqlash uchun to'lovchilar quyidagilarni hisob-kitoblarni amalga oshiradilar: YaSTning eng kam miqdorini; YaSTning hisob- kitob summasini; YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasini. YaSTning eng kam miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$EKM_{yast}=3*S*K1*K2 \quad (5.4)$$

Bu erda: EKM_{yast}- YaSTning eng kam miqdori; S - yer solig'i; K1 - amalga oshirilayotgan faoliyat turidan kelib chiqib qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyent; K1 - yuridik shaxsning joylashgan joyidan kelib chiqib qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyent.

Yer solig'ini hisoblab chiqarishda mazkur joy va yer toifasi uchun belgilangan eng kam stavkalar qo'llaniladi. Yer solig'i mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan bir chorak hisobida (er uchastkasi (ijaraga olingan xona) maydoni * belgilangan stavka) / 4); mikrofirma va kichik korxonalarga kirmaydigan korxonalar tomonidan bir oy hisobida (er uchastkasi (ijaraga olingan xona) maydoni * belgilangan stavka) / 12) tarzida aniqlanadi.

Mazkur holatni amaliy misollar yordamida sharhlaymiz. Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxona Olmaliq shahrida faoliyat yuritadi.

5.14-jadval

YaSTni eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTning MA'LUMOTNOMA HISOB- KITOBI

Ijaraga olingan yer maydoni	2.5 gektar	
Yer uchastkasi joylashgan zona	2 zonada	
2011-yil yanvar-iyun oylaridagi yalpi tushum	520 000 sum	YaST 31 200 sum
2011-yil yanvar-sentyabr oylaridagi yalpi tushum	740 000 sum	YaST 44 400 sum
YaST stavkasi	6%	
2 - zona uchun yer solig'i stavkasi	5 987 663 so'm/ga	
4 zona yer solig'ining eng kam stavkasi belgilangan zona	4 707 974 so'm/ga	
Ishlab chiqarish korxonalari uchun	0,5	

amalga oshirayotgan faoliyat turi bo'yicha kamaytiruvchi koeffitsiyent		
3 chorak uchun YaSTning eng kam miqdori	3*2,5*4 709 974/4*0,5= 4 416 ming sum	
3 chorak uchun YaSTning hisob- kitobi	(740 000-520 000)*6% = 13 200 so'm	

Xulosa. YaSTning hisob- kitob summasi (13 200 ming so'm) YaSTning eng kam miqdoridan (4 416 ming so'm) oshgani sababli qo'shimcha hisoblab yozilmaydi va SKda belgilangan tartibda to'lanadi.

2011-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2010-yil 3 dekabrdagi 193-Q-sonli buyrug'iga ko'ra chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining belgilangan eng kam me'yorlarini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi joriy etildi. To'lovlarni qo'shimcha hisoblash uchun baza bo'lib butun tashkilot bo'yicha umumiy mehnatga haq to'lash fondi eng kam me'yori bilan haqiqatdagi mehnatga haq to'lash fondi o'rtasidagi farq hisoblanadi. To'lovlarni qo'shimcha hisoblash quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$QB=MHTF_{eng\ kam} - MHTF_{haqiqat} \qquad (5.5)$$

Bu erda: QB - to'lovlarni qo'shimcha hisoblash amalga oshiriladigan baza; $MHTF_{eng\ kam}$ - iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq hisobot choragi uchun aniqlangan soliq to'lovchining mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori; $MHTF_{haqiqat}$ - hisobot choragi uchun haqiqatdagi mehnatga haq to'lash fondi.

Mazkur holatni amaliy misollar yordamida sharhlaymiz. Toshkent shahrida joylashgan 60 kv.metrga ega bo'lgan savdo zali bo'lgan minimarketda xodimlar soning eng kam me'yori 4 kishini tashkil etadi.

5.15-jadval

Xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining belgilangan eng kam me'yorlarini hisobga olgan holda YaSTning MA'LUMOTNOMA HISOB- KITOBI

Xodimlar soning eng kam me'yori	4 kishini
Direktor va buxgalter	2 kishi **Jami 6 kishi**
Chakana savdo tashkilotlari uchun mehnatga haq to'lashning o'rtacha razryadi	3
Chakana savdo tashkilotlari uchun mehnatga haq to'lashning o'rtacha 3 razryadiga to'g'ri keluvchi ta'rif koeffitsiyenti	2,998
Belgilangan eng kam ish haqi	49735 so'm
Mazkur mini market uchun mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori	((6*2,998*49735)+ (6*2,998*49735)+ (6*2,998*49735))=2 683 900 sum
Haqiqatda minimarketda ishlovchilar soni	5
Haqiqatda minimarketda ishlovchilarga hisoblangan mehnatga haq to'lash fondi hajmi	3 426 000 sum
Agar eng kam me'yordan kam bo'lganda qo'shimcha hisoblanadigan to'lovlarning umumiy stavkasi	**39,5%** – Yagona ijtimoiy to'lov 25%; – Fuqorolarning sug'urta badallari 4,5%; – Jismoniy shaxslar daromad solig'ining eng kam stavkasi 10 %

Xulosa. Tashkilotda xodimlarning haqiqatdagi soni xodimlar sonining belgilangan me'yoridan kam bo'lishiga qaramay to'lovlar qo'shimcha hisoblanmaydi chunki mehnatga haq to'lash fondi eng kam me'yoridan yuqoridir.

KEYS nomi. Zal qisqartirilsin.

KEYS. «DIV» IIChB MChJ korxonasi YaST to'lovchisidir. Faoliyat turlari quyidagi ulushlar asosida taqsimlangan. Ya'ni: chakana savdo faoliyatning 73,2 foizini; ulgurji savdo - 6,9%; binoni ijaraga berish - 13,6%; pulli xizmatlar - 6,3% tashkil etadi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'iga asosan chakana savdoda asosiy xodimlar sonining eng kam me'yori savdo maydonining o'lchamidan kelib chiqib belgilanadi. «DIV» IIChB MChJ 2007-yilda (ya'ni ushbu

buyruq chiqarilgunga qadar) o'z maydonini rekonstruksiya qilib, maydoni 396 kv.metr bo'lgan bitta savdo zalini barpo qildi. Unga ulgurji va chakana sotiladigan mebel, maishiy texnika, xo'jalik tovarlarini o'rnatdi. Shu jumladan: 150 kv.metrda - maishiy, xo'jalik tovarlari, 246 kv.metrda - mebel. Korxona 2011-yil I choragi uchun hisobotda 150 kv.metrni va 9 nafar xodim ishlashini ko'rsatdi.

Blits savol. Korxona amalga oshirgan xulosa to'g'rimi?

KEYS tahlili. Hisobot choragi yakunlari bo'yicha korxonaning asosiy faoliyat turi chakana savdo (73,2%) hisoblanadi. Shu sababli korxonaga xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tatbiq etiladi («Xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida nizom» DSQ va MVning AV tomonidan 2011-yil 23 fevralda 2200-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan).

Sutkada 12 soatlik ish rejimi va 6 kunlik ish haftasida (jami - haftasiga 72 soat) chakana savdo korxonalari asosiy xodimlari sonining eng kam me'yori iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga doir 1-ilovaga binoan savdo maydonining o'lchamidan kelib chiqib belgilanadi. 396 kv.metrdan iborat butun savdo zali asosan chakana sotiladigan tovarlar bilan bandligi sababli, savdo maydoni ham asosiy xodimlar sonini aniqlash uchun 396 kv.metrni tashkil etadi. Korxona ulgurji savdo bilan ham shug'ullanishi bois, savdo zalini savdo maydoni va ulgurji sotiladigan tovarlar omboriga bo'lish tavsiya qilinadi. Bu bilan korxona xodimlar sonini aniqlash uchun foydalaniladigan savdo maydoni o'lchamini kamaytiradi.

Agar korxonada sutkada 12 soatlik ish rejimi va 6 kunlik ish haftasi (jami - haftasiga 72 soat) belgilangan deb faraz qilsak, asosiy xodimlarning soni savdo maydoni 396 kv.metrligidan kelib chiqib 17 kishini tashkil qiladi (200 kv.metrgacha bo'lgan

maydon uchun 9 kishi va 200 kv.metrdan ortiq har 50 kv.metr uchun 2 kishidan).

Agar korxonadagi ish vaqti davomiyligi 72 soatdan oshsa, asosiy xodimlar sonining eng kam me'yoriga oshiruvchi koeffitsiyent qo'llanadi. Agar u 72 soatdan kam bo'lsa - pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llanadi (u 0,8 dan kam bo'lmasligi kerak). Koeffitsiyentning miqdori korxonadagi amaldagi ish vaqtining normativ ish vaqtiga nisbatini aks ettiradi. Xodimlarning jami sonini aniqlash uchun asosiy xodimlar soniga ma'muriy va texnik xodimlarning haqiqatdagi sonini, shuningdek, asosiy bo'lmagan faoliyat turlarida (ulgurji savdo, binoni ijaraga berish, pulli xizmatlar) band bo'lgan xodimlarning haqiqatdagi sonini qo'shish lozim.

KEYS nomi. Ijara ustunlik qilganda.

KEYS. MChJ (XXTUT bo'yicha kodi - 71123 «Qurilish materiallarining ulgurji savdosi») xodimlar soni 7 kishidan iborat. Qurilish materiallari ulgurji savdosidan tashqari ijara xizmatlarini ham ko'rsatadi - turli tashkilotlarga shartnomalar asosida saqlash uchun bitta ombor va vagonlar o'tishi uchun temir yo'l tarmog'ini ijaraga beradi. Mazkur xizmatlarni hisobvaraq-fakturalar bilan rasmiylashtiradi. Rejali tekshirish davomida ularga soliq solish bo'yicha savollar yuzaga keldi. 2007-yil uchun YaST hisob-kitobining 010-satridagi asosiy faoliyat turida tovar aylanmasi summasi, boshqa faoliyat turi sifatida alohida ijara xizmatlari summasi ko'rsatilgan, umumiy summadan (ulgurji savdo + ijara) 3foizlik stavkada YaST hisoblab yozilgan, ombor qiymatidan mol-mulk solig'i alohida hisob-kitob qilingan. Biroq DSI ijara summasiga YaSTning 10foizlik stavkasi bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirdi.

2008, 2009-yillarda YaSTni umumiy tushumdan (savdo + ijara) ham hisoblab, SKning 353-moddasiga binoan 5foizlik stavkani qo'llagan. Bosh kitobda alohida hisob yuritilgan: 9010, 9020. YaST Hisob-kitobi 010-satrining 1-ustunida tushumning umumiy summasi ko'rsatilgan hamda 5foizlik YaST hisoblab yozilgan. Biroq DSI xizmatlardan 10foizlik stavka bo'yicha soliq ham hisoblab yozgan.

BLITs savol. Mazkur hollarda DSI haqlimi? YaSTni hisoblab yozishda shubha yuzaga kelmasligi uchun hisob-kitobni

qanday to'ldirish kerak (korxona joriy yilda ham ijara xizmatlarini ko'rsatishni rejalashtirmoqda)?

KEYS tahlili. Mol-mulkni tezkor ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solinishi ular korxonaning boshqa daromadlari yohud asosiy faoliyat turidan olingan daromadlari hisoblanishiga bog'liq. Mazkur tartib 2007-yilda o'rnatilgan bo'lib, hozirgacha amal qilib kelmoqda (YaSTni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 18 va 9-bandlari - 2008-yilgacha amal qilgan, 2007-yil 25-dekabrdagi O'RQ-136-son Qonun tahriridagi SKning 353 va 22-moddalari - 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan).

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan tushum realizatsiyaning umumiy hajmida ustunlik qilsa, u holda ijara korxonaning asosiy faoliyat turi deb e'tirof etiladi, u bo'yicha alohida hisob yuritilib, olingan tushumga ushbu faoliyat turi uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi solinishi kerak:

2007-yilda - 10% (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18 dekabrdagi PQ-532-sonli qaroriga 23-ilova);

2008-2009-yillarda - 8% (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi PQ-744-sonli qaroriga 9-ilova, Prezidentning 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga 9-1-ilova);

2010-yilda - 7% (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli qaroriga 9-1-ilova).

Agar ulgurji savdo asosiy faoliyat turi hisoblansa, mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar SKning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar, deb e'tirof etilib, ulgurji savdo uchun belgilangan stavkada yagona soliq to'loviga tortiladi. Asosiy faoliyat (ixtisosligi) turini har bir hisobot davri bo'yicha o'sib boruvchi yakun bilan belgilash lozim. YaSTni to'lovchi kichik korxonalar asosiy faoliyat turini har chorakda belgilaydilar. Afsuski, keysda asosiy faoliyat turini belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun 2007, 2008 va 2009-yillar uchun YaST hisob-kitoblarini misolda tekshirib ko'rishni taklif qilamiz.

MISOL. Kichik ulgurji savdo korxonasi (2007-yilda savdodan 3 foizlik stavka bo'yicha YaST to'lagan) quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan:

ming so‘mda

Soliq davri	TUShUM		
	jami	shu jumladan	
		ulgurji savdo bo‘yicha (realizatsiyaning umumiy hajmidagi ulush)	mol-mulkni ijaraga berish bo‘yicha (realizatsiyaning umumiy hajmidagi ulush)
2007 y.	123 200	78200 (63,5%)	45000 (36,5%)
2008 y.	219 500	121000 (55,1%)	98500 (44,9%)
2009 y.	299 000	143000 (47,8%)	156000 (52,2%)

2007 va 2008-yil bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra uning asosiy faoliyat turi savdo (63,5% va 55,1%), 2009-yil yakunlari bo‘yicha - mol-mulkni ijaraga berish (52,2%), tegishlicha, YaST summasi quyidagicha bo‘ladi:

ming so‘mda

Soliq davri	YaST SUMMASI		
	jami	shu jumladan	
		ulgurji savdo bo‘yicha	mol-mulkni ijaraga berish bo‘yicha
2007 y.	3 696	2346 (3%*)	1350 (45000 x 3%*)
2008 y.	10 975	6050 (5%*)	4925 (98500 x 5%*)
2009 y.	19 630	7150 (5%*)	12480 (156000 x 8%*)

*YaST stavkasi.

KEYS nomi: Ish hajmlari bo‘yicha ijaraga oling yoki yuk tashuvchi tomonidan YaSTni to‘lash mexanizmi

KEYS. Xususiy korxona (XXTUT bo‘yicha kodi - 51121)

yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga avtotransport xizmatlari ko'rsatadi. Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatmaydi. Avtoxizmatlar ko'rsatish uchun korxona jismoniy shaxslar bilan har biri 6 tonna yuk ko'taradigan 11 ta yuk mashinasiga ijara shartnomalari tuzdi, mashinalarga litsenziya kartochkalari rasmiylashtirildi. Ishlar hajmi va buyurtmachilar bilan imzolangan shartnomalar yo'qligi bois 2012-yil yanvari va fevral oylarida ijaraga olingan barcha yuk mashinalari ishlamadi va ularga yo'l varaqalari yozilmadi. Mart oyida buyurtmachilarga faqat 3 ta samosval xizmat ko'rsatdi, ayni ularga yo'l varaqalari yozildi. Qolgan 8 avtomashina buyurtmachilarda ish yo'qligi tufayli ishlamadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011-yildagi PQ-1675-sonli qarori 5-bandida ko'rsatilishicha, yuk tashish bilan shug'ullanadigan YaST to'lovchilari uchun YaSTning eng kam miqdori xuddi shunday faoliyat turini amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib, har bir avtotransport vositasi hisobidan belgilanadi. Navoiy shahar DSIning ko'rsatmasiga ko'ra korxona 2012-yil I choragi uchun YaSTning eng kam miqdorini litsenziya kartochkasiga ega bo'lgan har bir avtomashina uchun EKIHning 3 baravaridan kelib chiqib to'lashi kerak. Hisob-kitob bo'yicha bu miqdor 6795400 so'mni tashkil qiladi, holbuki 8 avtomashina birinchi chorakda buyurtmachilar uchun ishlamadi va, tegishlicha, korxonaga hech qanday daromad keltirmadi. Korxona ko'rsatgan avtoxizmatlar hajmi bor-yo'g'i 9285339 so'mni tashkil etdi. Agar korxonaga bunday YaSTni to'lashga to'g'ri kelsa, xususiy korxona hech nima bilan qoplab bo'lmaydigan darajada zarar ko'radi. Bu esa moliyaviy ahvolni ancha yomonlashtiradi, to'lov qobiliyatiga ta'sir qiladi va so'zsiz XKning rentabelligi masalasi ko'ndalang bo'ladi.

Blits savol. Xususiy korxona, soliq qonunchiligini buzmagan holda amalda bajarilgan xizmatlar hajmi va 3 birlik miqdorida amalda ishlagan mashinalarni hisobga olib joriy yilning I choragi uchun YaST to'lash imkoniyatiga egami?

KEYS tahlil. YaST hisob-kitobi va to'lanishida soliq qonunchiligining amaldagi me'yorlariga amal qilish lozim, ularga ko'ra asosiy faoliyat turi yuk tashish bo'lgan tashkilotlar

uchun qat'iy belgilangan soliq tarzida eng kam miqdorni hisobga olgan holda YaSTni hisob-kitob qilish tartibi belgilangan. Unda budjetga eng kam miqdordan kam bo'lmagan summada yagona soliq to'lovi to'lanishi nazarda tutilgan.

2012-yilning 1-yanvaridan boshlab yuk tashish bilan shug'ullanuvchi korxonalar YaSTning eng kam miqdorini qat'iy belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib, har bir transport vositasini hisobga olgan holda hisob-kitob qiladilar. Uning hisob-kitobida litsenziya kartochkalari berilgan barcha avtotransport vositalari, shu jumladan, ishlamay turganlari ham hisobga olinadi. Shu sababli amalda qancha yuk mashinasi yuk tashish xizmatlarini ko'rsatganligidan qat'iy nazar, eng kam miqdorni litsenziya kartochkalari rasmiylashtirilgan avtotransport har bir birligini hisobga olgan holda hisoblash kerak.

Hisobot choragida amalda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi YaST hisob-kitob summasini aniqlash chog'ida hisobga olinadi, u eng kam miqdor bilan taqqoslanadi. Hisob-kitob summasi hisobot davri uchun soliq solinadigan yalpi tushumni (YaST bo'yicha imtiyozlarni hisobga olmagan holda) YaSTning belgilangan stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi (MV va DSQning AV tomonidan 18.08.2010-yilda 2134-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 6-bandi). Agar u eng kam miqdordan kam bo'lsa, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha farqqa YaST qo'shimcha hisoblab yoziladi. Agar hisob-kitob summasi eng kam miqdordan oshib ketsa, budjetga Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi shaklida nazarda tutilgan tartibda hisoblab chiqarilgan YaST summasi to'lanadi.

KEYS xulosasi. KEYSda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 2012-yil I choragi uchun YaSTning eng kam miqdori:

EKMyast = 3 x 62 920 x 11 x 3 oy = 6 229 080 so'm,

Bu erda: 3 - 8 tonnagacha yuk ko'taradigan avtomobillar bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkasi, EKIHga karrali hisobda (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011-yildagi PQ-1675-sonli qaroriga 11-ilova);

62 920 so'm - 2011-yil 1-dekabrdan belgilangan va 2012-yil 1-avgustgacha amal qilgan eng kam ish haqi;

11 - litsenziya kartochkalari olingan yuk avtomashinalari soni.

I chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi, 3 yuk avtomashinasi bilan amalda bajarilgan xizmatlardan kelib chiqilganda, 557 120,34 so'mni (9 285 339 x 6%) tashkil qiladi.

I chorak uchun YaSTni qo'shimcha hisoblab yozish summasi 5 671 959,66 so'mni tashkil qiladi. Ushbu summa keyinchalik YaST hisob-kitobi bo'yicha hisoblab chiqarilgan YaST summasiga qo'shiladi. Agar u 557 120,34 so'mga teng bo'lsa, budjetga YaST summasi I chorak uchun qo'shimcha hisoblab yozishni hisobga olganda 6 229 080 so'mni (557 120,34 + 5 671 959,66) tashkil etadi.

KEYS nomi. Stavkani aniqlashtiring

KEYS. Korxona to'qimachilik mahsulotini chakana sotish bilan shug'ullanadi (XXTUT kodi 71265, xodimlar soni - 29 kishi), bir nechta do'kon va omborxonaga ega. Mazkur faoliyat bo'yicha 4foizlik stavka bo'yicha YaSTni to'laydi. Korxona rahbariyati bo'sh omborlarni boshqa tashkilotlarga operativ ijaraga berishga qaror qildi.

Blits savollar. 1. YaST to'lovchi korxonalarda ijaradan olingan daromadlar qanday hisobga olinadi: boshqa daromadlar sifatidami yoki boshqa faoliyat turi bo'yicha daromadlar tarzidami?

2. Ushbu daromadlar bo'yicha qanday soliqlarni to'lashi kerak: yirik korxona sifatida umumbelgilangan soliqlarnimi (VMning 2003-yil 11 oktyabrdagi 439-sonli qarori bilan tasdiqlangan klassifikatsiyadan kelib chiqib) yoki yagona soliq to'lovinimi? Qanday stavka bo'yicha?

KEYS tahlili. Asosiy faoliyat turi mol-mulkni ijaraga berish hisoblanmaydigan korxonalar uchun operativ ijaradan olingan daromadlar boshqa operatsion daromadlar hisoblanadi (Xarajatlar tarkibi to'g'risida nizom «V» bo'limining 2.9-bandi, Soliq kodeksining 132-moddasi). YaSTni to'lovchi korxonalar uchun boshqa daromadlarga asosiy faoliyat turi stavkasi bo'yicha soliq solinadi (SKning 353-moddasi). Tegishlicha, agar Toshkent shahrida joylashgan korxonaning asosiy faoliyat turi chakana

savdo bo'lsa, boshqa daromadlarga 4foizlik stavka bo'yicha soliq solinadi. Misol uchun, chakana savdo korxonasi (Toshkent shahri) hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga ega: tovarlarni realizatsiya qilishdan tushum - 8 350 ming so'm; omborxonalarni operativ ijaraga berishdan daromadlar - 1 800 ming so'm. Hisobot davrida to'lanadigan YaST summasi 406 ming so'mni (8350 + 1 800) x 4%) tashkil qiladi. Biroq, agar hisobot davri yakunlari bo'yicha ijaradan olingan daromadlar tovarlar realizatsiyasidan olingan tushumdan oshib ketsa, mol-mulkni ijaraga berish soliq solish maqsadida boshqa faoliyat turi sifatida qaraladi, u bo'yicha YaST 7foizlik stavka bo'yicha hisoblanishi kerak.

YaST hisob-kitobida 2010-yil 1-iyuldan boshlab Prezidentning 2010-yil 26 apreldagi PQ-1326-sonli qarori bilan belgilangan yangi tartib hisobga olinishi kerak. Unga ko'ra to'lanadigan YaST summasi xuddi shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmasligi kerak. Bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanganda korxona YaSTni har bir faoliyat turi uchun belgilangan qat'iy belgilangan soliq summasini hisobga olgan holda to'lashi kerak. Prezidentning 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli qaroriga (bundan keyin - PQ-1245-sonli qaror) 11-ilovaga ko'ra, Toshkent shahrida nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish uchun qat'iy belgilangan soliqning stavkasi bir oyda EKIHning 10 baravarini tashkil qiladi. Tegishlicha, mazkur faoliyat turi bo'yicha YaST summasi bir oyda 452 150 so'mdan kam bo'lmasligi kerak (eng kam ish haqining miqdori 45 215 so'm bo'lganda).

Shuni ham hisobga olish lozimki, mol-mulkni ijaraga berganlik uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi PQ-1245-sonli qarorga 11-ilovada keltirilmaydi, chunki ushbu daromadlardan belgilangan stavkalar shkalasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lanadi. Korxona qat'iy belgilangan soliq stavkasi belgilanmagan faoliyat turini amalga oshirgan hollarda mazkur faoliyat turi bo'yicha yagona soliq to'lovi YaST-ning tegishli stavkasi bo'yicha hisoblanib chiqarilgan summada to'lanadi. Misol uchun, Toshkentda joylashgan chakana savdo korxonasi (xodimlar soni - 29 kishi) nooziq-ovqat tovarlarini

sotish bilan shug'ullanadi, shuningdek, bo'sh xonalarni operativ ijaraga topshiradi. Hisobot davrida (oy) korxona quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

(ming so'm)

Ko'rsat-kichlar	Tovar oboroti/tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya-sidan tushum	Yagona soliq to'lovi		Qat'iy belgilangan soliq		To'lanishi kerak
		stavka	summa	stavka	summa	
Nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo	6 500	4%	260 (6 500 x 4%)	Oyda 10 EKIH	452,15 (45,215 x 10)	452,15
Xonalarni ijarga berishdan daromadlar	7 800	7%	546 (7 800 x 7%)	-	-	546
Jami	14 300					998,15

KEYS xulosasi. Agar 2010-yil yakunlari bo'yicha operativ ijara asosiy faoliyat turiga aylansa, korxona soliq solish maqsadida savdo korxonasi bo'lmay qoladi. Tegishlicha, soliq solishning soddalashtirilgan tizimini saqlash maqsadida mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan xodimlar soni mezoniga rioya qilinishi kerak. Chunonchi, ko'chmas mulkni ijaraga beruvchi korxonalar uchun YaST to'lash maqsadida, xodimlar soni 50 kishidan oshmasligi kerak.

KEYS. Tushumning bir qismini plastik kartalarni qo'llagan holda olgan, yangi do'kon ochgan chakana savdo korxonasi uchun Yast hisob-kitobi

Toshkentda oziq-ovqat do'koni bo'lgan korxona avgustda ikkinchi savdo shoxobchasi - Chirchiqda qurilish materiallari do'konini ochdi. Birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilishdan tushum 84 300 ming so'mni tashkil qildi, ulardan plastik kartalar bo'yicha 30 800 ming so'm to'landi. 1 690 ming so'm miqdorida boshqa daromad olindi. Birinchi yarim yil uchun budjetga 3 427,64 ming so'm YaST to'landi, shu jumladan, ikkinchi chorak uchun YaSTning eng kam

miqdorini hisobga olgan holda 111,24 ming so‘m qo‘shimcha hisoblab yozildi. Uchinchi chorakda tovarlarni realizatsiya qilishdan tushum 54 000 ming so‘mni tashkil qildi, shundan:

– Toshkentdagi do‘kon bo‘yicha - 35 000 ming so‘m, shu jumladan, 14 000 ming so‘m plastik kartalarda to‘langan;

– Chirchiqdagi do‘kon bo‘yicha - 19 000 ming so‘m, shu jumladan, 11 000 ming so‘m plastik kartalarda to‘langan.

KEYS tahlili. Yangi do‘kon (savdo shoxobchasi) ochilishida chakana savdo korxonasi YaST hisob-kitobi uchun quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. YaST stavkalari savdo shoxobchalari joylashgan joyga qarab tabaqalashtirilgan: axolisi 100 ming kishi va undan ko‘p bo‘lgan shaharlarda - 4%; boshqa aholi punktlarida - 2%; borish qiyin bo‘lgan va tog‘lik tumanlarda - 1%.

Tumanlarni borish qiyin bo‘lgan va tog‘lik tumanlarga kiritishda MV, «Yergeodezkadastr» davlat qo‘mitasi va DSQning AV tomonidan 11.11.2008-yilda 1868-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomaga amal qilinadi. Mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan va YaSTning turli stavkalari belgilangan turli aholi punktlarida joylashgan bir nechta savdo shoxobchasi mavjud bo‘lganda ularning har biri bo‘yicha tovar oboroti hisobi alohida-alohida yuritiladi va YaST ushbu aholi punktlari uchun belgilangan stavkalarda to‘lanadi;

2. YaSTning eng kam miqdori hisob-kitobida qo‘llanadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari savdo shoxobchalari joylashgan joy va realizatsiya qilinayotgan tovarlar turlari (oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlari, aralash savdo) bo‘yicha tabaqalashtirilgan. YaSTning eng kam miqdori har bir savdo shoxobchasi uchun savdo shoxobchasi joylashgan joy bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblanadi (2134-sonli nizomning 8-bandi);

3. Yangi do‘kon ochilgan oydan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay soliq hisobiga olingan joydagi DSIga 2134-sonli nizomning 2-ilovasiga binoan shaklda hududiy-alohida bo‘linmalar (turg‘un savdo shoxobchalari) to‘g‘risida aniqlashtirilgan axborot taqdim etilishi lozim. Unda barcha, shu jumladan, yangi savdo shoxobchalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Hisobot davri (9 oy) uchun yagona soliq to'lovi hisob-kitobi o'sib boruvchi yakun bilan amalga oshiriladi. Tovarlar realizatsiyasidan tushum 138 300 ming so'mni (84 300 + 54 000) tashkil qiladi, u YaST hisob-kitobining (bundan keyin - Hisob-kitob) 010-satridagi «Jami» ustunida ko'rsatiladi. Hisob-kitob 010-satrining 1 va 2-ustunlarida tegishlicha Toshkentdagi do'kon bo'yicha - 119 300 ming so'm (84 300 + 35 000) va Chirchiqdagi do'kon bo'yicha - 19 000 ming so'm miqdoridagi tushumlar alohida ajratib ko'rsatilishi kerak.

Ikkinchi chorakda olingan boshqa daromadlar (1 690 ming so'm) Hisob-kitobning 030-satriga ko'chiriladi. YaSTning turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchasiga ega bo'lgan savdo korxonasi boshqa daromadlarga korxona ro'yxatdan o'tkazilgan joy bo'yicha belgilangan stavkada soliq solinadi. Mazkur holda - 4% (Toshkent sh.).

Soliq solinadigan yalpi tushum (Hisob-kitobning 040-satri) va soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 060-satri): 138 300 + 1 690 = 139 990 ming so'mni tashkil qiladi.

Korxonaning savdo shoxobchalari bo'yicha YaST stavkalari turlicha: Toshkent shahrida - 4%; plastik kartalarni qo'llagan holda olingan tushumdan - 3,6% (10%ga pasaytirilgan stavkada - (4 - 4 x 10%);

Chirchiq shahrida naqd pul bilan olingan tushumdan - 2%, plastik kartochkalar bo'yicha to'langan tushumdan - 1,8% (2 - 2 x 10%).

YaST belgilangan stavkalari (4 va 2%) 070-satrning tegishli ustunlarida, pasaytirilgan stavkalar (3,6 va 1,8%) 0802-satrning tegishli ustunlarida ko'rsatiladi. YaSTning turli stavkalari qo'llanishi munosabati bilan soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 060-satridan) Hisob-kitobning 0601 va 0602-satrlari bo'yicha savdo shoxobchalariga qarab bo'linadi.

Toshkent shahrida 3,6 foizlik stavka bo'yicha YaST solinadigan tushum 44 800 ming so'mni (30 800 + 14 000), 4 foizlik stavka bo'yicha - 76 190 ming so'mni (119 300 + 1 690 - 44 800) tashkil qiladi.

Chirchiq shahrida 1,8 foizlik stavka bo'yicha 11 000 ming so'mga, 2 foizlik stavka bo'yicha 8 000 ming so'mga (19 000 - 11 000) soliq solinadi.

Keyin YaST summasi aniqlanadi: tovarlarni plastik kartalarni qo'llagan holda realizatsiya qilishdan olingan tushumdan: 44 800 x 3,6% + 11 000 x 1,8% = 1 810,8 ming so'm (Hisob-kitobning 0901-satri);

qolgan tushum summasidan: 76 190 x 4% + 8 000 x 2% = 3 207,6 ming so'm (Hisob-kitobning 0902-satri);

9 oy uchun hisob-kitobga ko'ra (umuman korxona bo'yicha): 1 810,8 + 3 207,6 = 5 018,4 ming so'm (Hisob-kitobning 090, 120 va 130-satrlari).

Uchinchi chorak uchun budjetga to'lanadigan YaST summasini aniqlash uchun har bir savdo shoxobchasi bo'yicha YaSTning eng kam miqdori va hisob-kitob summasi aniqlanadi. Agar hisob-kitob summasi eng kam miqdordan kam bo'lsa, YaST qo'shimcha hisoblanadi; agar ko'p bo'lsa, budjetga Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan summa o'tkaziladi. Bir nechta savdo shoxobchasiga ega bo'lgan savdo korxonalarida YaSTning eng kam miqdori joylashgan joyiga bog'liq holda har bir shoxobcha bo'yicha o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib belgilanadi.

Toshkentdagi oziq-ovqat do'koni uchun YaSTning eng kam miqdori oyiga EKIHning 9 baravarini, Chirchiqdagi qurilish materiallari do'koni uchun esa oyiga EKIHning 6,5 baravarini tashkil etadi. Uchinchi chorak uchun YaSTning eng kam miqdori:

– Toshkentdagi do'kon bo'yicha - 1 868,67 ming so'mni [9 x (62 920 + 72 355* x 2];

– Chirchiqdagi do'kon bo'yicha - 940,615 ming so'mni (6,5 x 72 355 x 2) tashkil etadi.

YaSTning hisob-kitob summasi soliq solinadigan yalpi tushumdan kelib chiqib o'sib bormaydigan yakun bilan, qonun hujjatlari bilan belgilangan imtiyozlar va belgilangan YaST stavkasini (mazkur holda - 4 va 2%) qo'llamasdan aniqlanadi. Soliq solinadigan yalpi tushum hisobot davri va bundan avvalgi hisobot davri uchun YaST hisob-kitobining 040-satridagi ko'rsatkichlar farqi sifatida qabul qilinadi. Uchinchi chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi:

Toshkentdagi do'kon bo'yicha - 1 400 ming so'mni (35 000 x 4%);

Chirchiqdagi do'kon bo'yicha - 380 ming so'mni (19 000 x 2%) tashkil etadi.

Shu tariqa, savdo shoxobchalari joylashgan joy bo'yicha YaST stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan summa unga to'g'ri keladigan YaSTning eng kam miqdoridan kam bo'lib chiqdi. Binobarin, uchinchi chorak uchun YaST eng kam miqdor summasida to'lanadi: 1 868,67 ming so'm - Toshkentdagi do'kon bo'yicha; 940,615 ming so'm - Chirchiqdagi do'kon bo'yicha.

Ikkala do'kon bo'yicha YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi:

(1 868,67 - 1 400) + (940,615 - 380) = 1 029,285 ming so'mni tashkil etdi.

Yil boshidan qo'shimcha hisoblashlar summasi - 1 140,525 ming so'm (111,24 + 1 029,285) - YaST hisob-kitobining 170-satrida ko'rsatiladi.

Qo'shimcha hisoblashni e'tiborga olgan holda hisobot davri uchun to'lanadigan YaST summasi (Hisob-kitobning 180-satri) 6 158,925 ming so'mni (5 018,4 + 1 140,525) tashkil qiladi. Budjetga 2 731,285 ming so'm (6 158,925 - 3 427,64) o'tkaziladi.

Keys. Texnologik uskuna xarid qilgan ishlab chiqarish korxonasi uchun YaST hisob-kitobi. Mahsulotning xaridor tomonidan qaytarilishi holati.

Hisobot davrida (yanvar-sentyabr) Buxoro shahridagi ishlab chiqarish korxonasining tushumi 114 000 ming so'mni tashkil qildi, shundan 68 900 ming so'mi birinchi yarim yilda olingan. Bundan tashqari, may oyida realizatsiya qilingan 3 600 ming so'mlik mahsulot iyul oyida qaytarildi. Bundan avvalgi hisobot davrida 43 600 ming so'mlik texnologik uskuna xarid qilingan, shu sababli YaST bo'yicha soliq solinadigan baza 17 225 ming so'mga kamaytirilgan. Birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha budjetga 2 826,271 ming so'm miqdorida YaST to'langan, shu jumladan, eng kam miqdorni hisobga olgan holda 371,709 ming so'm soliq qo'shimcha hisoblangan. Har bir chorak uchun YaSTning eng kam miqdori (er solig'ining 3 baravarini hisobga olganda) 1 741,709 ming so'mni tashkil qiladi.

KEYS tahlili. Mahsulot qaytarilganda yalpi tushumga ka-

maytirish tarafiga tuzatish kiritiladi. Tuzatish bir yillik muddat doirasida kafolat muddati belgilangan, tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida kiritiladi (SKning 357-moddasi). Yalpi tushum mahsulot qaytarilgan soliq davrida kamaytiriladi. Yetkazib beruvchi tomonidan qaytarilgan summaga rasmiylashtirilgan qo'shimcha hisobvaraq-faktura tuzatish kiritish uchun asos hisoblanadi.

KEYS ma'lumotlariga ko'ra yalpi tushum (114 000 ming so'm) 3 600 ming so'mga kamaytirilishi kerak. Bundan keyin hisob-kitob yalpi tushumdan kelib chiqib, qaytarilgan mahsulot qiymati - 110 400 ming so'mni (114 000 - 3 600) chegirgan holda amalga oshiriladi. Ushbu summa YaST hisob-kitobining 010-satrida ko'rsatiladi.

Yangi texnologik uskunani xarid qilishga yo'naltirilgan summa 5 yil mobaynida soliq solinadigan bazani kamaytiradi, biroq u 25%dan oshmasligi kerak (SKning 356-moddasi). Imtiyoz texnologik uskuna foydalanishga topshirilgan soliq davridan boshlab qo'llanadi.

Soliq solinadigan bazani kamaytiradigan summalar YaST hisob-kitobiga 3 va 4-ilovalarda ko'rsatiladi. Kamayish summasini aniqlash uchun soliq solinadigan baza Hisob-kitobga 4-ilovaning 030-satrida ko'rsatilganlarga muvofiq hisoblanadi. Ushbu misolga ko'ra soliq solinadigan baza 110 400 ming so'mga, kamayishning eng yuqori summasi esa (4-ilovaning 040-satri) 27 600 ming so'mga (110 400 x 25%) teng. Uskunaning qiymati (43 600 ming so'm) soliq solinadigan bazaning 25%idan oshishi sababli hisobot davrida soliq solinadigan baza 27 600 ming so'mga kamaytiriladi (4-ilovaning 050-satri).

Hisobot davri uchun kamayish summasi YaST hisob-kitobiga 4-ilovaning 050-satri bo'yicha ko'rsatiladi va Hisob-kitobga 3-ilovaning 010-satri bo'yicha soliq solinadigan yalpi tushum kamayishining umumiy summasiga kiritiladi. 3-ilovaning 010-satri ko'rsatkichi YaST hisob-kitobining 0502 va 050-satriga ko'chiriladi (zero, ushbu misolda soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytiradigan boshqa summalar yo'q).

YaST summasi hisoblanadigan soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 060-satri) 82 800 ming so'mni (110 400 - 27 600) tashkil qiladi.

Hisobot davri uchun YaST summasini aniqlaymiz (Hisob-kitobning 090 va 120-satrlari) - 4 140 ming so'm (82 800 x 5%). Undan:

– «Kamolot» jamg'armasiga (Hisob-kitobning 160-satri) 207 ming so'm (4 140 x 5%) o'tkaziladi;

– «Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar chegirilgan holda YaST summasi - 3 933 ming so'm (4 140 - 207) - Hisob-kitobning 130-satrida ko'rsatiladi.

KEYS shartiga ko'ra YaSTning eng kam miqdori (er solig'ining 3 baravari) 1 741,709 ming so'mga teng. YaSTning eng kam miqdori bilan taqqoslanadigan YaSTning hisob-kitob summasi YaST bo'yicha imtiyozlarni qo'llamasdan hisobot choragi uchun soliq solinadigan yalpi tushumdan kelib chiqib hisoblanadi (shu jumladan, soliq solinadigan bazaning kamayishi tarzida). U hisobot davri va bundan avvalgi hisobot davri uchun Hisob-kitobning 040-satrlari bo'yicha ma'lumotlardagi farq sifatida aniqlanadi.

Uchinchi chorak uchun (110 400 - 68 900) x 5% = 2 075 ming so'mni tashkil qiladi (2203-sonli nizom bo'yicha Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 030-satri).

Hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdoridan ko'pligi sababli hisobot davri uchun qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi. Qo'shimcha hisoblash summasining o'sib boruvchi yakuni (Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 070-satri va Hisob-kitobning 170-satri) ikkinchi chorak uchun qo'shimcha hisoblangan summa - 371,709 ming so'mga teng, deb qabul qilinadi.

Hisobot davri uchun budjetga to'lanadigan YaST summasi (Hisob-kitobning 180-satri) hisoblab yozilgan YaST summasiga, undan «Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar chegiriladi (130-satr), qo'shimcha hisoblangan summani (170-satr) qo'shish bilan aniqlanadi va 4 304,709 ming so'mni (3 933 + 371,709) tashkil qiladi.

Budjetga 1 478,438 ming so'm (4 304,709 - 2 826,271) o'tkaziladi.

KEYS. Xizmatlar ko'rsatadigan va mol-mulkni ijaraga beradigan korxona uchun YaST hisob-kitobi.

Birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha kichik korxonaning

(«Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar to'lovchi, Toshkent shahrida joylashgan) yalpi tushumi 25 300 ming so'mni tashkil qildi jumladan: mebelni ta'mirlash xizmatlaridan - 9 600 ming so'm; ko'chmas mulkni ijaraga berishdan - 15 700 ming so'm, undan 5 600 ming so'mi ofisni va 10 100 ming so'mi do'konni ijaraga berishdan. Birinchi yarim yil uchun budjetga to'langan YaST 1 503,515 ming so'mni, shu jumladan, YaSTning eng kam miqdorigacha qo'shimcha hisoblash 61,415 ming so'mni tashkil qildi. Uchinchi chorakda korxona tushumi (18 900 ming so'm) quyidagicha taqsimlandi: mebelni ta'mirlash xizmatlaridan - 1 000 ming so'm; ko'chmas mulkni ijaraga berishdan - 17 900 ming so'm, bundan 1 200 ming so'mi ofisni va 16 700 ming so'mi do'konni ijaraga berishdan.

Korxona egallagan yer uchastkasining maydoni yer kadastri hujjatlariga ko'ra - 1 300 kv.m (0,13 ga). Ofis va do'konning ijara haqi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun eng kam stavkalardan oshadi. 9 oy yakunlari bo'yicha mol-mulkni ijaraga berish korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblanadi, chunki realizatsiyaning umumiy hajmida unga doir tushum 76%ni [(15 700 + 17 900) / (18 900 + 25 300) x 100] tashkil qiladi.

KEYS tahlil. Mol-mulkning turli obyektlarini, ular jumlasida savdo shoxobchalari ham bor, ijaraga beradigan korxonalarda tushumlarning umumiy hajmida savdo shoxobchalarining ijara haqi ustun bo'lganda, YaSTning turli stavkalari qo'llanadi. Agar savdo shoxobchalari ijarasidan daromadlar realizatsiya umumiy hajmining 60%idan ko'pni tashkil qilsa, korxona turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan, deb hisoblanadi. Bunday holda savdo shoxobchalarini ijaraga berishdan olingan tushumga 30%lik YaST stavkasi, boshqa ijara (ko'char yoki ko'chmas mulk) obyektlariga nisbatan 6%lik stavka qo'llanadi. Agar savdo shoxobchalarini ijaraga berishdan tushum 60%dan kam bo'lsa, ijaradan olingan barcha tushumga 6%lik stavkada soliq solinadi.

9 oy yakunlari bo'yicha do'konni ijaraga berishdan tushum umumiy hajmning 61%ini [(10 000 + 16 700) / (18 900 + 25 300) x 100] tashkil qiladi. Shu sababli YaST do'kon ijarasidan tushumdan 30%lik, ofis ijarasidan tushumdan 6%lik stavka

bo‘yicha hisoblanadi. Hisobot davri uchun YaST quyidagi tartibda aniqlanadi: asosiy faoliyat turi bo‘yicha tushum 33 600 ming so‘mni (15 700 + 17 900), xizmatlar bo‘yicha - 10 600 ming so‘mni (9 600 + 1 000), 9 oy uchun jami 44 200 ming so‘mni tashkil qiladi. Ushbu ma’lumotlar Hisob-kitobning 010-satrida ko‘rsatiladi. Biroq bunda do‘kon ijarasi (26 800 ming so‘m) va ofis ijarasi (6 800 ming so‘m) bo‘yicha tushumlar YaSTning turli stavkalari qo‘llanishi tufayli alohida-alohida ko‘rsatiladi.

Umumiy hajmda tushumning salmog‘i (020-satr): do‘kon ijarasi - 61%, ofis ijarasi - 15% (6 800 / 44 200 x 100), xizmatlar - 24% (10 600 / 44 200 x 100). Hisobot davrida boshqa daromadlar yo‘q, chunki mol-mulkni ijaraga berish 9 oy yakunlari bo‘yicha asosiy faoliyat turi sifatida saqlangan.

Soliq solinadigan yalpi tushum va soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 040, 060, 0602-satrlari) umumiy summasi - 44 200 ming so‘mga quyidagi tartibda YaST solinadi: do‘kon ijaraga berilganda olingan tushumga 30%lik stavkada; ofis ijarasi va mebelni ta’mirlash xizmatlaridan olingan tushumga 6%lik stavkada.

YaST stavkalari Hisob-kitob 070-satrining tegishli ustunlarida ko‘rsatiladi. Hisobot davri uchun YaST summasi quyidagicha aniqlanadi:

– do‘kon ijarasidan olingan tushumdan - 8 040 ming so‘m (26 800 x 30%);

– ofis ijarasidan olingan tushumdan - 408 ming so‘m (6 800 x 6%);

– mebelni ta’mirlashdan olingan tushumdan - 636 ming so‘m (10600x 6%).

Ushbu summalar Hisob-kitob 090 va 0902-satrlarining tegishli ustunlarida ko‘rsatiladi. Jami YaST - 9 084 ming so‘m (8040+408+636) 090-satrda ko‘rsatiladi va 120-satrga ko‘chiriladi.

«Kamolot» jamg‘armasiga o‘tkaziladigan YaST summasi 454,2 ming so‘mni (9084x5%) tashkil qiladi. U Hisob-kitobning 160-satrida ko‘rsatiladi. «Kamolot» jamg‘armasiga ajratmalar chegirilgan holda YaST summasi - 8 629,8 ming so‘m (9084 - 454,2) Hisob-kitobning 130-satrida ko‘rsatiladi.

YaST bo‘yicha bazani (qat’iy belgilangan soliq yoki yer solig‘ining 3 baravari) aniqlashda qanday obyektlardan (ko‘char yoki ko‘chmas, savdo yoki savdoga oid emas) tushum olinganligi ahamiyatga ega emas.

Agar kichik korxonada hisobot choragi (mazkur holda - uchinchi chorak) yakunlari bo‘yicha realizatsiyaning umumiy hajmida ijaradan olingan tushum ustun tursa, YaST yer solig‘ining 3 baravarini hisobga olgan holda hisoblanadi.

KEYS ma’lumotlariga ko‘ra uchinchi chorak uchun asosiy faoliyat turi mol-mulkni ijaraga berish hisoblanadi - 95% (17900/18900x100). Shu sababli YaSTning eng kam miqdorini yer solig‘ining 3 baravaridan kelib chiqib hisoblaymiz.

Uchinchi chorak uchun YaSTning eng kam miqdori: 3 x 0,13 ga x 9 423 127 / 4 = 918 755 so‘mni tashkil qiladi. Ushbu summa 2203-sonli nizomga ko‘ra Ma’lumotnoma-hisob-kitobning 040-satrida ko‘rsatiladi.

YaSTning hisob-kitob summasi o‘sib bormaydigan yakun bilan, soliq solinadigan yalpi tushum (hisobot davri va bundan avvalgi hisobot davri uchun YaST hisob-kitobining 040-»Soliq solinadigan yalpi tushum» satri bo‘yicha ko‘rsatkichlarning farqi) va belgilangan YaST stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Uchinchi chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi: 16700x30% + (1200+1000) x 6% = 5 142 ming so‘mni tashkil qiladi (Ma’lumotnoma-hisob-kitobning 030-satri).

Hisob-kitob summasi eng kam miqdordan oshganligi bois qo‘shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi. Qo‘shimcha hisoblangan YaSTning o‘sib boruvchi yakuni (Ma’lumotnoma-hisob-kitobning 070-satri) birinchi yarim yil uchun qo‘shimcha hisoblangan summa - 61,415 ming so‘mga teng, deb qabul qilinadi. Ushbu summa YaST hisob-kitobining 170-satriga ko‘chiriladi.

Hisobot davri uchun budjetga to‘lanadigan summa (YaST hisob-kitobining 180-satri) «Kamolot» jamg‘armasiga chegirmalar (130-satr) va qo‘shimcha hisoblashni (170-satr) chegirgan holda hisoblangan YaST summasi sifatida aniqlanadi va 8691,215 ming so‘mni (8629,8+61,415) tashkil qiladi. Budjetga 7 187,7 ming so‘m (8 691,215 - 1 503,515) o‘tkaziladi.

KEYS. Eksportchi korxona uchun yast hisob-kitobi. Mahsulotning bir qismi respublika ichida realizatsiya qilingan. YaST eng kam miqdorining ko'payishi.

Ishlab chiqarish korxonasi (Toshkent shahri) mahsulotni ichki bozorda va eksportga realizatsiya qiladi. Hisobot davri (yanvar-sentyabr) uchun uning tushumi 69 900 ming so'mni tashkil qildi, bunda mahsulot realizatsiyasi: eksportga - 25 700 ming so'm; respublika ichida - 44 200 ming so'm. Birinchi yarim yil uchun tushum 45 700 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan: eksportdan - 18 500 ming so'm; respublika ichida - 27 200 ming so'm, shundan 5 900 ming so'mi tannarxi 7 000 ming so'mlik mahsulotni sotishdan.

Birinchi yarim yil uchun budjetga to'langan YaST summasi 1 111,5 ming so'mni tashkil qildi. Eng kam miqdorgacha qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmagan. Birinchi yarim yilda YaSTning eng kam miqdori korxonaga tegishli yer uchastkasi maydonidan (kadastr hujjatlari bo'yicha - 0,1789 ga) hisoblandi va 632 ming so'mni tashkil qildi. Sentyabrda korxona bir qavatli imoratdagi (Toshkentda joylashgan) bir necha ombor xonalarini ijaraga oldi, ularning umumiy maydoni ijaraga beruvchining kadastr hujjatlariga ko'ra 0,08 ga ni tashkil qiladi. O'zi ishlab chiqargan tovarlarni EAVga eksport qilishning ulushi realizatsiyaning umumiy hajmida quyidagicha bo'lgan eksportchi korxonalar uchun:

15 dan 30%gacha bo'lganda - stavka 30%ga pasaytiriladi;

30 foiz va undan yuqori bo'lganda - 2 baravar pasaytiriladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2000-yildagi PF-2613-sonli farmoni 1-bandi).

YaST stavkasini belgilash uchun eksport ulushi o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

9 oy yakunlari bo'yicha mahsulot eksporti realizatsiyaning umumiy hajmida 37%ni (25700/69900x100) tashkil qiladi. Shu sababli YaST 2 baravar pasaytirilgan stavkada hisoblanadi - 2,5% (5% / 2).

Hisob-kitobga 5-»Yagona soliq to'lovi stavkasiga eksportning ulushiga bog'liq holda tuzatish kiritish» ilovasida quyidagilar ko'rsatiladi: 040-satrda - eksport ulushi (37%); 060-satrda -

YaSTning tuzatish kiritilgan stavkasi (2,5%), u Hisob-kitobning 0801-satriga ko'chiriladi.

YaST hisob-kitobining 010-»Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan sof tushum» satrida 9 oy ichida, shu jumladan, eksportdan amalda olingan tushum - 69 900 ming so'm ko'rsatiladi.

025-»Tovarlarni tannarxdan past qiymatda realizatsiya qilish va tekinga berishdan zararlar» satriga bundan avvalgi hisobot davrida olingan, mahsulot tannarxi bilan uni realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi farq - 1 100 ming so'mni ko'chiramiz.

YaST bo'yicha soliq solinadigan baza (060 va 0602-satrlar) 71 000 ming so'mni (69 900 + 1 1000) tashkil qiladi. Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovining summasi (Hisob-kitobning 0902, 090 va 120-satrlari) 1 775 ming so'mga (71 000 x 2,5%) teng, shundan: «Kamolot» jamg'armasiga o'tkaziladi (Hisob-kitobning 160-satri) - 88,75 ming so'm (1 775 x 5%); «Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar chegirilgan holda YaST - 1 686,25 ming so'm (1 775 - 88,75) Hisob-kitobning 130-satrida ko'rsatiladi.

Budjetga to'lanadigan YaST summasini aniqlash uchun omborxonalari ijarasi hisobiga yer uchastkasi maydonining ko'payishini hisobga olgan holda YaSTning eng kam miqdorini hisoblaymiz. YaSTning eng kam miqdori hisob-kitobida ijaraga olinadigan xonalar maydonining ko'payishi ushbu ko'payish sodir bo'lgan oydan (ya'ni ijara shartnomasi tuzilgan oydan) boshlab hisobga olinadi. YaSTning eng kam miqdori hisob-kitobi uchun bazaning ko'payishi munosabati bilan soliq hisobiga olingan joydagi DSIga hisobot davri uchun YaST hisob-kitobini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay Yagona soliq to'lovi eng kam miqdorining aniqlashtirilgan ma'lumotnoma-hisob-kitobi taqdim etilishi kerak. Unda korxonaga mulk, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlarida tegishli bo'lgan barcha yer uchastkalari ko'rsatiladi. Bunda 010-satrda korxona ro'yxatdan o'tkazilgan tumanda (soliq hisobiga olingan joydagi) joylashgan yer uchastkalari, boshqa tumanlarda joylashgan yer uchastkalari 020-satrda ko'rsatiladi. Yer uchastkalarining umumiy maydoni (010 satr + 020-satr) 030-satrda ko'rsatiladi. Maydon sentyabrdan boshlab oshganligiga e'tibor bering. Uchinchi chorak uchun

YaSTning eng kam miqdori hisob-kitobi uchun maydon ko'paygunga qadar va ko'paygandan keyingi Ma'lumotnoma-hisob-kitob ma'lumotlaridan foydalanish lozim: iyul-avgust oylari uchun maydon ko'paygunga qadar hajmda qabul qilinadi - sentyabrda maydon ko'payganligini hisobga olmasdan, Ma'lumotnoma-hisob-kitob 11-ustunining 030-satri bo'yicha summaning 2/12 qismi, ya'ni 0,02982 ga (2/12 x 0,1789); sentyabr uchun - aniqlashtirilgan Ma'lumotnoma-hisob-kitob 11-ustunining 030-satri bo'yicha summaning 1/12 qismi - 0,02158 ga (1/12 x (0,1789 + 0,08) qabul qilinadi. Shu tariqa, uchinchi chorak uchun YaSTning eng kam miqdori:

3 x (0,02982 + 0,02158) + 9 423 127 x 0,5 = 726 523 so'mni tashkil qiladi.

Ushbu summa 2203-sonli nizomga ko'ra YaST ma'lumotnoma-hisob-kitobining 040-satrida ko'rsatiladi. YaSTning hisob-kitob summasi soliq solinadigan yalpi tushum (hisobot va bundan avvalgi davrlar uchun Hisob-kitob 040-satri ko'rsatkichlarining farqi) va belgilangan soliq stavkasidan (YaST stavkasini pasaytirish tarzidagi imtiyozni qo'llamasdan) kelib chiqib aniqlanadi.

Uchinchi chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi 1 210 ming so'mni [(71 000 - 46 800) x 5%] tashkil qiladi. U YaSTning eng kam miqdoridan ko'pligi sababli qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi.

Uchinchi chorak uchun budjetga 574,75 ming so'm (1 686,25 - 1 111,5) YaST to'lanadi.

KEYS. Mahalliylashtirish dasturining ishtirokchisi uchun YaST hisob-kitobi. Mahalliylashtiriladigan va mahalliylashtirilmaydigan mahsulot realizatsiya qilindi. xomashyo chegirma bilan xarid qilindi. Hisobot davri (yanvar-sentyabr) uchun Mahalliylashtirish dasturi ishtirokchisi bo'lgan korxonaning tushumi 128 000 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan: mahalliylashtiriladigan mahsulot realizatsiyasidan - 66 000 ming so'm; mahalliylashtirilmaydigan mahsulot realizatsiyasidan - 62 000 ming so'm.

Avgustda import bo'yicha xomashyo chegirma bilan xarid qilindi. Chegirmasiz qiymat - 18 000 ming so'm va chegirma (5%) bilan - 17 100 ming so'm. Kontrakt va BYuDda material-

lar qiymati chegirma bilan va chegirmasiz ko'rsatilgan. Birinchi yarim yilda yalpi tushum 80 094 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan, mahalliylashtiriladigan mahsulot realizatsiyasidan - 42 000 ming so'm, mahalliylashtirilmaydigan mahsulot realizatsiyasidan - 38 000 ming so'm, boshqa daromadlar (to'liq amortizatsiyalangan asosiy vosita tugatilishidan) - 94 ming so'm. Budjetga to'langan YaST summasi - 1 805 ming so'm. Eng kam miqdorga qadar qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmagan.

Har bir chorak uchun YaSTning eng kam miqdori (er solig'ining 3 baravarini hisobga olgan holda) 1 610 ming so'mni tashkil qiladi (shartli berilgan).

KEYS tahlili. Mahalliylashtirish dasturi ishtirokchisi bo'lgan korxonada YaST hisob-kitobi quyidagi me'yorlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi: mahalliylashtirish dasturi bo'yicha imtiyoz faqat mahalliylashtiriladigan mahsulot qismida qo'llanadi. Mahalliylashtirilmaydigan mahsulotni realizatsiya qilishdan, faoliyatning boshqa turlaridan olingan tushum va boshqa daromadlarga belgilangan tartibda YaST solinadi. Mahalliylashtirilmaydigan mahsulot realizatsiyasi yoki YaST solinmaydigan tushum bo'yicha boshqa faoliyat turlaridan daromadlar bo'lganda alohida-alohida hisob yuritiladi; chegirmalar bilan xarid qilingan tovarlar chegirmalar inobatga olinmagan qiymat bo'yicha hisobga qabul qilinadi, chegirmalar summalari esa moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi (9390-»Boshqa operatsion daromadlar» hisobvarag'i). Yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan chegirmalar boshqa daromad sifatida yalpi tushumga kiritiladi, biroq YaST bo'yicha soliq solinadigan bazaning hisob-kitobida chegirmalar summasi SK 356-moddasi birinchi qismining 6-bandiga asosan chegiriladi.

Imtiyozlarni hisobga olgan holda YaST hisob-kitobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Soliq solinadigan yalpi tushum mahsulotni, shu jumladan, mahalliylashtiriladigan mahsulotni realizatsiya qilishdan sof tushum va SKning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar summasi sifatida aniqlanadi. 9 oy yakunlari bo'yicha boshqa daromadlar tarkibida (YaST hisob-kitobiga 1-ilova) quyidagilarni ko'rsatamiz:

bundan avvalgi hisobot davrida olingan asosiy vositani tugatishdan daromad - 94 ming so'm;

xomashyoni yetkazib beruvchi taqdim etgan chegirma summasi - 900 ming so'm (18 000 - 17 100).

Boshqa daromadlar summasi (994 ming so'm) Hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satrida ko'rsatiladi va Hisob-kitobning 030-satriga ko'chiriladi. Soliq solinadigan yalpi tushum (Hisob-kitobning 040-satri) 128 994 ming so'mni (128 000 + 994) tashkil qiladi. Keyin soliq solinadigan yalpi tushumdan chegiriladigan summa aniqlanadi. Soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytiradigan summalar YaST hisob-kitobiga 3-ilovada ko'rsatiladi:

to'liq amortizatsiyalangan asosiy vositani tugatishdan olingan daromad (94 ming so'm) 0213-satr;

chegirma tarzidagi daromad (900 ming so'm) - 0206-satrda;

boshqa daromadlar summasi (994 ming so'm) - 020-satrda;

mahalliylashtiriladigan mahsulot realizatsiyasidan tushum (66 000 ming so'm) 0301-satrda ko'rsatiladi va 030-satrga ko'chiriladi;

010-satr bo'yicha kamaytirishlarning umumiy summasi (66 994 ming so'm) YaST hisob-kitobining 0502 va 050-satrlariga ko'chiriladi.

Imtiyozlar chegirilgan holda yalpi tushum sifatida aniqlanadigan YaST bo'yicha soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 060 va 0602-satrlari) 62 000 ming so'mni (128 994 - 66 994) tashkil qiladi. Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovi summasi (Hisob-kitobning 0902, 090 va 120-satrlari) 3 100 ming so'mga (62 000 x 5%) teng. Shundan:

«Kamolot» jamg'armasiga (Hisob-kitobning 160-satri) 155 ming so'm (3 100 x 5%) o'tkaziladi;

«Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar chegirilgan holda YaST summasi - 2 945 ming so'm (3 100 - 155) Hisob-kitobning 130-satrida ko'rsatiladi.

Uchinchi chorak uchun budjetga to'lanadigan YaST hisob-kitobi uchun YaSTning hisob-kitob summasi aniqlanadi. Misol shartiga ko'ra YaSTning eng kam miqdori 1 610 ming so'mga teng. YaSTning hisob-kitob summasi soliq solinadigan yalpi tushumni (imtiyozlarni hisobga olmasdan) YaSTning belgilangan stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Soliq solinadigan yalpi tushum o'sib bormaydigan yakun bilan hisoblanadi (hi-

sobot davri uchun YaST hisob-kitobining 040-satri ayiruv bundan avvalgi davr uchun YaST hisob-kitobining 040-satri).

Uchinchi chorak uchun YaSTning hisob-kitob summasi - 2 445 ming so'm [(128 994 - 80 094) x 5%] - eng kam miqdordan ko'p, shu sababli qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi, budjetga esa imtiyozlarni hisobga olgan holda hisob-kitob bo'yicha YaST summasi to'lanadi.

Uchinchi chorak uchun budjetga to'lanadigan YaST summasi 1 140 ming so'mni (2 945 - 1 805) tashkil qiladi.

KEYS. Yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxona uchun YaST hisob-kitobi. yastning eng kam miqdorini kamaytirish.

Birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha yuk tashishga qo'yilgan 6 avtomobildan (yuk tashish quvvati 7 t) korxona 148 900 ming so'm tushum oldi. Yuk ko'tarish quvvati 10 tonna bo'lgan bir avtomobil aprel oyidan boshlab ijaraga berildi va ikkinchi chorak uchun ijaradan tushum 13 000 ming so'mni tashkil qildi. Bir avtomobil (yuk ko'tarish quvvati 10 t) ta'mirlashga berilgan. Litsenziya kartochkalari 8 avtomobilga rasmiylashtirilgan. Birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha budjetga to'langan YaST 9 468,06 ming so'mni, shu jumladan, eng kam miqdorgacha qo'shimcha hisoblash 239,76 ming so'mni tashkil qildi. Uchinchi chorakda transport xizmatlaridan tushum 59 000 ming so'mni, avtomobilni ijaraga berishdan tushum 13 000 ming so'mni tashkil qildi. Avgustda yuk ko'tarish quvvati 10 t bo'lgan bir yuk avtomobili 40 000 ming so'mga sotildi. Uning dastlabki qiymati - 62 000 ming so'm, hisoblab yozilgan eskirish - 37 200 ming so'm, qayta baholash saldosi - 980 ming so'm.

KEYS tahlili. Korxonaning asosiy faoliyatida foydalaniladigan yuk avtomobilini realizatsiya qilish natijasida:

boshqa daromad - asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan daromad yuzaga keladi (SK 132-moddasi birinchi qismining 1-bandi), u yalpi tushumga kiritiladi va unga asosiy faoliyat turi stavkasi bo'yicha YaST solinadi;

YaSTning eng kam miqdori kamayadi. Yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxonalarda YaSTning eng kam miqdori litsenziya kartochkasi olingan har bir avtomobil hisobidan aniqlanadi (hatto u ijaraga berilgan yoki ishlamay turganligidan qat'iy nazar). Avtopark qisqarishi bilan eng kam miqdorning hisob-

kitobi uchun baza kamayadi. Avtotransport birliklari kamayishini hisobga olgan holda YaST eng kam miqdorining hisob-kitobi avtomobil chiqib ketgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

9 oy yakunlari bo'yicha YaST hisob-kitobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Soliq solinadigan yalpi tushum transport xizmatlarini ko'rsatishdan tushum va boshqa daromadlarni qo'shish bilan aniqlanadi.

9 oy yakunlari bo'yicha boshqa daromadlar (Hisob-kitobga 1-ilova) quyidagilar hisobiga shakllantiriladi: yuk avtomobilini realizatsiya qilishdan daromad - 16 180 ming so'm (40 000 - (62 000 - 37 200) + 980); yuk avtomobilini ijaraga berishdan daromad - 26 000 ming so'm.

Boshqa daromadlar summasi - 42 180 ming so'm Hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satrida ko'rsatiladi va Hisob-kitobning 030-satriga ko'chiriladi.

9 oy uchun xizmatlar ko'rsatishdan tushum 207 900 ming so'mga (148 900 + 59 000) teng. Soliq solinadigan yalpi tushum (Hisob-kitobning 040-satri) 250 080 ming so'mni (207 900 + 42 180) tashkil qiladi. Ana shu summa YaST bo'yicha imtiyozlar bo'lmagan holda soliq solinadigan baza sifatida qabul qilinadi (Hisob-kitobning 060, 0602-satrlari).

Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovi summasi (Hisob-kitobning 090 va 120-satrlari) - 15 004,8 ming so'm (250 080 x 6%). Shundan:

«Kamolot» jamg'armasiga o'tkaziladi (Hisob-kitobning 160-satri) - 750,24 ming so'm (15 004,8 x 5%);

«Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar chegirilgan holda YaST summasi (Hisob-kitobning 130-satri) - 14 254,56 ming so'm (15 004,8 - 750,24).

Keyin uchinchi chorak (iyul-sentyabr) uchun eng kam miqdorni hisobga olgan holda YaSTni qo'shimcha hisoblash kerakmi-yo'qmi yoki budjetga hisob-kitob bo'yicha hisoblangan summa to'lanadimi-yo'qmi, shuni aniqlaymiz.

Avtomobillar bo'yicha uchinchi chorak uchun YaSTning eng kam miqdori:

yuk ko'tarish quvvati 7 t bo'lganda - 3 737,34 ming so'mni (3 x (62 920 + 72 355* + 72 355) x 6 avt.);

yuk ko'tarish quvvati 10 t bo'lganda - 1 371,62 ming so'mni (4 x (62 920 + 72 355) x 2 avt. + 4 x 72 355 x 1 avt.) tashkil etadi.

Umuman olganda u 5 108,96 ming so'mga (3 737,34 + 1 371,62) teng. Ushbu summa avval 2134-sonli nizomning 1a-ilovasida ko'rsatiladi va 2134-sonli nizomga ko'ra Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 050-satriga ko'chiriladi.

YaSTning hisob-kitob summasi soliq solinadigan yalpi tushum (hisobot va bundan avvalgi davrlar uchun Hisob-kitobning 040-satri bo'yicha ma'lumotlar farqi) va YaSTning belgilangan stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi hamda uchinchi chorak uchun: (250 080 - 161 900) x 6% = 5 290,8 ming so'mni tashkil qiladi (2134-sonli nizomga ko'ra Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 030-satri).

Hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdoridan ko'p bo'lganligi bois uchinchi chorak uchun qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi. Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 080-satri va YaST hisob-kitobining 170-satrida bundan avvalgi hisobot davri uchun qo'shimcha hisoblashning o'sib boruvchi yakuni - 239,76 ming so'm ko'rsatiladi.

Hisobot davri uchun budjetga to'lanadigan YaST summasi (Hisob-kitobning 180-satri) «Kamolot» jamg'armasiga ajratmalar (130-satr) chegirilgan holda hisoblab yozilgan YaST bilan qo'shimcha hisoblab yozishning (170-satr) summasi sifatida aniqlanadi va 14 494,32 ming so'mni (14 254,56 + 239,76) tashkil etadi.

Budjetga 5 026,26 ming so'm (14 494,32 - 9 468,06) o'tkaziladi.

KEYS. Vositachilik xizmatlari ham ko'rsatadigan ulgurji savdo korxonasi uchun YaST hisob-kitobi. mablag'lar xodimning ipoteka kreditini so'ndirishga yo'naltirilgan.

Korxona ulgurji savdo bilan shug'ullanadi va vositachilik xizmatlari ko'rsatadi. Avvalgi yil yakunlari bo'yicha ulgurji savdo asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Vositachilik shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilingan tovar uchun haq bevosita komitentning hisobraqamiga yuboriladi (vositachi hisob-kitoblarda qatnashmaydi). Sentyabr oyida korxona Toshkent shahrida tashkiliy texnika do'koni ochdi. Birinchi yarim yil yakunlari

bo‘yicha yalpi tushum 107 500 ming so‘mni tashkil qildi, shundan: 63 900 ming so‘m - ulgurji savdodan; 42 600 ming so‘m - vositachilik shartnomalari bo‘yicha haq; 1 000 ming so‘m - boshqa daromadlar.

Birinchi yarim yil uchun YaST 17 572 ming so‘mni, shu jumladan, qo‘shimcha hisoblash 269 ming so‘mni tashkil qildi. Uchinchi chorakda (iyul-sentyabr) tushum 68 000 ming so‘mni tashkil qildi, shundan: 40 700 ming so‘m - ulgurji savdodan; 5 900 ming so‘m - chakana savdodan (barcha tushum naqd pul mablag‘lari bilan olindi); 21 400 ming so‘m - vositachilik shartnomalari bo‘yicha haq.

Iyul-sentyabr oylari uchun YaST bo‘yicha 4 880 ming so‘m bo‘nak to‘lovlari o‘tkazildi. Xodimlardan biri, yosh oila a’zosi kvartira sotib olishga ipoteka kreditini rasmiylashtirdi. Avgustda korxona uning krediti bo‘yicha birinchi badal - 15 000 ming so‘mni beg‘araz to‘ladi. YaSTning eng kam miqdori (er solig‘ining 3 baravari) uchinchi chorakda ham, xuddi bundan avvalgi choraklardagidek, 7 624 ming so‘mni tashkil qildi.

KEYS tahlili. Tashkilot shug‘ullanadigan faoliyat turlari bo‘yicha (chakana savdo do‘koni ochilishi bilan ular uchta bo‘ldi) alohida-alohida hisob yuritiladi: tovarlarni realizatsiya qilishdan tushum (tovar oboroti) ulgurji savdo bo‘yicha soliq solish obyekti hisoblanadi, unga 5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi; realizatsiyadan tushum chakana savdo bo‘yicha ham soliq solish obyekti hisoblanadi, savdo shoxobchasi joylashgan joyda (Toshkent shahri) 4%lik stavka qo‘llanadi; vositachilik faoliyati bo‘yicha realizatsiyadan tushum, deb haq e’tirof etiladi, YaSTning 33%lik stavkasi qo‘llanadi.

Ulgurji savdo asosiy faoliyat turi hisoblanishi bois maxsus hisobraqamga kelib tushgan summalarning (shu jumladan, vositachilik haqi, chakana savdodan tushum) 5%ini bank YaST bo‘yicha bo‘nak to‘lovi sifatida budjetga, qolgan qismini esa korxonaning asosiy hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

9 oy yakunlari bo‘yicha YaST hisob-kitobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Realizatsiyadan tushum (Hisob-kitobning 010-satri) umumiy summada - 174 500 ming so‘m (106 500 + 68 000) va quyidagi faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatiladi:

– ulgurji savdo (asosiy faoliyat turi) - 104 600 ming so‘m (63 900+40 700);

– vositachilik faoliyati - 64 000 ming so‘m (42 600 + 21 400);

– chakana savdo - 5 900 ming so‘m.

– Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha realizatsiyaning umumiy hajmida har bir faoliyat turi bo‘yicha tushumning salmog‘ini aniqlaymiz (020-satr):

– ulgurji savdo - 60% (104 600 / 174 500 x 100);

– vositachilik faoliyati - 37% (64 000 / 174 500 x 100);

– chakana savdo - 3% (5 900 / 174 500 x 100).

Bundan avvalgi hisobot davrida olingan boshqa daromadlar (1 000 ming so‘m) hisobot davri uchun Hisob-kitobning 030-satriga ko‘chiriladi. Boshqa daromadlarga soliq asosiy faoliyat turi stavkasi bo‘yicha solinishini eslatib o‘tamiz. Ulgurji savdodan tushum eng katta (60%) bo‘lganligi bois boshqa daromadlarga soliq 5%lik stavkada solinadi. Soliq solinadigan yalpi tushum (040-satr) 175 500 ming so‘mni (174 500 + 1 000) tashkil qiladi, shu jumladan, faoliyat turlari bo‘yicha:

– ulgurji savdo (boshqa daromadlarni hisobga olgan holda) - 105 600 ming so‘m (104 600 + 1 000);

– vositachilik xizmatlari - 64 000 ming so‘m;

– chakana savdo - 5 900 ming so‘m.

YaST stavkalari (5,33 va 4%) Hisob-kitob 070-satrining tegishli ustunlarida ko‘rsatiladi. Soliq solinadigan baza yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) uy-joyni mulk qilib xarid qilishga beg‘araz yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, kamaytirilishi mumkin (SKning 356-moddasi).

Soliq solinadigan bazani kamaytiradigan summa faoliyatning barcha turlari bo‘yicha yalpi tushum summasiga, shu jumladan, SKning 356-moddasida nazarda tutilgan chegirmalar summasiga kamaytirilgan boshqa daromadlarga, kamaytirish foizini (10%) qo‘llash yo‘li bilan hisoblanadi.

Ipoteka krediti bo‘yicha badal 15 000 ming so‘mni, kamaytirishning eng yuqori summasi esa 17 550 ming so‘mni (175 500 x 10%) tashkil etishi bois hisobot davrida badalning butun sum-

masini chegirish mumkin. YaST bo'yicha boshqa imtiyozlar yo'qligi bois kamaytirish summasi - 15 000 ming so'm Hisob-kitobga 3-ilovaning 040 va 010-satrlarida ko'rsatiladi hamda Hisob-kitobning 0502-satriga ko'chiriladi. Bunda faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar qayd etiladigan ustunlarda kamaytirish summasi Hisob-kitobning 020-satri bo'yicha har bir faoliyat turining salmog'idan kelib chiqib taqsimlanadi:

– ulgurji savdo bo'yicha - 9 000 ming so'm (15 000 x 60%);

– vositachilik faoliyati bo'yicha - 5 550 ming so'm (15 000 x 37%);

– chakana savdo bo'yicha - 450 ming so'm (15 000 x 3%).

Kamaytirishni hisobga olgan holda soliq solinadigan baza (Hisob-kitobning 060 va 0602-satrlari) 160 500 ming so'mni (175 500 - 15 000), faoliyat turlari bo'yicha esa quyidagilarni tashkil etadi:

– ulgurji savdo - 96 600 ming so'm (105 600 - 9 000);

– vositachilik xizmatlari - 58 450 ming so'm (64 000 - 5 550);

– chakana savdo - 5 450 ming so'm (5 900 - 450).

Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovi summasi (Hisob-kitobning 0902, 090, 120 va 130-satrlari):

– ulgurji savdo bo'yicha - 4 830 ming so'm (96 600 x 5%);

– vositachilik faoliyati bo'yicha - 19 288,5 ming so'm (58 450 x 33%);

– chakana savdo bo'yicha - 218 ming so'm (5 450 x 4%);

– jami - 24 336,5 ming so'm.

Uchinchi chorak uchun budjetga to'lanadigan YaSTni aniqlash uchun eng kam miqdorni (7624 ming so'm) YaSTning hisob-kitob summasi bilan taqqoslaymiz. Soliq solinadigan bazani kamaytirish tarzidagi imtiyozni hisobga olmasdan hisobot choragi uchun soliq solinadigan yalpi tushum (hisobot va bundan avvalgi davrlar uchun Hisob-kitob 040-satri ko'rsatkichlarining farqi) va faoliyat turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib aniqlanadigan YaSTning hisob-kitob summasi uchinchi chorakda:

(105 600 - 64 900) x 5% + (64 000 - 42 600) x 33% + 5 900 x 4% = 9 333 ming so'mni tashkil qiladi.

U YaSTning eng kam miqdoridan kattaligi bois, uchinchi

chorak uchun YaSTni qo'shimcha hisoblash amalga oshirilmaydi. Ma'lumotnoma-hisob-kitobning 080-satri va Hisob-kitobning 170-satrida bundan avvalgi hisobot davri uchun qo'shimcha hisoblash - 269 ming so'm o'sib boruvchi yakun bilan ko'rsatiladi. Hisobot davri uchun to'lanadigan YaST summasi (Hisob-kitobning 180-satri) 24 605,5 ming so'mni (24 336,5 + 269) tashkil qiladi.

Uchinchi chorak uchun budjetga, bundan avvalgi hisobot davri uchun to'langan summalar va uchinchi chorakdagi bo'nak to'lovlari chegirilgan holda 2 153,5 ming so'm (24 605,5 - 17 572 - 4 880) YaST o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 19 iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4455 sonli farmoniga asosan ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarning faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida umumqabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari, Markaziy banki tomonidan manfaatdor idoralar va tuzilmalar bilan birgalikda Jahon banki hamda uning bo'linmasi bo'lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan qabul qilingan «Biznesni yuritish» hisobotini shakllantirish metodikasiga muvofiq ishbilarmonlik muhiti holatini omillar asosida tahlil qilish hamda mamlakat reytingini belgilab beradigan baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tatbiq etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Quyidagilar bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishning g'oyat muhim vazifalari etib belgilandi: tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, byurokratik g'ovlarni tugatib borish, ro'yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini, hisob-kitob va hisobot tizimini

takomillashtirishga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini mukammallashtirish evaziga mamlakatda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish uchun yanada qulayroq shart-sharoitlarni yaratish, xususiy mulkchilikning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hissasini oshirish; biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholashning jahon amaliyotida umumqabul qilingan xalqaro mezonlarini keng joriy etish hamda yetakchi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy va reyting tashkilotlarining yuqori baho ko‘rsatkichlariga erishish; ichki bozorda raqobatni yanada chuqurlashtirish, mulkchilik va faoliyatni tashkil qilish shakllaridan kat’i nazar, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni yuritishda teng sharoitlar yaratish, bozor tamoyillari asosida moddiy-xomashyo va kredit resurslaridan foydalanishga, davlat xaridlarida hamda mahsulotlarni sotish va pudrat ishlarini amalga oshirish borasidagi tanlov savdolarida ishtirok etishga keng imkoniyatlar yaratib berish; statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini takdim etishda, soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lashda, ro‘yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda, yer maydonlarini ajratish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi bevosita muloqotni, korruptsiyani istisno etuvchi elektron tizimga, shu jumladan, Internet tarmog‘iga keng miqyosda o‘tishni ta’minlash belgilandi.

2012-yil 1-avgustdan boshlab, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan aniq me’yor va chora-tadbirlar joriy qilindi. 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida quyidagi tartib-taomillarni o‘z xohishlariga ko‘ra elektron shaklda amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar: bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimi, shu jumladan, «Internet-banking» tizimi orqali soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash; O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy banki, tijorat banklari; yuklarni bojxonada rasmiylashtirishda tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarlarni deklaratsiya qilish - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi; «bir oyna»

tamoyili bo'yicha yuridik shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan egalik huquqlarini ro'yxatga olish - O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi; tadbirkorlik subyektlarining da'vo arizalari va iltimosnomalarini xo'jalik sudlariga berish - O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi amalga oshirishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi PF-4453 sonli «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga binoan ortiqcha byurokratik g'ovlarni bartaraf etish, zamon talablariga mos kelmaydigan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini, statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish hisobiga respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, biznes subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va shunday subyektlarning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlash borasida izchil hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari har chorakda faqat bitta soddalashtirilgan statistik hisobotni taqdim etadilar, moliya hisoboti esa yiliga bir marta taqdim etiladi. Tadbirkorlik subyektlarining 78 foizdan ko'prog'i soliq hisobotini elektron ko'rinishda taqdim etmoqdalar. Oxirgi yillar davomida 65 turdagi ruxsat berish tartib-taomillari bekor qilindi. Shu bilan birga, statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarning mavjud tizimi katta bo'lib, tubdan soddalashtirishni va isloh qilishni talab etadi. Ko'p miqdordagi litsenziya talablari va ruxsat berish tartib-taomillari iqtisodiyotni yanada liberallashtirish borasida o'tkazilayotgan siyosatga hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelmaydi, ko'pincha davlat yo'li bilan tartibga solishning boshqa vositalarini takrorlaydi. Bozor iqtisodiyoti talablariga, xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq byurokratik g'ovlarni bartaraf etish, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, hisobot tizimini va hisobotlarni taqdim etish tartibini tubdan takomillashtirish hisobiga ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun maksimal

darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida: davlat statistik, moliya, soliq hisobotlari hamda boshqa hisobot turlarini bekor qilish va bir-birini takrorlovchi shakllarni birlashtirish evaziga ana shunday hisobotlar miqdorini, shuningdek, ularni taqdim etish davriyligi belgilangan muddatlarda qisqartirildi.

2012-yilning 1-avgustidan boshlab ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomilni (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz), shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasini (umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz), bekor qilish va birlashtirish hisobiga bekor qilindi. 2012-yilning 1-avgustidan boshlab ro'yxat bo'yicha faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziyalar amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Bunda mazkur faoliyat turlarini amalga oshirish uchun avval berilgan litsenziyalarning amal qilish muddatlari cheklanmagan, deb hisoblanadi; tadbirkorlik subyektlari tomonidan ilgari ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda arizalar takroran taqdim etilgan taqdirda yangi asoslar bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalar berishdan bosh tortish taqiqlandi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab barcha soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha oyma - oy soliq hisobotini taqdim etish bekor qilindi, (qo'shimcha foyda solig'i bundan mustasno) mikrofirmalar yillik statistik hisobot taqdim etadilar, bunda statistika organlari har chorakda tegishli faoliyat yo'nalishlari va sohalari bo'yicha tanlanma o'rganishlar o'tkazadi. Shuningdek, 2014-yilning oxiriga qadar barcha tadbirkorlik subyektlari statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga to'la hajmda bosqichma-bosqich o'tkazilishi, shuningdek, 2012-2016 yillar mobaynida ariza beruvchilarga arizalarning o'tish jarayonini interaktiv kuzatish imkoniyatini yaratgan holda litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun internet tarmog'i orqali arizalar berishning elektron shakllari joriy etilishini ta'minlash vazifasi belgilab olindi.

Yagona yer solig'i obyekti, subyektlari va soliq imtiyozlari Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir: qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar; qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot

tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi: yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yohud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar; qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar; qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlashgan ulushini realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar. Yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi: o'rmon va ovchilik xo'jaliklari; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda SKning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki YaSTni to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi belgilangan shartlarga javob bermay qo'ygan soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi, deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha u umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni yoki YaSTni to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir. Belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas. Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart. Soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig'ining stavkasi 2013-yilda 6 foiz qilib belgilandi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun SKning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq

solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan, ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi. Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi; ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz

qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

Qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — yagona yer solig‘i to‘lovchilarga yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Soliq davri- kalendar yil soliq davridir. Yagona yer solig‘i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi. Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig‘i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to‘lanadi. Yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig‘ini to‘lash yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to‘xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o‘zgargan, shuningdek, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig‘ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart. Yagona yer solig‘ini to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi: hisobot yilining 1-iyuligacha — yillik soliq summasining 20 foizi; hisobot yilining 1-sentyabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi; hisobot yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.



Tayanch so‘z va iboralar

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, yagona soliq to‘lovi, Yagona soliq to‘lovi obyekti, subyektlari, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq ta’tili, soliq krediti, soliqlarni to‘lash muddatlari, soliq agentlari, soliq hisobot shakllari, moliyaviy yil, soliq davri, mehnatga haq to‘lash fondi eng kam me’yori, mehnatga haq to‘lash fondi, kamaytiruvchi koeffitsiyent



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritish shartlari nimalardan iborat?
2. Yagona soliq to'lovi subyektlari kimlar hisoblanadi?
3. Soliq ta'tili deganda nimani tushunasiz?
4. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi qaysi me'yoriy hujjat asosida amalga oshiriladi?
5. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidagi xisobotlar to'g'risida gapirib bering?
6. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida QQSni to'lash shartlari to'g'risida nimalarni bilasiz?



Mavzu doirasidagi qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

2. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.:O'zbekiston, 2011. 48 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2011.-377 b.

4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi 24.01.2003. №PF-3202-sonli farmoni.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 245b.

6. O‘zbekiston statistik to‘plami. T.: 2005, 112 b. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami. 2008y. 201-bet.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari tizmini takomillashtirish to‘g‘risida», 20.08.2003. № 357-sonli qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: «Adolat», 2010-y. – 211 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Amalga oshirish uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati to‘g‘risida» 2001-yil 12-mayida qo‘shimcha kiritildi.

11. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. T.: O‘zbekiston, 2005. 212 b.

12. O‘zbekiston mustaqillik yillarida T.: O‘zbekiston. 1996. 37-38b. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami .–T.: O‘zbekiston, 2005. – B.217. O‘zbekiston statistik to‘plami.–T.: 2005.–B.216.

13. O‘zbekiston Respublikasi Qonun va Farmonlari. – T.:O‘zbekiston, 1992. –B. 28-29, 159-163.

14. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, - 448 b.

15. «Kichiklar» salohiyatiga keng yo‘l soddalashtirilgan soliqlar haqida//SBX.-№46(746). 2008-yil 14 noyabr.

16. Morozova L.L. Nalog na pribil organizatsiy: Analiz tipichnix nalogovix oshibok. –M.: Aktiv, 2006, - 241 s.

VI bob. O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNING DOLZARB VAZIFALARI

Reja:

6.1. Tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari.

6.2. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari.

6.3. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos jihatlari.

Tadbirkorlik tushunchasi mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish ningsharoitida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishga erishish uchun uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunda albatta tadbirkor atamasining yuzaga kelishi va tarixiy rivojlanish jarayonida qanday ma’no-mazmunni anglatganini tahlil qilish, tadqiqotimiz so‘ngida ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirishda hamda amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim o‘rin egallaydi.

KBXT sub’ktlari faoliyatining rivojlanish bosqichlari borasida har bir davrning taniqli klassik iqtisodiy va zamonaviy olimlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Iqtisodchi olimlardan Richard Kantilon birinchilardan bo‘lib, mazkur subyektlar faoliyatini tadqiq etib, u «Tadbirkor xavf-xatar ostida savdo faoliyatini yuritib, o‘z korxonasiga ega bo‘lgan va raqobat asosida faoliyatini yurituvchi shaxsdir. Tadbirkorlik esa, foyda olish imkoniyatlari chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib olib, lekin sotish bahosi noaniq bo‘ladi, u tavakkalchi, taklifni tovarga moslovchi shaxs faoliyatidir....»[25] - deb

[25] Кантильон Р., Hedeho K., Link A. The Entreppeneur. H/Y. 1982. -51 p

ta'kidlagan. R. Kantilon tadbirkorlikni o'ziga xos funksiya, deb tushungan va foyda olishga qaratilgan tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat, deb talqin qilgan.

1776 yilda ingliz iqtisodchisi A.Smit tadbirkorlik nazariyasini «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqotlar» nomli asarida o'rgangan. Uning xulosalariga ko'ra, mehnat bu boylikning manbayi bo'lib hisoblanadi.[26]

Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishida J.Bodo ta'limoti muhim o'rinni egallaydi. «Tadbirkor – bu tadbirkorlik faoliyatini yuritib unga mas'ul bo'lgan shaxs hisoblanadi. U shunday shaxski, korxonaga to'liq egalik qiladi, ishni rejalashtiradi, nazorat qiladi va tashkil etadi».[27]

Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga fransuz iqtisodchisi J.B.Sey ham o'zining munosib hissasini qo'shgan olimlardan hisoblanadi. U tadbirkorlarning asosiy vazifasi ishlab chiqarish omillarini oqilona birlashtirish va kombinatsiyalashdan iborat, tadbirkor ishlab chiqarishi doirasida boshqa insonlar faoliyatini tashkil etadi, deb ta'kidlab o'tgan[28].

Sharq olimlari ham tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Tadbirkorlik masalalari ular tomonidan o'sha davrdayoq atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, muqaddas «Avesto» kitobida ham nafaqat tadbirkorlik bilan shug'ullanish, balki ko'zlangan maqsadga faoliyatning faol samarasi orqali erishish mumkinligi qayta-qayta ta'kidlangan[29].

Sharq mutafakkiri Farobiyning «Fozil kishilar shahri» asarida ham milliy tadbirkorligimizning qator xususiyatlari o'z ifodasini topgan. U o'z asarida «Kimda kim o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni foyda chiqarish uchun muomalaga qo'shmay, o'zi uchun jamg'arsa juda katta zarar keltiradi»[30], - deb ta'kidlaydi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslarini o'rganishda Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning butun dunyoga mashhur bo'lishida va barcha g'alabalariga erishishida har bir

---

[26] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов (Книга1-III). –Москва:Наука, 1992. 392 с.

27 Предпринимательство. Учебник. Под. РЕД. В.Я. Горфинкеля и Т.Б. Полякова. –М.: "Юнити", 2001.-581 с.

28 Сэй Ж.Б. Трактат политической экономики. М.: 1985, 55-б.

29 Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. -.: "Шарк", 2001. – Б.227.

30 Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти". 1993. –Б. 124.

sohada aql va tadbirkorlik bilan ish yuritishi, tadbirkorlikni o‘z tafakkuri va harakatining shiori qilib belgilab olganligidadir[31]. Ta’kidlash joizki, tadbirkorlikni iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil etish jarayoni bugungi kunga qadar davom etmoqda. Amerikalik olimlar M.Peters va R.Xizrich tadbirkorlikni chuqur tadqiq etgan holda, unga quyidagicha ta’rif bergan: «Tadbirkor – qiymati va mohiyati jihatidan innovatsion yangilikni ifoda etuvchi mahsulotni yaratadi. Tadbirkor buning uchun o‘z vaqtini, kuchini sarflaydi. U moliyaviy, ma’naviy, ijtimoiy tavakkalchilikni, shuningdek, javobgarlikni o‘z zimmasiga oluvchi, o‘z manfaatini ko‘zlovchi, buning evaziga oladigan daromad va yutuqlaridan qanoatlanuvchi shaxsdir»[32].

A.Xoskinning fikricha, «biznesda qarorni mustaqil qabul qilib, ishni o‘z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug‘ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta’minlanishi uchun shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo‘ladi»[33] .

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiy akademiyasi olimlari tomonidan nashr etilgan «Obshchaya ekonomicheskaya teoriya» darsligida esa «Tadbirkorlik faoliyati – bu o‘zining moddiy manfaatlarini amalga oshirish, pirovard maqsadida ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy ne’matlar va xizmatlarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillarini tashkil etish va birlashtirishdir» deb baho beriladi[34]. Shuningdek, mustaqillik yillarida tadbirkorlikning mohiyatini nazariy tadqiq etish va O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan va rivojlantirilgan. Jumladan, mamlakatimiz iqtisochi olimlaridan A.O‘lmasov va M.Sh. Sharifxo‘jayevlar «Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi»[35]-deb ta’kidlaganlar.

Akademik S.G‘ulomovning ta’kidlashicha, KBXT har

---

[31] Ахмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўгитлари..–Т.: Наврўз, Т.: 1992. 11.

[32] Хизрич Р., Петерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. –М.: Прогресс, Университет. 1991. вып.1. – С. 20-25.

[33] Хоскин А. Курс предпринимательства. – М.: 1999 . – 273 с.

34 Общая экономическая теория. Учебник РЭА. Им. Г.В.Плеханова. –М.: «ПРОМО-МЕДИА», 1995. -606 с.

[35] Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.:Меҳнат, 1999. Б. 243.

kanday sharoitda: iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o'ta yuqori bo'lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma'lum hollarda ham, xavf – xatar qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay yashayveradi.[36]

Iqtisodchi olim X.Abulqosimov tadbirkorlikni qonun yo'li bilan man qilinmagan iqtisodiy unumli faoliyat turi deb qarasa, R.Valijonov va O. Qobulovlar tadbirkorlikni xo'jalik faoliyati yuritishning alohida turi sifatida tavsiflaydilar. Ular tadbirkorlik faoliyatini alohida tashabbusning erkin ko'rinishida, qarorlar va imkoniyatlarning noan'anaviy yo'llarini qidirishda, faoliyat doirasini va ko'lamini kengaytirishda, eng muhimi tavakkalchilikka tayyorligida va uni engish usullarini qidirishda namoyon bo'lishini tan oladilar.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunida tadbirkorlik nazariyasi taraqqiyoti aks etgan bo'lib, bu unda berilgan ta'rifning asosini tashkil etib, «Tadbirkorlik – fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik (huquqiy) shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir»[37] – deb baholanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Tadbirkorlik – iqtisodiy tanglikdan olib chiqishning, iqtisodiy taraqqiyotga olib borishning asosiy iqtisodiy vositasi, taraqqiyot lokomotivi....O'zini mulkdor, mulk xo'jayini, o'z mehnatining va ishlab chiqargan mahsulotining xo'jayini, deb his etish insonning yashirin kuch – g'ayratini yuzaga chiqaradi. Uning aqliy va ijobiy imkoniyatlarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etadi, uni tashabbuskor va omilkor qiladi...»[38]–deb ta'kidlangan edilar. Tadbirkor o'z mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda o'z daromadlarini oshirish bilan birga jamiyat boshqa a'zolarining ish o'rinlari hamda daromad bilan ta'minlanishiga moddiy negiz yaratadi.

---

[36] Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: "Шарқ", 2002. 230 б.

[37] Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги 2000. 25 майдаги 69-II-сонли Қонуни.

[38] Каримов И.А. Мулкдорлар синфини шакллантириш- ислоҳотларнинг бош мезони. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

Tadbirkorlik deganda, fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan, o'z nomidan, o'z javobgarligi ostida yoki yuridik shaxs nomidan va uning yuridik javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorli mustaqil faoliyatini tushunamiz. Tadbirkorlikda iqtisodiy faoliyat natijalari uchun ma'muriyat emas, balki jamoa va shaxs mas'ul hisoblanadi. Tadbirkor, tadbirkorlik haqida gap ketsa, beixtiyor uning egizagi biznes va biznesmen ham ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Uning ma'nosi quyidagicha: biznes mustaqil mayda korxonalarning daromad olishini ko'zlovchi sohibkorlik faoliyati bo'lib, kichik biznes yirik korxonalar, monopoliyalar faoliyati uchun torlik qiladigan, foyda ko'lami kamroq sohalarga yo'naltiriladi. Kichik biznes katta kapital talab qilmaganidan, u epchil bo'ladi, bir sohadan boshqasiga tez o'tib, bozor kon'yunkturasiga qisqa muddatlarda moslasha oladi.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy subyekti bo'lib tadbirkor, obyekti bo'lib esa – tovar, mahsulot, ish va xizmat, ya'ni kimningdir ehtiyojini qondirish mumkin bo'lgan va xarid qilish, foydalanish hamda iste'mol bozorida taklif etiladigan narsalar ishtirok etadi. KBXT rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirib chiqaruvchi bosh omil bu tadbirkorlik faoliyatining yuzaga kelishidir. Chunki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda va ishlab chiqarish omillarining bir-biri bilan o'zaro bog'lanishida tadbirkorlik qobiliyatining ahamiyati muhimdir. KBXT - aholining aksariyat qismi uchun o'z mehnatini sarflaydigan soha va daromad manbayidir. Bu yetarli malaka va tajribaga ega bo'lmagan, egiluvchan jadvalli ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini sarflaydigan mehnat bozorining eng moslashuvchan bo'lagidir. Kichik biznes aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. Fuqarolarga nafaqat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishga imkoniyat yaratib, o'rta sinf - jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikda manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik - yuridik shaxs tashkil etmagan

holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik kilish yoki undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini quyidagi: er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik; oddiy shirkat; yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishlari mumkin. Er-xotiniga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish muomalalarida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati obyekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga etgan boshqa a'zolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar tariqasida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan keyin ular birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasi taraflari bo'lishlari mumkin.

Dehqon xo'jaligi va oddiy shirkatni tuzish, ularning faoliyat yuritishi va faoliyatini tugatish bilan bog'liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

KBXT subyektlari iqtisodiyotni rivojlanishiga, arzon ishchi

kuchidan samarali foydalanishga, aholi bandligini ta'minlashga, aholini iste'mol talabini nisbatan qichqa muddatlarda qondirishga, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyatini tez va nisbatan asoratsiz o'zgartira olishga qodirdir.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismo niy shaxslarni soliqqa tortish masalalari

Soliq qonunchiligiga ko'ra yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar soliq qonunchiligiga ko'ra ijtimoiy sug'urta badallarini, eksport-import operatsiyalarini bajarganda yagona bojxona to'lovi, savdo qilish huquqi uchun yig'imni, agarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suv resurslaridan foydalanilsa, unda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, bozorlarda faoliyatini amalga oshirishda savdo joyi uchun to'lov (patta)ni, davlat bojlarini to'laydilar. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan, qishloq joylarga) bog'liq ravishda belgilaydi. Qat'iy belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffitsiyentlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qat'iy belgilangan miqdorlardagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 25-kunigacha to'laydilar.

Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq: 2009-yil yanvari uchun 2009-yilning 25-yanvariga qadar;

2009-yil fevrali uchun 2009-yilning 25 fevraliga qadar belgilab qo'yilgan.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i-nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi. 2013-yil 1-yanvardan yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkasi quyidagicha:

6.1-jadval

2013-yilda yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyat bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI[39]

№	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)					
		Toshkent shahri		viloyatdagi shaharlar		Tumanlar, sh.j. qishloq joylari	
		2012-yil	2013 yil	2012 yil	2013 yil	2012 yil	2013 yil
1.	Chakana savdo:						
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	9,0	6,0	6,0	3,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	5,0	5,0	4,0	4,0	2,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari	3,5	3,5	1,5	1,5	0,5	0,5

[39] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги ПҚ-1887-сонли қарори.

3.	Sartaroshlik xizmatlari ko‘rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o‘xshash xizmatlar	4,0	4,0	2,0	2,0	1,0	1,0
4.	O‘z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o‘tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	2,0	1,5	1,5	1,0	1,0
5.	Boshqa faoliyat turlari,	2,0	2,0	1,5	1,5	1,0	1,0
6.	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:						
	3 t.gacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0
	8 t.gacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0	3,0	3,0	3,0	3,0	3,0
	8 t.dan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	4,0	4,0	4,0	4,0	4,0	4,0

** dehqon xo‘jaligida parvarishlangan, ham tirik ko‘rinishdagi, ham ularni so‘yib, xom va qayta ishlangan ko‘rinishdagi mahsulotlar sifatida chorva mollari, quyonlar, nutriyalar, baliq, parranda, shuningdek, natura va qayta ishlangan ko‘rinishda asalarichilik va dehqonchilik (gulchilikdan tashqari) mahsulotlarini sotish bundan mustasno. Davlat hokimiyati mahalliy organlaridan yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridan olingan belgilangan namunadagi ma’lumotnoma fuqaroda dehqon xo‘jaligining mavjudligini tasdiqlaydi.*

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari ayrim faoliyat turlari mavjudki, agar ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchilar yuridik shaxs bo‘lsa ham

qat'iy belgilangan stavkalarda soliq to'lashlari talab etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagicha o'rnatilgan. Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa yerga ketish va hokazo) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

6.2-jadval

2013-yilda jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq STAVKALAR[40]

Faoliyat turi	To'lovchi-lar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
			Tosh. sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvi-dagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	yuridik shaxslar	egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,06	0,04
Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda, kelib tushgan kunida kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinishi kerak.

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uyushmalar, ittifoqlar va shu kabilarga birlashish, ishlarni o'z transportida bajarishga doir fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ushbu

[40] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги ПК-1887-сонли қарори.

jismoniy shaxslar qat'iy soliqni belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Jismoniy shaxs faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi; tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan, ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga axborot taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek, ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortish tartibi asosida soliqqa tortiladi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruv chi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek, faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart. Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar SKning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek, ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno. Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan obyektdir.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq davri - bir oy. Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga: yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay; faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15-yanvarigacha taqdim etiladi. Soliq solish obyekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart. Qat'iy belgilangan soliqni to'lash: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar: bojxona to'lovlari; yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda; aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; davlat boji; avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, SKning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatini vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir

vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi. Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart. Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilar: chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari; tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi. Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga: savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi yakunlari bo‘yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay; tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Faoliyatning bir necha turi bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo‘yicha alohida-alohida to‘laydilar.

Qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat’iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi

Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun davlat boji to‘lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq to‘lashdan ozod etiladi. Jismoniy shaxslar zimmasida quyidagilarni to‘lash majburiyati saqlanib qoladi: bojxona to‘lovlari; avtotransport vositalarini olganlik yoki vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

Agar gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar soliq solinadigan mol-mulk va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi. Gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan tartibda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi.

Patta to'lovi Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi. Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdir. Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi. Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pul olib, unga bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki kvitantsiya berish orqali undiriladi.

Patta to'lovi miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ijara to'lovidan olingan daromadlar. Ijara to'lovi bozor ma'muriyatining tasarrufida bo'lgan binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi;

2) sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

3) bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (dehqon bozorlari uchun). Bunda realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq daromaddir;

4) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Ijara to'lovining va bozor ma'muriyati ko'rsatadigan xiz-

matlar qiymatining miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Tadbirkorlik, biznes, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, rezident, norezident, yakka tartibdagi tadbirkor, biznes g'oya, ishbilarmon, mulkdor, yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslar, soliq to'lovchilar, soliq obyekti va bazasi.



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tadbirkorlik tushunchasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Tadbirkorlik tushunchasi yuzasidan qanday ilmiy qarashlarni bilasiz?
3. Tadbirkorlik bilan ishbilarmonlik o'rtasida sizningcha qanday farq mavjud?
4. Jismoniy va yuridik shaxs iboralari mohiyatini tushuntirib bering.
5. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning amaldagi tartibini aytib bering.
6. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?



Mavzu doirasidagi qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

2. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi

ma'ruzasi.-T.:O'zbekiston, 2011. 48 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. Toshkent: Iqtisodiyot. 2011. 377 b.

4. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risidagi 24.03.2003. №PF-3226 sonli farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi 24.01.2003. №PF-3202 sonli farmoni.

6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. 245b.

7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: «Adolat», 2010-y. 211 b.

8. O'z.R.V.M.ning «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2004-yil 6-iyuldagi №-318-sonli qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-maydagi «Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1529-sonli qarori

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4296-sonli farmoni

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi «Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raQobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida Qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1731-sonli qarori

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1754-sonli qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. T.:O‘zbekiston, 2005. 212 b.

14. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, 448 b.

15. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojeniyu. Uchebnoe posobie. M.V.Vladika, V.F.Tarasova, T.V.Saprikina; pod obshch. Red. V.F.Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006, – 360 s.

16. Sh.A.Toshmatov. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. – T., «Fan va texnologiya» – 2008, 129 b.

17. **WWW.SOLIQ.UZ**

VII bob. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI ZIMMASIDAGI SOLIQ YUKI DARAJASINI OPTIMALLASHTIRISH

Reja:

7.1. Soliq yuki tushunchasi bo'yicha nazariy qarashlar.

7.2. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini aniqlash usullari.

7.3. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirish istiqbollari.

Soliq yuki tushunchasi bo'yicha nazariy qarashlar



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish tizimida kichik korxonalar zimmasiga tushayotgan soliq yukining optimal darajasini aniqlash masalasi doimo dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Chunki aynan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi soliqlar orqali davlat ular faoliyatini cheklashi yoki maqsadli tarzda rag'batlantirishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, soliq yuki tushunchasiga iqtisodiy nuqtayi-nazardan yondashgan holda, mazmun-mohiyatini atroflicha ochib berish orqali uning darajasini optimallashtirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Soliq yuki tushunchasi murakkab iqtisodiy tushunchalardan biri bo'lib, ko'pchilik klassik va zamondosh olimlar bu boradagi o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar. Sohibqiron Amir Temur ham o'zining davlat boshqaruv tizimida fuqarolar zimmasiga tushayotgan soliqlar miqdoriga e'tibor bergan holda ta'kidlaydiki, «amalda hosil yig'ib olingandan so'ng soliq solinishi zarur, bunda sug'oriladigan yerlardan xazinaga hosilning uchdan bir qismi, sug'orilmaydigan yerlardan xazinaga hosilning to'rtdan bir qismini undirish kerakligi, shuningdek, fuqarolar daromadlarini haddan ortiq soliqlar bilan qamrab

olmaslik lozim..»[41]dir, aks holda bu holat fuqarolarning noroziliklariga sabab bo'lib, davlatda parokandalikni hukm surishiga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, iqtisodiyotda soliq yukining optimal darajasini ya'ni, davlatga ham, shu o'rinda soliq to'lovchilarga ham bir xilda ma'qul keladigan darajani aniqlash doimo dolzarb muammolardan biri bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, soliq yuki tushunchasi murakkab iqtisodiy tushunchalardan biri bo'lganligi sababli, bu sohada qator olimlar o'z ilmiy ishlarida atroflicha to'xtalib o'tishga harakat qilishgan. Jumladan, T.Toshmurodov o'zining ilmiy izlanishlarida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukiga nisbatan quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadilar, «soliq yuki-xo'jalik yurituvchi subyekt yoki fuqaro to'laydigan barcha soliqlar va to'lovlar yig'indisining daromadga nisbatidir. Soliq yuki soliqlar, yig'imlar va to'lovlar yig'indisining xo'jalik yurituvchining moliyaviy ahvoliga qanchalik ta'sir ko'rsatishi bilan tasiflanadi. Bu ko'rsatkich ilmiy tahlillardagina ishlatiladi. Soliq yuki qanchalik og'ir bo'lsa, soliq to'lashdan qochish shuncha ko'payadi. Soliq to'lovchilar zimmasiga tushadigan soliq va yig'imlarning jami miqdori soliq to'lovchilar uchun moliyaviy majburiyat hisoblanadi. Soliqlar yordamida davlat budjetining mablag' bilan ta'minlanishi, soliq yukining o'zgarishi soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi».[42]

T.S.Malikov fikricha, soliq og'irligi (yuki, «zulmi») - «davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini xarakterlab beradigan eng umumlashgan ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarida soliq ajratmalarining salmog'ini ko'rsatuvchi, bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o'lchamidir». Shuningdek, «.....fanda soliq yukining og'irligi 30-33 foizga etgunga qadar uning bu darajasi ishlab chiqarishning o'sish suratlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi isbotlangan».[43]

A.S. Jo'rayev soliq yuki borasidagi o'z fikr-mulohazalarini keltirib, soliqlar orqali soliq to'lovchilar daromadlarining 40

[41] Темур тузуклари. -Т.: Чўлпон, 1991. – б. 127.
[42] Тошмуродов Т. Солиқлар// Изохли луғат.-Т.:Меҳнат, 2003. б.184.
[43] Маликов Т.С.Солиқ юки. –Т.: Халқ сўзи. -2006 йил 24 январ, -№15.

foizidan ortiq qismi budjetga olib qo'yilmasligi kerak deb hisoblaydi. Olimning fikricha agar bu ko'rsatkich 40 foizdan oshsa, korxonaning pul oqimi sezilarli darajada zaiflashadi va budjet oldidagi majburiyatlarini amalga oshirishi qiyinlashadi.[44]

Germaniya Respublikasining davlat arbobi professor L.Erxardning fikricha, «barcha fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini pasaytirishga yo'naltirilgan istaklarini adolatli, deb tan olmoq lozimdir, xarajatlarning talab qilingan barqarorligiga va unumdorlikning rivojlanishini belgilangan sur'atlarda amalga oshirilishiga erishilsa, soliqlarni qanday pasaytirish imkoniyatini hisoblab topish va tasavvur qilish mumkin bo'ladi. Shundagina iqtisodiyotda hammani ezib kelayotgan soliq yuki muammosini haqqoniy va realistik tarzda echishga erishishimiz mumkin».[45]

Iqtisodchi A.Lefferning fikricha «soliq yukining og'irlashuvi faqat ma'lum bir chegaraga etgunga qadar davlat daromadlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu chegara milliy ishlab chiqarishning soliqqa tortiladigan qismining qisqarishi bilan boshlanadi».[46] A.Leffer ta'kidlab o'tgan chegaradan asossiz ravishda o'tilsa, soliq stavkalarining o'sishi budjet daromadlarining o'sishiga emas balki, aksincha qisqarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda soliq yuki darajasini real darajada pasaytirish davlatning xohish istagi bilan emas, balki mustahkam iqtisodiy tayanch bo'lgandagina amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Aks holda bu harakat teskari aks sado berib, iqtisodiyotni izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyotni rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini aynan soliqlar vositasida rag'batlantirish yoki cheklash imkoniyatining mavjudligini inobatga olib, mazkur tushunchani nazariy talqin qilgan holda aniqlashda quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, soliq yuki darajasini makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada aniqlashdir. Soliq yuki darajasini makroiqtisodiy darajada

---

[44] Жураев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати. Т.: ДЖКА, 2005. – б.22.

[45] Шаталов С.Д. Развитие налоговой системы России: проблемы. Пути решения и перспективы.-М.: МЦФЭР, 2001.-с.125.

[46] Балацкий Е. Лафферовы эффекты и финансовые критерии экономической деятельности// МЭ иМО.- М., 1997.- №11.-с.31-43.

aniqlashda soliq yuki mamlakatda yaratilgan YaIMda soliqlar va yig'imlarning ulushini tavsiflasa, mikroiqtisodiy darajada esa ma'lum bir moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar darajasida aniqlangan ko'rsatkichni ifoda etadi. Bu ko'rsatkich xo'jalik yurituvchi subyektning davlatga to'lagan barcha soliq va yig'imlarini subyekt moliyaviy faoliyatiga ta'sirini ifodalashda xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari mamlakatdagi soliq yuki darajasini o'rganish va tahlil qilishda faqatgina umumiy ko'rsatkichlarga tayanmasdan, tahlilni chuqurroq amalga oshirish uchun soliq yuki bo'yicha tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda ham tahlil qilish mumkin:

- iqtisodiyotdagi umumiy soliq yuki darajasi;
- tarmoqlar bo'yicha soliq yuki darajasi;
- alohida soliq turlari bo'yicha soliq yuki darajasi;
- alohida xo'jalik subyektlari bo'yicha soliq yuki darajasi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasining optimal variantini aniqlash birmuncha murakkab jarayon bo'lib, amalga oshirilgan foizli tahlillar doim ham kutilgan natijani yoki real, amaldagi holatni ifoda etmasligi mumkin. Soliq yuki tahlilini amalga oshirishdan oldin, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Korxonalar zimmasidagi soliq yukining og'ir yoki optimal darajada bo'lishi ko'pgina hollarda bevosita quyidagi omillarga bog'liqligi qator olimlar tomonidan ham ta'kidlangan:

- korxona tanlagan soliqqa tortish tizimida to'laydigan soliqlar, yig'imlar va budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar soni va hajmiga;
- korxona to'laydigan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalarning amaldagi stavkalari darajasiga;
- korxona to'laydigan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar bo'yicha belgilangan imtiyozlar va ularning amal qilish shartlariga;
- korxona to'laydigan soliqlar va yig'imlarning soliqqa tortish bazasini shakllanish xususiyatlariga;
- korxonalarning to'lovga layoqatliligi hamda moliyaviy holatining mustahkamligiga.

Yuqorida keltirilgan omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biron-bir omilning kamaytirilishi, boshqa omilning

o‘zgartirilmaganida korxona zimmasidagi soliq yukini asosli ravishda kamaytirishga erishish mumkin. Misol uchun, biron-bir soliq turi bo‘yicha soliq stavkalari sezilarli ravishda pasaytirish bilan bir qatorda, yangi soliq turining joriy etilishi korxona zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga olib kelmaydi. Shu nuqtayi-nazardan kelib chiqib, korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarda mazkur omillarni birgalikda, o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etish kutilgan natijani berishi mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan soliq yukini aniqlashning qator usullari taklif etilmoqda. Ammo moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan subyektlar qaysi usulni qo‘llagan holda o‘z faoliyatlari davomida soliq yukini aniqlashlariga qaramay, quyidagi omillar soliq yuki darajasiga ta’sir etadi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning tashkiliy-huquqiy shakli va xususiy mulkini inobatga olgan holdagi subyektning moliyaviy resurslari va boshlang‘ich jamg‘arilgan kapitalining o‘ziga xos xususiyatlari;
- davlat xarajatlarining tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiyotning rivojlanish darajasi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat grantlarida va boshqa innovatsion loyihalardagi faol ishtiroki;
- budjet ssudalari, investitsion soliq kreditlari, soliqlar va tushumlar bo‘yicha muddati kelgan va muddati kechiktirilgan to‘lovlarning mavjudligi va mazkur to‘lovlarga nisbatan davlat siyosati.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukining optimal darajasini aniqlash uchun avvalombor, bu ko‘rsatkichni aniqlash usullariga atroflicha to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunki korxonalar faoliyatini aynan soliq dastaklari orqali rag‘batlantirishda haqqoniy va to‘g‘ri hisoblangan soliq yuki darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va tadbir korlik subyektlari zimmasi dagi soliq yuki darajasini aniqlash uslublari

Soliq yukini amaliyotda quyidagi formula asosida aniqlash hollari ham uchramoqda. Ya’ni, soliq yukini barcha soliq to‘lovlari umumiy qiymatining korxona ixtiyorida soliq to‘langandan

keyin, dividendlar to'langunga qadar bo'lgan taqsimlanmagan foydaga nisbatan hisoblash taklif etilmoqda:

$$S_{yuh} = St/ Ft^* 100\% \quad (7.1)$$

Bu erda: Syuu - umumiy soliq yuki, foizda; St- korxona tomonidan to'langan soliq to'lovlari; Ft-taqsimlanmagan foyda (soliq to'langandan keyingi, lekin dividendlar to'langunga qadar bo'lgan foyda).

Mazkur holatda korxonalar tomonidan to'langan moliyaviy jarima va ustamalar miqdori hisobga olinmagan. Mazkur ko'rsatkichlar ham korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yuqoridagi usul bo'yicha aniqlangan soliq yuki korxonadagi haqqoniy holatni aks ettirmaydi. Mazkur usul bo'yicha soliq yuki aniqlanganda korxona tomonidan to'langan soliq to'lovlariga budjetga to'lovlar bo'yicha to'langan jarima va ustamalar qiymatining qo'shilishi soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lar edi.

$$S_{yuh} = (St+ Ij)/ Ft^* 100\% \quad (7.2)$$

Bu erda, S_{yuh} - haqiqiy soliq yuki; Ij - soliq qonunchiligini buzganlik uchun jarima va ustamalar ko'rinishidagi iqtisodiy jazolar miqdori.

Korxonalarda soliq yukini Rossiya Federatsiyasi Moliya Vazirligining soliq siyosati departamenti tomonidan aniqlashning quyidagi usuli keltirilgan[47]:

$$NB = (N_{UM}/V_{UM}) * 100\% \quad (7.3)$$

Bu erda: NB-Soliq yuki; N_{UM}-Soliqlarning umumiy summasi, rublda; V_{UM}-realizatsiyadan tushgan umumiy tushum hajmi, rublda.

Bu usul orqali korxonalarda aniqlanadigan soliq yuki realizatsiyadan tushgan umumiy tushumda barcha soliqlarning ulushini ko'rsata olsada, ammo har bir soliq turining xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatiga ta'sir doirasini ko'rsata olmaydi.

Professor. M.N.Kreynina esa quyidagi usul bo'yicha soliq yukini hisoblashni taklif etmoqda[48]:

---

[47] Козлов Д.А. Расчет налогов в оперативной деятельности предприятия. Финансовый менежмент.-2002.-№1.
[48] Вылкова Е.С., Романовский М.В.Налоговое планирование.-СПБ.: «Питер», 2004.-634 с.

$$NB = (V - S_r - P_{ch}) / (V - S_r) * 100\% \quad (7.4)$$

Bu erda: NB-Soliq yuki; V-Realizatsiyadan tushgan tushum; S_r-Egri soliqlarni chegirgan holdagi realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)larga qilingan xarajatlar; P_{ch}-xo'jalik yurituvchi subyekt tasarrufida barcha soliqlarni to'lagandan keyin qoladigan haqiqiy daromadi.

Ushbu usul bo'yicha aniqlanadigan soliq yukida soliqlar va ularning to'lanish manbalari o'zaro taqqoslanadi. Har bir soliq guruhi to'lanish manbasiga nisbatan o'zining soliq yuki og'irligini baholash mezonlariga egadir. Bundan tashqari bu usul tannarxga kiritiladigan soliqlar xo'jalik yurituvchi subyekt uchun foydali, degan fikrni ta'kidlaydi. Ya'ni, tannarx ko'tarilishi bilan daromad summasi kamayadi, bunga mutanosib holda esa daromad solig'i ham kamayadi. Ushbu usul muallifining fikricha, daromadni kamaytirish korxonaning bo'sh vositalarini chegaralash bilan birga, budjetga kelib tushmagan soliq summasi uchun «jazolaydi». Bu usul to'langan soliqlarning daromaddan qanchalik farqlanishini ko'rsatsada, ammo egri (aksiz, QQS va boshqa) soliqlar ta'sirini ifodalay olmaydi. Shuningdek, ularga xo'jalik yurituvchi subyekt daromadiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan soliqlar sifatida qaralmaydi. Soliq yukini baholashda bu soliqlarga kreditor qarzlar sifatida qarash taklif etiladi. Bu usul xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga to'g'ri soliqlar ta'sirini tahlil qilishda asqotishi mumkin, ammo subyektning moliyaviy holatiga egri soliqlar ta'sirini inobatga olmaydi. Albatta, egri soliqlarni korxona amaldagi mavjud qonunchilikka muvofiq tovar bahosiga kiritib, iste'molchidan undirib oladi. Misol uchun, korxona bozorga olib chiqqan tovarining narxini bozor ko'tara olmasa va bu tovarga bo'lgan talab pasayishi kuzatilsa, korxona iste'molchini ushlab qolish maqsadida tovar narxini qo'shgan egri soliqlari evaziga pasaytirishga majbur bo'ladi. Bunda egri soliqlarning yuki talabning xarakteriga muvofiq sotuvchiga tushadi. Tovarga nisbatan talab elastik bo'lganligi sababli iste'molchilarning ma'lum qismini saqlab qolish maqsadida, egri soliqlarning kattagina qismini sotuvchi to'lab berishga majbur bo'ladi. Agar tovarga nisbatan talab noelastik bo'lsa, u holda sotuvchi bemalol soliq yukini iste'molchi zimmasiga yuklashi mumkin, chunki bunday holatda

tovar bahosi talabga ta'sir etmasligi mumkin.

A.Kadushina va N.Mixaylova usuli bo'yicha soliq yuki hisoblanganda, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan yaratilib, ma'lum qismi budjetga o'tkazilayotgan qo'shilgan qiymatga nisbatan baholanadi. Usul mualliflari fikriga ko'ra, qo'shilgan qiymat xo'jalik yurituvchi subyektning daromad manbayi, shu bilan bir qatorda soliqlarni to'lash manbayi ham hisoblanadi. Shuning uchun har bir soliqni to'lash manbayi bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydilar. Bu usul bo'yicha aniqlangan hisob-kitoblar natijasida olingan integral ko'rsatkich turli iqtisodiy subyektlar uchun soliq yukini solishtirishga imkoniyat yaratadi. Bu usulda yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi: material xarajatlar (MZ); amortizatsiya ajratmalarini (AM) o'z ichiga olgan qo'shilgan qiymat (DS); yagona ijtimoiy soliqni hisobga olgan ish haqi xarajatlari (ZP); qo'shilgan qiymat solig'i (NDS); savdodan soliq (NSP); daromad (P). Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat turiga qarab bu komponentlarning taqsimlangan ulush darajasi har xil bo'lganligi sababli tarkibiy koeffitsiyentlarni kiritish va aniqlash maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi[49]. Ya'ni:

- Tushumdagi qo'shilgan qiymatning ulushi (K_o);
- Qo'shilgan qiymatda ish haqi xarajatlari ulushi (K_{zp});
- Qo'shilgan qiymatda amortizatsiya ajratmalari ulushi (K_{am}).

$$\mathbf{K_o = DS / V ; K_{zp} = ZP / DS ; K_{am} = AM / DS ;} \quad (7.5)$$

$$\mathbf{NSP = (5\%/105\%)*DS; NDS = (20\%/120\%)*V;} \quad (7.6)$$

$$\mathbf{ZPdan\ soliq = (35,8\%/135,8\%)*K_{zp}*DS;} \quad (7.7)$$

$$\mathbf{N\ p = 0,24*(1,2 - NDS - K_{zp} - K_{am} - 0,04/1,2/K_o)*DS;} \quad (7.8)$$

$$\mathbf{NB=(barcha\ soliq\ Sum/sof\ aktivlar)/(sof\ dar/sof\ aktiv)} \quad (7.9)$$

Berilgan formulalar xo'jalik yurituvchi subyektning davlat budjetiga qo'shilgan qiymatning o'tkazayotgan ulushini ifodalab, ishlab chiqarishning faoliyat turi va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining rentabelligiga muvofiq, qo'shilgan qiymatda soliqlarning o'zgarishini taqqoslash imkonini beradi. Bunda qo'shilgan qiymat bilan taqqoslash katta ahamiyatga ega. Chunki qo'shilgan qiymat xo'jalik yurituvchi subyektning daro-

[49] Трошин А.В. Сравнительный анализ методик определения налоговой нагрузки на предприятия. Финансы-2000.-№5.

mad manbayi bo'lish bilan birga, uning rivojlanish ko'rsatkichini ham yaqqol ifoda etishi mumkin. Barcha soliqlarni to'lab bo'lgandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymatning hajmi, uning kelajakdagi faoliyatini rivojlantirish darajasini ko'rsatib berishi mumkin. Shu bilan bir qatorda bu usul orqali xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rag'batlantirishda soliq stavkalarini ko'tarilishi yoki pasaytirilishi hamda imtiyozlarning ham ta'sir doirasini baholash mumkin. Bu usulning kamchiligi shundaki, hisob-kitoblarda keltirilgan soliqlardan boshqa soliqlar ta'siri inobatga olinmaydi. Ammo ta'kidlash lozimki, qolgan soliqlarning ham subyekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir doirasi yuqoridir.

E.A.Kirova usuli bo'yicha soliq yuki quyidagi formula orqali aniqlanadi[50]:

VSS=V-MZ-A+VD-VR; VSS=OT+So+P (7.10)

Bu erda: VSS-yangidan yaratilgan qiymat; V-tovarlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum; MZ-material xarajatlar; A-amortizatsiya ajratmalari; VD-realizatsiyadan tashqari daromadlar; VR-soliq to'lovlarini hisobga olmagan holdagi realizatsiyadan tashqari xarajatlar; OT-ish haqi; So-ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar; P-soliq to'lovlarini hisobga olgan holdagi daromad; NP - soliq to'lovlari hajmi; D_n - nisbiy soliq yuki.

$$D_n=(NP+SO)/VSS*100\%=(NP+SO)/(OT+SO+P+NP)*100 \quad (7.11)$$

Ushbu usul muallifi E.A.Kirova realizatsiyadan tushgan tushumni soliq yukini aniqlashda baza qilib olish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaydi. Bundan tashqari muallif xo'jalik yurituvchi subyekt zimmasiga tushayotgan soliq yukini absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Absolyut soliq yuki bu xo'jalik yurituvchi subyektning davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining absolyut kattaligi bo'lib, bu ko'rsatkich o'z ichiga subyekt tomonidan budjetga o'tkazilgan soliq to'lovlari, sug'urta badallari va jarimalarini o'z ichiga olib, jismoniy shaxslarning daromad solig'ini inobatga olmaydi. Chunki bu holatda xo'jalik yurituvchi subyekt faqatgina soliq agenti sifatida maydonga chiqmoqda. Yagona ijtimoiy soliq esa

---

[50] Кирова Е.А. Методология определения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты. Финансы.-1998.-№9.

soliq yukini aniqlashda inobatga olinadi. Oxirgi iste'molchi to'laydigan egri soliqlar ham soliq yukini aniqlashda ishtirok etib, narxni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Usulning xarakterli jihati shundan iboratki, soliq yukini iqtisodiy subyektlarning qaysi tarmoqqa tegishli bo'lishi ahamiyatsiz holatda, qiyoslash imkonini beradi. Ammo rentabellik, oborot aktivlarini aylanishi, fond sig'imi, mehnat sig'imi kabi ko'rsatkichlar ta'siri hamda soliqlarni soni, imtiyozlar, soliq stavkalarining o'zgarishi xo'jalik yurituvchi subyektning kelajakda tadbirkorlik aktivligining o'zgarishini bashorat qilish imkoniyatini bermaydi. Boshqa keltirilgan usullar singari bu usulda ham soliq to'lovlarining manbayi bo'lgan yangi qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Bunda keyingi ishlab chiqarish uchun iste'molni chegirgan holda, ya'ni tovar (ish, xizmat)lar qiymatidan oraliq iste'molni chegirganiga tengdir. Qo'shilgan qiymatga amortizatsiya ajratmalari ham kiritilganligi sababli, xo'jalik yurituvchi subyektning soliq yukini aniqlashda amortizatsiya ajratmasi va uning hajmini obyektiv ulushi hisobga olinmaydi.

M.N. Litvina usuli bo'yicha topiladigan soliq yuki ko'rsatkichi soliqlar va majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi subyektning to'laydigan soliqlari tuzilishi hamda soliqlarni hisoblash mexanizmi o'zaro bog'liqlikda qaralib, quyidagicha aniqlanadi[51]:

T=(ST/TY)*100 (7.12)

Bu erda: T-soliq yuki; ST-soliqlar summasi; TY-soliqlarni to'lash manbayi hajmi.

Muallif fikricha soliqlarning umumiy summasiga barcha to'langan soliqlarni, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromad solig'ini ham kiritish lozim. Chunki barcha to'lovlar xo'jalik yurituvchi subyektning turli xil ko'rinishda olingan daromadi sifatida tan olinib, realizatsiyadan tushgan tushum shakllanish bosqichidagi foyda va ishchilarni daromadini taqsimlash jarayonidagi foydadan iboratdir. Umumiy soliq yuki ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, bu usulda to'lov manbayi bilan alohida yoki guruhlangan soliqlarning o'zaro bog'liqligi kabi

[51] Вылкова Е.С., Романовский М.В.Налоговое планирование.-СПБ.: «Питер», 2004.-634 с.

xususiy ko‘rsatkichlar ham ishlatiladi. Tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqqan holda, bu ko‘rsatkichlar yordamida xo‘jalik yurituvchi subyektlar zimmasiga tushayotgan optimal soliq yukini aniqlashimiz mumkin. Keltirilgan usul xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni berib, korxonada yaratilgan yangi qo‘shilgan qiymatning qancha qismi soliqlar ko‘rinishida budjetga o‘tishi hamda soliq to‘lovlarini amalga oshirishda foydaning qancha qismi sarflanayotganini aniqlash mumkin. Bu usul xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyatida amortizatsiya ajratmalari, ish haqi xarajatlari, material xarajatlarning qo‘shilgan qiymatdagi ulushini o‘ziga xos tomonlarini ko‘rish imkoniyatlarini yaratadi. Ammo soliq yuki hisob-kitobiga jismoniy shaxslar daromad solig‘ining kiritilishi muallif fikricha to‘g‘ri emas.

T.K.Ostrovenko usuli bo‘yicha aniqlanadigan soliq yukini xususiy va umumiy kabi tushunchalarga bo‘lgan holda quyidagi umumiy ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi. Bunda xo‘jalik yurituvchi subyektning daromadiga nisbatan soliq yuki; moliyaviy resurslarga nisbatan soliq yuki; xo‘jalik yurituvchi subyektning xususiy mulkiga nisbatan soliq yuki; xo‘jalik yurituvchi subyektning soliqqa tortilguncha bo‘lgan foydasiga nisbatan soliq yuki; bir ishchiga nisbatan soliq yuki. Bu ko‘rsatakichlar esa quyidagi formulalar orqali aniqlanadi[52]:

$$\mathbf{NB_d=NI/V_r\ NB_f=NI/VB_{srednegod};}\ (7.13)$$

$$\mathbf{NB_{sk}=NI/SK_{srednigod};\ NB_p=NI/P}\ (7.14)$$

$$\mathbf{NB_r=NI/R}\ (7.15)$$

Bu erda: CX-soliq xarajatlari; P_t - realizatsiyadan tushum; $VB_{srednegod;}$- o‘rtacha yillik valuta balansi; $SK_{srednigod}$ - xususiy kapitalning o‘rtacha. yillik summasi; P-soliq to‘languncha bo‘lgan foyda; NB_d - xo‘jalik yurituvchi subyektning daromadiga nisbatan soliq yuki; NB_f - moliyaviy resurslarga nisbatan soliq yuki; NB_{sk}-xo‘jalik yurituvchi subyektning soliqqa tortilguncha bo‘lgan foydasiga nisbatan soliq yuki; NB_r-bir ishchiga nisbatan soliq yuki; NB_p-xo‘jalik yurituvchi subyektning sof foydasiga nisbatan soliq yuki; R-ishchilar soni.

Yuqorida keltirilgan soliq yukini aniqlash usullarini

[52] Вылкова Е.С., Романовский М.В.Налоговое планирование.-СПБ.: «Питер», 2004.-634 с.

barchasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, har birining iqtisodiyotda qo'llanilishi o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

Professor Q.Yahyoevning soliq yukiga bergan ta'rifiga ko'ra, «soliq yuki foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosida hamma to'langan soliq va yig'imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i ham soliq yukini ifodalaydi»[53]. Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, muallif soliq yukiga mikrodarajada to'langan barcha soliq va to'lovlarning daromadga yoki foydaga nisbati deb qaramoqda. Bu soliq yukini hisoblashda va belgilashda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki foydaga nisbatan soliq yuki hisoblansa, uning darajasi ancha oshib ketadi. Daromadga nisbatan hisoblanganda esa, soliq yuki ko'rsatkichi pasayib ketadi.

T.Toshmurodov esa soliq yukiga shunday ta'rif beradi: «Soliq yuki- xo'jalik yurituvchi subyekt yoki fuqaro to'laydigan barcha soliqlar va to'lovlar yig'indisining daromadga nisbatidir»[54]. Mazkur ta'rif ham soliq yuki darajasini aniqlashda qator savollarni yuzaga keltiradi.

B.Isroilov soliq yukiga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: «Soliq yuki deganda, xo'jalik yurituvchi subyekt yoki fuqarolarning davlat, mahalliy budjetga hamda turli jamg'armalarga qat'iy belgilangan tartibda to'laydigan barcha soliqlar hamda to'lovlar yig'indisining to'lovchilar soliq hajmiga, daromadga yoki boshqa soliq obyektiga nisbati tushuniladi»[55]. Mazkur ta'rifda ham soliq yukining mohiyati keng ochilmagan hamda jami to'langan soliqlar va to'lovlarning soliq to'lovchilarning ish hajmiga, daromadiga yoki soliq solish obyektiga nisbati sifatida qaralmoqda. Shuningdek, mavhum va aniqlashtirilmagan nisbatlanadigan uchta obyekt ko'rsatilmoqda. Mazkur obyektlar real soliq yukini aniqlash imkonini bermaydi.

Sh. To'rayev fikricha xo'jalik subyektlariga nisbatan soliq yukini hisoblashda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan davlat budjetiga to'langan barcha soliqlar, to'lovlar va ajratmalarning xo'jalik subyektining qo'shilgan qiymatiga nisbati orqali aniqlash

---

[53] Яҳёев К. Солиқка тортиш назарияси ва амалиёти//Дарслик. -Т.: F.Fуломов, 2000 й.-б.16.

[54] Тошмуродов Т. Солиқлар///Изоҳли луғат.-Т.:Меҳнат, 2003. -б.184.

[55] Исроилов Б. Солиқлар ҳисоби ва таҳлили: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Т.:Ўзбекистон, 2006.-б.272.

maqsadga muvofiq. Shunda soliq yukining real darajasi ko'rinadi va davlat budjetiga ham xo'jalik yurituvchi subyektga ham salbiy ta'siri bo'lmaydi. Xo'jalik subyektlarining soliq yukini hisoblashda ularning barcha to'laydigan soliq va to'lovlarining yig'indisini yangidan yaratilgan qiymatga nisbati orqali aniqlash lozim. Shuningdek, xo'jalik subyektlarining soliq yukini hisoblashda sof va umumiy soliq yukini hisoblash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda sof soliq yuki xo'jalik yurituvchi subyektning to'laydigan barcha soliqlari, budjet va budjetdan tashqari fondlarga qiladigan ajratmalarini hamda ishchilarning ish haqidan ushlab qolinadgan soliqlar va badallar yukini ifodalab berishini hamda xo'jalik subyektining sof soliq yuki va umumiy soliq yukini quyidagi formulalar orqali aniqlansa maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi:

$$\mathbf{S_{syu}=X_{tbs}/K_k}\ (7.16)$$

Bu yerda: S_{syu}-xo'jalik subyektining sof soliq yuki; $\mathbf{X_{tbs}}$-xo'jalik yurituvchi subyektning to'laydigan barcha soliqlari, budjet va budjetdan tashqari fondlarga qiladigan ajratmalari; Q_q-xo'jalik yurituvchi subyektning yangidan yaratgan qiymati yoki qo'shilgan qiymati hajmi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy soliq yuki:

$$\mathbf{U_{syu}=(\ X_{tbs}+I_{sb})/K_k}\ (7.17)$$

U_{syu}-xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy soliq yuki; I_{sb}- ishchilarning ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar va badallari hajmi.[56]

Shuningdek, muallif soliq yukini hisoblashda qo'shilgan qiymat tarkibiga amortizatsiyani qo'shmasdan hisoblashni taklif etadi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari tarkibida yakka tartibda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari ham mavjuddir. Bu tadbirkorlar yuridik shaxs sifatida emas, balki jismoniy shaxs sifatida faoliyat yuritib, moliyaviy hisobotida balans hisobotini yuritmaydilar. Ya'ni, maxsus soliq rejimi asosida qatiy soliq to'laydilar hamda ularning iqtisodiy faoliyati davomida amortizatsiya ajratmasi ko'rsatkichini hisoblash imkoniyati yo'q. Shu sababli ular yaratayotgan qo'shilgan qiymat tarkibida amortizatsiyani hisobga olmaslik va

[56]Тўраев Ш. Хўжалик субъектларининг солиқ юкини оптималлаштириш масалалари. и.ф.н.олиш учун диссертация. Қўлёзма хукукида ББК: 65.9 (5У)261.3. -6.91.

quyidagi ko'rinishga ega formula orqali hisoblash lozimligi taklif etiladi:

$$Qq=M_x + I_a + E_S + S_t+F \quad (7.18)$$

Bu erda: M_x - mehnat xarajatlari; I_a - ijtimoiy ajratmalar; E_S - egri soliqlar; S_t - boshqa soliqlar; F-foyda.

Bu usulning afzalligi shundaki, faoliyat sohasidan qatiy nazar individual tadbirkorlarning soliq yukini hisoblashda ham qo'l keladi. Ammo xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy soliq yukini hisoblashda korxonaga bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarda, o'z majburiyatlarini bajara olmaganligi uchun to'lagan moliyaviy jarima va penyalari hajmini ham subyekt to'laydigan barcha soliqlari, budjet va budjetdan tashqari fondlarga qiladigan ajratmalari bilan birga hisoblab quyidagicha hisoblash tavsiya etilsa, bizningcha real soliq yuki darajasini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi:

$$U_{syu}=(X_{tbs}+I_{sb}+J_p)/K_k \quad (7.19)$$

U_{syu}- xo'jalik yurituvchi subyektlarining umumiy soliq yuki; I_{sb}-ishchilarning ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar va badallari hajmi; J_p- xo'jalik yurituvchi subyekt to'lagan moliyaviy jarimalari va penyalari hajmi; Q_q - xo'jalik yurituvchi subyektning yangidan yaratgan qiymati yoki qo'shilgan qiymati hajmi. A. Pardayev va B. Azimovlar soliq yukini hisoblashda soliqlar va to'lovlarni soliqqa tortilish davrigacha korxonada shakllangan foydaga nisbatan hisoblashni taklif etadilar.[57]

M.I. Almardonov fikricha iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda soliq yukini hisoblashda soliqlar va to'lovlarning mahsulot sotish hajmiga nisbatan aniqlashni hamda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlashni taklif etadi. Muallif fikricha, absolyut soliq yuki - korxonalardagi soliq va ijtimoiy sug'urta badallari yukini ifodalab, ular budjet va budjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladi hamda xo'jalik subyektlari soliq majburiyatlarining absolyut miqdorini ifodalaydi. Nisbiy soliq yukini absolyut miqdorining yangidan yaratilgan qiymatga nisbati deb qaraydi va uni quyidagi formula orqali topishni taklif etadi:

$$D_n = (ST+IA) / YaYaQ*100\% \quad (7.20)$$

[57] А.Пардаев ва Б.Азимов. Корхоналар фаолиятини солиқлар воситасида бошқариш.-Т.: Zarqalam 2005.-б.68.

Bu erda: D_n - xo'jalik yurituvchi subyektlardagi nisbiy soliq yuki; ST-soliq to'lovlari hajmi; IA - ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar; YaYaQ-yangidan yaratilgan qiymat hajmidir[58].

I. Niyazmetov esa soliq yukini ikki darajada ya'ni, sof soliq yuki va jamlangan soliq yukini aniqlash orqali baholash hamda quyidagi formulalar orqali hisoblashni taklif etadi[59]:

SSYu= US /KK* 100% (7.21)

JSYu =(US+ RS)/KK*100% (7.22)

Bunda US-barcha tadbirkorlik subyektlariga umumiy bo'lgan soliq va majburiy to'lovlar; RS-tabiiy resurslardan foydalanish, alohida xususiyatli faoliyat turi bilan shug'ullanish yoki ma'lum bir operatsiyani amalga oshirish huquqi uchun to'lanadigan soliq va to'lovlar; QQ-qo'shilgan qiymat hajmi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, ko'p yillardan buyon olimlarning diqqat markazida bo'lgan masalalardan biri bu korxonalar zimmasiga tushishi mumkin bo'lgan, ilmiy asoslangan optimal soliq yuki darajasini aniqlashdir. O'z davrida K.Gok soliq yuki darajasining eng optimal, adolatli holatini aniqlash imkoniyatining murakkabligini ta'kidlab, «Angliya uchun har bir insonga 50 shillingdan soliq og'irligining tushishi hamda og'ir bo'lmagan sharoitda Sharqiy Hindiston uchun jon boshiga atigi 1 shillingdan belgilanishi ular uchun o'ta darajada og'ir hisoblanadi, yoki Irlandiyaning 6 mln axolisi to'lashi lozim bo'lgan soliq summasini Shotlandiyaning 2 mln. axolisiga mazkur summani to'lash hech qanday og'irlik hisoblanmaydi»[60] degan fikrlarini bildiradi.

Aksariyat olimlar soliq yukini mikrodarajada, ya'ni xo'jalik subyektlari darajasida aniqlashda nisbatlanadigan ko'rsatkich sifatida qo'shilgan qiymatni olishni taklif etishgan. Amerikalik iqtisodchilar S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilarning fikriga ko'ra, «qo'shilgan qiymat - bu korxonaning sotuv hajmidan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan materiallarning

---

[58] Альмардонов М.И. Ўзбекистон Республикаси солиқ тизими ва унинг тадбиркорлик фаолиятига таъсири. *Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.* –Т.: 2004.-б.22.

[59] Ниязметов И.М. Солиқ юкининг тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига ва бюджет даромадларига таъсири.и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. *Қўлёзма ҳуқуқида* УДК: 336.221 (575.1).

[60] Вылкова Е.С., Романовский М.В.Налоговое планирование.-СПБ.: «Питер», 2004.-634 с.

qiymati chegirib tashlangandan keyingi qolgan qismidir»[61].

K.R.Makkonnell va S.L.Bryular o'zlarining mashhur «Ekonomiks» asarida «qo'shilgan qiymat - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining bozor bahosidan mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan va shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun iste'mol qilingan xomashyo materiallar qiymati chegirilgandan keyin qolgan qismidir»[62]-deb ta'rif beradilar. Bu ta'rif boshqalardan farqli o'laroq, ancha keng va tushunarli bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotning bozor narxlari hamda shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan xomashyolar haqida so'z boradi.

Amerikalik olimlar M.Parkin va D.Kinglar bergan ta'rif esa quyidagichadir: «qo'shilgan qiymat – bu korxonaning ishlab chiqargan mahsulotlari qiymatidan boshqa korxonalardan sotib olingan oraliq tovarlar qiymati ayirib tashlanganidir»[63]. Bundan tashqari respublikamiz olimalaridan D.Tojiboevaning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o'rinlidir: «qo'shilgan qiymat - bu har bir korxona tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo'lib, undan sotib olib ishlatgan xomashyo, materiallar chegirib tashlanadi». Ushbu ta'rif ham oldingi chet el olimlari fikrlaridan keskin farq qilmasada, lekin qo'shilgan qiymatni ta'riflashda yaratilgan mahsulot hajmiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shuningdek, soliq sohasidagi taniqli mutaxassislardan biri Sh.Gataulin quyidagi ta'rifni keltiradi: «qo'shilgan qiymat - qo'shilgan ish haqini, amortizatsiyani, kredit uchun foizni, foyda va shu kabilarni o'z ichiga oladi».

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, soliq yukini aniqlash yuzasidan olimlarimiz o'rtasida quyidagi yo'nalishlarda bahs-munozaralar olib borilmoqda. Ya'ni soliq yukini aniqlashda egri soliqlar va jismoniy shaxslarning daromadidan undiriladigan soliqni inobatga olish lozimmi yoki yo'qmi? Aksariyat olimlarning fikricha mazkur soliqlarning og'irligi oxirgi iste'molchi zimmasiga tushgani uchun soliq yukini aniqlashda inobatga olish shart emas, faqat maxsus hisoblash usuli asosida

---

[61] С.Фишер, Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи. Экономика: Пер.с англ.со 2-го изд.-М.:Дело, 1997.-с.864.

[62] Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс, принципы, проблемы и политика. В 2 т. Пер.с англ. 11-го изд. Т.1.-М.: «Республика», 1992. -399 с.

[63] Соколов А. Теория налогов.-М.: «ЮрИнфоР-Пресс», 2003.-506 с.

albatta inobatga olish lozim. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim olimlar o'z hisoblash formulalarida QQS bo'yicha soliq chegirmalari mavjudligini inobatga olishmaydi, bu holat esa soliq yuki darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Keyingi munozara mavzusi bu soliq yukini aniqlashda xo'jalik subyekti hisoblagan hamda to'lagan soliqlar va yig'imlarni qaysi baza bilan solishtirish lozim, ya'ni iqtisodiy adabiyotlarda bunday ko'rsatkich sifatida bir guruh olimlar foyda ko'rsatkichini olishni taklif etadilar. Doim ham soliq to'lash manbayi foydaning o'zi hisoblanmaydi hamda mazkur ko'rsatkichning qo'llanilishi natijasida soliq yuki darajasi yuqori, ayrim hollarda 100 foiz bo'lishi mumkin. Bir guruh olimlar esa sotishdan tushgan tushum ko'rsatkichini olishni tavsiya etishmoqda. Nisbatlanadigan ko'rsatkich sifatida tushumni olish, korxona zimmasidagi soliq yukining real darajasini mutlaqo aks ettirmaydi.

Biznesning bozor bahosi ko'rsatkichini olishni taklif etuvchi olimlar fikricha, korxona zimmasiga tushayotgan soliq yuki darajasini mazkur biznesning bozor bahosiga nisbatan aniqlash lozim. Mazkur mulohaza tarafdorlari fikriga qisman qo'shilish mumkin. Ammo mazkur ko'rsatkichning aniq hajmi moliyaviy menejment ko'rsatkichlari yordamida aniqlananishini hamda O'zbekistonda moliyaviy menejment sohasining nazariy va amaliy jihatlari rivojlanishning ilk bosqichida bo'lganligini inobatga oladigan bo'lsak, barcha xo'jalik subyektlarida bu ko'rsatkichni bir xilda aniqlash imkoniyati cheklanganligini guvohi bo'lamiz.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni, ta'riflarni tadqiq etgan holda soliq yukiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq. Ya'ni soliq yuki - amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan soliq yuki aniqlanayotgan hisobot davrida hisoblangan va to'langan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, yig'imlar, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hamda xo'jalik subyekti tomonidan soliq ma'murchiligi xarajatlarining umumiy yig'indisini, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati qaralayotgan hisobot davrida yaratilgan qo'shilgan qiymatiga nisbati sifatida foizli tarzda aniqlangan ko'rsatkichdir. To'g'ri va aniq hisoblangan hamda

haqiqatda korxona zimmasidagi soliqlar og'irligini ifodalovchi soliq yukini aniqlash muhimdir. Aynan mazkur ko'rsatkich kelgusida korxonalar faoliyatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning asosi hisoblanadi. Albatta korxonalar zimmasidagi soliq yukini optimal darajasini aniqlashda yuqorida ta'kidlaganimizdek, korxonalar faoliyatining daromadlilik darajasi, korxonalarda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning hajmi kabi ko'rsatkichlarni ham tadqiq etish lozim. Shuningdek, korxonalar zimmasidagi soliq yuki bugungi kunda ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda, korxona investitsion faolligini rag'batlantirishdagi o'rni qanday bo'lmoqda degan dolzarb masalalar ham bugun o'z YECHIMIni kutmoqda. Bugungi kunda korxonalar zimmasidagi soliq yukining optimal darajasiga erishish hamda soliqqa tortish tizimida tub islohotlarni amalga oshirish maqsadida quyidagi masalalarni hal etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Birinchidan, korxonalar zimmasidagi soliq yukini imkon qadar kamaytirish, bunda korxona o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf eta olish salohiyatiga ega bo'lishini ta'minlash, bevosita soliqlarni kamaytirish va bilvosita soliqlarni hamda resurs to'lovlarini, ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklar, yer va suv zaxiralaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishga erishishga alohida ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, soliqlarni bir xillashtirish va ular sonini qisqartirish hamda soliqlarni hisob-kitob qilish, undirish mexanizmlarini soddalashtirish va arzonlashtirish bo'yicha doimiy ravishda chora-tadbirlarni amalga oshirib borish lozimdir.

Aytish joizki, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan soliq to'lovchilarda ma'suliyat hissini, soliqlarning maqsadli yo'naltirilganligini anglash hissini shakllantirish va tarbiyalash, ularda soliq madaniyatini oshirish eng muhim vazifalar sifatida belgilandi. Soliq to'lovchilar nima uchun soliq tulayotganliklari, ularning miqdori nima sababdan oshgani yoki kamaytirilganligini to'g'ri va aniq tushunishlari, soliqlar ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish orqali, oxir-oqibat soliq to'lovchilarning o'zlariga qaytishi va ularning manfaatlariga

xizmat qilishini anglashlari lozimdir.

Uchinchidan, soliq yuki darajasini kamaytirishga e'tibor qaratishning boshlang'ich bosqichida (keyingi bosqichlarda mazkur tadbir davlat budjetiga soliq tushumlarini ko'payishini ta'minlasa-da) budjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni bevosita budjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralari bilan birga qo'shib olib borilishini taqozo etadi. Optimal soliq yukini belgilash va uni amalda ushlab turishdan ikkala tomon ham, ya'ni davlat va soliq to'lovchi ham bir xilda manfa'atdordir. Chunki optimal soliq yuki xo'jalik subyektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, davlat budjeti uchun doimiy tushum bo'lishini ta'minlay oladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirish istiqbollari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida korxonalar faoliyatini rag'batlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, jahonda moliyaviy - iqtisodiy inqiroz davom etayotgan paytda, o'z vaqtida shakllangan shart - sharoitni to'g'ri tahlil etgan holda, mamlakatimizda 2009–2012-yillarga mo'ljallab «Inqirozga qarshi choralar» dasturining qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan asosiy strategik tadbir bo'ldi. Shuningdek, dasturda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotda real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida mahsulot tannarxini pasaytirish, eksportyor korxonalarga soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va bu orqali ular faoliyatini rag'batlantirish kabi vazifalar qo'yildi. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, demak bugungi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbir, bu jahon amaliyotida keng qo'llanilib kelinayotgan soliqlarni rejalashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Aynan korxonalarda samarali tashkil etilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlari ular zimmasidagi soliq yukini

kamaytirishga, mulkdan samarali foydalanishga, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini optimal variantini tanlashga va tannarxni imkon darajasida kamaytirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, korxonalar faoliyatini soliqqa tortish hamda ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasida tinimsiz ravishda o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, bugungi kunda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirishni taqozo etadi. Soliqlarni rejalashtirish tushunchasiga iqtisodiy lug'at va ma'lumotnomalarda quyidagi ta'riflar keltirilgan. «Soliqlarni rejalashtirish bu iqtisodiy subyekt faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy subyektning kelgusidagi faoliyatining maksimal daromadli bo'lishiga erishishi bilan bog'liq bo'lgan hamda faoliyatini barcha jabhalarini qamrab olgan rejalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalaridir»[64].

Shuni alohida ta'kidash joizki, iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarni rejalashtirish xo'jalik subyektining kelajak faoliyatini barcha jabhalariga doir optimal yechimlarni qabul qilish hamda faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga, natijalarni loyihalashtirish va ularga erishish yo'llarini shakllantirish kabi korxona oldida turgan maqsadlarni aniqlash jarayoni sifatida talqin etiladi. Korxonaning aniq bir faoliyat turini rejalashtirish imkoniyati iqtisodiyotning makroiqtisodiy jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, korxona tomonidan o'zining ishlab chiqarish faoliyatini tanqidiy nuqtayi-nazardan tahlil etib, faoliyati davomida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan asosli va optimal yechimlarini ifodalash usulidir[65]. Xo'jalik yurituvchi subyekt darajasidagi rejalashtirish deganda o'z ichiga kelgusida resurslarning cheklangan sharoitida obyektning kutilayotgan holatiga erishishda samarali usullarni aniqlash va ulardan alternativ foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy - xo'jalik faoliyati boshqaruvining bir qismi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarni tadqiq etish natijasida soliqlarni rejalashtirishga ta'rif berishda ikkita asosiy guruhni birlashtirish maqsadga

---

[64] Райзенберг Б.А.,Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь.- М.:Инфра-М, 2001.-с.286.

[65] Алексеева М.М. Планирование деятельности фирмы. – М.: Финансы и статистика, 2001. -с.34.

muvofiqdir. Birinchi guruhda soliqlarni rejalashtirishga beriladigan ta'rifning asosini soliq to'lovchining soliqlar bo'yicha majburiyatlarini minimallashtirish tashkil etsa, ikkinchi guruhning asosini soliqlarni optimallashtirish masalasi tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliqqa tortishni optimallashtirish bilan soliqlarni minimallashtirish bir xil ma'noni anglatmaydi.



7.1-rasm. **Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarish tizimida soliqlarni rejalashtirishning o'rni**

**mazkur segmentga quyidagilar kiradi: real investitsiyalarni boshqarish; moliyaviy investitsiyalarni boshqarish; oborot kapitalini boshqarish.*

Soliqlarni minimallashtirish bu barcha soliqlar va to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni maksimal darajada kamaytirish bo'lsa, soliqlarni optimalashtirish esa xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan holda aniq nisbatlarga ega bo'lish hisoblanadi, bunda subyekt tomonidan amalga oshiriladigan shartnoma va investitsion loyihalar ham inobatga olinadi. Bundan tashqari xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan soliq majburiyatlarini minimallashtirishga bo'lgan say'i - harakati moliyaviy menejment maqsadlari bilan to'qnashib, nazorat va soliq organlarining ortiqcha diqqat-

e'tiborini jalb etishi mumkin. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyekt darajasidagi soliqlarni rejalashtirish bu - iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi doirasidagi moliyaviy - xo'jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib, resurslarni cheklangan sharoitida ularni ishlatishning alternativ foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lgan shartlarida obyektning kelgusida istalgan moliyaviy holatiga erishish uchun optimal qonuniy soliq usul va uslublaridan foydalanishning tizimli jarayoni hisoblanadi. Bizningcha bunda xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusidagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlari qatoriga ular zimmasidagi soliq yuki darajasini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Soliqlarni rejalashtirish, shuningdek, aniq xo'jalik yurituvchi subyekt zimmasidagi har bir soliq turi bo'yicha majburiyatlarini minimallashtirishni rejalashtirish hisoblanadi. Soliqlarni xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari, xarajatlari va yakuniy natijalarini boshqarishdagi ta'siridan tashqari soliqli rejalashtirish moliyaviy menejmentning boshqa jabhalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliqlarni rejalashtirish natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati samaradorligini oshirishga, erishilgan soliq tejami xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun soliqlarni rejalashtirishning asosiy maqsadi nafaqat soliqlarni optimallashtirish hisoblanadi, balki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning asosiy sababi bo'lgan korxonalarni moliyaviy holatini mustahkamlash ham hisoblanadi. O'z faoliyati davomida soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirish tadbirkorlik faoliyati uchun quyidagi afzalliklarga ega: yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ular yuzaga kelmasligidan bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi; tadbirkorlik faoliyati davomida kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishga erishish mumkin; tashqi o'zgarishlarga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini qisqa muddatlarda tez moslashtirish imkoniyati mavjud; xo'jalik yurituvchi subyektning turli ko'rinishdagi moliyaviy va xo'jalik resurslarini ratsional va samarali taqsimlash hamda sarflash yo'nalishlarini aniqlash mumkin; xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy

mustahkamligini oshirishga erishish mumkin.

Bugungi kunda quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliqlarni rejalashtirishni o'z faoliyatlarida muntazam amalga oshirib borishlari lozim: korporativ tuzilmaga ega bo'lgan xolding kompaniyalari, sho'ba korxonalariga ega bo'lgan korporatsiyalar; yangi tashkil etilayotgan korxonalar (chunki ular to'laydigan soliqlar va majburiy to'lovlar tarkibiy tuzilishi, faoliyat turidan kelib chiqib, ularga nisbatan turli soliqqa tortish tizimlari amal qilishi mumkin. Qaysi tizimda faoliyat yuritishi ular uchun foydali bo'lishi esa, ular faoliyatida amalga oshirilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirish orqali aniqlashlari mumkin bo'ladi); kichik korxonalar (chunki aksariyat hollarda ularga nisbatan imtiyozli soliqqa tortish tizimlari qo'llaniladi. Lekin mazkur imtiyozlardan foydalanish har doim ham foydali bo'lmaydi. Aynan bu masala yuzasidan bir to'xtamga kelishda ular faoliyatida o'tkazilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlari javob berishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi omil sifatida soliqlarni rejalashtirishni zaruriy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: qonunchilikdagi nobarqarorlikning doimiy kuzatilishi, soliq qonunchiligida o'zgartirish va qo'shimchalarning tez-tez amalga oshirilishi (bugungi kunda subyektlarni o'z zaxirasida soliqlarni optimallashtirish bo'yicha ko'p variantli hisob-kitoblarga ega bo'lishini taqozo etadi); soliqlarni rejalashtirish natijasida erishilgan soliq tejamkorligi korxona sof foydasining o'sishiga, faoliyatini modernizatsiya va texnik jihatdan qayta rekonstruksiya qilishga, yangi texnologiyalarni sotib olishga, sof foydani oshirish evaziga korxonaning kapitalizatsiya darajasini oshirib, dividendlari bo'yicha to'lovlarini ko'paytirishga zamin yaratishi mumkin. Soliqlarni rejalashtirishning o'ziga xos tomonlari quyidagi omillarga bog'liq ravishda aniqlanadi: soliqqa tortish obyekti, subyektlari va turli soliq stavkalari, daromad olish manbalarining o'ziga xos jihatlari; hisob va shartnoma siyosatlarining o'ziga xos jihatlaridan foydalanish imkoniyatlari; soliq panohlaridan foydalangan holda soliqlarni qonuniy ravishda kamaytirish imkoniyatlari; soliqqa tortish usullari va uslublaridan foydalangan holda xo'jalik yurituvchi

subyekt zimasidagi soliq yukini kamaytirish imkoniyatlaridir. Boshqarilish darajasiga bog'liq ravishda soliqlarni rejalashtirishning quyidagi ko'rinishlari mavjud: davlat darajasida rejalashtirish; xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida rejalashtirish; yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti darajasida rejalashtirish. Bugungi kunda umumqabul qilingan korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar qatoriga xo'jalik yurituvchi subyekt zimmasiga tushayotgan soliq yuki darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichni ham kiritish lozimdir. Aynan mazkur ko'rsatkich korxonada soliqlarni rejalashtirishning qanday shakllari va usullarini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. A.G.Porshnev soliqlarni rejalashtirishda korxonada yaratilgan qo'shilgan qiymatga nisbatan aniqlangan soliq yuki darajasini olishni taklif etgan[66]. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar natijasida xo'jalik subyekti zimmasidagi soliqqa tortishning to'liq stavkasi (soliq yuki) 10 - 15 foiz oralig'ida bo'lsa, mazkur daraja normal hisoblanib, subyekt faoliyati daromadli ekanligidan dalolat berishi; agar 20-35 foiz oralig'ida bo'lsa, u holda maxsus dasturlarsiz amalga oshiriladigan soliqlarni rejalashtirishning passiv elementlaridan foydalangan holda, o'z faoliyatida xomashyoni sotib olishdan tortib, tayyor mahsulotni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlarni qayta ko'rib chiqish va samarali usullarini aniqlash lozimligi; agar 40-50 foiz oralig'ida bo'lsa, korxona tomonidan maxsus soliq maslahatchilarini yollash, o'z faoliyatini maxsus ekspertizadan o'tkazish va erishilgan natijalarni tanqidiy tahlil etish hamda aktiv holda soliqlarni rejalashtirish tadbirlaridan zudlik bilan foydalanish tavsiya etiladi.

Amaldagi shakllangan qonunchilikdan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda o'z faoliyati davomida soliqlarni rejalashtirishdan sho'ba korxonalarga ega bo'lgan korporativ tuzilmaviy xoldinglar, korporatsiyalar va yangi tashkil etilgan korxonalar hamda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lgan kichik korxonalar foydalanishi o'zining yuqori samarasini beradi. Chunki bugungi kunda O'zbekistonda sho'ba korxonalarga ega

[66]Поршнев А.Г. и дрг. Налоговый менежмент.- М.: Инфра, 2003.-с.235.

bo‘lgan korporativ tuzilmaviy xoldinglar, korporatsiyalar va yangi tashkil etilgan korxonalar hamda kichik korxonalarga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar, ularga nisbatan qo‘llanilayotgan soliqqa tortish mexanizmi, ular faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq shartlar, mahalliy ishlab chiqarishga nisbatan qo‘llanilayotgan rag‘batlantirishning maxsus mexanizmlari amal qilmoqda hamda soliq qonunchiligining muntazam ravishda o‘zgartirilishi kuzatilmoqda.



7.2 - rasm. **Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishda soliqli rejalashtirishning ta’siri**

Kichik korxonalarga nisbatan qo‘llanilayotgan soliqqa tortish tartibining aynan qaysi birida soliq yuki past bo‘lishi mumkinligini korxonada o‘tkazilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirish orqali aniqlash mumkin.

Zero soliq qonunchiligida aniq belgilangan holatlarda turli soliqqa tortish tizimlarini qo‘llash imkoniyatlarining mavjudligi, davlat e’tiborida bo‘lgan faoliyatlar bilan shug‘ullanganda soliq to‘lovchilar turli xil ko‘rinishdagi soliq imtiyozlaridan

foydalanishlari mumkinligi, soliqqa tortish bazasini hisoblash usullarining mavjudligi, aynan korxonalar faoliyatida u yoki bu ko'rinishdagi soliqqa tortish tizimida soliq to'lashi, imtiyozlarga ega bo'lishi borasida o'zlari uchun foydali bo'lgan xulosalarga kelishi uchun aynan, faoliyatlari davomida soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi.



7.3-rasm. **Xo'jalik subyektlari tomonidan soliq yukini kamaytirish usullari tavsifi**

Soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini o'z faoliyatida amalga oshirishda soliq to'lovchi qonuniy va noqonuniy usullarni amalga oshirish orqali soliqlarni to'lamaslikka va soliq yukini kamaytirishga erishishi mumkin (7.3-rasm).

Soliqlarni chetlab o'tish bu shunday jarayonki, bunda turli sabablar natijasida shaxs soliq to'lovchi bo'lib hisoblanmaydi. Aytish joizki, bugungi soliqqa tortish amaliyotida soliqlarni chetlab o'tish imkoniyati quyidagilarda namoyon bo'lishi

mumkin:

- soliqqa tortiladigan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi (misol uchun, davlat lotareya o'yinlaridan ko'rilgan daromad soliqqa tortilmaydi);
- soliqqa tortish subyektlarining o'ziga xos xususiyatlari (misol uchun, kichik biznes subyektlariga nisbatan soliq kreditlari ko'rinishidagi maxsus soliq imtiyozlarining berilishi);
- soliqlarni undirish, hisoblash va soliqqa tortish bazalarini shakllanishining o'ziga xos jihatlari (misol uchun, iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda kadastrli usulda soliq to'lash nisbatan foydali bo'lishi mumkin);
- «soliq qo'nimlari»lardan foydalanish (misol uchun, «Navoiy» erkin industrial zonadagi soliqlar bo'yicha maxsus tartibning amal qilishi) va boshqalar.

Korxonalarda amalga oshiriladigan soliqlarni rejalashtirishning elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: soliq majburiyatlarini optimallashtirish strategiyasi va mazkur strategik rejani amalga oshirish bo'yicha belgilangan dasturlar; soliq to'lovchi faoliyatiga mantiqiy ravishda to'g'ri keladigan hamda uning zimmasidagi soliq yukini qonuniy asoslangan usullarda kamaytirish imkonini beruvchi soliqlarni rejalashtirish chizmalari; korxona tomonidan buxgalteriya va soliq hisobini yuritishda foydalaniladigan usul hamda yo'nalishlarni mujassamlashtirgan korxona hisob siyosati; soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirish maqsadida talab etiladigan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar; hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'g'ri hisoblanib, to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi soliq kalendari; majburiyatlarni aniq bajarilishi (shu jumladan, soliqsiz majburiyatlarni ham) shartnomalar bo'yicha debitorlik qarzdorlikning yuzaga kelmasligini oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar.

Korxonada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan soliqlarni rejalashtirish jarayoni ham bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin (2.4-rasm). Ammo mazkur keltirilgan ketma-ketlikni korxona zimmasidagi soliq yukini kamaytirishning aniq dasturiy amali, deb qabul

qilish noto'g'ridir. Chunki soliqlarni rejalashtirish analitik san'at, bilim va kasbiy mahorat elementlarining uyg'unligi natijasidir.



7.4-rasm. **Korxonada soliqlarni rejalashtirish jarayonining taxminiy varianti**

Birinchi bosqich korxonaning faoliyat doirasini, tadbirkorlik

g‘oyasining aniq maqsadi va vazifalarini shkllantirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich soliqqa tortish nuqtayi-nazaridan korxona rahbariyati, uning filiallari, sho‘ba korxonalarini, ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladigan obyektlarning joylashgan joyini aniqlash va joylashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini aniqlash va tanlangan faoliyat shaklini soliqqa tortish tizimlari bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda soliqlarni to‘lash borasidagi samaralisini tanlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi bosqich o‘z ichiga korxonaning soliq chegarasini belgilashni shakllantirish bosqichini oladi. Aniq ko‘rsatkichlar yordamida har bir soliq turi bo‘yicha soliq chegarasini ifodalovchi «soliq jadvali» tuziladi hamda soliq imtiyozlaridan foydalanish tahlili amalga oshiriladi. Mazkur bosqichning tugallanish jarayonida har bir soliq turi bo‘yicha foydalaniladigan imtiyozlar guruhi aks ettirilgan reja ishlab chiqiladi.

Beshinchi bosqich korxonada buxgalteriya va soliq hisobini amalga oshirishda foydalaniladigan xo‘jalik operatsiyalarini aks ettiruvchi jurnal tuziladi hamda korxonaning shartnomaviy aloqalari tizimi shakllantiriladi (shakllantirilgan soliq chegarasi).

Oltinchi bosqich turli xil ko‘rinishdagi soliq jarayonlarini tahlil etish bilan boshlanib, moliyaviy yo‘qotishlarni inobatga olgan holdagi moliyaviy ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Keyingi bosqichda esa korxona moliyaviy natijalarini maksimal darajasiga yetkazish uchun aktivlarini soliqlarni to‘lash borasida samarali joylashtirishning ratsional usullari aniqlanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, barcha xo‘jalik subyektlari faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash mumkin bo‘lgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini keltirish murakkabdir. Chunki har bir korxona o‘ziga xos moliyaviy tuzilmaga hamda moliyaviy faoliyatiga ega bo‘lganligi sababli mazkur sohada amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tadbirlarni faqatgina korxonada maxsus amalga oshirilgan ekspertizadan so‘ng taklif etish mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan mulohazalarga tayangan holda ta’kidlash joizki, har bir korxona o‘z faoliyatida soliqlarni

rejalashtirish tadbirlarini davriy ravishda amalga oshirib borishi lozim. Mazkur tadbirlar natijasida korxonaning moliyaviy mustahkamligini oshirish, soliq majburiyatlarini qonuniy ravishda kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiyotda korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasining yuqori bo'lishi soliqlarni rejalashtirishning noqonuniy yo'llaridan foydalanishni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Chunki xarajatlarni minimallashtirgan holda, daromadlarni maksimallashtirish har bir korxonaning maqsadi bo'lsa, bozor iqtisodiyotining asosiy qonuni hisoblanadi. Demak, bugungi kunda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi iqtisodiy subyektlar manfaatini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish hamda ular faoliyati davomida soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirishni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib hisoblanadi.



Tayanch so'z va iboralar

Soliq yuki soliq yukini aniqlash, qo'shilgan qiymat, yalpi foyda, sof daromad, sotishdan tushgan tushum, soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirish, soliqli rejalashtirish, soliqlarni optimallashtirish, soliqlarni kamaytirish, YaIMga nisbatan soliq yuki darajasi, soliq og'irligi, soliq bosimi.



Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Soliq yuki deganda nimani tushunasiz?
2. Kichik tadbirkorlik suyu'ektlari zimmasidagi soliq yuki qanday aniqlanadi?
3. Soliq yuki bo'yicha qanday nazariy qarashlarni bilasiz?
4. Soliq yukini aniqlash usullarini gapirib bering.
5. Soliq yuki darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Soliq yukini optimallashtirish, deganda nimani tushunasiz?
7. Soliqlarni rejalashtirish tadbirlari qanday bosqichlardan iborat?
8. Soliqlarni rejalashtirish bilan soliqli rejalashtirishning qanday farqlari mavjud?

9. Soliq menejmentini tashkil etish asoslari nimalardan iborat?

10. Soliq yuki bilan soliq og'irligi o'rtasida farq mavjudmi?



Mavzu doirasidagi qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010.

2. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.-T.:O'zbekiston, 2011.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Iqtisodiyot.-2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartiblari tizmini takomillashtirish to'g'risida»gi 20.08.2003. № 357-sonli qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ-1887-sonli qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: «Adolat», 2010-y. – 211 b.

7. O'z.R.V.M.ning «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2004-yil 6-iyuldagi №-318-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. T.: O‘zbekiston, 2005. 212 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami .–T.: O‘zbekiston, 2005. – B.217. O‘zbekiston statistik to‘plami.–T.: 2005.–B.216.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi arxiv materiallari.O‘zbekiston mustaqillik yillarida –T.:1996. –B. 37-38.

11. O‘zbekiston Respublikasi Qonun va Farmonlari. – T.:O‘zbekiston, 1992.

12. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, - 448 b.

13. N.V. Toshmurodov T. Soliqlar// Izohli lug‘at. – T.:Mehnat,2003. -b.184.

14. Malikov T.S.Soliq yuki. –T.: Xalq so‘zi. 2006-yil 24-yanvar, №15.

15. Shatalov S.D. Razvitie nalogovoy sistemi Rossii: problemi. Puti resheniya i perspektivi.-M.: MTsFER, 2001.

16. Balatskiy E. Lafferovi effekti i finansovie kriterii ekonomicheskoy deyatelnosti// ME iMO.- M., 1997.- №11.-s.31-43.

17. Kozlov D.A. Raschet nalogov v operativnoy deyatelnosti predpriyatiya. Finansoviy menejment.-2002.-№1.

18. Toshmatov Sh.A. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish asoslari. Monografiya.-T: «Moliya», 2012.

19. Troshin A.V. Sravnitelniy analiz metodik opredeleniya nalogovoy nagruzki na predpriyatiya. Finansi-2000.-№5.

20. Kirova E.A. Metodologiya opredeleniya nalogovoy nagruzki na xozyaystvuyushchie subyekti. Finansi.-1998.-№9.

21. Vilkova E.S., Romanovskiy M.V.Nalogovoe planirovanie.-SPB.: «Piter», 2004.

22. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti//Darslik. - T.: G‘.G‘ulomov, 2000 y.

23. Makkonel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks, printsipi, problemi i politika. V 2 t.Per.s angl. 11-go izd. T.1.-M.: «Rempublika», 1992.

24. Sokolov A. Teoriya nalogov.-M.: «YurInfoR-Press», 2003.

VIII bob. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Reja:

8.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning xorij tajribalari tavsifi.

8.2. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari.

Kichik biznes va tadbir korlik subyekt-lari faoliya tini soliqqa tortishning xorij tajri-balari tavsifi



Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, albatta, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ular amaliyotini milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmlarini tadqiq etishdan oldin soliqqa tortish nuqtayi-nazaridan «kichik biznes subyektlari» maqomini berilish tartibini tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, kichik korxona maqomini belgilashda faqat bitta mezondan foydalanish amaliyoti kam qo'llaniladi (8.1-jadval). Jumladan, Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlarda kichik biznes maqomi mulkchilik shaklidan qatiy nazar 49 kishini va yillik oborot hajmi 10.mln.evroni tashkil etgan korxonalarga nisbatan beriladi. Yaponiyada esa 100.0 mln.iendan kam miqdordagi jamg'armaga ega bo'lgan hamda yillik daromadi 8.0 million iendan kam bo'lmagan yuridik shaxslar kichik biznes subyektlari

sifatida tan olinib[67], ularga nisbatan «kompleks rag'batlantirish» dasturlari amal qiladi. Demak, 8.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston amaliyotida bo'lganidek faqat bitta mezondan foydalanish boshqa rivojlangan davlatlarda amal qilmaydi.

Kichik korxonalarni soliqqa tortishning xorij amaliyotida aksariyat davlatlarda mazkur subyektlarga nisbatan maxsus soliqqa tortishning soddalashtirilgan yoki imtiyozli soliqqa tortish tartiblari amal qiladi. Chunki bugungi kunda yuqori tezlik bilan rivojlanayotgan qator gigant korxonalar o'z faoliyatini kichik korxona tariqasida boshlagan. Demakki, mazkur soha vakillariga berilgan imtiyozlar kelgusida o'zini oqlashi jahon amaliyotida ham isbotlangan. Jumladan, Buyuk Britaniya iqtisodiyotida kichik korxonalar muhim ahamiyat kasb etib, qariyb faoliyat yuritayotgan korxonalarning 99 foizini tashkil etadi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi tovaroborotning 50 foizi hamda bandlikning 45 foizi aynan ular zimmasiga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniyada kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi milliy dasturlar har uch yilga ishlab chiqilib, Davlat budjetida kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ular zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, ularga konsalting va huquqiy xizmatlarni ko'rsatish masalalari alohida o'rin egallaydi. Kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash dasturi asosan quyidagi to'rt yo'nalishda amalga oshirilib kelinmoqda: yangi tashkil etilgan kichik korxonalarga tekin maslahat va xizmatlarni ko'rsatish, «Grantlar chizmasi» (maqsadli loyihalar uchun qaytarilmaslik tarzidagi ssudalar), «Korxonaning yaratish va rivojlantirish chizmasi», «Kreditlarni kafolatlash» (kichik korxonalar tomonidan olingan kreditlarni davlat tomonidan kafolatlash) tarzidagi moliyaviy ko'maklashish, hamda kichik korxonalarning eksport faoliyatini rivojlantirish dasturlaridir. Shuningdek, Buyuk Britaniyada faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar qator soliq imtiyozlariga ega bo'lib, aksariyat hollarda ular NIOKRga, IT-texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirgan mablag'laridan foyda solig'ini to'lashda butunlay ozod etiladilar.

[67] Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли.-Т.: "Fan va texnologiya" - 2008.-б.204.

8.1-jadval

Soliqqa tortish maqsadida rivojlangan mamlakatlarda kichik korxonalarni aniqlash mezonlari tavsifi

Davlatlar	Kichik korxonalarni aniqlash mezonlari						
	Ishchilar soniga nisbatan	Ustav kapitalidagi ulushiga nisbatan	Yillik yalpi daromad hajmiga nisbatan	Aktiv.summasiga nisbatan	Yillik yalpi tushum hajmiga nisbatan	Yillik oborot hajmiga nisbatan	Yillik balans summ. nisbatan
El a'zo davlatlarida	Mulkchilik shaklidan qatiy nazar 49 kishi	-	-	-	-	10.mln.evro	10.mln. evro
Yaponiyada	-	100,0mln.iendan kam miqdordagi jamg'armaga ega bo'lgan yurid.shaxslar	Yillik daromadi 8,0mln.iendan kam	-	-	-	-
Moldova davlatida	Mulkchilik shaklidan qatiy nazar 50 kishi	-	-	-	10 mln.ley yoki 793,7 ming AQSh dollari	-	-
Armanistonda	-	-	-	-	-	QQSsiz 30 mln.dram	-
Gruziyada	Mulkchilik shaklidan qatiy nazar 20 kishi	-	-	-	-	500 ming lari yoki 274,0 ming AQSh doll	-
Belorusiyada	Sanoat va transport-100 kishi; Qishloq xo'jaligi va fan- 60 kishi; Qurilish va ulgurji savdo- 50 kishi; Chakana savdo va maishiy xizmat -30 kishi; Boshq-25 kishi	-	-	-	-	-	-
Ukrainada	Mulkchilik shaklidan qatiy nazar 50 kishi	-	1mln.griv.yoki 188,8 ming AQSh dol.	-	-	-	-
Rossiyada	Sanoat qurilish va transport 100 kishi; Qishloq xo'jaligi va fan 60 kishi; Ulgurji savdo 50 kishi; Chakana savdo va xizmat ko'rsatish 30 kishi; Boshqalar 25 kishi	9 oylik daromadi 15 mlndan kam bo'lgan	-	-	-	-	-

Bundan tashqari, kichik korxonaning foydasini soliqqa tortishda quyidagi progressiv soliq stavkalari qo'llaniladi: 10 ming foyda stavkasigacha foyda olgan korxonalar 0 foizli stavkada; 50 ming foyda stavkasigacha foyda olgan korxonalar birinchi 10 ming.f.st foydasidan 10 foizli, qolgan foyda summasidan 23,75 foizli stavkada foyda solig'ini to'laydilar (foyda solig'i shunda 10 foizdan 19 foiz atrofida tebranadi); 50 dan 300 ming foyda stavkasigacha foyda olsa- 19 foizli stavkada, 300 ming foyda stavkasidan 1500 ming. foyda stavkasigacha foyda olsa, birinchi 300 ming. foyda stavkasidan 19 foizli, qolgan foyda summasidan 32,75 foizli stavkada, 1500 ming. foyda stavkasidan oshsa - 30 foizli stavkada foyda solig'ini to'lashlari belgilangan. Kichik korxonalar alohida soliq imtiyozlariga ham egadirlar. Jumladan, oborot mablag'lari 56 ming. foyda stavkasidan oshmagan kichik korxonalar QQSni to'lashdan ozod etilgan. Bundan tashqari oborot mablag'lari 0,6 mln. foyda stavkasi bo'lgan kichik korxonalar QQSni yilda bir marta, oboroti 0,6-2,8 mln.f.st. bo'lgan korxonalar esa qolgan korxonalar singari umumiy tartibda soliq to'lovini amalga oshiradilar[68].

Kichik korxonalarga mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyoz ularni likvidliligi bilan bog'liq muammolarni echishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish hajmi yiliga 0,5 mln. litrni tashkil etuvchi piva korxonalari esa aksiz solig'ining belgilangan stavkasini 50 foizga kamaytirilgan holda to'laydilar. Buyuk Britaniyada yillik oborot mablag'lari 1 mln foyda stavkasidan kam bo'lgan kichik korxonalarga soddalashtirilgan holdagi hamda auditorlik xulosasisiz moliyaviy hisobotlarni topshirishga ruxsat berilgan. Kichik korxonalardan auditorlik xulosalarining talab etilmasligi moliyaviy resurslarni tejashga hamda oborot mablag'larini ko'paytirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan kichik korxonalarga ajratiladigan to'lovlar kichik korxonalar tomonidan hisobotlarni elektron tarzda topshirilishini doimiy ravishda rag'batlantirib bormoqda.

Fransiyada ham kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli soliqqa tortish tartibi amal qiladi. Bunda kichik biznes subyektlarining tovar oboroti hajmi va faoliyat turi asos bo'lib

[68] http://www.interunion.ru

hisoblanadi. Masalan savdo va uy joy ijarasi bilan shug'ullanadigan kichik biznes subyektlari uchun 80,0 ming evrogacha tovar aylanmasiga ega bo'lsa, mutaxassis va xunardmandlarga nisbatan esa 32,0 ming yevrogacha tovaraylanmasiga ega bo'lganda mazkur imtiyozli soliqqa tortish tizimi amal qiladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblamaydilar va sotib olgan xomashyolari uchun to'lagan QQSni budjetdan qoplash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Bundan tashqari mazkur subyektlar ixtiyoriy ravishda oddiy soliqqa tortish yoki imtiyozli soliqqa tortish tizimlarini tanlashi mumkin.

8.2-jadval

Fransiyada kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli soliqqa tortish tartibida belgilangan chegirmalar to'g'risida MA'LUMOT[69]

Soliqqa tortish tartibi	Faoliyat turi		
	Korxona va xunarmandlar		«erkin kasb» mutaxassislar
	Micro-Bic savdo	Micro-Bic xizmat ko'rsatish	Micro-BNC
Maksimal tovar aylanmasi	80 000 evro	32 000 evro	32 000 evro
Soliq chegirmasi	71%	50%	34%

Rivojlangan mamlakatlarda kichik korxonalarga nisbatan berilgan soliq imtiyozlarining aksariyati foydasini soliqqa tortish bilan bog'liq. Mazkur imtiyozlarni to'g'ri va egri guruhlarga ajratish mumkin. Misol uchun, Yevropa va AQShda egri soliq imtiyozlari guruhiga tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llash bo'yicha berilgan imtiyozlar kiradi. Bugungi kunda tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash bo'yicha Buyuk Britaniya oldingi o'rinlarni egallab, kichik korxonalarga uskunalardan foydalanishning birinchi yilidayoq to'liq amortizatsiya hisoblashga ruxsat berilgan.

[69] http:// zagranica.in/france

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortish ning ilg'or xorij tajribala ridan O'zbekistonda foydala nish imkoniyatlari

Fransiyada faoliyat yurituvchi kichik korxonalarda kompyuterlardan foydalanishning birinchi yilidayoq to'liq hisobdan chiqarishga, qolgan uskunalarni esa birinchi yilda 50 foizga hisobdan chiqarishga ruxsat berilgan.

Germaniyada kichik korxonalar tomonidan NIOKR maqsadlarida sotib olingan texnik asbob-uskunalar faoliyatining birinchi yilida 40 foizi miqdorida eskirish hisoblashga ruxsat berilgan.

Kichik korxonalarga berilgan to'g'ri soliq imtiyozlaridan eng asosiysi bu foyda solig'i stavkalarining keskin pasaytirilishi hisoblanadi. Misol uchun, AQShda federal darajada 75 000 AQSh dollari miqdorida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan korxonalar 34 foizli stavkada korporatsion soliqqa tortilsa, kichik korxonalarga nisbatan esa 50 000 AQSh dollari miqdorida daromadga ega bo'lganlar 15 foizli, 75 000 dollarigacha daromadga ega bo'lganlarga esa 25 foizli soliq stavkasi belgilangan. Shuningdek, kichik korxonalarda sotuv hajmi 200 000 AQSh dollariga teng bo'lgan korxonalar uchun 25 000 AQSh dollariga teng bo'lgan qo'shimcha chegirmalar o'rnatilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, sanoati rivojlangan davlatlarda kichik korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan korporatsiya solig'ining pasaytirilgan stavkalarini qo'llash amaliyoti keng tarqalgan bo'lsada, ularning stavkalari bir - biridan keskin farq qiladi. Misol uchun, AQShda uning eng qo'yi chegarasi 15 foizni tashkil etsa, eng yuqori chegarasi 34 foizni, Fransiyada kichik korxonalar uchun 33,3 foizni, boshqa o'rta va yirik korxonalar uchun 36 foizni, Kanadada 22 va 20 foizni, boshqa korxonalarga nisbatan esa 43 va 30 foizni tashkil etadi[70].

Buyuk Britaniyada korporativ soliqni hisoblash mexanizmida imtiyozli soliq stavkasini qo'llashda soliqqa tortiladigan daromad o'ziga xos tarzda aniqlanadi. Bunda soliqqa tortiladigan daromad miqdori 300 000 f.stgacha bo'lgan korxonalar kichik

[70] http://www.interunion.ru

korxonalar guruhiga kiritilib, 20 foizli imtiyozli stavkada soliqqa tortiladi. Korxona foydasi 1 500 000 f.stgacha bo'lgan korxonalar esa 30 foizli stavkada soliqqa tortiladi. Shuningdek, bu turdagi korxonalarga quyidagi formula bilan aniqlanadigan chegirma (skidka)ning qo'yi chegarasi aniqlanib, samarali soliq stavkasi miqdori aniqlanadi.

Chegirma (skidka)ning quyi chegarasi = (M − R) x I/P x F (8.1)

Bu yerda M - yuqori chegara; R - investitsion daromadni inobatga olgan holdagi foyda; I - korporatsion soliqqa tortiladigan bazaviy foyda; F –chegirma (skidka)ning qo'yi chegarasi koeffitsiyenti.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kichik korxonalar uchun foyda solig'i stavkasining kamaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki stavkaning kamaytirilishi natijasida korxona ixtiyorida qoladigan foydaning ko'payishi evaziga faoliyatini rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarga nisbatan imtiyozli soliq stavkalari nisbatan yuqori sur'atlarda qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarga nisbatan ancha pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladi. Rivojlangan mamlakatlarning soliqqa tortish tizimida samarali ishlayotgan imtiyoz turlaridan biri bu soliq kreditlarining berilishidir. Misol uchun, Fransiyada o'z kapitalini 25 foiz kengaytirishga erishgan kichik korxonalarga soliq krediti beriladi. Agar korxonaning o'z mablag'lari 4 mln.frankni tashkil etib, yil davomida uni 1 mln.frankgacha ko'paytirishga erishsa, mazkur korxonaga 250 000 frank miqdorida soliq krediti beriladi. Fransiyada kichik innovatsion korxonalar o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida daromad solig'idan to'liq ozod etiladi.

Rossiya Federatsiyasida kichik korxonalar faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, o'z faoliyatini rivojlantirishga sarflagan foydasi foyda solig'idan to'liq ozod qilingan, registratsiya qilingan davrning uchinchi va to'rtinchi yillarida foyda solig'i bo'yicha imtiyozli stavkalar joriy etilgan kichik korxonalar tomonidan asosiy vositalarni sotib olish

vaqtida to'lagan QQS davlat tomonidan qoplab beriladi, ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish uchun kichik korxonalarga kredit resurslarini ajratgan banklarga soliqlardan imtiyozlar joriy etilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qator mamlakatlarda kichik korxonalarga nisbatan soliqqa tortishning alohida tartiblari qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, soddalashtirilgan tizimdagi soliq (Ozarbayjon), soddalashtirilgan soliq (Armaniston), soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilar uchun yagona soliq (Belarusiya), soddalashtirilgan tizimdagi soliq (Tojikiston) shular jumlasidandir. Mazkur mamlakatlarda soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi zamirida bir nechta soliqlar va yig'imlar o'rniga yagona soliqni to'lash hamda buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan tartibda yuritilishini nazarda tutadi. Misol uchun, MDH mamlakatlaridan Ozarbayjonda kichik korxonalar soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidagi yagona soliqni QQS, foyda solig'i, mol-mulk va yer solig'i o'rniga tushumdan 2 foiz miqdorida belgilangan stavka bo'yicha to'laydilar. Armanistonda esa oborotdan to'lanadigan soddalashtirilgan soliqni (faoliyat yo'nalishiga ko'ra soliq stavkasi 7 foizdan 12 foizgacha belgilangan) QQS, jismoniy va yuridik shaxslarning daromad va foyda solig'i o'rniga to'lashlari belgilangan. Mazkur soliqqa tortish tizimida amal qilishning yagona sharti, bu kichik korxonalarning yillik oborot mablag'lari 30 mln. dramdan ko'p bo'lmasligidir. Belarus Respublikasida aniq bir faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun maxsus patent beriladi va bu patent kichik korxonaga respublika va mahalliy soliqlar o'rniga soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida amal qilish bilan birga soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatini beradi. Eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib, belgilangan patentning yillik to'lovi soddalashtirilgan tartibdagi soliq to'lovlari bilan birga, oylik to'lovlarni to'lash orqali so'ndirib boriladi. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimida amal qiluvchi kichik korxonalar yalpi tushumdan 10 foizli stavkada, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar esa 5 foizli stavkada soliqni to'laydilar[71].

[71] www. cfin .ru

Ukrainada yagona soliqni to'lovchi kichik korxona QQS (subyekt o'z xohishiga ko'ra QQSni to'lash mexanizmida faoliyat yuritishi ham mumkin), foyda solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i, yer uchun to'lov, yer resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, majburiy ijtimoiy to'lov, kommunal soliq va boshqalarni o'rniga yagona soliqni to'laydi. Shuningdek, kichik korxonalar quyidagi soliq stavkalarida soliqlarni to'lash mexanizmini tanlash imkoniyatiga ega: aksiz solig'i hisobisiz mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushumdan 6 foizli yoki mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushumdan (QQS bilan birga) 10 foizli soliq stavkasida to'lashi mumkin.

Ozarbayjon Respublikasida kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishda qator qulayliklar yaratilgan bo'lib, kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish maqsadida aniqlash mezon sifatida faoliyat turi, ishlovchilar soni va yillik tovaraylanmasi kabi ko'rsatkichlar asos qilib olingan.

8.3-jadval

Xorijiy mamlakatlarda korxonalar soliq ma'murchiligini amalga oshirishi uchun sarflaydigan yillik xarajatlari tahlili

Davlatlar	**Korxonalar soliq ma'murchiligini amalga oshirishi uchun sarflaydigan yillik xarajatlari hajmi**
Yevropa ittifoqi davlatlari	– Kichik biznes subyektlari uchun tushum hajmining 2,6 % miqdorida; – Yirik biznes subyektlari uchun tushum hajmining 0,2 % miqdorida
Buyuk Britaniya	– QQS bo'yicha ma'murchiligi xarajatlari tushum hajmining 0,05 % miqdorida; – 1 million funt sterlingdan ortiq tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,04 %i miqdorida
Niderlandiya	– 100 milliondan 500 million guldgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,02 % miqdorida; – 500 million gulddan ortiq tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,006 % miqdorida
Janubiy Afrika	– 300000 rand tushumga ega bo'lgan korxonalarda 4,8 % miqdorida; – 0.3 dan 1 million randgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 1,2%i miqdorida; – 1 dan 6 million randgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,2% miqdorida;

	– 6 dan 14 million randgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,08 % miqdorida
Kanada	– 0.5 milliondan 1 million kanada dollarigacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,1 % miqdorida; – 1 million kanada dollaridan yuqori tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,06 % miqdorida
Ukraina	– 300 000 grivendan yuqori tushumga ega bo'lgan korxonalarda 8,2 % miqdorida; – 30000 dan 1 million grivengacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 1,86% miqdorida; – 1 milliondan 5 million grivengacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,78% miqdorida; – 5 milliondan 35 million grivengacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,21% miqdorida; – 35 million grivendan yuqori tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,07% miqdorida
O'zbekiston	– 5 million so'mdan kam bo'lgan tushumga ega bo'lgan korxonalarda 15,9%i miqdorida; – 5 million so'mdan 50 million so'mgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 2,1% miqdorida; – 50 million so'mdan 100 million so'mgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,3% miqdorida; – 100 million so'mdan 1 milliard so'mgacha tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,3% miqdorida; – 1 milliard so'mdan yuqori tushumga ega bo'lgan korxonalarda 0,1% miqdorida

8.4-jadval

Ozarbayjon Respublikasida kichik biznes subyektlarini aniqlash mezonlari[72]

Faoliyat turi	Ishlovchilarning o'rtacha yillik soni	Yillik tovar aylanmasi
Sanoat va qurilish	50 kishigacha	500 ming manat
Qishloq xo'jaligi	25 kishigacha	250 ming manat
Ulgurji savdo	15 kishigacha	1 mln.manat
Chakana savdo, transport, xizmat ko'rsatish va iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari	10 kishigacha	250 ming manat

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona (qatiy belgilangan) soliq joriy

[72] Озарбайжан Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 18.12.2009 йилдаги №192 сонли қарори.

etilgan bo'lib, obyekti tasarrufida bo'lgan yer maydoni hisoblanib, foyda solig'i, yer solig'i, transport soliqlari o'rniga to'lanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlarda kichik korxonalarni soliqqa tortishda bugungi kunda asosiy e'tibor soliqlarni to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni imkon qadar kamaytirish, ularni korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir doirasini qisqartirish hisoblanadi. Shu o'rinda xorijiy mamlakatlar amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, korxonalar soliq ma'murchiligi xarajatlari hajmi yuqori emasligini guvohi bo'lamiz.

1.5-jadval ma'lumotlarida xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarning soliq ma'murchiligini amalga oshirish uchun sarflagan yillik xarajatlari tahlili keltirilgan. Jumladan, Yevropa ittifoqi davlatlarida kichik korxonalar tushum hajmining 2,6 foizini, Buyuk Britaniyada faoliyat yurituvchi hamda 1 million funt sterlingdan ortiq tushumga ega bo'lgan korxonalar tushumning 0,04 foizini, Kanadada 1 million kanada dollaridan yuqori tushumga ega bo'lgan korxonalar esa 0,06 foizini soliq ma'murligi uchun sarflashga majbur bo'lmoqdalar.

Kichik korxonalar soliq ma'murchiligi soddalashtirilgan shaklga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlarda soliq majburiyatlarini professonal buxgalterni yollamasdan, mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Misol uchun Yangi Zelandiyada faoliyat yurituvchi 80 foizga yaqin kichik biznes subyektlari soliq majburiyatlarini bajarish uchun maxsus konsal'ting xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar xizmatidan foydalanishadi. Chunki ular uchun mazkur kompaniyalar xizmatlaridan foydalanish ancha arzon va sifatli hisoblanadi. Shuningdek, ular faoliyatida amalga oshirilgan soliqlarni rejalashtirish tadbirlari natijasida esa mazkur faoliyatni maxsus mutaxassislarni yollash orqali amalga oshirish ular uchun arzon tushishi aniqlangan. Chunki korxonalar shtatga xodimni qabul qilish xarajatlaridan tashqari, soliq qonunchiligini doimiy ravishda o'rganib borish uchun maxsus adabiyotlarni sotib olish xarajatlarini, maxsus kompyuter dasturlari va texnikani, normativ-huquqiy hujjatlar bazasini sotib olish uchun xarajatlarni, maxsus treniglarda qatnashish badalini amalga oshirishga majbur bo'lishlari mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Xorij tajribalari, Yaponiya soliqqa tortish tizimi. Germaniya soliqqa tortish tizimi, korporatsiyalar solig‘i, oborotdan soliq, daromad solig‘i, renta to‘lovi, ijara haqi, lizing, soliq yuki, qo‘shilgan qiymat, soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirish, yillik oborot, soliq chegirmasi, transport soliqlari, soliq ma’murchiligi.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda qaysi rivojlangan davlatlar kichik korxonalarini soliqqa tortish amaliyotidan foydalanish mumkin?
2. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning Yaponiya tajribalarini aytib bering.
3. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning Germaniya tajribalarini aytib bering.
4. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning Rossiya tajribalarini aytib bering.
5. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning Buyuk Britaniya tajribalarini aytib bering.
6. Soliq ma’murchiligi xarajatlari, deganda nimalarni tushunasiz?
7. Soliq chegirmalari qaysi davlatlarning soliqqa tortish tajribalarida mavjud?

Mavzu doirasidagi qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. T.: O‘zbekiston, 2010. – 56 b.
2. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.-T.: «Sharq», 2009, - 448 b.
3. Morozova L.L. Nalog na pribil organizatsiy: Analiz tipichnix nalogovix oshibok. –M.: Aktiv, 2006, - 241 s.
4. Shatalov S.D. Razvitie nalogovoy sistemi Rossii: problemi. Puti resheniya i perspektivi.-M.: MTsFER, 2001.-s.125.

5. Balatskiy E. Lafferovi effekti i finansovie kriterii ekonomicheskoy deyatelnosti// ME iMO.- M., 1997.- №11.-s.31-43.
6. Kozlov D.A. Raschet nalogov v operativnoy deyatelnosti predpriyatiya. Finansoviy menejment.-2002.-№1.
7. Toshmatov Sh.A.Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish asoslari. Monografiya.-T: «Moliya», 2012.- 160 b.
8. Troshin A.V. Sravnitelniy analiz metodik opredeleniya nalogovoy nagruzki na predpriyatiya. Finansi-2000.-№5.
9. Vilkova E.S., Romanovskiy M.V.Nalogovoe planirovanie.- SPB.: «Piter», 2004.-634 s.
10. AS.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi. Ekonomika: Per.s angl.so 2-go izd.-M.:Delo, 1997.-s.864.
11. Makkonel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks, printsipi, problemi i politika. V 2 t.Per.s angl. 11-go izd. T.1.-M.: «Rempublika», 1992. -399 s.
12. Sokolov A. Teoriya nalogov.-M.: «YurInfoR-Press», 2003.- 506 s.
13. Rayzenberg B.A.,Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva E.B. Sovremenniy ekonomicheskiy slovar.- M.:Infra-M, 2001.-s.286.
14. Alekseeva M.M. Planirovanie deyatelnosti firmi. – M.: Finansi i statistika, 2001. -s.34.
15. Porshnev A.G. i drg. Nalogoviy menejment.- M.: Infra, 2003.-s.235.
16. http://www.interunion.ru
17. WWW. cfin .ru
18. http://www.interunion.ru
19. http:// zagranica.in/france
20. http://www.interunion.ru



ASOSIY TUSHUNCHALAR SHARHI

Soliqlar - muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari.

Soliq to'lovchilar - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning alohida bo'linmalari.

Soliq agentlari - zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar.

Soliq to'lovchining vakillari - qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslar.

Soliq majburiyati – soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.

Hisob hujjatlari – soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Majburiy to'lovlar – Davlat tomonidan belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji.

Moliyaviy ijara - mol-mulkni egalik qilish va foydalanishga o'n ikki oydan ortiq muddatga shartnoma bo'yicha topshirishda vujudga keladigan ijara munosabatidir.

Royalti - fan, adabiyot va san'at asarlaridan, dasturlar, audiovizual asarlar, sanoat mulki obyektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yohud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun to'lov.

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara sharnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish.

Ijara to'lovi – ijarachi o'zaro tuzilgan ijara shartnomasida belgilab olingan hamda ijaraga beruvchiga to'laydigan summa.

Mol – mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari sifatidagi moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy obyektlar.

Savdo faoliyati - qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi - soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartib.

Soliq qarzi - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan, belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

Oila a'zolari - er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar hisoblanadi.

Sof tushum - tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i hamda aksiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

Sof foyda - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

Tannarx - mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslar, asosiy fondlar, mehnat resurslari, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi.

Tovar oboroti - muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum - realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

To'lov manbayi – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Tovarlarni eksport qilish - O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Umidsiz qarz - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yohud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

Favqulodda holatlar - taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar.

Foizlar - har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri - soliq to‘lovchilarga oid davlat ma’lumotlar bazasi tizimi.

Soliq solish obyekti - soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasi.

Soliq solinadigan baza - soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Stavka - soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliq davri - u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davr.

Soliq hisoboti - soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Kameral nazorat - soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat.

Moliya inspektori - aksiz solig‘ini to‘lovchi korxonalarda va boshqa ayrim korxonalarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tayinlanadigan lavozim.

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami - muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga bir marta beriladigan raqam.

Soliq tekshiruvi - davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirish jarayoni.

Soliq tekshiruvlarining turlari – soliq tekshiruvlarining turlari rejali soliq tekshiruvi, rejadan tashqari soliq tekshiruvi. Muqobil tekshiruvlardan iborat.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash.

Qisqa muddatli tekshiruv - soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvi.

Muqobil tekshiruv - operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv.

Moliyaviy sanksiyalar – soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Soliq kontseptsiyasi - bu soliqlar yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir.

Soliq siyosati strategiyasi - muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar jamlanmasi.

Soliq siyosati taktikasi - belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sa'yi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi.

Soliq siyosati kontseptsiyasi - soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq agenti - yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat budjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar.

Soliq obyekti - soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi.

Soliqqa tortish predmeti - soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish obyekti bo'lib, biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib, ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi.

Soliq manbayi - bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbayi, ya'ni daromadi.

Soliq bazasi - soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

Soliqqa tortish birligi - bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib m^2 yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi - obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor.

Progressiv soliq stavkasi - soliq obyektining o'zgarishi o'z navbatida soliq stavkasining o'zgarishiga, ya'ni oshib borishiga olib keladi.

Regressiv soliq stavkasi - soliq obyektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, daromad yoki mahsulot ko'plab ishlab chiqarishni talab qiladi.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.

Soliq mexanizmi - davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisini ifodalaydi.

Soliq yuki - amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan soliq yuki aniqlanayotgan hisobot davrida hisoblangan va to'langan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, yig'imlar, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hamda xo'jalik subyekti tomonidan soliq ma'murchiligi xarajatlarining umumiy yig'indisini, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati qaralayotgan hisobot davrida yaratilgan qo'shilgan qiymatiga nisbati sifatida foizli tarzda aniqlangan ko'rsatkich.

Soliqlarni rejalashtirish - iqtisodiy subyekt faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy subyektning kelgusidagi faoliyatining maksimal daromadli bo'lishiga erishishi bilan bog'liq bo'lgan hamda faoliyatini barcha jabhalarini qamrab olgan rejalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalari.

Soliqlarni minimallashtirish - barcha soliqlar va to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni maksimal darajada kamaytirish bo'lsa, soliqlarni optimallashtirish esa xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan holda aniq nisbatlarga ega bo'lish hisoblanadi, bunda subyekt tomonidan amalga oshiriladigan shartnoma va investitsion loyihalar ham inobatga olinadi.

Notijorat tashkilot – foyda olishni faoliyatning asosiy maqsadi qilib belgilab olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilot.

Xo'jalik yurituvchi subyekt darajasidagi soliqlarni rejalashtirish - iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi doirasidagi moliyaviy - xo'jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib, resurslarni cheklangan sharoitida ularni ishlatishning alternativ foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lgan shartlarida obyektning kelgusida istalgan moliyaviy holatiga erishish uchun optimal qonuniy soliq usuli va uslublaridan foydalanishning tizimli jarayoni hisoblanadi.

Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari – yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat ichida chegirilishi lozim bo'lgan xarajatlar hisoblanadi.

Chegirilmaydigan xarajatlar – soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar.

Patta to'lovi – bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydigan har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qatiy belgilangan to'lov.

Kurs bo'yicha farq – milliy valutaga nisatan chet el valutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

Soliqlarni chetlab o'tish - shunday jarayonki, bunda turli sabablar natijasida shaxs soliq to'lovchi bo'lib hisoblanmaydi.

Bonus – yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov.

Davlat boji – yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lov.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya – soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Rezident – rezident yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Norezident – rezident uchun belgilangan mezonlarga javob bermaydigan shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti, deb e'tirof etiladi.

Doimiy muassasa – norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi, deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatini vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muasasasi, deganda O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi.

Mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq

hisobot choragi uchun aniqlangan soliq to'lovchining mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori.

Haqiqatdagi mehnatga haq to'lash fondi – O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 172 moddasida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi va yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish obyekti bo'lgan daromadlar tushuniladi, fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarga to'g'ri keladigan mehnatga haq to'lash fondi bundan mustasno.



MAVZULARNI TAKRORLASHGA DOIR AMALIY MASALALAR

1. Berilishi: «Uchqun» korxonasining buxgalteriya balansida 2011-yilning 1-yanvar holatiga:

–asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 190,0 mln.so'mni;

–asosiy vositalarning eskirish summasi 35,0 mln.so'mni;

–asosiy vositalarning qoldiq qiymati 155,0 mln.so'mni;

–normativ muddatda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan obyektning qiymati 15,0 mln.so'mni;

–ijtimoiy-madaniy soha obyektlari 5,0 mln.so'mni;

–eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi sotishning umumiy hajmida 20 foizni tashkil etgan.

Topshiriq: «Uchqun» korxonasi tomonidan budjetga to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i summasini aniqlang.

2. Berilishi: «Uchqun» korxonasining buxgalteriya balansida 2011-yilning 1 aprel holatiga:

–asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 190,0 mln.so'mni;

–asosiy vositalarning eskirish summasi 40,0 mln.so'mni;

–asosiy vositalarning qoldiq qiymati 150,0 mln.so'mni;

–normativ muddatda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan obyektning qiymati 15,0 mln.so'mni;

–ijtimoiy-madaniy soha obyektlari 5,0 mln.so'mni;

–eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi sotishning umumiy hajmida 25 foizni tashkil etgan.

Topshiriq: korxona tomonidan 2011-yilning I choragi yakuni bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlang.

3. Berilishi: «Sahovat» kichik korxonasi tomonidan 2011-yilning 1 aprel holatiga (yanvar-mart oylarida) 650 kub metr yerusti va 120 kub metr yerosti suv resurslaridan foydalanilgan.

Topshiriq: «Sahovat» kichik korxonasi tomonidan hisobot choragi uchun budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.

4. Berilishi: korxona tomonidan realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning hajmi 500 dal bo'lib, soliq stavkasi 2 292 so'mni tashkil etadi.

Topshiriq: Korxona tomonidan budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasini aniqlang.

5. Berilishi: korxona tomonidan realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati 1 500 000 so'm bo'lib, soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi.

Topshiriq: Korxona tomonidan budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasini aniqlang.

6. Berilishi: korxonaning soliqqa tortiladigan aylanmasi 2 327 694,9 so'm bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizni tashkil etadi.

Topshiriq: Korxona tomonidan budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlang.

7. Berilishi: «Tsementchi» korxonasi tomonidan oktyabr oyida 24 tonna tsement qoplarga qadoqlash xarajatlari (qoplar qiymati qo'shilgan holda) va qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holda barcha hajmga realizatsiya qilish summasi 2760,0 ming so'mni tashkil qilgan.

Topshiriq: Korxona tomonidan budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan qo'shimcha foyda solig'i summasini aniqlang.

8. Berilishi: Korxonaning bir oydagi daromadi 15 200,0 ming so'mni tashkil etmoqda.

Topshiriq: Korxona tomonidan budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini aniqlang.

9. Berilishi: Konsalting xizmatlari ko'rsatadigan tashkilot o'z xodimiga ta'mirlashdan qolgan, qiymati 220 ming so'm bo'lgan bo'yoqni 400 ming so'mga sotdi, to'lov uning ish haqidan ushlanadi. Tashkilot yagona soliq to'lovi to'lovchisidir (QQS to'lamaydi).

Topshiriq: Konsalting xizmatlari ko'rsatadigan tashkilot tomonidan budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yagona soliq to'lovi summasini aniqlang.

10. Berilishi: QQS to'lovchi korxona mamlakat ichida va eksportga realizatsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqaradi. Uni ishlab chiqarish uchun xomashyo keltirilib, uni bojxonada rasmiylashtirishda 12 500 ming so'm QQS to'langan. Xomashyo

olib kirilganida korxonada uning xarajatini eksportga va ichki bozorda realizatsiya qilinadigan mahsulot bo'yicha alohida hisob-kitob qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Hisobot davrida realizatsiya hajmi quyidagilarni tashkil qildi: ichki bozorga - 48 100 ming so'm, shu jumladan, 8 016,7 ming so'm QQS; eksportga - 35 200 ming so'm (QQSning nol darajali stavkasi). Bunda kontraktning umumiy summasidan 40% valuta tushumi kelib tushgan.

Topshiriq: ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan import xomashyo bo'yicha QQS summasi va eksport qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan, olib kirilgan xomashyo bo'yicha QQS summasini aniqlang.

11. Berilishi: 2009-yil oktyabr oyida prokuratura korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'adi. 2010-yil may oyida shahar sudi ularni avf qilish va jinoyat ishini ularning aybdorlilik masalasini hal qilmasdan tugatish to'g'risida qaror chiqardi. Mazkur qarorda omborlar, ishlab chiqarish tsexlari, shuningdek, qo'shma korxonaning asbob-uskunalari jinoyat quroli bo'lganligi belgilandi, ular davlat daromadiga berilishi ta'kidlandi. Biroq hozirgi vaqtgacha ushbu aktivlar davlat daromadiga topshirilmagan.

Topshiriq: Agar qaror chiqarilganidan keyin mol-mulkdan foydalanilmagan, u to'laligicha topshirishga tayyorlangan bo'lsa, korxona jinoiy ishlar bo'yicha shahar sudining ajrimiga binoan mol-mulk va yer soliqlarini hisoblab yozmaslikka haqli bo'ladimi? Fikringizni amaliy misollar bilan izohlang.

12. Berilishi: Korxona (XXTUT bo'yicha kodi 18121) asosan yog'-moy mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va umumdavlat soliqlarini to'laydi. 2010-yilda tuman hokimining qarori bilan Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidan qishloq xo'jaligini yuritish maqsadida 2 ta yer uchastkasi ajratildi. Birinchi uchastkaning maydoni 30,8 gektar bo'lib, sug'oriladigan ekinzor (20,4 gektar), sug'orilmaydigan yerlar (0,4 gektar) va qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilmaydigan yerlardan (10,0 gektar) iborat, boniteti 65 ball. Ikkinchi uchastkaning maydoni 0,5646 gektar bo'lib, yordamchi xo'jalik-chorvachilik fermasi uchun mo'ljallangan.

Topshiriq: Yuqorida sanalgan yerlarga 2010 va 2011-yillarda soliq solish tartibi qanday tarzda amalga oshirilgan?

13. Berilishi: 2011-yilning I choragida korxona, suv o'lchagich asboblarning ma'lumotlariga ko'ra, vodoprovod tarmog'idan 350 kub metr suv ishlatgan. Tegishlicha, yerusti manbalaridan 258,95 kub metr (350 x 81,7%), yerosti manbalaridan 64,05 kub metr (350 x 18,3%) suv ishlatilgan.

Topshiriq: Korxona budjetga 2011-yilning I choragida suv resurslaridan foydalanganlik uchun qancha soliq summasini to'lagan.

14. Berilishi: avval xususiylashtirilgan korxona yagona soliq to'lovchisi joriy yilning birinchi kvartalida tovarlar realizatsiya qilishdan 5 350 000 so'm oldi, mol-mulk va yer solig'ining summasi chorak hisobida mos ravishda 220 000 so'm va 354 000 so'mni tashkil etgan, deb hisoblaymiz. Mol-mulk solig'i o'tgan soliq davri uchun buxgalteriya balansi asosida aniqlanadi va chorak uchun hisoblab chiqariladi. Yer solig'i vakolatli organning yer uchastkalarini ajratib berish to'g'risidagi ma'lumotlari asosida aniqlanadi va chorak hisobida hisoblab chiqariladi.

Topshiriq: Joriy yil (chorak) uchun mol-mulk solig'i va yer solig'i summalarining belgilangan normativ miqdorini aniqlang

15. Berilishi: Korxona faoliyati to'g'risida quyidagi ma'lumtlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, faoliyat turlari bo'yicha				
			As.faol. turi-1	2	3	4	5
Hisobot oyi uchun (choragi) soliq solinadigan yalpi tushum	010	40018.4	38037.5	1980.9			
YaSTning belgilangan stavkasi	020	X	4%	33%			
Hisobot oyi uchun (choragi) YaSTning hisob- kitob summasi (010 satr X020 satr/100)	030						
Qat'iy belgilangan soliqning belgilangan stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorda)	040	X	10*62.920	X	X	X	X
Hisobot oyi uchun (choragi) YaSTning eng kam miqdori	050		X	X	X	X	X
Hisobot oyi uchun (choragi) uchun YaSTning qo'shimcha	060		X	X	X	X	X

hisoblangan summasi (050 satr – 030 satr)							
Oldingi hisobot davri uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi (oldingi ma'lumotnoma hisob-kitobining 080 satri)	070	-	X	X	X	X	X
Hisobot davri uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi (060 satr+070 satr)	080		X	X	X	X	X

Topshiriq: Jadvalning bo'sh qatorlarini to'ldiring.

16. Berilishi: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxona Angren shahrida faoliyat yuritgan. Shuningdek, quyidagi jadval ma'lumotlarida qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan:

Ijaraga olingan yer maydoni	2.5 gektar	
Yer uchastkasi joylashgan zona	2 zonada	
2011-yil yanvar-iyun oylaridagi yalpi tushum	520 000 sum	YaST 31 200 sum
2011-yil yanvar-sentyabr oylaridagi yalpi tushum	740 000 sum	YaST 44 400 sum
Yagona soliq to'lovi stavkasi	6%	
2 - zona uchun yer solig'i stavkasi	5 987 663 so'm/ga	
4 zona yer solig'ining eng kam stavkasi belgilangan zona	4 707 974 so'm/ga	
Ishlab chiqarish korxonalari uchun amalga oshirayotgan faoliyat turi bo'yicha kamaytiruvchi koeffitsiyent	0,5	
3 chorak uchun YaSTning eng kam miqdori		
3 chorak uchun YaSTning hisob- kitobi		

Topshiriq: 3 chorak uchun YaSTning eng kam miqdori va 3 chorak uchun YaSTning hisob- kitobini amalga oshiring.

17. Berilishi: Toshkent shahrida joylashgan 70 kv.metrga ega bo'lgan savdo zali bo'lgan minimarketda xodimlar sonining eng kam me'yori 6 kishini tashkil etadi. Shuningdek, quyidagi jadval ma'lumotlarida qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan:

Xodimlar soning eng kam me'yori	6 kishini
Direktor va buxgalter	2 kishi **Jami 8 kishi**
Chakana savdo tashkilotlari uchun mehnatga haq to'lashning o'rtacha razryadi	3
Chakana savdo tashkilotlari uchun mehnatga haq to'lashning o'rtacha 3-razryadiga to'g'ri keluvchi ta'rif koeffitsiyenti	2,998
Belgilangan eng kam ish haqi	49735 so'm
Mazkur mini market uchun mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori	
Haqiqatda minimarketda ishlovchilar soni	5
Haqiqatda minimarketda ishlovchilarga hisoblangan mehnatga haq to'lash fondi hajmi	
Agar eng kam me'yordan kam bo'lganda qo'shimcha hisoblanadigan to'lovlarning umumiy stavkasi	**39,5%** ▪ YaIT- 25%; ▪ Fuqorolarning sug'urta badallari 4,5%; ▪ Jismoniy shaxslar daromad solig'ining eng kam stavkasi 10%

Topshiriq: jadvalning bo'sh qatorlarini to'ldiring. Bunda mini market uchun mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori va haqiqatda minimarketda ishlovchilarga hisoblangan mehnatga haq to'lash fondi hajmini aniqlang.

18. Berilishi: Quyidagi jadval ma'lumotlarida kichik korxonaning balans moddalari bo'yicha mol mulkining holati aks ettirilgan:

Balans moddalari nomi	**Balans moddalari bo'yicha summalar**		
	31-yanvar holatiga	**28 fevral holatiga**	**31 mart holatiga**
Asosiy vositalar	1935	1950	1950
Nomoddiy aktivlar	-	-	-
Asosiy vositalarning eskirishi	115	90	100
Mol-mulk solig'i stavkasi	3,5%		
Soliq solinadigan mol- mulkning qoldiq qiymati			

Topshiriq: Jadvalning bo'sh qatorlarini to'ldiring. Bunda kichik korxonaning hisobot yilining I-choragi uchun soliq solinadigan mol-mulkning o'rtacha qiymati va mol-mulk solig'i summasini aniqlang.

19. Berilishi: Quyidagi jadval ma'lumotlarida kichik korxonaning kechiktirilib to'lanadigan yagona soliq to'lovi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Oylar / Ko'rsatkichlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	Jami
1.Yalpi tushum hajmi (2007-yil)	1968,6	4199,8	5905,9	4987,2	7612,1	8793,3	6430,9	8005,8	11155,67	14436,7	13911,78	12861,83	100269,78
2.Kechiktirilgan YaST hajmi	196,9	420,0	590,6	498,7	761,2	879,3	643,1	800,6	1115,6	1443,7	1391,2	1286,2	10026,98
3.Keyingi yil yalpi tushum hajmi (2008-yil)	4687,8	3884,2	3348,4	4375,3	4777,1	5580,7	5045,0	4777,1	5625,372	6384,35	5759,31	5982,539	60227,2
4.Joriy davr uchun YaST hajmi	375,0	310,7	267,9	350,0	382,2	446,5	403,6	382,2	450,0	510,7	460,7	478,6	4916,4
5.To'lanishi lozim bo'lgan YaST hajmi (kechiktirilgan YaST hajmi jami/12)													
6.To'lanishi lozim bo'lgan jami YaST hajmi (6)=(4)+(5)													
7.Joriy yildagi YaSTning yalpi tushumdagi og'irligi (foizda)													

Topshiriq: Jadvalning bo'sh qatorlarini to'ldiring. Bunda kichik korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan YaST hajmi, to'lanishi lozim bo'lgan jami YaST hajmi va joriy yildagi YaSTning yalpi tushumdagi og'irligini aniqlang.

20. Berilishi: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi «TRES» kichik korxonasining YaST to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	**2005 yil**	**2006 yil**	**2007 yil**	**2008 yil**	**2009 yil**
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	55102.1	164465.9	99400.3	60227.2	87629.2
Boshqa daromadlar	-	-	809.4	1227.25	1545.23
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	-	-	3719.9	-	-
Soliqqa solinadigan bazani kamaytirish	-	2810.1	3659.9	-	-
Soliqqa solinadigan baza – jami					
YaSTni belgilangan stavkasi	13%	13%	10%	8%	8%
YaST summasi – jami					

Topshiriq: Jadvalning bo'sh qatorlarini to'ldiring. Bunda kichik korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan YaST summasini hamda soliq solinadigan bazani aniqlang.

21.Berilishi: Kichik korxonaning olti oylik yakunlari bo'yicha foyda solig'ini to'lagandan keyingi foydasi 3980 ming so'mga teng bo'ldi. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha xarajatlar quyidagilarni tashkil etdi: birinchi kvartal uchun – 185,0 ming so'm; ikkinchi kvartal uchun joriy to'lovlar – 90 ming so'm. Korxona balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlariga ega emas.

Topshiriq: Birinchi yarim yillik uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi hamda budjetga to'lanishi lozim bo'lgan summani aniqlang.

22.Berilishi: Kichik korxonaning ikkinchi chorak yakunlari bo'yicha foyda solig'ini to'lagandan keyingi foydasi 900 ming so'mga teng bo'ldi. Shuningdek, korxona o'z bolalar bog'chasiga ega. Mazkur bog'chaga qilingan xarajatlar summasi 300 ming so'mga teng.

Topshiriq: Ikkinchi chorak uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bazasini hamda budjetga to'lanishi lozim bo'lgan summasini aniqlang.

23. Berilishi: Kichik korxona hisobot yilining yanvar oyida ro'yxatdan o'tgan. Birinchi yarim yillik yakun bo'yicha korxonada foyda solig'ini to'lashdan so'ng qolgan foyda miqdori 4 000 ming so'mga teng bo'ldi. Shuningdek, korxona o'z bolalar bog'chasiga ega. Mazkur bog'chaga qilingan xarajatlar summasi 300 ming so'mga, birinchi chorak uchun korxona tomonidan budjetga to'langan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi – 21 ming so'mga teng.

Topshiriq: Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda budjetga to'lanishi lozim bo'lgan summasini aniqlang.

24. Berilishi: Yagona soliq to'lovini to'lovchi kichik korxonaning asosiy faoliyat turi trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'lib, bir necha yer uchastkasiga ega, ma'muriy, ishlab chiqarish va savdo (firma do'koni) yuritilishi uchun egallagan xonalari: 1-son uchastka (1 200 kv.m (0,12 ga) maydonga ega ma'muriy bino) – Toshkent shahrining 7-zonasida joylashgan; 2-son uchastka (3 800 kv.m (0,38 ga) maydonga ega ishlab chiqarish xonalari) - Chirchiq shahrining 2-zonasida joylashgan; 3-son uchastka (1 500 kv.m (0,15 ga) maydonga ega firma do'koni) – Toshkent shahrining 6-zonasida joylashgan. O'zi ishlab chiqargan tovarlarning erkin almashtiriladigan valutada eksportning umumiy realizatsiyasi hajmidagi hissasi 50 % ni tashkil etadi. Ushbu korxonaning 2011-yilning yanvar-sentyabr oylari uchun ko'rsatkichlari quyidagicha:

(ming so'm)

Davr	**Soliq solinadigan yalpi tushum (YaST hisob-kitobining 040-satri)**	**YaST stavka**	**summa (YaST hisob-kitobining 120-satri)**
2011-yil yanvar-iyun oylari uchun	113 400	3%	3 402
2011-yil yanvar-sentyabr oylari uchun	170 100	3%	5 103

Topshiriq: 2011-yilning 1-iyulidan kiritilishini hisobga olib, YaSTning eng kam miqdorini uchinchi chorak (iyul-sentyabr) uchun hisoblang.

25. Berilishi: O'zining yoki ijaraga olingan omborxonalari mavjud bo'lmagan hamda mikrofirma va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan ulgurji savdo korxonasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining 7-zonasida joylashgan ko'p qavatli binoda ofis xonalarini ijaraga olgan. Binoning egallagan umumiy maydoni - 5 000 m^2. Yuridik shaxsning ijaraga olgan xonasiga to'g'ri keladigan ulushi - 0,3 ni tashkil etadi. Shunday qilib, yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini aniqlashda yer solig'i 1 500 m^2 (0,15 ga) dan kelib chiqib hisoblanadi. Ushbu korxonaning 2011-yilning yanvar-iyul oylari uchun ko'rsatkichlari quyidagicha:

(ming so'm)

Davr	Soliq solinadigan yalpi tushum (YaST hisob-kitobining 040-satri)	YaST stavka	summa (YaST hisob-kitobining 120-satri)
2011-yil yanvar-iyun oylari uchun	87 750	5%	4 387,5
2011-yil yanvar-iyul oylari uchun	91 845	5%	4 592,25

Topshiriq: YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni to'lash tartibi 2011-yilning 1-iyulidan kiritilishini hisobga olib, YaSTning miqdorini hisoblang.

26. Berilishi: Konsalting xizmatlari ko'rsatadigan tashkilot o'z xodimiga ta'mirlashdan qolgan, qiymati 420 ming so'm bo'lgan bo'yoqni 600 ming so'mga sotdi, to'lov uning ish haqidan ushlanadi. Tashkilot yagona soliq to'lovi to'lovchisidir (QQS to'lamaydi).

Topshiriq: Konsalting xizmatlari ko'rsatadigan kichik korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan YaST summasini aniqlang.

27. Berilishi: QQS to'lovchi korxona mamlakat ichida va eksportga realizatsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqaradi. Uni ishlab chiqarish uchun xomashyo keltirilib, uni bojxonada rasmiylashtirishda 12500 ming so'm QQS to'langan. Xomashyo olib kirilganida korxonada uning xarajatini eksportga va ichki bozorda realizatsiya qilinadigan mahsulot bo'yicha alohida hisob-kitob qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Hisobot davrida

realizatsiya hajmi quyidagilarni tashkil qildi: ichki bozorga - 48 100 ming so'm, shu jumladan, 8 016,7 ming so'm QQS; eksportga - 35 200 ming so'm (QQSning nol darajali stavkasi). Bunda kontraktning umumiy summasidan 40% valuta tushumi kelib tushgan. Xarid qilingan import xomashyosidan quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan: ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot - 18 000 ming so'mga, QQS - 3 600 ming so'm; eksport qilinadigan - 15 100 ming so'm, QQS - 3 020 ming so'm.

Topshiriq: ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan import xomashyo bo'yicha QQS summasi hamda eksport qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan, olib kirilgan xomashyo bo'yicha QQS summasini aniqlang.

28. Berilishi: Korxona (XXTUT bo'yicha kodi 18121) asosan yog'-moy mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va umumdavlat soliqlarini to'laydi. 2010-yilda tuman hokimining qarori bilan korxonaga Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidan qishloq xo'jaligini yuritish maqsadida 2 ta yer uchastkasi ajratildi. Birinchi uchastkaning maydoni 30,8 gektar bo'lib, sug'oriladigan ekinzor (20,4 gektar), sug'orilmaydigan yerlar (0,4 gektar) va qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilmaydigan yerlardan (10,0 gektar) iborat, boniteti 65 ball. Ikkinchi uchastkaning maydoni 0,5646 gektar bo'lib, yordamchi xo'jalik-chorvachilik fermasi uchun mo'ljallangan. **Topshiriq:** Yuqorida sanalgan yerlarga 2010- va 2011-yillarda soliq solish tartibi qanday? Korxona yer solig'i yoki yagona yer solig'ini hisob-kitob qilishi kerakmi va uning stavkalari qanday bo'ladi?

29. Berilishi: 2011-yilning I choragida korxona, suv o'lchagich asboblarning ma'lumotlariga ko'ra, vodoprovod tarmog'idan 350 m^3 suv ishlatgan. Tegishlicha, yerusti manbalari 81,7%ni, yerosti manbalari 18,3%ni tashkil etadi. 2011-yilda soliqning quyidagi stavkalari belgilangan: yerosti manbalaridan 1 m^3 suv uchun 37,9 so'm; yerusti manbalaridan 1 m^3 suv uchun 29,8 so'm.

Topshiriq: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.

30. Berilishi: Toshkentda oziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qiladigan chakana savdo korxonasining tushumi 2010-yilning 9 oyi ichida 155 000 ming so'mni tashkil qildi, shundan 117 000 ming so'mi plastik kartochkalarni qo'llagan holda olingan. 2010-yilning 6 oyida to'langan soliq summasi 4 900 ming so'mga teng. Korxona plastik kartochkalarni qo'llagan holda olingan amaldagi tushum summasidan soliqni 10%ga kamaytirish tarzida imtiyozga haqlidir.

Topshiriq: Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan YaSTni aniqlang.

31. Berilishi: Asosiy faoliyat turi yuk tashish (mashinalarning yuk ko'tara olishi - 10 t) bo'lgan korxonaning tushumi 2010-yilning 9 oyida 97 000 ming so'mni tashkil qildi, shundan 19 000 ming so'mi - xorijiy kompaniyalarga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha. 2010-yilning 6 oyi uchun to'langan soliq summasi 5 250 ming so'mga teng. Korxona soliq stavkasini amaldagi stavkaning 30%igacha kamaytirish tarzida imtiyoz huquqiga ega, chunki xizmatlar eksportining ulushi 20%ni (19 000 / 97 000 x 100%) tashkil qiladi.

Topshiriq: Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan YaSTni aniqlang.



MAVZULAR BO'YIChA TEST SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslarning foizlar tariqasida olgan daromadlari qanday daromad turlari kiradi?

A. Rag'batlantirish tusidagi daromadlar.
B. Mulkiy daromadlar.
C. Natura shaklida olingan ish haqi to'lovlari.
D. Boshqa daromadlar.

2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'idan imtiyozlar berilganda:

A. Shu oydan ko'llaniladi.
V. Keyingi oydan ko'llaniladi.
S. Keyingi yildan ko'llaniladi.
D. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Meros bo'lib o'tgan mol-mulk bo'yicha mol-mulk solig'i:

A. Meros ochilgandan so'ng merosxo'r tomonidan to'lanadi.
V. Meros qilib olingan mol-mulk soliqqa tortilmaydi.
S. Meros haqida hujjat rasmiylashtirilishdan oldin to'lanadi.
D. Bu merosning miqdoriga bog'liq.

4. Yuridik shaxslarning foyda solig'i solish obyektini aniqlashda jami daromaddan moliyaviy jarima va penya summalari chegirib tashlanadimi?

A. Chegirib tashlanadi.
B. Chegirib tashlanmaydi.
C. Faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashalandi.
D. Faqat penya summasi chegirib tashlanadi.

5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning alohida tartibi qaysi davlat idorasi tomonidan belgilanishi mumkin?

A. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.
B. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

6. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish obyektini ko‘rsating.

A. Foyda.
B. Daromad.
C. Yalpi tushum (tovaroborot).
D. Yalpi daromad.

7. O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lov qachon joriy qilingan?

A. 1998-yil 1-yanvar.
B. 1995-yil 1-yanvar.
C. 1992-yil 1-yanvar.
D. 2004-yil 1-yanvar.

8. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?

A. Aksiz solig‘i.
B. Yer solig‘i.
C. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
D. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.

9. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?

A. O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
B. O‘zbekiston Respublikasida olgan manbalaridan.
C. O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
D. Soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra to‘lanadi.

10.Xayriya maqsadlariga o‘tkazilgan mablag‘lar soliqqa tortiladimi?

A. Tortilmaydi.
B. Soliq solinadigan foydaning 2 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.
C. Soliq solinadigan foydaning 1 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

D. Soliq solinadigan foydaning 5 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

11.Qaysi javobda korxonaning maqsadli jamg'armalariga o'tkazadigan to'lovlari berilgan?

A. Qo'shilgan qiymat solig'i.
B. Yagona ijtimoiy to'lov.
C. Davlat bojlari.
D. Yer solig'i.

12. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig'idan ozod etilmagan?

A. Uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar.
B. I va II guruh nogironlari.
C. Yaylov chorvachiligining cho'ponlari.
D. Yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar.

13. 1-2-guruh nogironlari uchun daromad solig'i bo'yicha qanday imtiyoz ko'zda tutilgan?

A. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.
B. Soliqqa tortiladigan daromad 50 foizga kamaytiriladi.
C. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foiz, agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo'lsa, kamaytiriladi.
D. Har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi.

14. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

A. 1991-yil 1-yanvardan.
B. 1992-yil 1-yanvardan.
S. 1995-yil 1-yanvardan.
D. 1999-yil 1 martdan.

15. Korxona ishchisi o'tgan yilning sentyabr oyidan beri ushbu korxonada ishlaydi. Avgust oyida xodim tomonidan Shifokorlik-mehnat ekspertiza komissiyasining unga 25-martdan II guruh nogironligi belgilanganligi to'g'risida ma'lumotnoma

taqdim etildi. Avgust oyi uchun daromad solig'ini hisoblashda qaysi davrdan boshlab unga imtiyoz qo'llaniladi?

A. Yil boshidan bo'lgan davr uchun.

V. 25 martdan boshlab.

S. 1 martdan boshlab.

D. Faqat avgust oyidan boshlab.

16. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?

A. Davlat budjetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

B. Davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.

C. Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.

D. Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

17. Soliq stavkalarini qaysi vakolatli davlat organi qarori bilan tasdiqlanadi?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

B. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

C. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.

D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi.

18. Quyidagilarning qaysi biri soliq obyekti bo'la oladi?

A. Korxona va tashkilotlarning smeta rejasi.

B. Korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijasi.

C. Kreditorlik qarzlari.

D. Budjet subsidiyalari.

19. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?

A. Foiz, dividend, mol-mulkni ijaraga berishdan kelgan daromadlar.

B. Mehnatga haq to'lash shaklida olingan daromad.

S. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.

D. Omonatdan olingan foizlar.

20. Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa:

A. U faqat bir marta daromaddan chegiriladi.

B. Har bir toifasi bo'yicha alohida chegiriladi.

C. Chegirma qilinmaydi.

D. Xarajatlar belgilangan me'yor darajasida chegiriladi.

21. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish obyekti nima?

A. Tovar (ish, xizmatlar) sotilishiga doir oborotlar hamda tovar (ish, xizmatlar) importi.

B. Muomala xarajatlari.

C. Ishlab chiqarish tannarxi.

D. Soliq to'langunga qadar moliyaviy natija.

22. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to'laydi?

A. Ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga.

B. Davlat soliq qo'mitasiga.

C. Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga.

D. Ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuvga muvofiq.

23. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar sotish qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladimi?

A. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

B. 20 foizli stavkada solqqa tortiladi.

C. Nol stavka bo'yicha tortiladi.

D. Kamaytirilgan stavkalar qo'llaniladi.

24. Foydalanilmagan ta'til uchun beriladigan tovon pullaridan daromad solig'i undiriladimi ?

A. Daromad solig'i undirilmaydi.

V. Umumiy tartibda daromad solig'i undiriladi.
S. Daromad solig'i eng past stavkada undiriladi.
D. To'g'ri javob yo'q.

25.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarni aniqlang.
A. Yuridik shaxslar
B. Jismoniy shaxslar
C. Yuridik va jismoniy shaxslar
D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

26. Yagona soliq to'lovini to'lovchilarini aniqlang.
A. Yuridik shaxslar
B. Jismoniy shaxslar
C. Banklar va sug'urta kompaniyalari
D. Mikrofirma va kichik korxonalar (shu jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari)

27.Qaysi javobda mol-mulk solig'ining soliqqa tortish obyekti berilgan?
A. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar
B. Kapital qo'yilmalar, ustav kapitali
C. Kapital qo'yilmalar
D. Pul mablag'lari

28.Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga:
A. Kiritiladi.
B. Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi.
C. Kiritilmaydi.
D. Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi.

29. Aksiz markalarining joriy etilish yilini ko'rsating.
A. 1992-yil 1-yanvar.
B. 1993-yil 6-may.
C. 1995-yil 1-yanvar.

D. 1996-yil 1-oktyabr.

30. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadimi?

A. Mol-mulk solig‘ini belgilangan tartibda to‘laydilar.

B. Mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari hisoblanishmaydi.

C. Ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to‘laydilar.

D. Faqat asosiy vositalari bo‘yicha to‘laydilar.

31. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘laydi.

A. Savdo korxonalari.

B. Umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi korxonalar.

C. Ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar.

D. Yagona yer solig‘i to‘lovchi qishloq xujaligi korxonalari.

32. Agar infratuzilma obyektlarini saqlash xarajatlari summasi obodonlashtirish ishlari va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasidan oshib ketsa, korxona:

A. Soliqni to‘laydi.

B. Soliqni to‘lamaydi.

C. Past stavkalarda to‘laydi.

D. Xarajatlarning oshgan summasiga kamaytirgan holda to‘laydi.

33. O‘zbekiston rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘ini qaysi sanagacha to‘lashlari lozim?

A. 1-aprel.

B. 1-may.

C. 1-iyun.

D. 1-sentyabr.

34. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri umumdavlat solig‘i hisoblanadi?

A. Yer solig‘i.

B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.

C. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.

D. Mol-mulk solig‘i.

35. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to‘laydi?

A. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

B. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.

C. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

D. Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

36. Da’vo qilishning umumiy muddati qancha?

A. 1 yil.

B. 2 yil.

C. 3 yil.

D. 4 yil.

36. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarini kim belgilaydi?

A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

S. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.

37. Yer solig‘ini joriy etishdan maqsad nima?

A. Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash.

B. Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish.

S. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish.

D. Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash.

38. Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya topshiradi?

A. Hamma toifadagi fuqarolar.

B. Ikki va undan ortiq daromad manbayiga ega bo'lgan hamma toifadagi fuqarolar.

S. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

D. Faqat o'rindoshlik bo'yicha ishlovchi va o'rindoshlik joyidan maksmal stavkada soliq to'laganlar.

39. Ko'chirib keltirilgan fuqarolarga yer solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar berilgan?

A. Uch yilga yer solig'idan ozod qilingan.

V. Ikki yilga yer solig'idan ozod qilingan.

C. Besh yilga yer solig'idan ozod qilingan.

D. Yer solig'idan imtiyozga ega emas.

40. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'lamaydi?

A. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

B. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.

S. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

D. tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan fuqarolar.

41. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan?

A. 1991-yil 15-fevraldan.

B. 1992-yil 1-yanvardan.

S. 1993-yil 6-maydan.

D. 1997-yil 24 apreldan.

42. Jazoni ijro etuvchi muassasalar foyda solig'iga tortiladimi?

A. 18 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

B. Foyda solig'idan ozod etiladi.

S. 35 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
D. 3 yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

43. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda nollik stavka qachon qo'llaniladi?

A. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga.
B. Stenografiya xizmatlariga.
S. Geologiya va topografiya ishlariga.
D. Ma'lumotlarni ishlash va axborot ta'limotiga doir xizmatlariga.

44. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida.
B. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan.
S. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan.

45. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'ini.....

A. Ixtiyoriy ravishda to'lashga o'tishlari mumkin.
B. Umumbelgilangan tartibda to'lashga majbur.
S. Nollik stavkada to'laydilar.
D. Pasaytirilgan stavkada to'laydilar.

46. Aksiz solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

A. Har chorakda.
B. Har 15 kunlikda.
S. Har 10 kunlikda.
D. 1 yilda 1 marta.

47. Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash muddatlarini aniqlang.

A. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar.
B. Har chorakda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan.

S. Yillik hisobotlarni topshirish muddatiga qadar.
D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar.

48. Korxona soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qarori yoki dalillangan rad javobi davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?
A. Ariza bergan kundan boshlab 5 kun mobaynida.
B. Ariza bergan kundan boshlab 10 kun mobaynida.
S. Ariza bergan kundan boshlab 1 oy mobaynida.
D. Ariza bergan kundan boshlab 3 kun mobaynida.

49. Yagona soliq to'lovining obyekti nima?
A. Korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda.
B. Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq.
S. Davr xarajatlari.
D. Yalpi tushum.

50. Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?
A. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga.
B. Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga.
S. Berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotga.
D. Vino va vinomateriallariga.

51. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromadlari daromad solig'idan ozod qilingan?
A. Olingan alimentlar.
B. Ish haqi to'lovlari.
S. Ijara to'lovlari.
D. Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromad.

52. Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan norezident O'zbekistonda olgan daromadlaridan qaysi stavkalarda daromad solig'i undiriladi?
A. Yuqori stavkada.
V. O'rtacha stavkada.
S. Chegirmalarsiz 8 foizli stavkada.
D. Umumiy belgilangan stavkada.

53. Yuridik shaxslar uchun foyda solig'i qachon joriy etilgan?

A. 1991-yil 1-yanvardan.
B. 1992-yil 14-yanvardan.
S. 1993-yil 6-maydan.
D. 1995-yil 1-yanvardan.

54. Aksiz solig'i stavkalari va aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati qaysi vakolatli organ tomonidan belgilanadi?

A. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
B. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
S. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

55. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?

A. O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
B. O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan.
S. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi.

56. Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar soliqqa tortiladimi?

A. Soliqqa tortiladi.
B. Ozod etiladi.
S. Qisman soliqqa tortiladi.
D. Imtiyozli stavkalarda tortiladi.

57. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan mikrofirma va kichik korxonlar quyidagi qaysi soliqlarni to'laydilar?

A. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.
B. Suv resurlaridan foydalanganlik uchun soliq.

S. Yer solig'i.
D. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

58. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

A. Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.
B. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari.
C. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar.
D. Foiz va dividend ko'rinishida olingan daromadlar.

59. Muddati o'tgan kreditor va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladimi?

A. Soliqqa tortilmaydi.
B. 1 yildan so'ng soliqqa tortiladi.
S. Soliqqa tortiladi.
D. Faqat kreditor qarzdorlik soliqqa tortiladi.

60. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i hisoblashda noqulay tabiiy iqlim sharoiti uchun beriladigan qo'shimcha haqlar qaysi stavkada soliqqa tortiladi:

A. Eng yukori stavkada.
V. Eng kam stavkada.
S. 10 foizli stavkada.
D. To'g'ri javob yo'q.

61. Kichik korxonalar to'laydigan soliqlarni qonuniy kamaytirishga erishish...ning maqsadi hisoblanadi.

A. Mikro darajadagi coliq menegmenti.
V. Korxona pul oqimlarini budjetlashtirish.
S. Davlat moliyaviy siyosati.
D. Davlat iqtisodiy siyosati.

62. Rentabelli faoliyatni ta'minlash uchun micro darajadagi soliq menejmentida...siyosatini amalga oshirish lozim.

A. Korxona moliyaviy va soliqli rejalashtirish.

V. Pul oqimlarini budjetlashtirish.
S. Davlat moliyaviy siyosatining maqsadi.
D. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi.

63. Micro darajadagi soliq menegmentida foydani maksimallashtirish..... maqsadi hisoblanadi.
A. Korxonaninig moliyaviy va coliqli rejalashtirishning.
V. Korxona pul oqimlarini budjetlashtirishning maqsadi.
S. Davlat moliyaviy siyosatini.
D. Davlat iqtisodiy siyosatini.

64. Kichik korxonalarda soliqli rejalashtirishning qanday turlari mavjud?
A. Strategik va joriy moliyaviy rejalashtirish.
V. Taktik va joriy moliyaviy rejalashtrish.
S. Pul oqimlarini rejalashtirish va tahlil.
D. Istiqbolli moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirish.

65. Kichik korxonalarda soliqlarni to'lash kalendarini tuzish va amalga oshirish jarayoni nimani anglatadi?
A. soliqli rejalashtirish.
V. Soliq nazorat.
S. Moliyaviy menejment.
D. Moliyaviy rag'batlantirish va moliyaviy siyosatni anglatadi.

66. Mikro darajadagi soliq menejmentida kichik korxonalarning debitorlik qarzi:
A. Muomala fondlarini tashkil etadi.
V. Ishlab chikarish fondlarini tashkil etadi.
S. Moliyaviy mexanizmini tashkil etadi.
D. Asosiy vositalar bo'yicha qarzdorlik.

67. Mikro darajadagi soliq menejmentida kichik korxonalar aktivlari qanday tarkiblanadi?
A. Aylanmadan tashqari aktivlar va aylanma aktivlar.
V. Xususiy kapital va majburiyatlar.
S. Xususiy kapital va aylanmadan tashqari aktivlar.
D. Aylanmadan tashqari aktivlar va majburityatlar.

68. Mikro darajadagi soliq menegmentida xususiy kapital elementlari qanday tarkiblanadi?

A. Hissadorlik kapitali, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qo'shilgan kapital.

V. Qisqa muddatli majburiyatlar, kreditorlik qarzlari, bank kreditlari.

S. Hissadorlik kapitali, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qo'shilgan kapital, kreditorlik qarzlar.

D. Zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qo'shilgan kapital, bank kreditlari.

69. Korxona soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qarori yoki dalillangan rad javobi davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?

A. Ariza bergan kundan boshlab 10 kun mobaynida.

V. Ariza bergan kundan boshlab 5 kun mobaynida.

S. Ariza bergan kundan boshlab 1 oy mobaynida.

D. Ariza bergan kundan boshlab 3 kun mobaynida.

70. Kichik korxonalar zimmasidagi soliq yukiga tasir etuvchi omillarni aniqlang.

A. Korxona tanlagan soliqqa tortish tizimida to'laydigan soliqlar, yig'imlar va budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar soni va hajmi.

V. Korxona to'laydigan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalarning amaldagi stavkalari darajasi.

S. Korxona to'laydigan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar bo'yicha belgilangan imtiyozlar va ularning amal qilish shartlariga; korxona to'laydigan soliqlar va yig'imlarning soliqqa tortish bazasining shakllanish xususiyatlariga.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

71. 1.korxonaning faoliyat doirasini, tadbirkorlik g'oyasining aniq maqsadi va vazifalarini shakllantirish. 2. soliqqa tortish nuqtayi-nazaridan korxona rahbariyati, uning filiallari, sho'ba korxonalarini, ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladigan obyektlarni joylashgan joyini aniqlash va joylashtirish. 3. korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini aniqlash va tanlangan

faoliyat shaklini soliqqa tortish tizimlari bilan o'zaro bog'liqligini baholash hamda soliqlarni to'lash borasidagi samaralisini tanlash. 4. korxonaning soliq chegarasini belgilashni shakllantirish. 5. korxonada buxgalteriya va soliq hisobini amalga oshirishda foydalaniladigan xo'jalik operatsiyalarini aks ettiruvchi jurnal tuziladi hamda korxonaning shartnomaviy aloqalari tizimi shakllantirish. 6.turli xil ko'rinishdagi soliq jarayonlarini tahlil etish, moliyaviy yo'qotishlarni inobatga olgan holdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning taxminiy ketma ketligini aniqlang.

A. 1,2,3,4,5.
V. 1,4,3,2,5.
S. 2,5,3,1,4.
D. 1,2,3,5,4.

72. Kichik korxonalarda soliqlarni rejalashtirish natijasida ....

A. Foydani maksimallashtirishga erishiladi.
V. Xarajatlarni minimallashtirishga erishiladi.
S. Soliq turlari bo'yicha to'lovlarni qonuniy ravishda kamaytirishga erishiladi.
D. Barcha javoblar to'g'ri.

73. Makroiqtisodiy darajada soliq yuki darajasini qaysi yo'llar orqali kamaytirish mumkin?

A. Soliq turlarini kamaytirish orqali.
V. Soliq imtiyozlarini ko'paytirish orqali.
S. Soliqqa tortish mexanizmini optimallashtirish orqali.
D. Barcha javoblar to'g'ri.

74. Soliqlarni rejalashtirish bu....

A. «Iqtisodiy subyekt faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy subektning kelgusidagi faoliyatining maksimal daromadli bo'lishiga erishishi bilan bog'liq bo'lgan hamda faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan rejalarni ishlab chiqish ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalaridir».

V. «Subektning kelgusidagi faoliyatining maksimal daromadli bo'lishiga erishishi bilan bog'liq bo'lmagan hamda faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan rejalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalaridir».

S. «Iqtisodiy subekt faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olmagan rejalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalaridir».

D. To'g'ri javob yo'q.

75. Kichik korxonalarda soliq ma'murchiligi xarajatlarini kamaytirish orqali.....

A. Ular zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirishga erishiladi.

V. Korxona foydasini maksimallashtirishga erishish mumkin.

S. Korxona o'z mablag'larini reinvestitsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.



Muhokama uchun ma'lumotlar

1-ilova

«O'zelektromontaj ITSB» kichik korxonasining umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblarida to'lagan soliqlari tahlili[73]

(ming so'mda)

Budjetga to'langan soliqlar va yig'imlar	**2005 yil**	**2006 yil**	**2007 yil**	**2008 yil**	**2009 yil**
Mahsulot(ish,xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan sof tushum	193368,0	264486,0	321935,0	313041,4	335279,4
Foyda (daromad) solig'i Shu jumladan:	31212,0	39507,0	-	-	-
Yuridik shaxslardan	3216,0	4105,0	-	-	-
Jismoniy shaxslardan	27996,0	35402,0	32567,0	37526,0	34533,0
Yagona soliq to'lovi	-	-	14432,0	14720,0	16009,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	40367,0	54061,0	70494,0	90267,0	94142,0
Ekologiya solig'i	1856,0	-	-	-	-
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	14,0	19,0	-	-	-
Mol-mulk solig'i	542,0	473,0	189,0	-	-
Yer solig'i	6199,0	9299,0	-	-	-
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	87,0	383,0			
Yagona ijtimoiy to'lov	-	-	40235,0	45317,0	56303,0
Budjetga to'langan jami soliqlar va majburiy ajratmalar	**80277,0**	**103742,0**	**157917,0**	**187830,0**	**200987,0**
Budjetga to'langan jami soliqlar va majburiy ajratmalarning sof tushumdagi ulushi (%da)	**41,5**	**40,0**	**49,0**	**60,0**	**60,0**

[73] «O'zelektromontaj ITSB» кичик корхонасининг мазкур йиллардаги молиявий ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

2-ilova

Soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi[74]

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	Yillar				
		1998	2000	2008	2009	2010
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	35,0	31,0	10,0	10,0	9,0
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15,0 % 25,0 % 36,0 % 40,0 % 45,0 %	15,0% 25,0% 36,0% 40,0%	13,0 % 18,0 % 25,0 %	12,0% 17,0% 22,0%	11,0 % 17,0 % 22,0 %
3.	Qo'shilgan qiymat solig'i	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0
4.	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	-	15,0	8,0	8,0/7,0	7,0
5.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,1	0,25	0,5	0,5	0,5
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,0	4.0	3,5	3,5	3,5
7.	Yagona yer solig'i	-	1,5	2,8	3,5	5,0
8.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8,0	8,0	8,0	8,0	8.0
9.	Yagona ijtimoiy to'lov	40,0	40,0	24,0	24,0	25,0
10.	Fuqarolarning Pensiya jam g'armasiga sug'urta badallari	1,5	2,5	2,5	3,5	4,0
11.	Pensiya jamg'armasiga maj buriy ajratmalar	0,5	0,7	0,7	1,0	1,5
12.	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar	1,4	1,5	1,5	1,5	1,5
13.	Maktab ta'limini rivoj lantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar	-	-	1,0	1,0	0,5

[74] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur yillardagi qarorlaridan foydalanilgan holda tuzildi.

3-ilova

2009-yilda «ALFA-DENT» kichik korxonasining soliq ma'murchiligini amalga oshirishi uchun sarflagan yillik xarajatlari tahlili[75]

№	Xarajatlar turlari	Xarajatlar qiymati (so'mda)
1.	Statistik hisobotlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar (sh.j.statistik hisobotlarning barcha shakllarini to'ldirganligi uchun mutaxassisning ish haqi)	39869
2.	«Xalq» banki, davlat soliq va statistik organlariga tashrif buyurishi bilan bog'liq xarajatlari (shu jumladan, xodimning yo'lga, navbat kutib turishga, qabulga sarflagan vaqti uchun to'lov)	47671
3.	Soliq hisobotlarini tayyorlash bilan bog'liq xarajatlari (shu jumladan, statistik hisobotlarning barcha shakllarini to'ldirganligi uchun mutaxassisning ish haqi)	47798
4.	Soliq tekshiruvlari bilan bog'liq xarajatlari (sh.j. korxona xodimlarini tekshiruvchilar bilan muzokaralari, tekshiruvchilar uchun ma'lumotlar va tushuntirish xatlarini tayyorlash uchun sarflagan vaqti uchun to'lovlar, qo'shimcha maslahatchilarni jalb qilish xarajatlari, sud xarajatlari (moliyaviy sanksiyalar xarajatlaridan tashqari))	55071
5.	Schyot - fakturlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	61928
6.	Soliqlar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini amalga oshirish va soliq turlari bo'yicha hisob-kitoblarni tayyorlash xarajatlari (shu jumladan, xodimni asosiy kitobni to'ldirish, buxgalteriya provodkalarini berish va soliq turlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish xarajatlari)	70251
7.	Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlari (shu jumladan, xodimning moliyaviy hisobotning barcha shakllarini to'ldirish haqi xarajatlari)	94822
8.	Soliqlarni to'lash bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlari (shu jumladan, amaldagi soliq qonunchiligini o'rganish uchun xodimlariga to'lov, soliqqa tortish masalalari bo'yicha soliq organlari tomonidan amalga oshirilgan maslahatlar uchun to'lovlar, soliq qonunchiligi aks ettirilgan o'quv-tahliliy adabiyotlarni harid qilish xarajatlari)	162135
9.	Boshqa xarajatlar (shu jumladan, soliq, moliyaviy va statistik hisobot blankalari va shakllarini sotib olish xarajatlari)	21592
	Jami xarajatlar	**601137**

[75] 2009 йилда "ALFA-DENT" кичик [illegible] бирламчи [illegible] асосида муаллиф томонидан тузилган.

4-ilova

O‘zbekiston respublikasi KBXTlarining YaIMdagi ulushini 1ta ishlayotgan xodimga to‘g‘ri kelishining taqsimlanishi

Ko‘rsatkichlar	2006			2010		
	YaIM va YaHM	YaIM va YaH-Mga nisbatan KBXTlarning ulushi	YaIM va YaH-Mga nisbatan KBXTlarning ulushi %da	YaIM va YaHM	YaIM va YaH-Mga nisbatan KBXTlarning ulushi	YaIM va YaHMga nisbatan KBXTlarning ulushi %da
O‘zbekiston	20759,3	8739,7	42,1	61831,2	32461,4	52,5
Qorakolpog‘iston	554,4	291,6	52,6	1389,8	882,5	63,6
Andijon	1405,0	642,1	45,7	3679,6	2012,7	54,7
Buxoro	1213,7	657,8	54,2	3376,0	2164,0	64,1
Jizzax	625,4	421,5	67,4	1389,1	1073,8	77,3
Qashqadaryo	1642,6	727,7	44,3	4865,1	2675,8	55,0
Navoiy	1259,3	293,4	23,3	3276,6	1127,2	34,4
Namangan	791,4	429,9	62,3	2426,6	1333,8	76,0
Samarqand	1379,7	910,6	66,0	3813,1	2806,4	73,6
Surxandaryo	916,4	568,2	62,0	2229,3	1598,4	71,7
Sirdaryo	375,0	258,4	68,9	1008,3	780,4	77,4
Toshkent	2047,3	904,9	44,2	5571,1	3047,4	54,7
Farg‘ona	1590,0	787,1	49,5	4095,5	2436,8	59,5
Xorazm	748,6	470,1	62,8	1944,1	1395,9	71,8
Toshkent shahri	2736,2	1316,1	48,1	9820,1	4900,3	49,9
Jami iqtisodiyotda va KBXTlarda band bo‘lganlar(ming)	10467,0	7258,6	69,3	11628	8639,3	74,3
1ta xodimga YaIMning taqsimlanishi	1983,0	1204,0	60,7	5317,4	3757,4	70.6

5-ilova

Kichik biznes subyektlari tomonidan to'langan soliqlar dinamikasi tahlili[76](foizlarda)

Viloyatlar	01.01.2007-yil			01.01.2008-yil			01.01.2009-yil			01.01.2010-yil			01.01.2011-yil		
	Yagona soliq to'lovi	Kichik korxona savdo va umum	Korxonalar savdo va umum	Yagona soliq to'lovi	Kichik korxona savdo va umum	Korxonalar savdo va umum	Yagona soliq to'lovi	Kichik korxona savdo va umum	Korxonalar savdo va umum	Yagona soliq to'lovi	Kichik korxona savdo va umum	Korxonalar savdo va umum	Yagona soliq to'lovi	Kichik korxona savdo va umum	Korxonalar savdo va umum
Andijon	3,6	0,0	0,0	4,5	5,2	4,1	5,0	4,7	3,4	5,2	4,2	3,0	4,8	5,2	2,2
Buxoro	5,1	0,0	0,0	5,9	4,6	2,2	5,2	4,4	3,4	5,0	4,5	4,7	4,9	4,4	4,6
Jizzax	3,0	0,0	0,0	2,2	1,7	1,0	2,5	1,7	0,7	2,3	1,8	0,4	2,2	1,4	0,4
Qashqadaryo	7,0	0,0	0,0	6,0	4,4	2,4	6,1	4,8	3,2	5,4	4,8	3,6	4,9	4,1	2,7
Navoiy	3,7	0,0	0,0	3,3	2,6	0,8	3,2	2,4	0,6	2,6	3,1	0,7	2,5	2,2	0,8
Namangan	3,2	0,0	0,0	3,5	4,3	2,4	3,6	3,8	2,6	3,5	4,3	2,5	4,0	4,8	2,0
Samarqand	5,7	0,0	0,0	5,5	8,1	6,4	5,0	8,0	6,3	4,9	9,5	5,4	5,1	7,7	5,0
Surxandaryo	3,1	0,0	0,0	3,1	2,1	1,5	2,8	2,5	2,1	2,8	2,7	2,3	2,5	2,3	1,9
Sirdaryo	1,5	0,0	0,0	1,7	1,5	0,4	1,6	1,7	0,9	1,6	1,9	0,6	1,7	1,5	1,3
Toshkent shahri	40,0	0,0	0,0	39,0	45,7	59,6	39,0	46,2	53,9	42,6	42,5	56,0	43,5	48,5	63,9
Toshkent	12,6	0,0	0,0	11,8	8,2	13,0	12,2	8,5	16,6	10,6	8,0	15,7	10,9	6,9	10,3
Farg'ona	5,4	0,0	0,0	6,4	7,0	2,8	7,1	6,4	2,8	7,2	7,2	2,2	7,3	5,9	2,5
Xorazm	3,6	0,0	0,0	3,9	3,1	1,5	4,1	3,0	1,5	4,1	3,1	1,3	3,7	2,6	1,2
Qaraqalpog'iston Respublikasi	2,4	0,0	0,0	3,3	1,7	1,7	2,6	1,9	1,8	2,2	2,2	1,6	2,1	2,2	1,2
Jami	100,0	0,0	0,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Jami (mln.so'mda)	**139, 4**	**0,0**	**0,0**	**202,9**	**142, 7**	**55, 3**	**285, 0**	**238, 9**	**85,8**	**382, 4**	**290,1**	**131,3**	**477, 0**	**519,4**	**235,9**

[76] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг ҳисобот маълумотлари асосида тадқиқотчи томонидан тузилган.

6-ilova

«ALFA-DENT» kichik korxonasida yagona soliq to'lovi hisob-kitobi[77]

Ko'rsatkichlar	2007-yil				2008-yil				2009-yil			
	Jami	shu jumladan, faoliyat turlari bo'yicha			Jami	shu jumladan, faoliyat turlari bo'yicha			Jami	shu jumladan, faoliyat turlari bo'yicha		
		asosiy faoliyat turi - 1	2	3		asosiy faoliyat turi - 1	2	3		asosiy faoliyat turi - 1	2	3
Tovar (ish, xizmat) larni realizatsiya qilishdan sof tushum	987164560	691859668	289561177	5743715	1703015475	1589032414	112893249	1089812	1402605837	1259752309	142750528	103000
Faoliyat turlari bo'yicha tushumning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan jami tushum dagi salmog'i, %da	100	70	29	1	100	93.3	6.6	0.1	100	89.8	10.2	
Boshqa daromadlar	1356 2275	12014028	X	X	12733293	12733293	X	X	13195428	13195428		
Soliqqa tortiladigan yalpi tushum	1000726835				1715748968	1601765707	112893249	1089812	1415801265	1272947737	142750528	103000
Imtiyozlar – jami	180431066				1053311723	1051340330	1941969	29424	802570197	802570197		
shu jumladan: soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish					1053311723	1051340330	1941969	29424	802570197	802570197		
Soliqqa solinadigan baza – jami	524990877	524990877			662437045	550425377	110951280	1060388	613231068	470377540	142750528	103000
plastik									1332000	1229000		103000

[77] «APITEKS» кичик корхонасининг мазкур йиллардаги хисобот маълумотлари асосида тузилган.

kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlar xajmidan olingan tushumdan												
shu jumladan, hisoblan gan: 0601-satr bo'yicha olingan tushum chegirilgan holdagi tushumdan					662437045	550425377	110951280	1060388	611899068	469148540	142750528	
Yagona soliq to'lovini belgilangan stavkasi	X	10%	5%	33%	X	8%	5%	33%	X	7%	5%	4%
Yagona soliq to'lovini tuzatilgan stavkasi	X	5%			X	5.6%						
eksport qiluvchi korxonalar uchun eksport ulushiga nisbatan,%da	X				X	5.6%				4.9%	5%	4%
xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan tushumga nisbatan, %da										4.41%		3.6%
Yagona soliq to'lovi summasi – jami	42623036	26249543	14478058	1895435	36721313.2	30823821.1	5547564	349928.1	30183712	23042478	7137526	3708
Avvalgi davr	25240387	X	X	X	31087536.2	X	X	X		X	X	X

uchun hisob-kitob bo'yicha yagona soliq to'lovining hisoblangan summasi									14627012			
Umumbelgilangan soliq lar bo'yicha qayta hisob-kitob qilishdagi qo'shimcha to'lanadigan yagona soliq to'lovi		X	X	X	5633777	X	X	X	15556700	X	X	X
O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlanti rish jamg'armasiga o'tkaziladigan yagona soliq to'lovi summasi	**2131151.8**	X	X	X	**1836065.66**	X	X	X	**1509185.6**	X	X	X

7-ilova

«O‘zelektromontaj ITSB « kichik korxonasida ixtiyoriy ravishda to‘lagan QQS va yagona soliq to‘lovini hisobga olish tartibi tahlili[78]

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2007-yil			2008-yil			2009-yil		
	Jami	faoliyat turlari bo‘yicha		Jami	faoliyat turlari bo‘yicha		Jami	faoliyat turlari bo‘yicha	
		Asos.faol. turi – 1	2		Asos.faol tur – 1	2		Asos.faol. turi – 1	2
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	264763,9	260984,8	3779,2	319902,1	313041,4	6860,8	340912,5	335279,4	5633,1
Faoliyat turlari bo‘yicha tushumning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan jami tushumdagi salmog‘i, %da	100	98.6	1.4	100	97.9	2.1	100	98.3	1.7
Boshqa daromadlar	23881,3	23881,3	-	48087,7	48087,7	-	400222,0	394588,9	-
Soliqqa tortiladigan yalpi tushum	288645,3	284866,1	3779,2	367989,8	361129,1	-	400222,0	394588,9	5633,1
Soliqqa solinadigan baza – jami	288645,3	284866,1	3779,2	367989,8	361129,1	6860,7	400222,0	394588,9	5633,1
Yagona soliq to‘lovini belgilangan stavkasi	x	10%	10%	x	8%	8%	x	8%	8%
Yagona soliq to‘lovi summasi – jami	28864,5	28486,6	377,9	29439,2	28890,3	548,9	32017,8	31567,1	450,6

[78] «O‘zelektromontaj ITSB » хичик корхонасининг мазкур йиллардаги молиявий хисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi	**70494,7**	x	x	**90267,3**	x	x	**94141,9**	x	x
Yagona soliq to'lovi summasini kamaytiradigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi	**14432,3**	x	x	**14719,6**	x	x	**16008,9**	x	x
Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi	14432,3	x	x	14719,6	x	x	16008,9	x	x
O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladigan yagona soliq to'lovi summasi	721613,25	x	x	735979,65	x	x	800444,05	x	x

* 2005-2006-yillarda «O'zelektromontaj ITSB « kichik korxonasi umumbelgilangan soliqqa tortish tartibida faoliyat yuritgan.

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I bob	Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining predmeti va vazifalari.....	5
1.1.	«Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish» fanining predmeti va oldiga qo'ygan asosiy vazifalari.....	5
1.2.	Fanni o'rganishning zaruriyati hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.....	7
1.3.	Fanni tadqiq etish va uning asosiy manbalari.....	9
II bob	O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni va rivojlanish bosqichlari...	13
2.1.	*O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va* xususiy tadbirkorlikning roli	13
2.2.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari.....	42
2.3.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.....	63
III bob	Kichik biznes subyektlari tomonidan Davlat budjetiga to'lanadigan umumdavlat soliqlar va ularning o'ziga xos jihatlari.....	80
3.1.	Umumdavlat soliqlarining tarkibiy tuzilishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	80
3.2.	Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan foyda solig'i va uning o'ziga xos jihatlari.....	94
3.3.	Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos jihatlari.....	108
3.4.	Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan aksiz solig'i va uning o'ziga xos jihatlari	128
3.5.	Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning o'ziga xos jihatlari	135
3.6.	Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, maxsus to'lovlar va ularning o'ziga xos jihatlari.....	139

IV bob Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mahalliy soliqlar va yig‘imlar..... 143
4.1. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi..... 158
4.2. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mol-mulk solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari..... 161
4.3. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i va uning o‘ziga xos jihatlari 165
4.4. Kichik biznes subyektlari tomonidan to‘lanadigan mahalliy yig‘imlar va ularning o‘ziga xos jihatlari 169
V bob Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi va uni qo‘llash tartibi..... 173
5.1. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritish tartibi va ularni amal qilish shartlari..... 177
5.2. Yagona soliq to‘lovi obyekti, subyektlari va soliq stavkalari..... 198
5.3. Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlar guruhi va ulardan foydalanish yo‘nalishlari..... 204
5.4. Yagona soliq to‘lovini hisoblash, hisobotlar topshirish va budjetga to‘lash tartiblari..... 251
5.5. Yagona yer solig‘i obyekti, subyektlari va soliq imtiyozlari. 266
VI bob O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning dolzarb vazifalari..... 272
6.1. Tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari..... 276
6.2. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari... 281
6.3. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos jihatlari..... 289
VII bob Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini optimallashtirish..... 290
7.1. Soliq yuki tushunchasi bo‘yicha nazariy qarashlar..... 299
7.2. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini aniqlash uslublari..... 308
7.3. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirish istiqbollari..... 315

VIII bob Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning xorij tajribalari..... 322
8.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning xorij tajribalari tavsifi..... 322
8.2. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari..... 328
Fan bo'yicha asosiy tushinchalarga sharhlar..... 335
Fan bo'yicha masalalar to'plami..... 344
Fan bo'yicha test topshiriqlari..... 356
Fan bo'yicha tarqatma materiallar..... 376

VAHOBOV ALISHER VASIQOVICH
SANAKULOVA BARNOGUL RIZAQULOVNA

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH

Darslik

Muharrir **E. Bozorov**
Badiiy muharrir **M. Adilov**
Kompyutyerda sahifalovchi **U. Raxmatov**

Nashr.lits. AI № 174. Bosishga ruxsat etildi 30.12.2013.
Qog'oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Hisob-nashr tabog'i 24,25 b.t.
Adadi 200 dona. 31-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy

ISBN 978-9943-13-478-2

